**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA’LIM FAN VA INOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

KARIMOVA A.M., NIYOZOV Z.D.

TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISH

DARSLIK

SAMARQAND-2024

UO‘K: 336.713(575.1)(075)
K 25
KBK: 65.9(2)262ya73

Karimova A.M., Niyozov Z.D.
Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish [Matn]: **Darslik** / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2024 - 360 bet.

Darslikda tijorat banklari aktivlari va passivlarining tarkibiy tuzilishi va ularni boshqarish zarurligi, tijorat banklari riskli aktivlarini boshqarish, tijorat banklarining investitsion operatsiyalarini boshqarish, tijorat banklari aktiv va passivlarini tezkor va strategik rejalashtirish, tijorat banklari kapitalini boshqarish, tijorat banklari emission operatsiyalarini boshqarish va tijorat banklari depozitlarini boshqarish, shuningdek banklararo kredit resurslari bozori, moliya va elektron pul bozorlari aktivlarini boshqarish kabi nazariy, metodologik va huquqiy-me’yoriy asoslari batafsil yoritib berilgan. Har bir bobdan so‘ng qisqacha xulosalar, tayanch so‘zlar va iboralar, o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar keltirilgan.

Darslik oliy o‘quv yurtlari 70410601-Bank ishi mutaxassisligi magistrantlari uchun muljallangan. Undan soha professor-o‘qituvchilari, magistr, tadqiqotchi va amaliyot xodimlari, shuningdek bank sohasiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Rustamov M.S. - Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti “Bank ishi” kafedrasi mudiri i.f.n., dotsent.

Pardayev O.M. - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Bank ishi” kafedrasi i.f.d., professor.

Darslik Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti O‘quv uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan, 2024-yil 4-noyabrdagi 4-sonli yig’ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

ISBN: 978-9910-702-59-4

© Karimova A.M., Niyozov Z.D., SamISI 2024
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2024

MUNDARIJA

KIRISH 7

1-bob. “TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISH” FANINING PREDMETI, METODI VA VAZIFALARI 10

1.1. Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarish fanining predmeti, tarkibi va yo‘nalishi 10

1.2. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi 16

1.3. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning nazariy asoslari..... 18

2-bob. TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI VA PASSIVLARINING TARKIBIY TUZILISHI VA ULARNI BOSHQARISH ZARURLIGI 28

2.1. Tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzilishi 28

2.2. Tijorat banklari passivlarining tarkibiy tuzilishi 33

2.3. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishning zarurligi 38

2.4. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va rivojlantirishning zamonaviy bosqichida tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar 40

3-bob. TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISH TAMOILLARI VA USULLARI. AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI 46

3.1.Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish tamoillari..... 46

3.2. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish usullari 49

3.3. Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari.... 53

3.4. Tijorat banklari passivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari.. 56

4-bob. TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI TA’MINLASH VA UNI BOSHQARISH 63

4.1.Tijorat bankining likvidliligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar..... 63

4.2. Tijorat banklarining likvidliligiga ta’sir etuvchi omillar..... 66

4.3. Tijorat banklarining likvidliligini ta’minlash yo‘llari 70

4.4. Tijorat banklarining likvidliligini boshqarish usullari 72

5-bob. TIJORAT BANKLARI RISKLI AKTIVLARINI BOSHQARISH 79

5.1. Tijorat banklari aktivlarini risk darajalariga ko‘ra turkumlanishi ..79

5.2. Tijorat banklari riskli aktivlarini boshqarish usullari 81

6-bob. TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI. TIJORAT BANKINI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISH 99

6.1. Bankning kredit siyosati, unga qo‘yiladigan talablar va kredit siyosatini mezonlari.....99

6.2. Tijorat banklari kredit siyosatida kreditlarni daromadliligini oshirish, ularni risk darajasini boshqarishga qo‘yiladigan talablar va kredit siyosatida kreditlarni garov ta’minotiga qo‘yiladigan talablar 104

6.3.Tijorat bankini kredit portfeli tushunchasi va uni tashkil etilishi. kredit portfelini sifatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va kredit portfelini diversifikatsiya qilish zarurligi.....109

6.4. Muammoli ssudalar va ularni boshqarish, kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar zaxirasini tashkil qilish tartibi.....116

7-bob. TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION OPERATSIYALARINI BOSHQARISH 127

7.1.Tijorat banklari investitsion operatsiyalarini mazmuni va zarurligi 127

7.2. Banklarni investitsion operatsiyalarini boshqarish tamoillari.....130

7.3. Tijorat banklari investitsiya portfelini sifatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.....132

7.4. Tijorat banklarida investitsion operatsiyalarini boshqarish usullari 134

8-bob. TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARINI TEZKOR VA STRATEGIK REJALASHTIRISH 141

8.1. Tijorat banklari aktiv va passivlarini tezkor va strategik rejalashtirishni mohiyati 141

8.2. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini tezkor va strategik rejalashtirish 142

8.3. Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni rejalashtirish 147

8.4. O‘zbekiston tijorat banklarida tezkor va strategik rejalashtirishni takomillashtirish 150

9-bob. TIJORAT BANKLARI KAPITALINI BOSHQARISH..... 154

9.1. Bank kapitalini tashkil qiluvchi asosiy elementlarni tavsifi 154

9.2. Bank kapitali etarliligi va unga nisbatan o‘rnatilgan me’yorlar... 160

9.3. Bank kapitalini oshirishning asosiy manbalari. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha xalqaro talab va standartlar (Bazel III) hamda ulardan O‘zbekiston bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlari 161

9.4. Tijorat banklari kapitalini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari va usullari 171

9.5. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va rivojlantirishning zamonaviy bosqichida tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar 174

10-bob. TIJORAT BANKLARI EMISSION OPERATSIYALARINI BOSHQARISH. TIJORAT BANKLARI DEPOZITLARINI BOSHQARISH 179

10.1. Tijorat banklarini emission faoliyati 179

10.2. Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog’ozlarni muomalaga chiqarish tartibi..... 182

10.3. Tijorat banklarining emission operatsiyalarini boshqarish usullari 191

10.4. Tijorat banklari depozitlarining zarurligi va banklar faoliyatida tutgan o‘rni 195

10.5. Tijorat banklari depozit bazasining etarliligi, uni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va uni boshqarish 198

11-bob. BANKLARARO KREDIT RESURSLARI BOZORI..... 208

11.1. Banklararo kredit resurslari bozorining mazmuni va tarkibi 208

11.2. Banklararo kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari..... 212

11.3. Banklararo kredit resurslari bozoriga Markaziy bank pul-kredit siyosatining ta’siri 219

12-bob. TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH 227

12.1. Bank faoliyatida aktiv va passivlarini shakllantirish bilan bog'liq risklar va ularning turlari.....227
12.2. Kredit risklari va ularni kelib chiqish sabablari 235
12.3. Bank risklarini boshqarish usullari.....238
13-bob. MOLIYA VA ELEKTRON PUL BOZORLARI AKTIVLARINI BOSHQARISH 245
13.1. Moliya bozori va uning segmentlari.....245
13.2. Elektron pul bozori tushunchasi va unda to'lovlarni amalga oshirish tartibi.....248
13.3. Elektron pullar muomalasini boshqarish usullari.....251
14-bob. TIJORAT BANKLARINING FOIZ SIYOSATI VA UNI BOSHQARISH.....268
14.1. Tijorat banklari foiz siyosatining mohiyati va unga ta'sir qiluvchi omillar 268
14.2. Tijorat banklari amaliyotida foydalaniladigan foiz stavkalari, ularning asosiy turlari va boshqarish usullari.....270
14.3. Xorijiy davlatlar bank amaliyotida foiz stavkalarini shakllantirish tajribasi.....273
15-bob. TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI BOSHQARISH. TIJORAT BANKLARI FOYDASI VA UNI TAQSIMLASH.....280
15.1. Tijorat bankining daromadlari, ularni tuzilishi, tarkibi va boshqarish. Tijorat banklari foizli va foizsiz daromadlari 280
15.2. Tijorat bankining xarajatlari, ularning tuzilishi va tarkibi. Tijorat banklari foizli va foizsiz xarajatlar.....288
15.3. Tijorat banklari foydasining mohiyati.....293
15.4. Banklarda sof foydaning darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.295
15.5. Tijorat banklarining sof foydasi miqdori va uning darajasiga ta'sir qiluvchi omillar 297
GLOSSARIY 307
"TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARNI BOSHQARISH" FANIDAN TESTLAR.....316
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....356

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashuvi bank xizmatlarini samarali boshqarish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Tijorat banklari bank tizimining muhim bo‘g’ini bo‘lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig’iladi hamda banklar huquqiy va jismoniy shaxslarga o‘z xizmatlarini ko‘rsatadilar. O‘zbekistonda mustaqillikka erishilganidan so‘ng iqtisodiyotni moliyalashtirish manbai sifatida asosiy e’tibor bank kreditlariga qaratildi. Aynan banklar aholi, korxona va tashkilotlar, shuningdek, davlat mablag’larini kredit asosida jalb qiluvchi muassasa sifatida iqtisodiyotning real sektoriga ulkan sarmoya kiritdilar. Pul (qarz) bozorining eng katta ulushi (98 %) kreditlarga to‘g’ri kelib, ularning o‘rtacha stavkasi (so‘mda 28 %–30 %, valyutada 9%–10 %) edi.[1] Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining bozor munosabatlari sub’yektlari bilan aloqasi yanada kengaydi va chuqurlashdi. Bank bu holda barcha mablag’larning harakatini boshqarib boradi. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi uning raqobat sharoitida muvaffaqiyatli faoliyatini taminlaydi. Agarda moliyaviy barqarorlik puxta o‘ylanib, ishonchli hisob-kitoblar asosida amalga oshirilib borilsa, banklar faoliyati samaradorligi yanada oshadi.

Mamlakatimizda bank kapitalining asosiy qismi davlatga tegishli ekanligi bank tizimidagi asosiy muammolardan biridir. Uning bank sektorida sog’lom raqobatga, xizmat ko‘rsatish sifatiga birmuncha ta’siri sezilmoqda. Xalqaro moliya institutlari ko‘magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilmoqda. Bank tizimiga xususiy va xorijiy karital kirib kelishi hisobidan davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib borilishi sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qilishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Umuman olganda bank

[1]Z.D.Niyozov. Qimmatli qog’ozlar bozorida - vekselni muomalaga kiritishning iqtisodiy axamiyati. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali. Journal Human capital and social development. Журнал Человеческий капитал и социальное развитие. 2024 - volume 10, issue 4 150 b.

tizimining barqarorligini taminlashda tijorat banklarining o‘rnini oshirishda quyidagilar muhim hisoblanadi:

birinchidan, bank sektorida davlatning yuqori darajada aralashuvi natijasida davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchilikni boshqarishning samarali tizimini takomillashtirish;

ikkinchidan, moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning har bir hududga kirib borishini yanada oshirish;

uchinchidan, bank tizimiga xalqaro amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni ko‘proq jalb etish;

to‘rtinchidan, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash orqali kreditlash hajmlari o‘sishining mo‘tadil darajasini ta’minlash;

beshinchidan, banklarning karitaliga qo‘shimcha ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishni yanada kengaytirish.

Shu bilan birga, bank sektorida raqobat kuchaymoqda, bank xizmatlariga aholi va tadbirkorlar tomonidan talab oshmoqda. Bu sohada transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, kelgusi yillar uchun ustuvor vazifalarni belgilab olishni taqozo etayotir.

Xususan, davlat ulushiga ega banklarni xususiylashtirishga tayyorlash, ularning qimmatli qog’ozlarini “IPO”ga chiqarish, sohaga tajribali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish” bo‘yicha takliflar 2023 yil 20 noyabrda bo‘lib o‘tgan silektor yig’ilishida Respublikamiz Prizidenti tomonidan bildirildi.[2]

Bu o‘z navbatida tijorat banklari faoliyatidagi holat, ularning aktiv va passivlarini qay darajada samarali boshqarilayotganligi o‘rganish, tahlil qilish va boshqarish usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Soha mutaxassisi tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarish usullarini mukammal bilagandagina bank faoliyatini samarali boshqara oladi. Bu borada «Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish» fani soha mutaxassislari uchun dasturamal vazifasini bajaradi.

“Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” ***fanining asosiy***

[2] Prezident Shavkat Mirziyoev 2023 yil 20 noyabr kuni bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari muhokamasi bo‘yicha silektor yig’ilish

maqsadi – tijorat banklari aktiv va passivlarini shakllantirish, samarali boshqarishni tashkil etish, tijorat banklarining aktiv va passivlari monandligini (adekvatligini) ta’minlash, likvidlilik va rentabellikni boshqarish usullarini tadbiq qilish, tijorat banklari aktiv va passivlarini operativ va strategik rejalashtirish, innovatsion xizmatlarni tadbiq qilish masalalarini o‘rgatish bo‘lib hisobalanadi.

“Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” ***fanining vazifasi*** – tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishda depozit siyosati va uni takomillashtirish, tijorat banklari aktiv va passivlarini strategik boshqarish va tijorat banklari resurslari va ulardan samarali foydalanish yo‘llari, tijorat banklari kapitalini boshqarish, qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish, banklararo kredit resurslari bozori, va passivlarini jalb qilish mexanizmi, tijorat banklari o‘z mablag’lari va ularning tarkibi, jalb qilingan mablag’lar va ulardan samarali foydalanish, bank aktiv va passivlarini boshqarish metodlari, bank aktivlari va passivlarini boshqarishning direvativ qurollari, tijorat banklari resurslari bilan bog’liq risklarni boshqarish haqida nazariy-amaliy bilimlarni “Bank ishi” mutaxasisligi magistrlarga o‘rgatishdan iborat.

Darslikdan bank-moliya tizimida islohotlarni olib boruvchi tashkilotlar, bank-moliya tizimini takomillashtirish hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga oid muammolar va masalalarni o‘rganuvchi va tadqiq qiluvchi moliyaviy institutlar, bank tizimi mutaxassislari, ilmiy izlanishlar, pedagogic faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, doktorantlar va magistrantlar hamda talabalar uchun foydali bo‘ladi deb umid qilamiz.

1-bob. “TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISH” FANINING PREDMETI, METODI VA VAZIFALARI

1.1. Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarish fanining predmeti, tarkibi va yo‘nalishi

Bozor iqtisodiyoti qonun qoidalaridan kelib chiqib, barcha sohalar kabi bank-moliya tizimiga ham bozor munosbatlari nuqtai nazardan yondashish talab qilinadi. Aynan bugungi kunda bank-moliya tizimida bunday yondoshuvda ba’zi bo‘shliqlar borligi, ya’ni bozor tomoyillariga mos kelmaslik holatlari mavjudligi ko‘rinib qolmoqda.

Shu bois mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida to‘xtalib: ***“...Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo – ular kapitalining asosiy qismi, ya’ni, 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o‘z navbatida, bank sektorida sog’lom raqobatga to‘siq bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sifatiga salbiy ta’sir qilmoqda.***

Hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko‘magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishi lozim. Bunda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi...”[3]***- degan edi.***

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg’or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g’risida”gi hamda “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g’risida”gi yangilangan qonunlari 2019 yilda qabul qilindi.

[3] Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.T.2019 yil.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi lozim.

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta’minlash, Suningdek, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda inson omili ta’sirini kamaytirish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar ko‘rish talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, Suningdek, xususiy sektor rivojlanishini rag’batlantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini, bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish uchun bank sektorini tubdan transformatsiya qilish maqsadida:

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasida bank sektorini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

– moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko‘rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, suningdek, banklar faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish;

– kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun

texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash;

– davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlov asosida sotish, suningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarni bir vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish;

– yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog’ini rivojlantirish, suningdek, respublika yagona moliya tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish.

2. Quyidagilar:

– 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasining ilovasi ishlab chiqildi;

– O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” muvofiq tasdiqlandi.

3. 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha, Shu jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi maqsadli ko‘rsatkichlar belgilandi:

– bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo‘lmagan banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish;

– banklar majburiyatlarining umumiy hajmida banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlari ulushini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;

– 2025-yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitallariga zarur tajriba, bilim va obro‘ga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;

– umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari ulushini joriy 0,35 foizdan 2025-yilga kelib 4 foizgacha oshirish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bankining quyidagilar to‘g’risidagi takliflari ma’qullash:

– xalqaro moliya institutlari ko‘magida “Ipoteka-bank” ATIB, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Asaka” ATB, AT “Aloqabank”, “Qishloq qurilish bank” ATB va “Turonbank” ATBdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, bunda birinchi bosqichda ularni institutsional o‘zgartirishni (faoliyatini transformatsiya qilish), ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini sotishni nazarda tutish;

– bank tizimini isloh qilish davrida aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmini (“loyihalar fabrikasi”) keng joriy qilish, bank xizmatlarining hududiy qamrovini ta’minlash maqsadida “Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ, “Agrobank” ATB va “Mikrokreditbank” ATB ustav kapitallarida davlat ulushini saqlab qolish;

– ayrim banklarning faoliyatini diagnostika qilish va moliyaviy ahvolini baholash asosida, me’yoriy talablaridan hamda ularni qayta tashkil etishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda qonun hujjatlariga muvofiq ularni konsolidatsiyalash.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida vazirlikning tasdiqlangan shtatlar soni doirasida Davlat ulushiga ega tijorat banklarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish bo‘yicha loyiha ofisi tashkil etilsin hamda unga quyidagi huquqlar berilsin:

– tijorat banklarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlariga maslahatchi sifatida xalqaro konsultantlarni jalb qilish;

– tijorat banklarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish masalalarida xalqaro moliya institutlari va salohiyatli xorijiy investorlar bilan muzokaralar olib borish va bitimlar tuzish.

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligi 2024-yildan kechiktirmay Xalqaro valyuta jamg’armasi va Jahon banki dasturi (FSAP) asosida moliyaviy sektor holatini baholashni o‘tkazish choralarni ko‘rsin.

7. Vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari tomonidan banklarning, Shu jumladan kredit portfeli va bank aktivlarini shakllantirish bilan bog’liq tadbirkorlik tavakkalchiliklarini boshqarish faoliyatiga aralashish taqiqlash.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi banklar va bank faoliyati to‘g’risidagi qonunchilikning banklar faoliyatiga davlat organlarining ma’muriy aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik qismi ijro etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish[4] vazifalarini o‘rganish va chuqur tahlil qilish hamda amaliyotda qo‘llash fanning dolzarb vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish fanining predmeti – bu pul mablag’larini jalb qilish va ularni joylashtirishni tartibga solish yo‘llari va usullari to‘g’risida bilimlar majmuasidir. Bankni foyda darajasi barqarorligini ta’minlash va ko‘zda tutilmagan risklarni minimallashtirish maqsadida balansning aktivlari va passivlarini tegishli moddalarini doimo bir-biriga taqqoslab borishi zarurligi. Ushbu taqqoslash tijorat banklari aktivlari va passivlarini tegishli usullar, mezonlar va me’yorlarni qo‘llab boshqarish orqali amalga oshirilishi bo‘lib hisoblanadi.

Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish – bu bankning foyda darajasini pasaytirmasdan likvidlikni ta’minlashga qaratilgan usullar va tartiblar yig’indisi bo‘lib, bankning moliyaviy barqarorligi va majburiyatlarini bajarishga va uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy jarayondir. Xalqaro va mahalliy moliya bozorlarida ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tijorat banklarni aktiv va passivlarinig tashkiliy-huquqiy asoslari va usullarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda.

Bank faoliyatini boshqarishning usullarini doimiy takomillashtirimasligi oqibatida, nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar, balki rivojlangan mamlakatlar banklari ham iqtisodiy inqirozga yuz tutishi tabiiydir. Buni XX asrning ikkinchi yarmida Osiyo, Lotin Amerika, G’arbiy Evropa, Rossiya moliya tizimi hamda, 2008 yil sentyabrda AQSH moliya tizimida bo‘lib o‘tgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar dunyo iqtisodiyotini rectesiyaga tushganligiga yaqqol misol bo‘la oladi.

Tijorat banklarning aktiv va passivlarini boshqarishni zamonaviy vositalarini aniqlanishi va bank amaliyotiga tatbiq etilishi ularning faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi. Ammo keyingi yillarda bu sohada hali echilishi lozim bo‘lgan masalalar talaygina bo‘lib. Buning asosiy sabablari, xalqaro va mahalliy banklar

[4] 2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni

amaliyotida tijorat banklarni resurslarini boshqarish masalasi etarlicha o‘rganilmaganligidadir. Bunga qator ob’ektiv va sub’ektiv sabablar mavjud.

Birinchidan, 1950–1960 yillarda iqtisodiyotda va xalqaro moliya bozorlarida arzon moliyaviy resurslarning etarli darajada mavjudligi banklar uchun resurslarni izlab topish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha muammolar tug’dirmaganligi.

Ikkinchidan, mavjud iqtisodiy sharoit tijorat banklariga mijozlar va aholining bo‘sh pul mablag’larini muddatli depozitlarga past foizlar asosida jalb qilish imkoniyatini bergan. Banklar, ushbu yo‘l bilan jalb qilgan arzon mablag’lar hisobidan etarli darajada daromadlarni shakllantirganlar, bu o‘z navbatida, ularda resurslarni boshqarish ehtiyojini keltirib chiqarmagan, chunki muddatli depozitga jalb qilingan mablag’lar tijorat banklariga barqaror kredit resurslari bazasini yaratish va barqaror foyda olish uchun xizmat qilgan.

Uchinchidan, tijorat banklar hukumat va Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan ishonchli va yuqori foizli qimmatli qog’ozlarga ega bo‘lishi ularning qo‘shimcha moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarini zudlik bilan qondirish imkoniyatini bergan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaraga erishishda banklarning resurslarini samarali boshqarish muhim o‘rin tutadi. Tijorat banklarni moliyaviy barqaror resurslar bilan ta’minlash muammosi bank resurslarini boshqarish zaruriyatini keltirib chiqargan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

“Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarish” fani bo‘yicha yaratilgan ushbu darslikda tijorat banklarning aktiv va passivlarini boshqarishni ilmiy-nazariy va metodologik jihatlari o‘z aksini topgan.

Fanning metodologiyasi darslikning kelgusi boblarida yondoshuvlar prinsiplar, yo‘nalishlar tushunchalar orqali batafsil o‘z aksini topgan. Unda tijorat banklarning aktiv va passivlarini boshqarishni amaliy jihatlarini yoritishga alohida e’tibor qaratilgan.

“Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarish” fani ikki yo‘nalishdan iborat, moliyaviy resurslarni jalb etish va ularni samarali joylashtirish. Ushbu resurlarni joylashtirishda uchta mezon inobatga olingan;

1-foyda;
2-likvidlilik;

3- risk.

Suningdek, darslikda mazkur fanning tijorat banklari faoliyatini boshqarishni tashkil qilishning umumiy asoslari, tijorat banklarning moliyaviy resurslari va ularni tashkil qilishning umumiy jihatlari, tijorat banklarning kapitalini boshqarish, bank majburiyatlarini boshqarish, tijorat banklarni kredit portfelini boshqarish, tijorat banklarningi resurslari bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish, tijorat banklarni moliyaviy resurslarini strategik boshqarish, tijorat banklarni resurslari va ulardan samarali foydalanish yo‘llari kabi masalalarini o‘zida qamrab olgan.

1.2. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarorida tijorat banklari faoliyatiga umum e’tirof etilgan zamonaviy me’yorlar, standartlar va baholash ko‘rsatkichlarini joriy qilish, bank-moliya tizimini xalqaro reyting tashkilotlari baholashi asosida baholash ko‘rsatkichlarini yanada takomillashtirish, bank nazoratining xalqaro prinsiplari asosida tijorat banklari kapitalining etarliligi, likvidliligi va barqarorligi bo‘yicha talablarni bajarilishini ta’minlash, Bazel qo‘mitasining talablarini hisobga olgan holda bank risklarini baholash va boshqarish tizimini takomillashtirish vazifalari qo‘yilgan.

Yuqorida qayd etilgan yuqori darajadagi talablar “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanini o‘qitishga nisbatan mezonlarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

“Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanining asosiy maqsadi – tijorat banklari aktiv va passivlarini shakllantirish, samarali boshqarishni tashkil etish, tijorat banklarining aktiv va passivlari monandligini ta’minlash, likvidlilik va rentabellikni boshqarish usullarini tadbiq qilish, tijorat banklari aktiv va passivlarini operativ va strategik rejalashtirish, innovatsion xizmatlarni tadbiq qilish va ushbu yo‘nalish bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lib hisoblanadi:

1. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini o‘rgatish.

2. Tijorat banklari aktivlarini boshqarish prinsiplari va usullarni o‘rgatish;

3. Banklar majburiyatlarini boshqarish prinsiplari va usullarini o‘rgatish;

4. Tijorat banklari kapitalini boshqarish prinsiplari va usullarini o‘rgatish;

5. Bank risklarini baholash va boshqarishni o‘rgatish;

6. Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishni o‘rgatish;

7. Tijorat banklarining daromad va xarajatlarini boshqarishni o‘rgatish;

8. Tijorat banklarni risklardan himoyalash:

9. Tijorat banklari daromadlarini boshqarish va foydasini taqsimlashni o‘rgatish.

“Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fani magistratura mutaxassisligida o‘qitiladigan “To‘lov tizimi va bank xafsizligi”, “Bank risklari”, “Monetar siyosat”, “Xalqaro valyuta operatsiyalari”,”Banklarda korporativ boshqaruv”, “Bank faoliyatining moliyaviy barqarorligi va rivojlanishi istiqbollarini baholash” va umummetodologik fanlarning uzviy davomidir.

“To‘lov tizimi va bank xafsizligi” fanida tijorat banklari aktivlari va passivlarining shakllanishida to‘lovlar va ularning xafsizligi, ulardan foydalanish samaradorligini baholash yo‘llari, banklarning kredit va foiz siyosati, tijorat banklarining likvidliligi va uni ta’minlashda bank xafsizligining yo‘llari, bank mijozlarini moliyaviy mablag’larini noqonuniy o‘zlashtirishdan himoyalashni o‘rganiladilar.

“Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fani “Xalqaro valyuta operatsiyalari” fani bilan uzviy bog’liqdir. Buning sababi shundaki, hozirgi davrda jahon valyuta bozorlaridagi konversion operatsiyalarning 90 foizdan ortiq qismi sakkizta etakchi valyutada amalga oshirilmoqda. Bular – AQSH dollari (USD), evro (EUR), Yaponiya ieni (JPY), Buyuk Britaniya funt sterlingi (GBP), Shveysariya franki (CHF), Kanada dollari (CAD), Avstraliya dollari (AUD), Xitoy yuani (CNY). Ushbu valyutalardan 5 tasi Xalqaro valyuta fondi (XVF) tomonidan beriladigan xalqaro rezerv valyuta (reserve currency) maqomiga ega: AQSH dollari, EI evrosi, Yaponiya ieni, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Xitoy yuani.[5] va hozirgi davrda bank ishi yuqori darajada rivojlangan uch markazning mavjudligi

[5] Т.И. Бобакулов, Ж.Я. Исаков, У.А. Абдуллаев, И.М. Алимардонов, Н.К. Абраев. Дарслик. “Халқаро валюта операциялари ва халқаро ҳисоб-китоблар”. Т .2018 й. 6 бет

yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi. Bular: AQSH, Yaponiya va G’arbiy Evropa. Mazkur markazlarning tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish borasidagi tajribasini o‘rganish O‘zbekiston bank tizimini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

“Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fani “Monetar siyosat nazariyasi” fani bilan uzviy bog’liqdir. Chunki, “Monetar siyosat nazariyasi” fanida Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini monetar siyosat instrumentlari orqali tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganiladi. Jumladan, tijorat banklarining likvidliligiga majburiy zaxira va ochiq bozor siyosatlari orqali ta’sir etish, banklarni qayta moliyalash siyosati doirasida kreditlash masalalari chuqur o‘rganiladi.

“Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fani “Bank risklari” fani bilan chambarchas bog’liqdir. Xususan, tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bilan bog’liq bo‘lgan risklarni baholash va boshqarish usullari “Bank risklari” fanida batafsil o‘rganiladi. Holbuki, tijorat banklari aktivlarining daromadliligi va risk darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

1.3. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning nazariy asoslari

Tijorat banklarida aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarish borasida iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi, quyida birqator soha mutaxasislarining nazariy va amaliy qarashlarini o‘rganamiz:

xususan; - xorijlik iqtisodchi olim D.Xogan – turli so‘rovnoma usullari yordamida, uzoq muddatli omonatlarga ega mijozlar, ularning qarz va obligatsiya portfelining hajmi va tarkibi, ularning kapital va daromadning maqbulligi o‘rtasidagi aloqa mavjudligini ko‘rsatgan. Uning asosiy xulosasi shundan iboratki, bank uchun ssuda bo‘yicha xarajatlar o‘rtacha omonatlar miqdori va ular bankda saqlanadigan vaqt bilan belgilanadi. D.Xogenning fikriga ko‘ra, banklar nafaqat aktiv portfeli tarkibini, balki omonat/ssuda nisbatini boshqarishi kerak, bunda boshqaruv jarayoni statik emas, balki dinamik tavsifga ega bo‘lishi lozim, deb hisoblaydi. [6]

[6] Hogan D. Commercial Bank Loan and Investment Policy. University of Illinois, 1963.

Xususan, xorijlik iqtisodchi olim U.Sharp esa keyingi tadqiqotlar uchun boshlang'ich nuqtasi sifatida G.Markovits tadqiqot natijalari ishlatiladi, tadqiqot jarayonida u Markovits modelining moliyaviy aktivlar narxlariga ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Har bir riskli aktivning talab va taklifini muvozanatlashtirish maqsadida moliyaviy aktivlarning narxi istalgan vaqtda o'zgarishini faraz qilib, u riskli aktivlar bo'yicha kutilayotgan daromadlarning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lishi kerakligini ko'rsatadi[7] .

Shuningdek, iqtisodchi olim S.M. Ilyasov quyidagi ta'rifni beradi: "Aktiv va passivni boshqarish jarayoni ruhsat etilgan maksimal miqdordagi resurslar (o'z va qarz mablag'lari)ni jalb qilish va ularni likvidlik darajasiga va cheklangan risk darajasiga ega eng foydali aktivlarga joylashtirishga qaratilgan"[8].

Shunga o'xshash g'oyani iqtisodchi olim E.V. Velik ham ilgari suradi: "... aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy maqsadi kredit muassasasining to'lov qobiliyati va likvidligini ta'minlashda kiritilgan kapitaldan qisqa va uzoq muddatda maksimal darajada foyda olishdan iborat"[9].

Iqtisodchi V.Yu.Polushkin quyidagilarni qayd etadi: "Aktiv va passivlarni boshqarish moliyaviy menejmentning ajralmas qismi bo'lib, bank institutlarining moliyaviy risklarini minimallashtirga imkon beradi". Bu ta'rif xorijiy mualliflarning talqiniga yaqin, chunki aktiv va passivni boshqarishga bo'lgan munosabat risklarni minimallashtirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Yana V.Yu.Polushkinning fikricha, "Bank operatsiyalarining barqaror daromadligini ta'minlash maqsadida samarali va muvozanatlashgan holda aktiv va passivni boshqarish bankning moliyaviy holati va kreditga layoqatliligini yakuniy baholash darajasini oshiradi"[10].

Iqtisodchi olima I.V. Larionovaning nuqtai nazari ham biz uchun qiziq bo'lib, uning fikricha, bankning aktiv va passivini boshqarish risk va daromadlilik o'rtasidagi aloqani etarli tushunishdan iborat va bankning balans tarkibini boshqarishni; atrof-muhit parametrlariga ko'ra balans tarkibidagi operativ o'zgarishlar; moliyaviy strategiyada

[7] Sharpe W.F. Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk// Journal of Finance. 1964. September. P.425-442.

[8] Ильясов СМ. Управление активами и пассивами банков. // Деньги и кредит, 2000. №5. С.20

[9] Велик Е.В. Реинжиниринг процесса управления активами и пассивами. // Бухгалтерия и банки, 2001. №9. С.36

[10] Полушкин В.10. Анализ стабильности управления активными и пассивными операциями в коммерческом банке. // Бухгалтерия и банки, 2001. №1. С.40

belgilangan risk qiymatlari doirasida foydani maksimallashtirishni o‘z ichiga oladi[11] .

F.Owusu va A.Alhassan kabi iqtisodchilar Ganadagi 27 ta banklarning 2007-2015 yillar amaliy ma’lumotlari asosida aktiv passivlarni boshqarish bilan foyda o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun Statistik xarajatlar hisobi (Statistical Cost Accounting (SCA)) modelidan foydalangan. Olingan ilmiy natijalar statistik xarajatlar hisobi modelining to‘g’ri qo‘llanilganligini hamda Gana banklari foydasi banklar balans moddalariga bog’liqligini ifodalaydi. Shuningdek, olingan natijalar mahalliy banklar xorijiy banklarga qaraganda yuqori aktivlar qaytimiga ega bo‘lmoqda. Bundan tashqari, yuqori aktivlar qaytimiga ega bo‘lgan mahalliy banklarda passivlarning ham yuqori tannarxi mavjudligi va bu umumiy aktivlar rentabelligini pasaytirib yuborishi aniqlangan. Ularning fikricha yuqoridagi modelni qo‘llash orqali bank rentabelligini oshirishda o‘rni yuqori bo‘lgan aktivlarni aniqlash va aktiv-passivni samarali boshqarishda qo‘l kelishi taklif qilingan[12].

Lorella Fatone va Francesca Mariani kabi Italiyalik iqtisodchilar bankda tizimli risk muammosini bank aktiv-passiv dinamik modelida ko‘rib chiqqan. Ularning fikricha, bank tizimining dinamikasi mustaqil o‘zgaruvchisi vaqt bo‘lgan va bog’liq o‘zgaruvchisi banklarning aktivlari va passivlari bo‘lgan stoxastik differensial tenglamalar tizimi uchun boshlang’ich qiymat muammosi bilan belgilanadi. Modelning asosiy xususiyatlari banklar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmi va pul-kredit organining bank tizimi dinamikasiga (to‘g’ridan-to‘g’ri) aralashuvi imkoniyatini beradi. Cheklangan vaqt oralig’ida tizimli risk ehtimoli statistik simulyasiya yordamida baholanadi. Tizimli risklarni boshqarish ikki berilgan chegaralar orasidagi cheklangan vaqt oralig’ida tizimli risk ehtimolini ushlab turish maqsadini ko‘zlaydi. Pul-kredit organi risklarni tizimli boshqarish uchun javobgardir va boshqaruv o‘ziga xos "ideal bank"ning aktivlari va passivlarini vaqt funksiyalari sifatida tanlash va banklar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmini tartibga soluvchi qoidalarni tanlashdan iborat. Boshqaruv tizim banklarini o‘zini "ideal bank" kabi tutishga undaydi. Banklarning aktivlari yoki passivlariga ta’sir etuvchi shoklar simulyasiya qilinadi. Bank tizimiga

[11] . Ларионова И.В. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. – М.: Консалтбанкир, 2003. С.5.

[12] Owusu, F. B., & Alhassan, A. L. (2021). Asset-Liability Management and bank profitability: Statistical cost accounting analysis from an emerging market.International Journal of Finance & Economics,26(1), 1488-1502.

ta’sir etuvchi shok mavjud bo‘lganda va bo‘lmaganda tizimli risklarni boshqarishning raqamli misollari o‘rganilgan[13].

Larissa Batrancea moliya bozoridagi o‘zgarishlarning rivojlangan davlatlar banklarining aktiv-passivini boshqarish mexanizmiga ta’sirini o‘rgangan. Xususan, Evropa, AQSH, Isroil va Kanada davlatlarida faoliyat olib borayotgan eng muhim 45 ta tijorat banklarining 2006-2020 yillardagi statistik ma’lumotlari o‘rganilgan. Ya’ni iqtisodchi 2008 yildagi inqirozdan oldingi va undan keyingi davrlarda bank aktiv passivini samarali boshqarish bo‘yicha qiyosiy tahlil qilgan. 2008 yilgi moliyaviy inqiroz moliyaviy bozorlarga, ayniqsa bank tizimiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ipoteka bilan ta’minlangan garovga qo‘yilgan investitsiyalar naqd pulning katta tanqisligini aniqlagan sabablardan biri edi. Uning fikricha, krizisdan oldin AQSh banklari ushbu bozorlarda muhim investor hisoblangan, bu ularning aktivlari va majburiyatlari tuzilishidan dalolat bergan[14].

Panelning umumlashtirilgan momentli yondashuv usuli (Panel generalized method of moments approach) yordamida empirik natijalar bank aktivlari va passivlari nisbatlarining moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlariga kuchli ta’sirini ko‘rsatdi. Tadqiqotda ta’kidlanishicha, bank menejerlari, tadqiqotchilar, tartibga soluvchilar va nazorat organlari investitsiya siyosatini, ayniqsa, bank aktivlari va majburiyatlarini hisobga olishlari kerak. Shu sababli, bank foizli daromadining yuqori darajasi aktiv va passivlarni oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, foizli daromadlar pasayish tendensiyasiga kirganda, bank kreditlash faoliyatini rivojlantirishi yoki boshqa vositalardan foydalanishi zaruriyati yuzaga keladi.

C.Mendicino va boshqalar kapital etarliligi talablari va ularning bank aktiv va passivlarini boshqarishga ta’sirini Evropa Iqtisodiy hududi banklari misolida tahlil qilganlar. Ular o‘z oldilariga real iqtisodga ortiqcha xarajatlar yuklamasdan, kuchli va mustahkam bank tizimini ta’minlash uchun kapital talablarini qanchalik oshirish kerak kabi masalani qo‘yadilar. Kapitalga bo‘lgan talabning oshishi banklarni xavfsizroq qiladi va uzoq muddatda foydali bo‘ladi, lekin joriy xarajatlarini ham talab qiladi, chunki ularning kiritilishi kredit taklifini va yalpi talabni ta’sir qiladi. Miqdoriy makrobank modelining asosiy

[13] Fatone, L., & Mariani, F. (2019). An assets-liabilities dynamical model of banking system and systemic risk governance.arXiv preprint arXiv:1905.12431.

[14] Batrancea, L. M. (2021). An Econometric Approach on Performance, Assets, and Liabilities in a Sample of Banks from Europe, Israel, United States of America, and Canada.Mathematics,9(24), 3178.

ssenariysida uzoq muddatli farovonlik daromadlarining 25% joriy davri xarajatlari tufayli yo‘qotiladi. Pul kredit siyosatining mustahkamligi va bankning tavakkalchilik darajasi qisqa muddatli xarajatlar va kapitalga bo‘lgan talablarning o‘zgarishidan uzoq muddatli foyda o‘rtasidagi o‘zaro bog’liqlikning asosiy omillari hisoblanadi[15].

J.Berrospide va R.Edge kabi iqtisodchilar bank kapitaliga etarliligiga qo‘yilgan talablarning oshib borishi AQSh iqtisodiyotini ximoyalashini o‘rganish uchun tijorat banklari statistik ma’lumotlaridan foydalangan. Ushbu gepotezani amalda tekshirish uchun Federal Rezerv Banki tomonidan stress testlar o‘tkazilmoqda. Stress testlarning miqdoriy komponentlari kapital etarliligi orqali banklarning kreditlari hajmiga, umumiy qarzga, investitsiya xarajatlariga va bandlikka ta’sir impulsi ko‘rilgan. Ular shuni aniqlaganki, stress-test yuqori kapitali etarliliklari banklar kreditlarining sezilarli qisqarishiga olib keladi. Model natijalariga ko‘ra kapital etarliliklarining 1 foizga oshishi kreditlash salohiyatining 0,5 foizga qisqarishiga olib kelgan. Shuningdek, ular korxonalar investitsiyalari va ish bilan ta’minlanishiga stress testlari nazarda tutilgan kapital etarliliklari asosan ta’sir qilmasligini aniqlagan[16].

Professor Sh.Abdullaevaning fikriga ko‘ra, bank resurslarini shakllantirish bilan bog’liq operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Xalqaro bank amaliyotida passiv operatsiyalarning quyidagi to‘rtta shaklidan keng foydalaniladi:

– banklarning foydasidan fondlarni shakllantirish va ularni ko‘paytirishga ajratmalar;

– depozit operatsiyalar;

– yuridik shaxslardan olingan kredit resurslar;

– qimmatli qog’ozlar, pul biletlar va tangalarni muomalaga chiqarish (emissiya)[17].

Mamatov A.A. Tijorat banklarida passivlarini samarali boshqarish bilan bog’liq yana bir ko‘rsatkichlardan biri bu kredit operatsiyalariga qanchalik depozit mablag’lari jalb qilinishidir. Shuni ta’kidlash lozimki, rivojlangan davlatlardagi hamda xususiy sektordagi banklar kredit operatsiyalarini asosan depozitlaridan foydalanadi. Ushbu holatni

[15] Mendicino, C., Nikolov, K., Suarez, J., & Supera, D. (2020). Bank capital in the short and in the long run.Journal of Monetary Economics,115, 64-79.

[16] Berrospide, J.M., & Edge, R. M. (2019). The Effects of Bank Capital Buffers on Bank Lending and Firm Activity: What Can We Learn from Five Years of Stress-Test Results?

[17] Абдуллаева Ш.З.(2007). Пул, кредит ва банклар.-Т.: ”Молия”.

mamlakatmiz bank tizimi bo‘yicha tahlil qildik. Bunga ko‘ra 2017-yil 1-yanvar holatiga davlat ulushi mavjud banklarda kreditlarning depozitlarga nisbati 178,47 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil 1-yanvar holatiga kelib, 268,67 foizga etgan. Albatta bu bank tizimi uchun katta risk hisoblanadi. Ushbu jarayonlarda AT Ipotekabankning o‘rnini tahlil qilsak, unda 2017 yil 1 yanvar holatiga ushbu bankda kreditlarning depozitlarga nisbati 172,193 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil 1-yanvar holatiga kelib, 183,56 foizni takil qilgan.

Yuqorida ta’kidlaganidek, tijorat banklari kredit operatsiyalari uchun depozitlardan keng foydalanmas ekan, davlatning arzon moliyaviy resurslar bilan qo‘llab-quvvatlashiga o‘rganib qoladi va bu bozor raqobatlariga moslashishda muammolarga olib keladi. Bunga asos sifatida davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklarda kreditlarning depozitlarga nisbatini keltiradi. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklarda kreditlarning depozitlarga nisbati 67,33 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil 1-yanvar holatiga kelib, 89,16 foizga etgan.

Bundan shunday xulosa qiladiki, tijorat banklari passividan samarali foydalanish holatini baholashda passivlarning kreditlarga yo‘naltirish holati hamda bank kreditlarining depozitlarga nisbati kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, mamlakatimiz bank tizimida olib borilayotgan transformatsiya jarayonlari natijasida oxirgi yillarda tijorat banklarining passivlari, majburiyatlar, kapitali yuqori miqdorda o‘sib borayotganligi aniqlandi. Ammo davlat ulushi mavjud banklarda kreditlarning depozitlarga nisbati 3 barobarga yaqinlashishi ushbu banklar davlatning arzon resurslar bilan qo‘llab-quvvatlanishiga hamda bozor tamoyillari asosida raqobatga moslashishida muammolarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birgan AT Ipotekabank butun bank tizimida hamda davlat ulushi mavjud banklar qarida ham passivlarning o‘sishi, majburiyatlar va unda depozitlar jalb qilishda va kapitalini oshirishda o‘z o‘rnini mustahlab bormoqda. AT Ipotekabank passivlarini samarali boshqarishda aholining bo‘sh turgan mablag’larini depozitga jalb qilish amaliyotini takomillashtirish maqsadga muvofiqligini etirof etadi[18].

M.B. Mo‘minovaning fikricha, bankning aktiv va passiv operatsiyalarini yoki bank portfelini boshqarish belgilangan risk

[18] Маматов А.А. Ҳозирги кунда ўзбекистон банкларида актив пассивларни бошқариш ҳолати Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(6), June, 2023

qiymatlari doirasida foydani maksimallashtirishga qaratilgan uning tarkibini boshqarish hisoblanadi[19].

Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish‖ fanidan o‘quv qo‘llanmada tijorat banklarda aktiv va passivlarni boshqarishni nazariy, metodologik va huquqiy-me‘yoriy asoslari yoritilgan. O‘quv qo‘llanmada tijorat bankining aktiv va passivlarini samarali boshqarishni tashkil etish va baholashning ilg‘or shakllari va usullari keltirilgan. Zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalangan holda strategik yo‘nalishlarni belgilash va tabiq qilish usullari batafsil yoritib berilgan.[20]

Mo‘minova, M. (2024). Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarini innovatsion usullar orqali boshqarishni takomillashtirish nomli maqolasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalariga doir iqtisodchi olimlarning fikrlari, amaliyotning joriy holati tahlil qilinib, muammolar ochib berilgan. Ushbu muammolarni hal etishda aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarishning innovatsion usullari taklif qilingan. Bu borada usullarning kamchiliklari va afzalliklari yoritib berilgan.[21]

M.Masharipovinig, uzining maqolasida tijorat banklari aktiv operatsiyalari, xususan, bank aktiv operatsiyalaridan samarali foydalanish orqali ularning daromadliligini oshirish maqsadida, bank aktivlarini boshqarishni takomillashtirish nazariy asoslari ko‘rib o‘tilgan. Shu bilan birga, bank aktivlarini samarali boshqarish usullarini takomillashtirishdagi muammolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltirilgan.[22]

Bank xodimlari va mijozlar fikrini o‘rgangan holda mijozlarni bankka jalb etishda innovatsion xizmat turlarini yanada kengroq joriy etish, mijozlarning vaqtini tejash maqsadida banklarda keng miqyosda raqamlashtirish choralarini ko‘rish, avvalo, aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bank tizimiga ishonchini oshirish. Qolaversa, banklarga

---

[19] Мўминова М.Б.Тижорат банкларида актив ва пассив операцияларни бошқаришдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 3-son.

[20] Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish‖ fanidan o‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamISI, 2020. 240 bet.

[21] Mo‘minova, M. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(4). Retrieved from https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1615

[22] Masharipov, M. (2024). Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(5). Retrieved from https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1925

mijozlarni jalb etish samaradorligini oshiradi. Bank xodimlari va mijozlar takliflarini o‘rgangan holda quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- banklar davlatga emas, aholiga yon bosishi, davlat aralashuvini cheklash, bank mustaqilligini ta’minlash aholi manfatlarini hisobga olishi lozim va xorijiy banklar bilan aloqalarni mustahkamlash orqali yangi bank mahsulotlari bilan boyitishi lozim;

- korporativ va yirik mijozlarni bankka jalb qilish, VIP mijozlar uchun menejer biriktirish, “Bank-mijoz”dasturini yaxshilash;

- tizimni yangilash, islom banklar tizimini joriy etish, aholi ishonchini qozonish, sirli mijozlarni olib tashlash, IABS (integractiyalashgan avtomatlashgan bank sistemasi) tizimida oxiriga etmagan funksiyalarni takomillashtirish, tashqi operatsiyalarni yangi dasturlar orqali takomillashtirish;

- kredit skoringini qo‘llash, kredit portfelini sog’lomlashtirish, bank filiallariga kredit berish vakolatini oshirish, kredit foizlarini kamaytirish, ipoteka kreditlarini foizlarini kamaytirish;

- aktiv va passiv operatsiyalarning mutanosibligini ta’minlash, innovatsion xizmat turlarini ko‘paytirish, komission foizlarni kamaytirish;

- jamg’armalarga pul oqimini ta’minlash, mijozlarga imtiyozli ta’riflar berib jalb qilish, bank navbatlarini qisqartirish, qog’ozbozlikni kamaytirish, doimiy mijozlar uchun imtiyozlar berish;

- bank xodimlarini rag’batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ish haqini oshirish, bank xodimlarining nafaqat moliyaviy savodxonligi, balki IT va psixologik bilimlarini ham oshirish, bank boshqaruv organlarida ham shunday so‘rovnomalarni tez-tez o‘tkazish;

- bank ilovasiga hisob raqamga to‘lovlar va xalqaro to‘lovlarni kiritish, chakana bank xizmatlarini ko‘paytirish, elektron imzoni joriy etish, marketing reklama xizmatlarini takomillashtirish, Sall center orqali ma’lumotlar olish tizimini takomillashtirish lozim.

Qisqacha xulosalar

“Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fani bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan “Bank ishi” fanining uzviy davomidir va banklarning aktivlari va passivlarini boshqarish prinsiplari, usullari va ulardan foydalanish amaliyoti chuqur o‘rganiladi.

Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish – bu pul mablag’larini jalb qilish va ularni joylashtirishni tartibga solish yo‘llari va usullaridir. Bankni foyda darajasi barqarorligini ta’minlash va

ko‘zda tutilmagan risklarni minimallashtirish maqsadida balansning aktivlari va passivlarini tegishli moddalarini doimo bir-biriga taqqoslab borishi zarur. Ushbu taqqoslash tijorat banklari aktivlari va passivlarini tegishli usullar, mezonlar va me’yorlarni qo‘llab boshqarish orqali amalga oshiriladi.

Tijorat banklarni aktiv va passivlari – bu bankning foyda darajasini pasaytirmasdan likvidlikni ta’minlashga qaratilgan usullar va tartiblar yig’indisi bo‘lib, bankni moliyaviy barqarorligi va majburiyatlarini bajarishning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy jarayondir. Xalqaro va mahalliy moliya bozorlarida ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tijorat banklarni aktiv va passivlarining tashkiliy-huquqiy asoslari va usullarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar

Aktiv, passiv, likvidlilik, tartiblar, moliyaviy barqarorlik, resurslar; daromad, xarajat, dopozit, bank resurslari, xalqaro talablar, standartlar, bank kapitali, bank xodimlari, moliyaviy savodxonligi, IT, psixologik bilimlar, IABS tizimi, moliya bozorlar, siyosiy jarayonlar, tashkiliy-huquqiy asoslar.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanining predmeti va yo‘nalishlari nimalardan iborat?
2. Fanning maqsad va vazifalari nimada?
3. Fanning boshqa qanday fanlar bilan aloqasi mavjud?
4. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning qanday asosiy mezonlari bor?
5. Tijorat banklarni aktiv va passivlarining zamonaviy vositalarini aniqlanishi sabablari nimada?
6. Aktiv va passivlarni bank amaliyotiga tatbiq etilishidagi ob’ektiv va sub’ektiv sabablar nimada?
7. Tijorat banklarni aktiv va passivlari deganda nimani tushunasiz?
8. Tijorat banklarni aktiv va passivlarining tashkiliy-huquqiy asoslari nimalar?
9. Nima uchun tijorat banklarni aktiv va passivlarining doimiy ravishda takomillashtirib boriladi?

10. Fani “Monetar siyosat”, “Bank risklari”, “Bank faolyatining molyaviy barqarorligi va rivojlanish istiqbollarini baholash” va boshqa birqator iqtisodiy fanlari bilan uzviy bog’liqligi nimada?

11. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning nazariy asoslarini o‘rganishdan maqsad nimada?

12. Xalqaro bank amaliyotida passiv operatsiyalarning qanday to‘rtta shaklidan keng foydalaniladi?

13. Bank xodimlari va mijozlar takliflarini o‘rgangan holda qanday xulosalar shakllantiriladi?

14. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanining ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?

15. Bank boshqaruv organlarida ham so‘rovnomalarni tez-tez o‘tkazishning iqtisodiy ahamiyati nimada?

2-bob. TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI VA PASSIVLARINING TARKIBIY TUZILISHI VA ULARNI BOSHQARISH ZARURLIGI

2.1. Tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzilishi

«Bank aktivlari, odatda, aktiv operatsiyalar, ya’ni daromadni olish, bankning likvidliligini ushlab turish va uning faoliyatini ta’minlash maksadida uzi va jalb kilingan mablaglarni joylashtirish natijasida shakllanadi. Aynan aktiv operatsiyalar natijasida bank uz daromadlarining asosiy kismini oladi»[23]

Tijorat banklarning aktivlari - bu tijorat banklarning resurslari joylanishi va ulardan foydalanishni aks ettiruvchi buxgalterlik balansining moddalaridir.

Tijorat banklarining aktivlari likvidlilik darajasiga ko‘ra quyidagicha tarkiblanadi:

1. Kassali aktivlar
2. Qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalar
3. Kreditlar
4. Asosiy vositalar

Kassali aktivlarning tarkibi:

1. Kassadagi naqd pullar
2. Bankning Markaziy bankdagi “Nostro” vakilliy hisobraqamidagi pul mablag’lari
3. Bankning boshqa banklardagi “Nostro” vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag’lari
4. Inkassatsiya jarayonidagi pul mablag’lari (flout)

AT «Aloqabank» bank tomonidan 2022-yil davomida aktivlar salmog’ini oshirish, mustahkam resurs bazasini shakllantirish va ulardan oqilona foydalanish hamda bank tavakkalchiliklarini samarali boshqarish siyosatini qo‘llash borasidagi ishlar izchil davom ettirilgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga bank aktivlari 16 083,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (12 638,5 mlrd. so‘m) nisbatan 3 445,2 mlrd. so‘m yoki 127,3 foizga o‘sdi. (2.1-jadval).

[23]Грищенков Г. З. Осипов И. А. Основы банковского дела. Учебно-методический комплекс для студентов экономических специальностей. 2004

2.1-jadval

AT «Aloqabank» aktivlari tarkibi to‘g’risida ma’lumot[24]

(mlrd. so‘m)

t/r	Aktivlari tarkibi	01.01.2022 yil holatiga	01.01.2023 yil holatiga	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan	
				+ ; -	foizda
1	Kassadagi naqd pullar	275,8	483,9	208,1	175,5%
	ulushi (%)	*2,2%*	3,0%		
2	Markaziy bankdagi mablag’lar	1 238,8	1 620,9	382,1	130,8%
	ulushi (%)	*9,8%*	10,1%		
3	Boshqa banklardagi mablag’lar	901,4	1 613,2	711,8	179,0%
	ulushi (%)	*7,1%*	10,0%		
4	Kredit qo‘yilmalar	7 754,3	9 161,9	1 407,6	118,2%
	ulushi (%)	*61,4%*	57,0%		
5	Investitsiyalar	98,3	95,8	-2,5	97,5%
	ulushi (%)	*0,8%*	0,6%		
6	Asosiy vositalar	812,3	1 238,3	426,0	152,4%
	ulushi (%)	*6,4%*	7,7%		
7	Boshqa aktivlar	1 557,5	1 869,6	312,1	120,0%
	ulushi (%)	*12,3%*	11,6%		
Jami:		**12 638,46**	16 083,6	**3 445,2**	127,3%

Hisobot davrida bank aktivlari tarkibida daromad keltiruvchi aktivlari miqdori 11 748,0 mlrd. so‘m bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga (9 032,5 mlrd. so‘m) nisbatan 2 715,5 mlrd. so‘mga yoki 130,0 foizga oshgan hamda jami aktivlardagi salmog’i 73,0 foizni tashkil etgan.

[24] Раскрытие информации согласно положения о биржевом котировальном листе республиканской фондовой биржи «тошкент» 27.06.2023

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda asosiy e’tibor yuqori likvidli aktivlar bilan yuqori daromadli aktivlar o‘rtasidagi nisbatning oqilona darajasini ta’minlash lozim. Tijorat banklari aktivlarining optimal tarkibini shaklalntirishda yuqori likvidli aktivlar bilan riskli aktivlar o‘rtasidagi nisbatning oqilona darajasini ta’minlash lozim, degan xulosani shakllantiradi.

Qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalarning quyidagi to‘rt shaklini ajratib ko‘rsatish lozim:

a) Hukumatning qimmatli qog’ozlari;

b) Boshqa banklarning depozit sertifikatlari;

v) Tijorat qimmatli qog’ozlari;

g) Investitsion jamg’armalar.

Tijorat qimmatli qog’ozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqori likvidli aktivlar qatoriga kiritish mantiqan to‘g’ri emas. Chunki tijorat qimmatli qog’ozlari aniq moddiy kafolatga ega emas, ayniqsa, respublikamiz sharoitida ko‘plab korxonalarning qimmatli qog’ozlari bo‘yicha to‘lovsizlik muammosi mavjud. Bunday holatlarni “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda, TIF Milliy bankida va boshqa tijorat banklarida kuzatish mumkin. Ana shu fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda tijorat qimmatli qog’ozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqori livkidli aktivlar tarkibidan chiqarib tashlash zarur deb hisoblaymiz.

Yuqori likvidli aktivlar tarkibiga kassali aktivlardan tashqari tijorat banklarining balansidagi Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalarni ham kiritilishi lozim.

Tijorat banklarining likvidli aktivlarining miqdorini depozitlarning nobarqaror qismiga nisbatan emas, balki joriy depozitlar va jamg’arma depozitlariga nisbatan belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki aynan shu depozitlarning nobarqarorlik darajasi yuqori bo‘lib, tijorat banklarida likvidlilik riskini doimiy tarzda yuzaga keltiradi. Fikrimizcha, depozitlarning barqaror qismining jami depozitlarning 75 foizi miqdorida shakllanishi rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotiga xos bo‘lgan holat hisoblandi. Mazkur mamlakatlarda moliya bozorlarining rivojlanganligi, moliyaviy holati barqaror bo‘lgan mijozlarning ko‘pligi, Markaziy bank monetar siyosatining maqsadi va vazifalarini aniq hamda shaffofligi, korxonalarning soliq yukini mo‘tadil darajaga keltirilganligi va boshqa omillar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pul oqimini barqaror darajasini ta’minlashga zamin yaratadi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa, moliya bozorlari

rivojlanmaganligi, Markaziy bankning monetar siyosatida noaniqliklarning mavjudligi, soliq siyosatini takomillashmaganligi va boshqa omillar xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi. Bu holatlar, pirovard natijada, xo‘jalik sub’ektlarining pul oqimining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida tijorat banklaridagi talab qilib olinadigan depozitlar va jamg’arma depozitlari qoldiqlarining nobarqarorligi kuchayadi.

Bazel standartiga ko‘ra, tijorat banklarining aktivlari risk darajasiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi:[25]

I daraja. 0 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlarga, ya’ni risksiz aktivlarga quyidagilar kiradi:

– tijorat bankining kassalaridagi naqd pullar;

– bankning Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisob raqamidagi pul mablag’lari;

– Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar;

– tijorat banki tomonidan hukumatning 90 kungacha muddatga chiqarilgan qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalar (O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan hukumatning qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalar, ularning muddatidan qat’iy nazar, risksiz aktiv hisoblanadi);

– hukumat va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to‘g’ridan-to‘g’ri talablar va bu emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog’ozlar;

– Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) kiruvchi mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog’ozlar, Suningdek, bu mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklariga qo‘yiladigan boshqa talablar;

– aktivlar yoki ularning IHTTga kiruvchi mamlakatlar milliy valyutalariga denominatsiya qilinib, naqd pul bilan ta’minlangan hamda bankda alohida cheklab qo‘yilgan depozit hisobraqamda saqlanayotgan qismi.

II daraja. 20 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

– tijorat bankining boshqa banklardagi «Nostro» vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag’lari;

[25] Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг 2015 йил 14 июлда “Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги” Низоми

– hukumatning 90 kundan ortiq muddatga chiqarilgan qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalar;

– flout (inkassatsiya jarayonidagi pul mablag’lari);

– IHTT mamlakatlarida ro‘yxatdan o‘tgan banklar va boshqa depozitar institutlarning kreditlari, kafolatlari bilan ta’minlangan kreditlar va boshqa aktivlar yoki ularning qismi;

– bankning xalqaro kredit tashkilotlariga bergan kreditlari va boshqa talablari, Suningdek, ushbu tashkilotlarning qimmatli qog’ozlari bilan ta’minlangan talablar.

III daraja. 50 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlarga quyidagilar kiradi:

– ipoteka kreditlari;

– IHTT davlatlarida ro‘yxatga olingan depozitar institutlarga nisbatan talablar, Shu jumladan, qarzlar va pul bozori vositalari;

– IHTT davlatlarida ro‘yxatga olingan depozitar institutlarning kreditlari bilan ta’minlangan boshqa barcha aktivlar;

– bankning IHTT davlatlari mahalliy hokimiyat organlariga nisbatan talablari, suningdek, ular tomonidan kafolatlangan bank aktivlari. Bu talablar va kafolatlar bo‘yicha to‘lovlar alohida loyihalar bo‘yicha tushumlardan emas, balki yuqorida ko‘rsatilgan tashkilotlar byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

– bankning xalqaro kredit tashkilotlariga nisbatan talablari, suningdek, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari;

– joriy bozor qiymatida baholangan va xalqaro kredit tashkilotlari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlar bilan ta’minlangan aktivlar va ularning qismlari;

– bankning IHTTga a’zo bo‘lmagan mamlakatlarning milliy valyu-talariga denominatsiya qilingan va milliy valyutadagi majburiyatlar bilan qoplangan, IHTTga a’zo bo‘lmagan davlatlar Markaziy Hukumatlari va markaziy banklariga nisbatan talablari. Milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar qismi risk darajasi yuqori (100 foiz) bo‘lgan aktivlar qatoriga kiritiladi.

IV daraja. Tijorat banklarining 100 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlariga quyidagilar kiradi:

– korporativ qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalar;

– mijozlarga berilgan kreditlar;

– asosiy vositalar;

– boshqa aktivlar.

Quyidagi balansdan tashqari aktivlar yuqori riskli, ya'ni risk darajasi 100 foizga teng bo'lgan aktivlar hisoblanadi:

– bank tomonidan mijozlarning foydasiga ochilgan ta'minlanmagan akkreditivlar;

– bank tomonidan berilgan kafolatlar;

– forvard transaksiyalari;

– bank tomonidan berilgan opsionlar va fyucherslar.

Bazel-1 tizimiga binoan risk darajasini o'lchash standart koeffitsientlari aktivlarning keng toifalariga, chunonchi: davlat (suveren), bank va korporativ aktivlarga beriladi. Masalan, korporativ riskni qoplash uchun qarz oluvchining kredit sifatidan qat'i nazar kapitalga 8% (ya'ni riskni o'lchash koefitsientining 100% degan holda) miqdorida ajratmalar (zaxira) qilish nazarda tutiladi.

Bazel-II standartiga ko'ra 150 % risk darajasiga ega bo'lgan aktivlar paydo bo'ldi:

– sud jarayonidagi aktivlar;

– bankning balansiga olingan, ammo 2 yil ichida sotilmagan aktivlar;

– VV - dan (to'lov qobiliyati past bo'lgan daraja) past reyting darajasiga ega bo'lgan mijozlarga berilgan kreditlar.

Tijorat banklari aktivlari va majburiyatlari muddatiga ko'ra quyidagicha turkumlanadi:

1) muddatsiz;
2) 1 kundan 30 kungacha muddatdagi;
3) 31 kundan 180 kungacha muddatdagi;
4) 181 kundan 365 kungacha muddatdagi;
5) 365 kundan ortiq muddatdagi aktivlar va majburiyatlar.

2.2. Tijorat banklari passivlarining tarkibiy tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonii bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga

etkazish,[26] mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida e’tirof etilgan.

Tijorat banklarining passivlari talab qilib olinish darajasiga ko‘ra quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘linadi:

1) talab qilib olinadigan depozitlar;
2) boshqa banklarning “Vostro” vakillik hisobraqamidagi pul mablag’lari;
3) muddatli depozitlar;
4) jamg’arma depozitlar;
5) bankning qimmatli qog’ozlarini sotishdan olingan mablag’lar;
6) boshqa banklardan olingan kreditlar;
7) regulyativ kapital.

Transaksion depozitlardan resurs sifatida foydalanish tijorat banklarining likvidliligiga jiddiy ziyon etkazadi. Respublikamiz tijorat banklarida transaksion depozitlardan to‘g’ridan-to‘g’ri, ya’ni muddatli depozit shartnomasi tuzmasdan turib, resurs sifatida foydalanish hollari mavjud. Buning natijasida tijorat banklarining faoliyatidagi likvidlilik va kredit riski kuchaymoqda. Chunki transaksion depozit nobarqaror passiv hisoblanadi va shu sababli istalgan vaqtda hisobraqam egasi tomonidan talab qilib olinishi mumkin. Kredit esa, muddatli bo‘lib, uni muddatidan oldin qaytarib olish mumkin emas. Bundan tashqari, transaksion depozitlardan resurs sifatida foydalanish tijorat banklarining depozit bazasiga salbiy ta’sir qiladi.

AT «Aloqabank» bankning 2022-yil biznes-rejasiga muvofiq xususiy kapital bo‘yicha reja ko‘rsatkichi (2 634,7 mlrd. so‘m) 68,1 foizga bajarildi.

Hisobot yilida iqtisodiyotdagi pul mablag’larini jalb qilish bo‘yicha samarali depozit siyosatini amalga oshirilib, 2023-yil 1-yanvar holatiga aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardan jalb qilingan depozitlar 7 697,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (6 796,1 mlrd. so‘m) nisbatan 901,5 mlrd. so‘m yoki 113,3 foizga ortgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga bankning jami majburiyatlari 14 288,2 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning shu davri (10 964,9 mlrd. so‘m) nisbatan 3 323,3 mlrd. so‘m yoki 130,3 foizga o‘sdi (2.2-jadval).

[26] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида ПФ60-сонли Фармони. 2022 йил.

2.2-jadval

AT «Aloqabank» majburiyatlari tarkibi to‘g’risida ma’lumot[27]*(mlrd. so‘m)*

t/r	Majburiyatlar tarkibi	01.01.2022 yil holatiga	01.01.2023 yil holatiga	O‘tgan yilning shu davriga	
				+ ; -	%
1	Talab qilib olinguncha bo‘lgan depozitlar	2 036,9	2 786,3	749,4	136,8%
	ulushi (%)	18,6%	19,5%		
2	Muddatli depozitlar	4 759,2	4 911,4	152,2	103,2%
	ulushi (%)	43,4%	34,4%		
3	Banklararo depozitlar	1 231,5	2 573,3	1 341,8	209,0%
	ulushi (%)	11,2%	18,0%		
4	Jalb qilingan Kreditlar	2 271,0	2 927,2	656,2	128,9%
	ulushi (%)	20,7%	20,5%		
5	Boshqa majburiyatlar	666,3	1 090,0	423,7	163,6%
	ulushi (%)	6,1%	7,6%		
Jami:		**10 964,9**	**14 288,2**	**3 323,3**	**130,3%**

Mamlakatimizda fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan bir necha urinishlar amalga oshirilganiga qaramay, fond bozorining mamlakat rivojlanishidagi o‘rni hamon pastligicha qolmoqda. Ayniqsa, moliyalashtirish manbalarida qimmatli qog’ozlar ulushi ancha past. YAIMga nisbatan aksiya va obligatsiyalarni chiqarish hajmi o‘rtacha 1,8% (1 mlrd doll)ga teng.[28]

Tijorat banklarining qimmatli qog’ozlar bozoridagi ishtiroki:

1. Emitent sifatida
2. Investor sifatida
3. Vositachi sifatida

Tijorat banklari emitent sifatida quyidagi qimmatli qog’ozlarni muomalaga chiqaradi:[29]

1. Emission qimmatli qog’ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar, opsionlar)

[27] Раскрытие информации согласно положения о биржевом котировальном листе республиканской фондовой биржи «тошкент» 27.06.2023

[28] Niyozov Z.D. “Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari: tajriba, tendentsiyalar va istiqbollar” II respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. –T.: TDIU-SamSI. 2024. – 534 b.

[29] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони 2005 йил 24 апрелдаги “Акциядорлик жамиятларда замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий этиш чоралари тўғрисида”ги фармони

2. Noemission qimmatli qog’ozlar (depozit sertifikatlari, jamg’arma sertifikatlari, veksellar)

Qimmatli qog’ozlarni emissiya qilish 5 bosqichdan iborat:

1. Qimmatli qog’ozlarni joylashtirish to‘g’risidagi qarorni qabul qilish
2. Qimmatli qog’ozlarni chiqarish to‘g’risidagi qarorni tasdiqlash
3. Chiqarilgan qimmatli qog’ozlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish
4. Qimmatli qog’ozlarni joylashtirish
5. Qimmatli qog’ozlarni chiqarish yakunlari to‘g’risidagi hisobotni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish

Tijorat banklariga qimmatli qog’ozlarni chiqarishga ruxsat beradigan organlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog’ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi

Tijorat banklari ustav kapitalini shakllantirish uchun oddiy va imtiyozli aksiyalarni muomalaga chiqaradi.

Bankning barcha aksiyalari tartib raqami va chiqarilgan vaqtidan qat’iy nazar bir xil nominal qiymatga ega bo‘lishi shart.

Muomalaga chiqarilgan aksiyalar to‘liq sotib bo‘linmagunga qadar yangi aksiyalarni muomalaga chiqarishga ruxsat etilmaydi.

Qimmatli qog’ozlar prospekti bank Boshqaruvi tomonidan tayyorlanadi va Boshqaruv raisi va Bosh buxgalter tomonidan imzolanadi.

Qimmatli qog’ozlar prospektida quyidagi ma’lumotlarning bo‘lishi shart:

1. Emitent to‘g’risidagi ma’lumotlar
2. Emitentning moliyaviy holati to‘g’risidagi ma’lumotlar
3. Qimmatli qog’ozlarni oldingi emissiyasi to‘g’risidagi ma’lumotlar

Sessiya – sertifikat bo‘yicha talab qilib olish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish.

Sedent – sertifikat bo‘yicha talab qilib olish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechayotgan tomon.

Sessionariy – sertifikat bo‘yicha talab qilib olish huquqini oluvchi tomon.

Bazel standartiga ko‘ra, tijorat banklarining regulyativ kapitali 3 qismdan iborat:

$$RK = K^1 + K^2 + K^3$$

Bu erda:

K^1-birinchi darajali kapital

K^2-birinchi darajali qo‘shimcha kapital

K^3-ikiknchi darajali kapital

“Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g’risida”gi nizomga asosan

Tijorat banklarining (I) darajali kapitali 2 qismga ajratildi:

1. (I) darajali asosiy kapital (**K^1**)
2. (I) darajali qo‘shimcha kapital(**K^2**)

(I) darajali asosiy kapitalning tarkibi: (**K^1**)

1. Bankning to‘liq to‘langan oddiy aksiyalari
2. Qo‘shilgan kapital (oddiy aksiyalarni bozor bahosi va nominal qiymati o‘rtasidagi farq)
3. Taqsimlanmagan foyda (30905 va 30908 – hisobraqamlar olinmaydi)
4. Ozchilikning ulushi
5. Devalvatsiya zaxirasi.

Birinchi darajali qo‘shimcha kapital tarkibi:

1. Nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar
2. Qo‘shilgan kapital (imtiyozli aksiyalarning bozor bahosi va nominal qiymati o‘rtasidagi farq)
3. Birinchi darajali qo‘shimcha kapitalga qo‘shilish shartlariga javob beruvchi sho‘ba korxonalarning ishtirok etish ulushi (sho‘ba korxonalari tomonidan chiqarilgan va uchinchi shaxslar ixtiyorida bo‘lgan kapitalga tenglashtirilgan vositalar).

Birinchi darajali kapitaldan chegirmalar: ($K^1 + K^2$)

* nomoddiy aktivlar;
* birlashmagan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar kapitaliga qilingan barcha investitsiyalar;
* boshqa banklarning kapitaliga qilingan investitsiyalar.

Ikkinchi darajali kapital tarkibi: (K^3)

1. Joriy yilning sof foydasi.

2. Standart kreditlarga yaratilgan zaxiralarning tijorat banklari aktivlarining riskka tortilgan summasining 1,25 foizidan oshmaydigan qismi

3. Aralash turdagi majburiyatlarning I-darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmaydigan qismi

4. Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari. (obligatsiyalar)

5. Qayta baholash zaxirasining 45 foizi.

2.3. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishning zarurligi

Tijorat banklarning aktiv va passivlarini boshqarish zaruriyati rivojlangan mamlakatlar bank tizimida 1960-yillardan keyin vujudga kelgan. Dastlab, banklarda aktivlarni o‘zaro mutanosiblikda joylashtirish, bank foydasi barqarorligini ta’minlash, banklarda risk darajasini kamaytirish kabi masalalar ularning aktivlarini boshqarish zaruriyatini keltirib chiqardi.

1980-yillarga kelib banklarda integratsiyalashuv jarayonining chuqurlashuvi, moliyaviy resurslarning mamlakatlararo suzib yuruvchanliga sharoitning yaratilganligi va iqtisodiyotning tobora globallashuvi bank likvidliligini ta’minlash va zarur miqdorda foydasini shakllantirish uchun faqatgina bank aktivlarini boshqarish kifoya bo‘lmay qoldi.

Xalqaro moliya bozorlarida resurslarga bo‘lgan raqobatning kuchayishi, bank riskli aktivlari va muddatli majburiyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik holatlari, bank o‘z majburiyatlarini to‘liq va belgilangan muddatda bajarish bilan bog’liq masalalar bank passivlarini boshqarishga bo‘lgan zaruriyatni keltirib chiqardi.

Hozirgi davrda bank aktivlari va passivlarini boshqarish faol rivojlanish bosqichiga kirdi, bugungi kunga kelib aktivlar va passivlarni boshqarish nafaqat banklarda, balki yirik kompaniya va firmalarda ham keng qo‘llanilmoqda.

Tijorat banklarning asosiy faol operatsiyalari:

-kredit operatsiyalari, buning natijasida bankning kredit portfeli shakllanadi;

-investitsiya portfelini shakllantirish uchun asos yaratuvchi investitsiya operatsiyalari;

-bank tomonidan mijozlarga ko‘rsatiladigan asosiy xizmatlardan biri bo‘lgan kassa va hisob-kitob operatsiyalari;

-barcha bank operatsiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun tegishli infratuzilmani yaratish bilan bog’liq boshqa faol operatsiyalar.

Banklarning eng keng tarqalgan faol operatsiyalari quyidagilardir, deb hisoblaydi:

-kredit operatsiyalari, qoida tariqasida, banklarga o‘z daromadlarining asosiy qismini olib keladi. Makroiqtisodiy miqyosda bu operatsiyalarning ahamiyati shundan iboratki, ular orqali banklar ishlab chiqarish, muomala va iste'mol jarayonlarini rag’batlantirib, vaqtincha harakatsiz pul mablag’larini faol fondlarga aylantiradi;

-investitsiya operatsiyalari, ularni amalga oshirish jarayonida bank qimmatli qog’ozlarga resurslarni investitsiya qiluvchi yoki birgalikdagi iqtisodiy faoliyatga huquqlarni qo‘lga kiritadigan investor sifatida ishlaydi;

-depozit operatsiyalari, banklarning faol depozit operatsiyalarining maqsadi Markaziy bankdagi (korrespondent hisob va rezerv hisobvarag’i) va boshqa tijorat banklaridagi hisobvaraqlarda to‘lov vositalarining joriy va uzoq muddatli zaxiralarini yaratishdan iborat;

-shakli jihatidan turlicha bo‘lgan boshqa faol operatsiyalar xorijdagi banklarga sezilarli daromad keltiradi.

Boshqa faol operatsiyalarga quyidagilar kiradi: chet el valyutasi va qimmatbaho metallar bilan operatsiyalar, trast, agentlik, tovar va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, tijorat banklarining asosiy faol operatsiyalari quyidagilardan iborat:

- kredit operatsiyalari;
- investitsion operatsiyalar;
- naqd pul operatsiyalari;
- boshqa faol operatsiyalar.

Tijorat banki aktivlari tuzilmasini boshqarish zarurati shundan kelib chiqadiki, bank har kuni o‘z majburiyatlarini bajarish imkonini beradigan o‘z aktivlarining shunday oqilona tuzilishini ta’minlashi kerak. Buning uchun bank o‘z aktivlarining tarkibi va tuzilishini samarali boshqarishi kerak, ya'ni. o‘z va qarz mablag’larini investitsiyalashning eng maqbul yo‘nalishlari va usullari bo‘yicha qarorlar qabul qilish.

Faol operatsiyalar bankning rentabelligi va likvidligini ta'minlaydi, ya'ni. tijorat banklari faoliyatining ikkita asosiy maqsadini hal qilish

imkonini beradi. Faol operatsiyalar ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Aynan ularning yordami bilan banklar iqtisodiy faoliyat jarayonida bo‘shatilgan mablag’larni kapitalga muhtoj bo‘lgan xo‘jalik aylanmasi ishtirokchilariga yo‘naltirishlari, kapitalning iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlariga o‘tishini ta’minlash, sanoat investitsiyalarining o‘sishini rag’batlantirish, joriy etish innovatsiyalar, sanoat ishlab chiqarishini tarkibiy o‘zgartirish va barqaror o‘sishi, uy-joy qurilishini kengaytirish. Aholiga bank kreditlari katta ijtimoiy ahamiyatga ega.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va rivojlantirishning zamonaviy bosqichida tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha bir qator vazifalar va chora-tadbirlarni belgiladi, jumladan, **quyidagi vazifalarni:**

1)ilg’or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish;

2)valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish;

3)bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash;

4)banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish;

5)banklarning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash;

6)istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbikorlik sub’ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish.

Quyidagi chora-tadbirlarni:

1)bank faoliyatini tartibga soluvchi zamonaviy tamoyil va mexanizmlarni joriy qilish, ularning samarali faoliyat ko‘rsatishiga yo‘l qo‘ymayotgan to‘siqlarni bartaraf etish;

2)naqdsiz hisob-kitoblar hajmi va qamrovini oshirish, shu jumladan, iqtisodiyot sohalarida to‘lovlarning zamonaviy elektron shakllarini joriy qilish va tadbirkorlik sub’ektlarini rag’batlantirish, suningdek, bankdan tashqari aylanmani qisqartirish;

3)bank kassalariga naqd pul tushumlarini rag’batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarorida bir qator vazifalar belgilandi:

I. Tijorat banklarini ularga xos bo‘lmagan funksiyalardan ozod qilish maqsadida, tijorat banklarining quyidagi vazifalari bekor qilindi:

1)xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarining muddati o‘tgan debitor va kreditor qarzdorligi shakllanishi ustidan nazorat qilish;

2)xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan olingan naqd pullarni maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat qilish vazifalarini bekor qilish;

II. Tijorat banklari faoliyatiga umume’tirof etilgan zamonaviy me’yorlar, standartlar va baholash ko‘rsatkichlarini joriy qilish, bank-moliya tizimini xalqaro reyting tashkilotlari baholashi asosida baholash ko‘rsatkichlarini yanada takomillashtirish.

III. Bank nazoratining xalqaro prinsiplari asosida tijorat banklari kapitalining etarliligi, likvidliligi va barqarorligi bo‘yicha talablarni bajarilishini ta’minlash;

IV. Bazel qo‘mitasining talablarini hisobga olgan holda bank risklarini baholash va boshqarish tizimini takomillashtirish;

V. Banklarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish va banklarni ilg’or bank amaliyoti asosida faoliyat yuritadigan tizimga aylantirish;

VI. Aholining bank-moliya xizmatlari sohasida moliyaviy savodxonligini va huquqlarini himoya qilish darajasini oshirish;

VII. Aholining mamlakat bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirish, mijozlarning bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarining doimiy monitoringini amalga oshirish, bank xizmati ko‘rsatish madaniyatini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3272-sonli Qarorida belgilangan chora-tadbirlar, xususan, pul-kredit siyosatini rivojlantirish va amalga oshirish konsepsiyasini ishlab chiqish (o‘rta muddatli); majburiy zaxira talabnomalarini takomillashtirish, ochiq bozorda REPO operatsiyalarini amalga oshirish; iste’mol baholari indeksini hisoblashni takomillashtirish; inflyasiyaning omilli tahlilini amalga oshirish; pul-kredit siyosatining shaffofligini oshirish tadbirlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi; pirovard natijada, tijorat banklari faoliyatining barqarorligini oshirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojatnomasida,O‘zbekiston bank tizimini yangi xalqaro darajaga ko‘tarish uchun quyidagi strategik vazifalari belgilab berdi[30]:

1. 2020-yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi va bu borada banklarning kapital resurs bazasi va daromadlarini oshirishga alohida e’tibor qaratish.

2. Bank tizimida tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlaydigan “loyihalar fabrikasi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

3. Banklarning xalqaro moliya bozorlariga chiqib, arzon va uzoq muddatli resurslar olib kelishini yo‘lga qo‘yish.

“2020—2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g’risida” o‘zbekiston respublikasi prezidentining Farmonida O‘zbekiston Respublikasida bank sektorini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko‘rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish;

kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash;

davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlov asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarni bir vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish;

[30] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 24.01.2020 йилдаги Олий Мажлисга Мурожатномаси. “Халқ сўзи” 24 январ 2020 йил

yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog’ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish[31].

Yuqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar va chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi tijorat banklari aktivlarining sifatini oshirish va passivlarining barqarorligini ta’minlash imkonini beradi.

Bu borada AT “Aloqabank”ning 2022 yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti, Akctiyadorlarning umumiy yig’ilishi ma’lumotlaridan “Banklar uchun buxgalteriya balansi”[32]ni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq (1-**ilova)**

Qisqacha xulosalar

Tijorat banklarining aktivlari likvidlilik darajasiga ko‘ra quyidagicha tarkiblanadi: kassali aktivlar, qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalar, kreditlar, asosiy vositalar.

Tijorat banklarining passivlari talab qilib olinish darajasiga ko‘ra quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘linadi: talab qilib olinadigan depozitlar; boshqa banklarning “Vostro” vakillik hisobraqamidagi pul mablag’lari; muddatli depozitlar; jamg’arma depozitlar; bankning qimmatli qog’ozlarini sotishdan olingan mablag’lar; boshqa banklardan olingan kreditlar; regulyativ kapital.

Xalqaro moliya bozorlarida resurslarga bo‘lgan raqobatning kuchayishi, bank riskli aktivlari va muddatli majburiyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik holatlari, bank o‘z majburiyatlarini to‘liq va belgilangan muddatda bajarish bilan bog’liq masalalar bank aktivlari va passivlarini boshqarishga bo‘lgan zaruriyatni keltirib chiqardi.

Bu borada AT “Aloqabank”ning 2022 yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti, Akctiyadorlarning umumiy yig’ilishi ma’lumotlaridan

[31] 2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g’risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni

[32] AT “Aloqabank”ning 2022 yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti, Akctiyadorlarning umumiy yig’ilishi ma’lumotlaridan

“Banklar uchun buxgalteriya balansi”[33]dagi iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqish amaliy ahamiyatga ega.

Tayanch so‘z va iboralar

Qimmatli qog’ozlar, investitsiya, depozit, pul oqimini barqarorligi, BAZEL-1, BAZEL-2, BAZEL-3, emitent, investor, emissiya aksiya, obligatsiya, aksionlar, noemission qimmatli qog’ozlar, depozit sertifikatlar, jamg’arma sertifikatlar, regulyativ kapital, kapital, foyda, aktivlari likvidlilik darajasi, kassali aktivlar, qimmatli qog’ozlar, investitsiyalar, kreditlar, asosiy vositalar, regulyativ kapital, bank aktivlari va passivlari, bank o‘z majburiyatlari.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tijorat banklari aktiv va passivlarining boshqarishning mohiyati va vazifalari.
2. Tijorat banklarning aktiv tarkibiy tuzilishi haqida gapirib bering.
3. Tijorat banklari passivlarining tarkibiy tuzilishi.
4. Tijorat banklarining kassali aktivlari va ularning tarkibi.
5. Banklar aktivlarining risk darajasiga ko‘ra turkumlanishi.
6. Tijorat banklari aktivlarining daromad darajasiga ko‘ra turkumlanishi.
7. Tijorat banklarning regulyativ kapitalini uch qismi.
8. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining isloh qilish va rivojlantirishning zamonaviy bosqichida tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish
9. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining isloh qilish va rivojlantirishning zamonaviy bosqichida tijorat banklari aktivlari va passivlarini takomillashtirish
10. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining isloh qilish va rivojlantirishning zamonaviy bosqichida tijorat banklari aktivlari va passivlarini bo‘yicha belgilangan vazifalar.
11. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining isloh qilish va rivojlantirishning zamonaviy bosqichida tijorat banklari aktivlari va passivlarini bo‘yicha ko‘riladigan chora-tadbirlar.
12. 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojatnomasida, O‘zbekiston bank tizimini yangi xalqaro darajaga ko‘tarish uchun qanday strategik vazifalar belgilandi?

[33] AT “Aloqabank”ning 2022 yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti, Akctiyadorlarning umumiy yig’ilishi ma’lumotlaridan

13. “2020—2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida qanday strategik vazifalar belgiland?i

14. Yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni qanday amalga oshiriladi?

15. Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish chora-tadbirlarni qanday amalga oshiriladi?

16. Kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash chora-tadbirlarni qanday amalga oshiriladi?

17. Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish chora-tadbirlarni qanday amalga oshiriladi?

18. Banklar faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlarni qanday amalga oshiriladi?

3-bob. TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISH TAMOILLARI VA USULLARI. AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

3.1.Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish tamoillari

Respublikamiz tijorat banklari faoliyatini tubdan isloh qilish, barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish, jahon standartlariga javob beruvchi moliyaviy xizmat turlarini ko‘paytirish banklarning asosiy ustvor vazifasi sifatida qaraladi. Bu borada Prezident farmonlari, qarorlari bular asosida qonunlar, meъyoriy-huquqiy xujjatlar qabul qilinmoqda. Ayni damda aktiv va passivni optimal boshqarish bu bank operatsiyalaridan maksimal daromadga erishish, belgilangan likvidlik darajasini saqlab turish va bank risklarni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui bo‘lib bunda tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish aniq tamoillarga tayanadi. ***Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:***

1) aktivlarning daromadliligi va risk darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash tamoili;
2) aktivlar portfellarini diversifikatsiya qilish tamoili;
3) to‘g’ri investitsion qarorlar qabul qilish tamoili;
4) pul oqimlarining etarliligi tamoili;
5) foiz stavkalari, valyuta kurslari va tovarlarning baholarini o‘zgarishiga moslashuvchanlik tamoili;
6) bank qimmatli qog’ozlarining investitsion jozibadorligini ta’minlash tamoili;
7) depozitlarning etarliligini ta’minlash tamoili;
8) kapitalning etarliligini ta’minlash tamoili;
9) bank likvidliligini ta’minlash tamoili;
10) transformatsiya tamoili;
11) aktiv va passivlar bo‘yicha daromad va xarajatlarni nazorat qilish tamoili;
12) bank resurslarining etarliligi tamoili;
13) zaxiralar yaratish tamoili;
14) risklarni minimallashtirish tamoili.

Tijorat banklarining likvidliligini ta’minlash tamoili quyidagi usullardan foydalanishni taqozo etadi:

1. Tijorat bankining aktivlari va passivlarining optimal tarkibini shakllantirish usuli. Bu asosiy (birlamchi) usul hisoblanadi.

2.Aktivlar va jalb qilingan resurslarning muddatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash usuli.

3. Aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish usuli.

4. Risklarning maqbul darajasini ta’minlash usuli.

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish prinsiplaridan kompleks foydalanishga salbiy ta’sir qilayotgan omillar:

1. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash amaliyotining mavjud emasligi tufayli Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini o‘zgartirish yo‘li pul massasiga, tijorat banklarining likvidliligiga va kreditlarning bahosiga ta’sir etish imkoniyatining pastligi;

2. Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarining yuqori ekanligi va zaxira ajratmalari summasini banklarning “Nostro” vakillik hisobraqamlaridan olib qo‘yilayotganligi natijasida tijorat banklarining likvidliligiga va resurs bazasining barqarorligiga nisbatan salbiy ta’sirning yuzaga kelganligi; bunday holatni 3.1-jadval ma’lumotlarida ko‘rish mumkin.

3.1.jadval

Majburiy rezervlarning amaldagi me’yorlari va o‘rtachalash koeffitsiyenti [34] (2022 yil 14 aprel)

Majburiyat turlari	**Majburiy rezerv normativlari**
Yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari*	4%
Yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari	18%
Jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari*	4%
Jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari	18%
* Ushbu majburiyat turlariga (0,8) o`rtachalash koeffitsienti qo`llaniladi	(0,8)

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ham majburiy zaxira talablari pul massasini tartibga solish hamda mamlakat bank tizimining likvidliligiga ta'sir etishning muhim va ta'sirchan vositasi sifatida amaliyotda qo‘llanilmoqda. Mazkur amaliyot tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda alohida ochilgan hisobvaraqqa majburiy tartibda depozitga pul mablag’lari o‘tkazish orqali amalga oshiriladi[35].

[34] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo‘yicha axborot-ta’lim veb-sayti

[35] “Tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga o‘tkaziladigan majburiy rezervlari to‘g’risida”gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 25 aprelda 3002-son bilan ro‘yxatga olingan), 1-bob: Umumiy qoidalar.

Majburiy zaxira (rezerv) talablari (inglizcha – "Reserve requirements") – pul-kredit siyosatining an'anaviy instrumenti hisoblanib, AQSh Federal Zaxira Tizimi (Federal Reserve System) tomonidan mamlakat bank tizimining likvidliligiga ta'sir etish maqsadida 1863 yilda ishlab chiqilgan[1]. Bugungi kunda, dunyoning ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari (AQSh, Shveysariya, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Braziliya va boshqalar)da majburiy zaxira talablari qo‘llanib kelinmoqda.

3. Tijorat banklarining depozit bazasida uzoq muddatli depozitlar ulushining pastligi sababli ularning investitsiya jarayonlariga qatnashishi etarli darajada emas. Jumladan:

AT «Aloqabank» 2023- yilning 1-yanvar holatiga bankning investitsiya portfeli 855,51 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga *(508,31 mlrd. so‘m)* nisbatan 377,2 mlrd. so‘mga ko‘paygan.

Bank investitsiya portfelining tarkibi mulkchilik shakliga ko‘ra, quyidagilardan iborat:

- aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari – 55,60 mlrd. so‘m yoki 6,28 foiz;

- mas’uliyati cheklangan jamiyatlaridagi ulushlar – 40,24 mlrd. so‘m yoki 4,55 foiz.

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat qimmatli qog’ozlariga va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qimmatli qog’ozlariga *(DQQ)* – 789,67 mlrd. so‘m yoki 89,17 foiz.

2022-yil davomida bankning investitsiya portfelidagi investitsiyalardan jami 79,3 mlrd. so‘m miqdorida daromad olingan.[36]

2022-yil yakunlari bo‘yicha respublikamizda asosiy kapitaldagi investitsiyalar tarkibida bank kreditlari va boshqa zayom mablag’larining ulushi 36,3 % tashkil qiladi va ushbu ko‘rsatkich oldingi yilga nisbatan o‘sgan.

4. Respublikamizda imtiyozli kredit dasturlari ko‘p bo‘lib, O‘zbekistonda jami kreditlarning qariyb 34,4 foizi imtiyozli kreditlar hisoblanadi, ular moliyaviy resurslarni joylashtirish samaradorligini pasaytiradi va bank tizimida muammolarni vujudga keltiradi. Ayniqsa, davlat investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarni tijorat banklari

[36] Раскрытие информации согласно положения о биржевом котировальном листе республиканской фондовой биржи «тошкент» 27.06.2023

tomonidan ma’muriy ravishda moliyalashtirilishi tijorat banklari moliyaviy holatiga salbiy ta’sir qilmoqda. Bu nafaqat tijorat banklarining kreditlash faoliyatiga, balki vakillik hisobvaraqlarida mablag’lar etishmovchiligiga olib kelib iqtisodiyotimizda to‘lovlarni vaqtiga o‘tishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Pandemiya davrida, 2020–2021-yillarda O‘zbekistonning barcha banklari tomonidan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun 80 trillion so‘mlik kerditlar muddati uzaytirib berildi. To‘g’ri, bu tadbirkorlarga katta yordam bo‘ldi, ularning oyoqqa turib, biznesini qayta tiklab olishiga ko‘maklashdi. Lekin masalaning ikkinchi tarafi ham bor, ya’ni u kredit qaytganda yangi odamlarga berilardi. O‘sha muddatni uzatirib berilgan 80 trillion so‘mlik kreditlarning qariyb 10 foizi muammoli kreditga aylangan.[37]

5. Respublikamizning yirik tijorat banklarida transformatsiya riskining mavjudligi.

Transformatsiya riskining yuzaga kelganligi va chuqurlashganligi qisqa muddatli resurslar bir yilgacha hisobidan uzoq muddatli (3-5 yilgacha) kreditlarning berilganligi bilan izohlanadi.

3.2. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish usullari

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishda bir necha usullari va yo‘llaridan foydalaniladi, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- fond usuli;
- muddatlar bo‘yicha taqsimlash usuli;
- gep-tahlili;
- xedjirlash;
- sekyuritizatsiyalash.

Aktivlar va passivlarni so‘ndirish muddatlari bo‘yicha boshqarish (fond usuli) BAPB[38]ning klassik usul hisoblanib, bank passiv operatsiyalar natijasida jalb qilingan moliyaviy resurslarni muddati bo‘yicha risksiz aktivlar va riskli aktivlarga joylashtiradi. Bank mijozdan yillik 12 foiz to‘lov asosida 50 mln. so‘mni 6 oylik muddatli depozitga, 0 foiz to‘lov asosida 40 mln. so‘mni talab qilib olinguncha saqlanadigan (muddasiz) depozitga qabul qildi. Bu jarayon bank balansida quyidagi ko‘rinishda aks ettiriladi.

[37] Mahalliy (o‘zb)
[38] Tijorat banklarning aktiv va passivlarini boshqarish usuli

3.1-jadval

Jalb qilingan depozitlarni muddati bo‘yicha joylashtirish

Aktiv	**Summa**	**Passiv**	**Summa**
Kassa	40 000 000,0	Muddasiz depozit	40 000 000,0
Bank vakillik hisob varag’i	50 000 000,0	Muddatli depozit	50 000 000,0
Balans	**90 000000,0**		**90 000000,0**

Bank balansining passividagi 50 mln so‘mni yillik 16 foiz to‘lov asosida 6 oy muddatga riskli aktivga joylashtirganda Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning fond usuli qo‘llaniladi. Bunday holatda Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning fond usuli o‘zining ijobiy samarasini beradi, chunki 6 oy muddatga riskli aktivga joylashtirilgan 50 mln. so‘m bo‘yicha majburiyatni bajarish 6 oydan so‘ng sodir bo‘ladi.

Shu davr ichida bank 4 foiz (4=16-12) bank marjasini olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu erda bank uchun risk darajasi unchalik yuqori emas, chunki bank kreditga bergan 50 mln. so‘mning manbasi muddatli depozit bo‘lib, bank depozitning sohibiga ushbu summani 6 oydan keyin qaytarish majburiyatini olgan.

3.2-jadval

Jalb qilingan depozitlarni muddati bo‘yicha joylashtirish

Aktiv	**Summa**	**Passiv**	**Summa**
Kassa	40 000 000,0	Muddasiz depozit	40 000 000,0
Kredit	50 000 000,0	Bank vakillik hisob varag’i	50 000 000,0
Balans	**90 000000,0**		**90 000000,0**

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning fond usuli uzoq muddat davomida o‘zining ijobiy samarasini berdi, biroq:

– moliya bozorlarida raqobatning kuchayishi va foiz stavkalarining beqarorligi;

– banklarning tizimli to‘lov qobiliyatini yo‘qotishi;

– bank omonatchilarining kelishilgan muddatidan ilgari depozitlarni talab qilishi;

– boshqa fors-major holatlar tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning fond usuli ahamiyatini yo‘qotishga olib keldi.

3.3-jadval

Kredit va bankning “Nostro” vakillik hisobraqami qoldig’ining o‘zgarishi

Aktiv	**Summa**	**Passiv**	**Summa**
Kredit	40 000 000,0	Kassa	40 000 000,0
Kredit	50 000 000,0	Bank vakillik hisob varag’i	50 000 000,0
Balans	**90 000000,0**		**90 000000,0**

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning dastlabki rivojlanish bosqichida ushbu usul keng qo‘llanilgan, keyinchalik esa aktivlar va passivlar o‘rtasidagi nomutanosiblik bilan bog’liq muammolar yuzaga kelganda boshqarish usulining gep-tahlil usuli keng qo‘llanilgan[39].

Banklarning aktivlari va passivlarini boshqarishda gep-tahlilini qo‘llanilishi uning muddatli depozit mablag’lari va riskka tortilgan aktivlari o‘rtasidagi farq darajasiga e’tibor qaratiladi. Masalan, bankning 12 oyga jalb qilingan muddatli mablag’lari 100,0 mln. so‘m, 12 oyga bergan kreditlari, ya’ni riskka tortilgan aktivlari esa 120,0 mln. so‘mni tashkil etiladi. Bu holatda bankning aktivlari va passivlarini gep-tahlili asosida boshqarganda, bu holatda bankning 20,0 mln so‘mlik majburiyatni bajarmaslik ehtimoli mavjudligi ko‘rinib turibdi. Chunki, 20,0 mln. so‘m riskka tortilgan aktivlarning summasi muddatli mablag’lar hisobidan emas, balki talab qilingan mablag’lar hisobidan amalga oshirilgan.

Buni quyidagi misolda batafsil ko‘rib chiqamiz. Masalan, balansdagi muddatsiz depozit hisobidan 40 mln. so‘m kreditni yillik 14 foiz to‘lov asosida kreditga berdi, bankning marjasi (foydasi) 14 foizni tashkil etmoqda, chunki muddatsiz depozitni qabul qilish shartida foiz to‘lovi ko‘zda tutilmagan.

Albatta, ushbu operatsiya natijasida bank foydasi yuqori bo‘lsada, muddatsiz depozit hisobidan berilgan kreditning risk darajasi ham yuqori bo‘ladi, chunki muddatsiz depozit sohibi kutilmagan paytda mablag’ni qaytarish talabi bilan bankka murojaat qilishi mumkin. Biroq, riskli aktiv va muddatsiz depozit o‘rtasida muddatlari bo‘yicha vujudga kelgan nomuvozanatlik gep-tahlili yordamida boshqariladi. Bu

[39]Iqtisodiy tahlilida iqtisodiy-matematik usullardan foydalanishning ahamiyati. Iqtisodiy tahlilda matematik usullarni qo‘llash tahlil natijalarini obyektiv

holat (gep-tahlili) da Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning fondli usulida mavjud bo‘lgan muammolardan tashqari quyidagi muammolar vujudga kelishi mumkin:

– kredit oluvchi o‘z vaqtida kredit summasini qaytara olmasligi;
– depozit sohibi muddatidan ilgari depozitni talab qilishi;
– boshqa ko‘zda tutilmagan ziddiyatli holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning gep-tahlili usulini qo‘llaganda moliya bozorida foiz stavkalari 5-10 yillik davrga tahlil etilib, foiz stavklarining eng past, eng yuqori, barqaror yoki tez o‘sib boradigan yoki pasayadigan stavkalarida bir necha (odatda 10 tagacha) ssenariylar ishlab chiqiladi.

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning gep-tahlili bo‘yicha ishlab chiqilgan har bir ssenariy bank balansi barqarorligi va likvidligiga ta’sir darajasi aniqlanadi. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan ssenariylarning ichida bank foyda darajasi past, risk darajasi va zarar ko‘rish xavfi yuqori bo‘lganlari bo‘yicha bank balansi korrektirovka qilinadi, shundan so‘ng eng ma’qul ssenariy tanlanib riskli operatsiyalarni amalga oshirish yuzasidan qaror qabul qilinadi.

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning fond va gep-tahlili usullaridan likvidlilik riskini baholashning ayrim instrumenti sifatida foydalanish mumkin. Biroq, ushbu usullar likvidlik riskini samarali boshqarish imkoniyatini bermaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning usullari va yo‘llari hozirgi kunga kelib jiddiy o‘zgarishlarga yuz tutdi. Ayniqsa, 1980 yillarda bank muassasalari tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishda asosan aktivlar va passivlarning bozor qiymatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsa, 1990 yillardan keyin aktiv va passivlarni bozor riski orqali boshqarishning asosiy ob’ektiga aylandi.

Zamonaviy sharoitda tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning an’anaviy (fond usuli, aktivlarni taqsimlash usuli) usullari asosida banklarning quyidagi operatsiyalari boshqariladi:

– Kreditlash operatsiyalari;
– Deposit operatsiyalari;
– Riskli aktivlarni sug’urtalash operatsiyalari.

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning noan’anviy usullari sifatida xedjerlash va sekyuritizatsiyalashni ta’kidlash lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning ushbu usullari juda keng va samarali qo‘llanilmoqda.

Xedjirlash – bu kelgusida bozor riski va foizlarining o‘zgarish ehtimolini aniqlash va undan himoyalanish maqsadida muddatli sug’urta kontraktlarni tuzish tizimidir. Bir so‘z bilan aytganda, tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishda vujudga kelish ehtimoli bo‘lgan risklarni kamaytirish va bartaraf etish hamda moliyaviy yo‘qotishlarni oldini olish maqsadida xedjerlash qo‘llaniladi.

Kurslar (baho)ning o‘zgarishi natijasida vujudga keladigan risklarni sug’urtalash maqsadida tuzilgan shartnoma “xedjv” bo‘lib, xedjerlashni amalga oshirayotgan xo‘jalik sub’ekt “xedjer” hisoblanadi. Ushbu usul muta’dil bahoni belgilash va daromad olish yoki mo‘ljaldagi xarajatni qilish imkoniyatini beradi. Albatta, riskli operatsiyalarni xedjerlash ular bilan bog’liq risklarni batamom yo‘qotib yuborish imkoniyatini bermaydi, balki ushbu xedjerlashda risk transformatsiyasi yuz berib, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan riskni vositachi o‘z zimmasiga oladi.

Xedjerlashda operatsiyalarning ikkita holati inobatga olinadi:

1) *kurs (baho)larning oshishini xedjerlash;*

2) kurs (baho)larning pasayishini xedjerlash.

Aktivlarni boshqarishda qo‘llaniladigan sekyuritizatsiyalash mexanizmi 1990 yillarda AQSHda vujudga keldi. Sekyuritizatsiyalash juda tez muddatda bank aktivlarini boshqarishda va moliya bozorlarida risklarni pasaytirishda olamshumul ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mohiyatiga ko‘ra sekyuritizatsiyalash, bankka daromad keltiruvchi aktivlarni zudlik bilan sotish imkoniyatini beruvchi obligatsiya yoki boshqa qimmatli qog’ozlarning emissiyasi orqali likvid mablag’larga aylantirish tartibidir.

Biroq, sekyuritizatsiyalash aktivlarni boshqarishning bevosita risk bilan bog’liq usullaridan biri bo‘lib, risk darajasining yuqori yoki past bo‘lishi emitentning mahalliy va xalqaro moliya bozorlardagi moliyaviy holati va nufuziga bog’liqdir.

3.3. Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Aktivlarning optimal tarkibini shakllantirish;

2. Aktivlarning daromadliligi va risk darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash;

3. Pul oqimlariga bo‘lgan barcha ehtiyojlarni qondirish imkonini beradigan darajada likvidlilikni saqlash;

4. Aktivlarning foiz stavkalari va valyuta kurslarining tebranishlariga nisbatan moslashuvchanligini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ilg’or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini takomillashtirish, suningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish va milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash, bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida belgilab berilganligi tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi[40].

Harakatlar strategiyasida bank tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi va 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3272-sonli “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarorlari va 2020—2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g’risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni qabul qilindi.

Ayni vaqtda, respublikamiz tijorat banklari aktivlarini boshqarishni takomillashtirish bilan bog’liq bo‘lgan muammolarning mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan:

1. Tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida daromad keltirmaydigan aktivlarning (kassadagi naqd pullar, tijorat banklarining milliy valyutadagi va xorijiy valyutadagi “Nostro” vakillik hisobraqamidagi pul mablag’lari) salmog’ini nisbatan yuqori ekanligi.

[40]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – № 6 (766). – 32-б.

Taraqqiy etgan mamlakatlar tijorat banklarining aktivlari tarkibida salmog’iga ko‘ra ikkinchi o‘rinni (birinchi o‘rinni kreditlar egallaydi) bankning qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalari egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibida esa, salmog’iga ko‘ra ikkinchi o‘rinni kassali aktivlar egallaydi. Bu esa, aktivlarning daromadlilik darajasini past ekanligidan dalolat beradi.

2. Muddati o‘tgan kreditlar miqdorining katta ekanligi.

Ayniqsa, davlat dasturlari doirasida berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik miqdori katta.

3. Milliy valyutaning qadrsizlanish sur’atining yuqori ekanligi.



3.1-rasm. Milliy valyuta-so‘mning 1 AQSH dollariga boshlang’ich davrga nisbatan o‘sish sur’ati[41]

Shunday qilib, 1995-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan sezilarli o‘zgarishi to‘g’risida xulosa chiqarish mumkin (jadval).

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 1995-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda AQSh dollariga nisbatan milliy valyuta kursida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Jadval tahlili Shuni ko‘rsatadiki, valyuta kursi yiliga 449 018 marta yoki o‘rtacha 1 287 marta oshgan. Bu kursning yiliga 28,7% ga oshishini anglatadi. 2001, 2002 va 2017-yillarda valyuta kursining bunday keskin o‘zgarishiga mamlakatning pul-kredit siyosatidagi davlat to‘ntarishi sabab bo‘ldi. Masalan, AQSh dollarining

[41] ЎР МБ расмий сайти маълумотлари асосида (www.cbu.uz).

rasmiy kursi 2020-yil 4-aprelga 149, 38 so‘mdan 231, 00 so‘mgacha (54, 6% o‘sish), 2001-yil 11-yanvarga 433, 70 so‘mdan 68, 90 so‘mgacha (57, 0% o‘sish), 5-sentabrga o‘zgardi. 2017-yil 421,35 so‘mdan 8100,00 so‘mgacha (92,4% o‘sish). 24 yil ichida o‘rtacha ko‘rsatkich 27,4% ga oshdi.



3.2-rasm. Milliy valyuta-so‘mning 1 AQSH dollariga nisbatan nominal almashuv kursi, so‘m[42]

Bloomberg agentligi tomonidan o‘zbek so‘mi dunyo bo‘yicha 2017-yilning eng qadrsiz valyutasi deya e’lon qilindi. O‘zbek so‘midan oldingi o‘rinda kelgan Kongo frankining qadrsizlanish sur’ati 27 foizni tashkil etdi.

3.4. Tijorat banklari passivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari

Tijorat banklari passivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1) Passivlarning optimal tarkibini shakllantirish;
2) Depozitlarning etarliligini ta’minlash;
3) Regulyativ kapitalning etarliligini ta’minlash;
4) Passivlarning foiz stavkalari va valyuta kurslarining tebranishlariga nisbatan moslashuvchanligini ta’minlash;

[42] ЎР МБ расмий сайти маълумотлари асосида (www.cbu.uz).

5)Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlarning investitsion jozibadorligini ta’minlash.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari passivlarining umumiy hajmida salmog’iga ko‘ra ikkinchi o‘rinni (birinchi o‘rinda depozitlar) bankning qimmatli qog’ozlarini sotishdan olingan pul mablag’lari egallaydi. O‘zbekiston Respublikasida esa, tijorat banklari passivlarining umumiy hajmida salmog’iga ko‘ra ikkinchi o‘rinni regulyativ kapital egallaydi. Bu esa, banklarning qimmatli qog’ozlar bilan amalga oshiriladigan emission operatsiyalarining rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Depozitlar tijorat banklarining passivlari tarkibida eng yuqori salmoqqa ega bo‘lganligi sababli, uning etarliligini ta’minlash tijorat banklarining kreditlash salohiyati oshirish va investitsion operatsiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Tijorat banklari kapitalining etarliligini ta’minlash ularning to‘lovga qobilligini ta’minlashning birlamchi zaruriy sharti hisoblanadi.

Tijorat banklari Markaziy bank bilan to‘g’ri REPO va teskari REPO operatsiyalarini amalga oshiradilar.

To‘g’ri REPO – bu Markaziy bank tomonidan qimmatli qog’ozlarni tijorat banklariga qaytarib sotib olish sharti bilan sotishdir.

Teskari REPO – bu Markaziy bank tomonidan qimmatli qog’ozlarni tijorat banklaridan qaytarib sotish sharti bilan sotib olishdir.

Teskari REPO bitimlari tijorat banklarining likvidliligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Qimmatli qog’ozlar prospekti bank boshqaruvi tomonidan tayyorlanadi va boshqaruv raisi va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi.

Qimmatli qog’ozlar prospektida quyidagi ma’lumotlarning bo‘lishi shart:

1. Emitent to‘g’risidagi ma’lumotlar
2. Emitentning moliyaviy holati to‘g’risidagi ma’lumotlar
3. Qimmatli qog’ozlarni oldingi emissiyasi to‘g’risidagi ma’lumotlar.

Suningdek, tijorat banklari mijozlarning topshirig’iga ko‘ra anderrayting operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Tijorat banki tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlarning investitsion jozibadorligini ta’minlash ularni bozor baholarida sotish imkonini beradi. Bu esa, bankning resurs bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz tijorat banklarining passivlarini boshqarishni takomillashtirish bilan bog’liq bo‘lgan muammolar:

1. Tijorat banklarining resurs bazasining etarli emasligi.

3.4. - Jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jami depozitlari[43]

Davr	Jami	Shu jumladan							
		jismoniy shaxslardan				yuridik shaxslardan			
		Jami	Shundan			Jami	Shundan		
			talab qilib olinuvchi depozitlar	jamg’arma depozitlar	muddatli depozitlar		talab qilib olinuvchi depozitlar	jamg’arma depozitlar	muddatli depozitlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2022 yil	**3 738 723,60**	**671 362,70**	**618 213,80**	**13 433,30**	**39 715,60**	**3 067 360,8**	**2 638 871,80**	**381 687,10**	**46 801,90**
Yanvar	237 737,30	35 040,50	32 441,30	559,8	2 039,40	202 696,80	166 705,50	31 899,10	4 092,10
Fevral	228 760,20	37 639,90	35 095,60	586,9	1 957,40	191 120,20	165 597,70	22 267,10	3 255,50
Mart	265 860,30	45 556,60	42 154,80	754	2 647,80	220 303,60	191 438,30	22 714,50	6 150,80
Aprel	318 824,90	53 033,10	48 320,70	990,7	3 721,70	265 791,80	222 131,10	39 624,30	4 036,40
May	285 888,40	48 169,40	44 062,90	1 082,50	3 023,90	237 719,00	201 154,60	31 471,50	5 092,90
Iyun	350 681,60	60 554,80	55 264,80	1 254,60	4 035,40	290 126,70	246 281,50	38 631,10	5 214,10
Iyul	316 606,30	58 921,80	54 468,00	1 104,90	3 348,90	257 684,50	220 799,60	34 414,80	2 470,20
Avgust	358 982,30	68 505,40	62 673,70	2 238,20	3 593,60	290 476,90	250 473,70	37 335,70	2 667,50
Sentyabr	305 457,40	57 663,50	52 999,90	1 220,00	3 443,60	247 793,90	214 882,60	29 377,00	3 534,40
Oktyabr	312 587,40	64 247,30	59 645,20	1 256,90	3 345,20	248 340,10	220 600,20	24 588,50	3 151,40
Ноябрь	350 909,20	67 139,60	61 582,10	1 245,70	4 311,80	283 769,60	248 498,40	31 551,60	3 719,60
Noyabr	406 428,20	74 890,70	69 504,60	1 139,10	4 246,90	331 537,60	290 308,60	37 811,90	3 417,00
2023 yil	**3 185 775,3**	**703 715,40**	**640 297,70**	**16 051,60**	**47 366,00**	**2 482 060,0**	**2 170 293,80**	**269 260,00**	**42 506,20**
Yanvar	276 373,70	55 233,90	49 887,40	1 132,50	4 214,00	221 139,80	193 578,70	24 103,30	3 457,80
Fevral	300 481,90	65 701,70	60 464,60	1 154,70	4 082,50	234 780,20	206 686,60	24 792,80	3 300,80
Mart	345 576,80	76 886,90	69 143,90	3 231,40	4 511,60	268 689,90	237 322,80	25 599,70	5 767,40
Aprel	323 387,60	75 800,80	70 114,10	1 206,30	4 480,40	247 586,80	215 233,60	25 538,50	6 814,70
May	381 272,00	86 095,70	78 180,30	1 714,00	6 201,30	295 176,30	261 738,40	29 955,60	3 482,40
Iyun	348 267,40	81 434,70	74 831,20	1 578,80	5 024,70	266 832,80	232 504,40	30 660,80	3 667,60
Iyul	390 569,10	84 695,50	77 018,60	2 043,50	5 633,50	305 873,50	265 217,20	35 886,90	4 769,40
Avgust	433 834,70	98 013,20	88 983,40	2 067,00	6 962,80	335 821,50	292 148,50	38 782,90	4 890,10

[43] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning yillik hisoboti

Sentyabr	386 012,20	79 852,90	71 674,20	1 923,50	6 255,20	306 159,30	265 863,70	33 939,60	6 356,00

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jami depozitlari hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog’i 88,2 foizni tashkil etdi. Bu esa, banklarning depozit bazasini etarli emasligini ko‘rsatadi. Chunki, tijorat bankining depozit bazasi etarli bo‘lishi uchun talab qilib olinadigan depozitlarning jami depozitlardagi salmog’i 30 foizdan oshmasligi kerak.

2. Tijorat banklarining qimmatli qog’ozlar bilan amalga oshiriladigan emission operatsiyalarining rivojlanmaganligi.

2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston tijorat banklarining aktivlari 652,16 trln. so‘mni tashkil etdi. 2022-yilga nisbatan aktivlarning real o‘sishi 12% ni tashkil etdi.

O‘zbekiston bank tizimining boshqa ko‘rsatkichlari:

Kredit investitsiyalari 471,41 trln. so‘mni tashkil etadi, bu 2023-yil 1-yanvarga nisbatan 16 foizga ko‘pdir.

Depozitlar - 241,69 trln so‘m, o‘sish 9 %.

Jami kapital 97,08 trln so‘m, Real o‘sish 2022-yilga nisbatan 22-foizni tashkil etdi.[44]

3. Tijorat banklari kapitalining tarkibida devalvatsiya zaxirasi va imtiyozli kreditlash fondining mablag’lari kabi nobarqaror moliyalashtirish manbalarining mavjudligi.

Bazel standartining talablariga ko‘ra, devalvatsiya zaxirasini tijorat banklarining kapitali tarkibiga kiritish mumkin emas. Respublikamiz tijorat banklarida esa, devalvatsiya zaxirasi birinchi darajali kapital tarkibiga kiritilgan. Holbuki, birinchi darajali kapital faqat barqaror moliyalashtirish manbalaridan tashkil topgan bo‘lishi kerak. Tijorat banki og’ir moliyaviy ahvolga tushib qolganida, birinchi darajali kapitaldan foydalanish yo‘li bilan ana shu og’ir ahvoldan chiqib ketishi lozim.

4. Tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarning etishmasligi.

Tijorat banklari resurslarining asosiy qismini (70 foizdan ortiq qismini) qisqa muddatli resurslar tashkil etadi. Bu esa, tijorat banklarining uzoq muddatli aktiv operatsiyalari hajmini oshirishga to‘sqinlik qiladi.

[44] https://uzdaily.uz/ru/post/83624

Qisqacha xulosalar

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish aniq tamoillarga tayanadi. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

-aktivlarning daromadliligi va risk darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash tamoili;

-aktivlar portfellarini diversifikatsiya qilish tamoili;

-to‘g’ri investitsion qarorlar qabul qilish tamoili;

-pul oqimlarining etarliligi tamoili;

-foiz stavkalari, valyuta kurslari va tovarlarning baholarini o‘zgarishiga moslashuvchanlik tamoili;

-bank qimmatli qog’ozlarining investitsion jozibadorligini ta’minlash tamoili;

-depozitlarning etarliligini ta’minlash tamoili;

-kapitalning etarliligini ta’minlash tamoili;

-bank likvidliligini ta’minlash tamoili;

-transformatsiya tamoili;

-aktiv va passivlar bo‘yicha daromad va xarajatlarni nazorat qilish tamoili;

-bank resurslarining etarliligi tamoili;

-zaxiralar yaratish tamoili;

-risklarni minimallashtirish tamoili.

Tijorat banklarni aktiv va passivlarni boshqarishda bir necha usullaridan foydalaniladi, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- fond usuli;
- muddatlar bo‘yicha taqsimlash usuli;
- gep-tahlili;
- xedjirlash;
- sekyuritizatsiyalash.

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

-aktivlarning optimal tarkibini shakllantirish;

-aktivlarning daromadliligi va risk darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash;

-pul oqimlariga bo‘lgan barcha ehtiyojlarni qondirish imkonini beradigan darajada likvidlilikni saqlash;

-aktivlarning foiz stavkalari va valyuta kurslarining tebranishlariga nisbatan moslashuvchanligini ta’minlash.

Tijorat banklari passivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

-passivlarning optimal tarkibini shakllantirish;

-depozitlarning etarliligini ta’minlash;

-regulyativ kapitalning etarliligini ta’minlash;

-passivlarning foiz stavkalari va valyuta kurslarining tebranishlariga nisbatan moslashuvchanligini ta’minlash;

-bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlarning investitsion jozibadorligini ta’minlash.

Tayanch so‘z va iboralar

Daromad, aktivlar portfeli, kapitalning etarliligi, transformatsiya riski, likvidlilig, fond usuli, taqsimlash usuli, gep- tahlil usuli, xednirlash usuli, sekyuritizatsiyalash usuli, riskli va risksiz aktiv, zaxiralar, prinsip. Pul oqimlari, valyuta kursi, regulyativ kapital, passiv foiz stavkalari jozibadorligi, to‘g’ri REPO, teskari REPO, qimmatli qog’ozlar prospekti, nobarqaror moliyalashtirish manbalari, likvidlilik, aktivlarning optimal tarkibini shakllantirish, aktivlarning daromadliligi, passivlarini boshqarish, optimal tarki.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish tamoillari
2. Aktivlar va passivlarni boshqarishni fond usuli.
3. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishni muddatlari bo‘yicha taqsimlash usuli.
4. Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda gep-tahlili usulidan foydalanish qanday amalga oshiriladi?
5. Tijorat banklari aktiv va passivlarni boshqarishda xedjirlash usulidan foydalanish deganda nimani tushunasiz?
6. Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda sekyurizatsiya usulidan foydalanish deganda nimani tushunasiz?
7. Xedjerlashda operatsiyalarning ikkita qanday holati inobatga olinadi?
8. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish tamoillardan kompleks foydalanishga salbiy ta’sir qilayotgan omillar qanday?
9. Tijorat banki aktivlarining optimal tarkibini shakllantirish.
10. Bank passivlarining optimal tarkibini shakllantirish.

11. Tijorat banklari aktivlarining daromadliligi bilan jalb qilingan mablag’lar bo‘yicha xarajatlar o‘rtasidagi ijobiy farqni ta’minlash deganda nimani tushunasiz?

12.Tijorat banklarining daromadliligi va risk darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash.

13.Tijorat banklarida pul oqimlariga bo‘lgan barcha ehtiyojlarni qondirish imkonini beradigan darajada likvidlikni saqlash deganda nimani tushunasiz?

14.Tijorat banklarida aktivlar va passivlarni foiz stavkalari va valyuta kurslarining tebranishlariga nisbatan moslashuvchanligini ta’minlash.

15.Tijorat banklari passivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari

16.Passivlarning optimal tarkibini qanday shakllantiriladi?

17.Depozitlarning etarliligini ta’minlash

18. Regulyativ kapitalning etarliligini ta’minlash

19.Passivlarning foiz stavkalari va valyuta kurslarining tebranishlariga nisbatan moslashuvchanligini ta’minlash

20.Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlarning investitsion jozibadorligini ta’minlash

4-bob. TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI TA’MINLASH VA UNI BOSHQARISH

4.1.Tijorat bankining likvidliligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar

Tijorat bankining likvidliligi – bu bankning mijozlari va boshqa banklar oldidagi to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajara olish qobiliyatidir.

Bank tizimining likvidliligi – bu mamlakatdagi banklar orqali o‘tadigan to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlash imkoniyatidir.

Tijorat banklarining likvidliligini ta’minlash banklarning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini oshirish, milliy iqtisodiyotdagi to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlashning zaruriy sharti ekanligi xalqaro va milliy bank amaliyotida isbotlangan. Xususan, mamlakat bank tizimida likvidlilik muammosining paydo bo‘lishi beriladigan kreditlar miqdorining kamayishiga, banklar orqali o‘tadigan to‘lovlarning kechikishiga va o‘tmay qolishiga sabab bo‘lishi amaliyotda o‘zining isbotini allaqachon topgan. Shu sababli, mamlakat bank tizimining likvidliligini ta’minlash masalasi har doim tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning asosiy masalalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Ta'kidlash joizki, 2020-il 12-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5992-sonli "2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g’risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo‘yicha "yo‘l xaritasi" hamda strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

Mazkur strategiya Markaziy bank va Moliya va iqtisodiyot vazirligi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda mamlakat bank tizimining joriy holatini o‘rganish natijalari bo‘yicha asosiy xulosalar va tavsiyalar, suningdek xorijiy davlatlarning moliya sektorini transformasiya qilish tajribasi hamda moliya sohasidagi xalqaro tendentsiyalarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi.

Strategiyada bank tizimida hozirgi kunda saqlanib qolayotgan muammo va dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan:

-kreditlashning yuqori sur’atlarda o‘sib borayotganligi va buning natijasida banklarning barqarorlik darajasini ifodalovchi likvidlilik va kapital etarlilik ko‘rsatkichlariga salbiy ta'sir etayotganligi;

-bank nazoratining xalqaro prinsiplari doirasida tijorat banklari kapitalining etarliligi, likvidliligi va barqarorligi bo‘yicha talablarni bajarish vazifasi qo‘yilganligi.

Banklarning joriy likvidliligini baholash.

I. AQSH amaliyoti:

JLK= BZ:D

Bu erda:

JLK –joriy likvidlilik koeffitsienti

BZ - birlamchi zaxiralar

D - depozitlar

min: 0,10 yoki 10%

II. Yaponiya amaliyoti:

JLK = (BZ + IZ):D

Bu erda:

JLK – joriy likvidlilik koeffitsienti

BZ - birlamchi zaxiralar

IZ - ikkilamchi zaxiralar

D - depozitlar

min: 0,30 yoki 30%

III. Fransiya amaliyoti:

JLK = (LA + YA 30 kQA): (JD + YA30kTM)

Bu erda:

LA –likvidli aktivlar

YA30kQA- yaqin 30 kun ichida qaytariladigan aktivlar

JD – joriy depozitlar

YA 30 kTM – yaqin 30 kun ichida to‘lanadigan majburiyatlar

min:1,0 yoki 100%.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g’risida”gi va 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonlli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Qarorlarida Bazel qo‘mitasining bank nazorati bo‘yicha yangi talablarini mamlakat bank amaliyotiga joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar qo‘yildi.

Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda Markaziy bankning 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyuldagi 2693-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomalari qabul qilindi.

Hozirgi davrda respublika tijorat banklarining likvidligini baholash va boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g’risida”gi nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

Mazkur yo‘riqnomaga ko‘ra, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining joriy likvidligiga nisbatan iqtisodiy me’yor o‘rnatilgan. Ushbu iqtisodiy me’yorning eng past darajasi 30% bo‘lib, u joriy aktivlarning summasini (to‘lov muddati 30 kungacha bo‘lgan bankning likvidli aktivlari va quyilmalari, bundan muddati uzaytirilgan yoki qaytarish muddati o‘tgan kreditlar mustasno) joriy majburiyatlar (talab qilib olinguncha va ijro etish muddati 30 kungacha bo‘lgan majburiyatlar) summasiga nisbati orqali aniqlanadi.

$$JLK = \frac{JA(TM30_kLAQ)}{JM(TQO_M30_cM}$$

Mazkur me’yoriy talabning bajarilishi Markaziy bank tomonidan doimiy ravishda nazorat qilinadi va tijorat banklarining likvidligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Uning kamida 30% bo‘lishini ta’minlash uchun tijorat banklari joriy likvidli aktivlar va joriy majburiyatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashlari zarur. Buning uchun esa, ular aktivlar va passivlarning optimal tarkibini shakllantirishlari zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 22 iyuldagi 19/14-sonli “Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘rqnomasiga asosan respublikamiz tijorat banklarining faoliyatiga sof barqaror

moliyalashtirish me’yori va likvidlikni qoplash me’yori ko‘rsatkichlarining kiritilishi, fikrimizcha,

-birinchidan, tijorat banklarining likvidligini barqaror tarzda saqlab turish imkonini beradi;

-ikkinchidan, banklar faoliyatida mavjud bo‘lgan transformatsiya riskiga barham beradi;

-uchinchidan, resurssiz kreditlash holatining yuzaga kelishiga imkon bermaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bazel-III standarti talablaridan kelib chiqqan holda, sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti va likvidlikni qoplash me’yori ko‘rsatkichlarini aniqlash metodikalarini tasdiqladi. Unga ko‘ra, sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti barqaror moliyalashtirishning mavjud summasini barqaror moliyalashtirishning zaruriy summasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Likvidlikni qoplash me’yorii ko‘rsatkichi yuqori likvidli aktivlarni keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati sifatida aniqlanadi.

Mazkur koeffitsientni joriy etilishi tijorat banklari passivlarining barqarorligini ta’minlash bilan birga, ularning likvidlik darajasini oshirishga ham xizmat qiladi.

4.2. Tijorat banklarining likvidliligiga ta’sir etuvchi omillar

Banklarda likvidlikni boshqarishga ichki va tashqi omillar ta’sir qiladi.

Ichki omillarga quyidagilar kiradi:

1) Bank aktivlarining sifati (bank kredit portfeli tarkibida riskli aktivlar va ularga hisoblangan to‘lovlarni o‘z vaqtida qaytarilishi);

2) Jalb qilingan mablag’larning sifati (uzoq muddatli moliyaviy resurslar ulushining yuqoriligi);

3) Jalb qilingan mablag’lar va riskli aktivlar o‘rtasida o‘zaro muvozanatning ta’minlanishi;

4) Bank boshqaruvini tashkil etilganligi va uning moliya bozordagi imidji.

Banklarning likvidligini samarali boshqarishga uning kapitallashuv darajasining yuqori darajada ta’minlanganligi muhim hisoblanadi. Bank kapitali tarkibida ustav kapitali va qo‘shilgan kapital miqdori va sifatining yuqoriligi bank likvidligi ta’minlashda muhim moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi. Bank kapitalining darajasi qanchalik

yuqori bo‘lsa uning likvidligini ta’minlanganligi shu darajada yuqori bo‘ladi.

Bundan tashqari bank aktivlari (kredit portfeli)ning yuqori sifatga ega bo‘lishi uning likvidligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy bankning 2015-yil 14-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2696-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g’risidagi” Nizomiga muvofiq aktivlar beshta mezon asosida tasniflanadi. Xususan bank aktivlari:

1) Standart aktivlar;
2) Substandart aktivlar;
3) Qoniqarsiz aktivlar;
4) Shubhali aktivlar;
5) Umidsiz aktivlarga tasniflanadi.

Banklarning likvidligini boshqarishga ta’sir etuvchi tashqi omillar:

1) Mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holat;
2) Banklararo va qimmatli qog’ozlar bozorining rivojlanganlik darajasi;
3) Markaziy bankning pul-kredit siyosati (asosan qayta moliyalash stavkasi, ochiq bozor siyosati va majburiy zaxira stavkasi bevosita ta’sir qiladi);
4) Markaziy bank tomonidan samarali nazorat faoliyatini tashkil etilganligi.

Mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holatning barqarorligi mahalliy va xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar, investorlar va boshqa iqtisodiy hamkorlarning banklarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga bu esa o‘z navbatida likvidlik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Busiz banklar kuchli depozit bazasini shakllantirish va yuqori rentabellik ko‘rsatkichlariga erishish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

Mamlakatda barqaror banklararo va qimmatli qog’ozlar bozorining faoliyat yuritishi banklarning likvid mablag’larga bo‘lgan talabini zudlik bilan qondirish imkoniyatini beradi.

Banklarning likvidligini boshqarish ularning balansidagi qoldiqlari bilan chambarchas bog’liqdir. Bank likvidligi ta’minlangan bo‘lishi uchun bank vakillik hisobvarag’ida naqdsiz pullarga, kassada tegishli miqdorda naqd pullarga ega bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillar quyidagilardan iborat:

1. Tijorat banklarida transformatsiya riskining chuqurlashib ketganligi.

Ma’lumki, transformatsiya riski tijorat banki aktivlarining joylashtirish muddati jalb qilingan resurslar muddatidan katta bo‘lishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu riskni qisqa muddat ichida bartaraf qilinmasligi bankda balanslashmagan likvidlilik muammosining chuqurlashishiga olib keladi.

Qayd etish joizki, respublikamiz yirik tijorat banklarining barchasida transformatsiya riski mavjud.

Biz quyida AT “Agrobank”da transformatsiya riski darajasiga baho beramiz (4.1-jadval).

4.1-jadval

AT “Agrobank” aktivlari va majburiyatlarining tarkibi 2021-2024 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra[45]

	01.01.2021	**01.01.2022**	**01.01.2023**	**01.01.2024**
Kapital	5371	9346	9505	12297
Aktivlar	31230	39989	53086	66700
Kreditlar	24997	32258	43846	54483
Majburiyatlar	25859	30643	43581	54403

4.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, AT “Agrobank” kapitali 2021 yildan 2024 yilgacha 2,28 barobarga, aktivlar 2,1 barobarga, kreditlar ham 2,1 barobarga va majburiyatlarapital va majburiyatlar har 2,1 barobarga oshganingini ko‘rsatadi. Xuddi shundae 2024-yil ko‘rsatkichlarini o‘sganligini **4.1-rasm** malumotlari orqali ham yana birbor asoslash mumkin.

2. Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik miqdorining katta ekanligi.

Kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik muammosining chuqurlashib ketishi ushbu masalani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga oid chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarorida talablarini banklar tomonidan bajarish asos bo‘lib hisoblanadi.

[45] https://agrobank.uz/ru/shareholders-and-investors/financial



4.1-rasm. “Agrobank” ATB aktivlar va majburiyatlar tarkibi[46]

Mazkur Qarorda respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan va 2017-yilning yakuniga kelib muddati tugaydigan 7220 mlrd. so‘m miqdoridagi kreditni qaytarish grafigiga qat’iy rioya qilgan holda qaytarishni ta’minlash va 2017-yilda 290 mlrd. so‘m miqdoridagi, 2018-yilda esa, 460,4 mlrd. so‘m miqdoridagi muddati o‘tgan kreditlarni undirish talabi qo‘yilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozor operatsiyalarining past darajada va rivojlanganligi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari tijorat banklarida yuzaga kelgan balanslashmagan likvidlilik muammosini hal qilishda muhim o‘rin tutadi.

Markaziy banklar banklardagi balanslashmagan likvidlilik muammosini hal qilish maqsadida teskari REPO operatsiyalaridan faol foydalanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozor operatsiyalari mavjud emas. Buning sababi shundaki, respublikamiz Markaziy banki o‘zining ochiq bozor operatsiyalarining ob’ektlari sifatida faqat Hukumatning qimmatli qog’ozlarini tan oladi. Hukumatning qimmatli qog’ozlari esa, Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilayotganligi sababli, 2013-yil 1-yanvardan boshlab emissiya juda kam miqdorda qilinyapti.

Mamlakatimizda fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan bir necha urinishlar amalga oshirilganiga qaramay, fond bozorining mamlakat rivojlanishidagi o‘rni hamon pastligicha qolmoqda. Ayniqsa,

[46] https://agrobank.uz/ru/shareholders-and-investors/financial

moliyalashtirish manbalarida qimmatli qog’ozlar ulushi ancha past. YaIMga nisbatan aksiya va obligatsiyalarni chiqarish hajmi o‘rtacha 1,8% (1 mlrd doll)ga teng.[47]

4. Respublika Markaziy bankining diskont va lombard kreditlari mavjud emas. Bu esa, Markaziy bankga qayta moliyalash siyosati orqali bank tizimining likvidliligiga ta’sir etish imkonini bermaydi.

4.3. Tijorat banklarining likvidliligini ta’minlash yo‘llari

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligini ta’minlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Tijorat banklari aktivlari va majburiyatlarining muddatlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash va tranzaksion depozitlarning faqat barqaror qoldig’idan resurs sifatida foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali transformatsiya riskiga barham berish lozim.

Tranzaksion depozitlarda muddat mavjud emas. Buning ustiga, ularning beqarorlik darajasi juda yuqori. Shu sababli, ulardan to‘g’ridan-to‘g’ri resurs sifatida foydalanish, aktivlar va majburiyatlarning muddatlari o‘rtasidagi muvofiqlik ta’minlangan sharoitda ham, tijorat bankining likvidliligiga nisbatan kuchli salbiy ta’sirni yuzaga keltirishi mumkin.

2. Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik muammosini hal qilish maqsadida:

a) Mijozlarning kredit to‘loviga layoqatliligini baholashning xalqaro bank amaliyotida keng qo‘llanilayotgan, takomillashgan metodikalarini respublikamiz banklari amaliyotiga joriy qilish;

b) Tijorat banklarida muammoli kreditlarni “oldindan ogohlantirish” tizimini yaratish va uni takomillashtirish zarur;

c) Hukumat kafolatlari asosida berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikni o‘z vaqtida undirilishini ta’minlash maqsadida (Davlat byudjetida ortiqcha pul mablag’larining mavjud emasligini hisobga olib), maxsus Jamg’arma tashkil etish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga oid chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarorida Moliya vaziriga har yilgi Davlat byudjeti shakllantirilayotganda

[47] Z.D.Niyozov “Qimmatli qog’ozlar bozorida - vekselni muomalaga kiritishning iqtisodiy axamiyati” Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali Journal Human capital and social development Журнал Человеческий капитал и социальное развитие 2024 - volume 10, issue 4

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan xalqaro moliya institutlariga, xorijiy va mamlakat tijorat banklariga berilgan kafolatlarga xizmat qilish bo‘yicha tegishli xarajatlar moddasida pul mablag’larini ko‘zda tutish vazifasi yuklandi.

3. Bugungi kunda qimmatli qog’ozlar bozorida 33 ta emitentning faqat obligatsiyalari sotuvga chiqarilgan bo‘lib (foiz daromadlari 24 % gacha), ularning so‘ndirish muddatlari bir yildan ortiq muddatni tashkil etib, qisqa muddatli likvid instrumentlar bozori mavjud emas.[48]

Davlat qimmatli qog’ozlaridan ochiq bozor ob’ektlari sifatida foydalanish bilan bir vaqtning o‘zida xalqaro reyting agentliklarining (Standart & Poorts, Moods, Fitch Reytings) yuqori kredit reytingiga ega bo‘lgan (kamida VV reyting bahoga) tijorat banklari va korxonalarning qimmatli qog’ozlari (depozit sertifikatlari, jamg’arma sertifikatlari, obligatsiyalari) hisobidan Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarini yo‘lga qo‘yish lozim.

Buning uchun zarur shart-sharoitlarni ham yaratish lozim. Masalan, tijorat banklarida, Markaziy bankga, pul-kredit organi sifatida, ishonch bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, inflyasiya va milliy valyutaning qadrsizlanishi ta’sirida qimmatli qog’ozlarning real qiymati pasaymasligi kerak.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan markazlashgan diskont va lombard kreditlari berish amaliyotini yo‘lga qo‘yish hamda tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan to‘g’ridan - to‘g’ri kreditlar (overdraft, kunlik, muddatli shakllardagi kreditlar) berish uzluksizligini ta’minlash yo‘li bilan qayta moliyalash siyosatining bank tizimining likvidliligini ta’minlashdagi rolini oshirish zarur.

Markaziy bankning overdraft kreditlari tijorat banklarining milliy valyutadagi “Nostro” vakillik hisobraqamida yuzaga kelgan pul mablag’lari etishmasligi muammosini hal qilish maqsadida beriladi. Kunli kreditlar (overnayt) esa, bir operatsion kun davomida beriladi.

Dunyoning bir qator mamlakatlarida (Shvetsiya, Rossiya) kunlik kreditlar Markaziy banklar tomonidan qimmatli qog’ozlarni garovga olgan holda foizsiz beriladi va ular milliy to‘lov tizimini qo‘llab-quvvatlash maqsadida beriladi.

[48] Z.D.Niyozov “Qimmatli qog’ozlar bozorida - vekselni muomalaga kiritishning iqtisodiy axamiyati” Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali Journal Human capital and social development Журнал Человеческий капитал и социальное развитие 2024 - volume 10, issue 4

4.4. Tijorat banklarining likvidliligini boshqarish usullari

Bank likvidligini boshqarishning asosiy elementlari quyidagilar hisoblanadi:

1) Lahzalik, joriy va uzoq muddatli likvidlikni ta’minlash va holatini tahlil qilib borish;

2) Qisqa muddatli likvidlik bashoratini amalga oshirish;

3) Bankning likvidligiga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan holatlarni tahlil qilish (mahalliy va xorijiy moliya bozorlaridagi holatni o‘rganish, bank omonotchilari va qarzdorlarining moliyaviy holatlarini doimiy tahlil etib borish va boshqalar);

4) Bank likvidlik mablag’lari ortiqchaligi taqchilligini aniqlash;

5) Xorijiy valyutalar bilan bog’liq operatsiyalarning bank likvidlik darajasiga ta’sirini o‘rganish.

Banklarda likvidlikni boshqarishda uchta iqtisodiy (lahzalik, joriy va uzoq muddatli) me’yordan foydalaniladi. Ular bank aktivlari va passivlarini muddatlari, summalari, turlari va boshqa jihatlari nuqtai nazardan likvidlikni ta’minlashda qo‘llaniladi.

Yuqori likvidli mablag’lar bankning majburiyatlarini to‘xtovsiz, to‘liq va zudlik bilan bajarish imkoniyatini beradi. Biroq, ushbu mablag’lar (hukumat va Markaziy bankning qimmatli qog’ozlariga joylashtirilgan mablag’lar bundan istisno) bankka qo‘shimcha daromad keltirmaydi, aksincha saqlash, tashish va xavfsizligi ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha xarajatlarni talab etadi.

Banklarning past likivdli aktivlari zarur bo‘lganda zudlik bilan bankning majburiyatini qondirish imkoniyatini bermaydi, suningdek, ularni yuqori likvid mablag’lar (naqd pul)ga aylantirish jarayoni ancha qiyin bo‘lib, hatto har doim ham buning imkoniyati bo‘lavermaydi. Banklarning past likvidli aktivlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) Boshqa banklardagi mablag’lari;
2) Berilgan kreditlar;
3) Investitsiya, lizinga va ijarga joylashtirilgan mablag’lar;
4) Bino va inshoatlar.

Bankning boshqa banklardagi mablag’lari va berilgan kreditlarni yuqori likvidli aktivlarga aylantirish bo‘yicha ikkilamchi moliya bozorlari amal qilmaydi, depozitlarga joylashtirilgan va berilgan kreditlarning muddatlari tugagandan so‘ng bankka qaytariladi. Shundagina bank ulardan yuqori likvidli mablag’lar sifatida foydalanishi mumkin, ayrim hollarda berilgan kreditlar va unga

hisoblangan foiz to‘lovlari o‘z vaqtida qaytmasligi oqibatida bankning moliyaviy holatini battar og’irlashtiradi.

Agar, bank majburiyatlarni bajarish uchun etarli darajada yuqori likvidli mablag’larga ega bo‘lsa, u likvidligi ta’minlangan hisoblanadi. Biroq, bu juda murakkab jarayon hisoblanadi, buning murakkabligi shundaki, birinchidan, jalb qilingan mablag’larning asosiy qismi likvid aktivlarga joylashtirilishi bankning likvidligini oshirishga xizmat qilsada, uning foyda darajasini pasayishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, bank mijozlarning naqd pul va pul o‘tkazmalari bo‘yicha ehtiyojlarini to‘liq aniqlash imkoniyati mavjud emas, suningdek, bankning vakillik hisobvarag’iga likvid aktiv sifatida kelib tushadigan mablag’lar hajmini aniq summasini rejalashtira olmaydi.

Banklar likvid mablag’larni aktivlarni boshqarishning fond va taqsimlash usullari orqali ta’minlab borishlari mumkin, biroq jamiyatda ro‘y beradigan ko‘zda tutilmagan holatlar unga bevosita va bilvosita ta’siri natijasida likvid mablag’lar bilan bog’liq turli muammolar vujudga keladi. Xususan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, mijozlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchi va milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini pasayishi, bank mijozlari moliyaviy barqaroroligining zaiflashuvi va boshqa holatlar shular jumlasidandir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank likvidligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan mablag’lar hajmini aniqlash juda qiyin. Bank likvid mablag’larga bo‘lgan ehtiyojini baholash uchun juda yuqori aniqlikdagi bashorat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi lozim. Ayniqsa, banklar kredit portfeli talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit mablag’lari hisobidan shakllantirilgan bo‘lsa bankning likvidligini ta’minlash masalasi yanada murakkab bo‘ladi.

Bu jarayonni quyidagi shartli misol yordamida ko‘rib chiqamiz. Misolning tushunarli bo‘lishi uchun bankning shartli bitta mijozining hisobvarag’i bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarni olamiz[49].

1.Bankning “A” mijozi tomonidan sotilgan tovar moddiy qimmatliklari uchun bankdagi hisobvarag’iga 100 mln. so‘m mablag’ kelib tushdi va quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshirildi.

[49]Абдуллаева С.А. Банкларнинг тўлов қобилиятини мустаҳкамлаш масалалари: Монография. Т.: Иқтисод-молия, 2016. 11-13 бб.

4.2-jadval

Debet	*10301-»Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro»*	*100 000 000,00*
Kredit	*20208 -»Mol sotuvchining depozit hisobraqami»*	

2.Bank "B" mijoz bilan 6 oy muddatga kredit shartnomasini imzoladi, unga ko'ra kredit oluvchi mijozning to'lov topshiriqnomasiga asosan 50 mln. so'm boshqa bankning mijoziga o'tkazdi va quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshirildi.

4.3-jadval

Debet	*13101 –»B» mijozning ssuda hisobraqami»*	*50 000 000,00*
Kredit	*10301-»Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro»*	

Yuqorida keltirilgan ikkita operatsiya bo'yicha berilgan buxgalteriya yozuvini "T" schetlarda aks ettiradigan bo'lsak, bankning vakillik hisobvarag'i bo'yicha to'lov qobiliyati (likvidligi) bilan bog'liq muammoli holatni vujudga kelganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi (*summalar mln. so'mda keltirilgan*).

4.4-jadval

DT[50]	*10301*[51]	*KT*	*DT*	*20208*	*KT*	*DT*	*13101*	*KT*
1[52]	100,0		1		100,0			
2		50,0				2	50,0	
Oborot	*100,0*	*50,0*	*Oborot*		*100,0*	*Oborot*	*50,0*	
Qoldiq	*50,0*		*Qoldiq*		*100,0*	*Qoldiq*	*50,0*	

1 va 2 operatsiyalarni "T" schetda aks ettirganimizda 1-operatsiya bo'yicha vakillik hisobvarag'ida va mol sotuvchi "A"ning hisobvarag'ida 100,0 mln. so'm mablag' vujudga keldi.

2-operatsiya natijasida vakillik hisobvarag'ida va "B" mijoz bilan tuzilgan kredit shartnomasi bo'yicha uning to'lov topshiriqnomasiga

[50]ДТ-дебет, КТ-кредит
[51]Ёрдамчи китобнинг ҳисобварақлар режаси бўйича дастлабки бешта рақами
[52]Операцияларнинг кетма-кетликдаги рақами

binoan olingan kreditning maqsadi uchun 50,0 mln. so‘mni tovar moddiy qimmatliklari yoki xizmatlarga to‘lov sifatida o‘tkazilishi natijasida bankning ssuda hisobvarag’ida 50,0 mln. so‘m vujudga keldi.

Bu o‘z-o‘zidan bankning jalb qilingan mablag’lari bo‘yicha majburiyatni bajarish qobiliyatini yo‘qotishiga sabab bo‘ldi yoki boshqacha qilib aytganda, hozirgi holatida bank talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari bo‘yicha bajarishi zarur bo‘lgan (50 mln. so‘m) likvid mablag’larni yo‘qotadi. Agar shartli misol bo‘yicha mol sotuvchi “A”ning hisobvarag’iga mablag’ kelib tushgan kunining ertasiga 100,0 mln. so‘m yoki 60,0 mln. so‘mga to‘lov topshiriqnomasini taqdim etadigan bo‘lsa uni to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

E’tiborli jihati shundaki, mol sotuvchi “A”ning hisobvarag’idagi 100,0 mln. so‘m qoldiq saqlanib turibdi, biroq bankning to‘lov qobiliyati mavjud emasligi, ya’ni vakillik hisobvarag’ida 50,0 mln. so‘m qolganligi oqibatida to‘lovni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmay qoldi.

Albatta, bunday jarayonda bankning mijozlarini ko‘pligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, uning vakillik hisobvarag’iga boshqa mijozlardan kelib tushgan mablag’lar hisobidan to‘lovni amalga oshirishi mumkin, biroq bu holat ham bankning vakillik hisobvarag’idagi mablag’larni sezilarli darajadagi miqdorini riskli aktivlarga joylashtirishi natijasida o‘zining ahamiyatini yo‘qotadi.

Bizning nazarimizda, muammoning echimi sifatida mol sotuvchi “A”ning hisobvarag’idagi vaqtinchalik foydalanilmay turgan pul mablag’ini (50,0 mln. so‘mini) muddatli omonat shartnomasiga ko‘ra 6 oyga muddatli depozitga o‘tkazishi maqsadga muvofiq. Demak, 3-operatsiya natijasida quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

Debet	*20208 -»Mol sotuvchining depozit hisobraqami»*	*50 000 000,00*
Kredit	*20608 -“A” mijozning muddatli depozit hisobvarag’i*	

Bankda “A” mijoz bilan muddatli depozit bo‘yicha tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshirilgan 3 operatsiyaning buxgalteriya yozuvi “T” schetda quyidagi ko‘rinishda aks ettiriladi.

4.5-jadval

***D*t**	***20208***		***K*t**		***D*t**	***20608***	***K*t**
1		100,0					
3	50,0			3			50,0
Oborot	*50,0*			*Oborot*			*50,0*
Qoldiq		*50,0*		*Qoldiq*			*50,0*

Ko‘rib chiqilayotgan shartli misolimizga asosan bank “A” mijoz bilan tuzilgan muddatli shartnoma asosida 3-operatsiyani amalga oshirgandan so‘ng to‘lov qobiliyatiga ega bo‘ldi. Chunki, “A” mijozning hisobvarag’iga kelib tushgan mablag’ hisobidan “B” mijozga 6 oyga bergan kredit summasi miqdorida 6 oyga olingan muddatli depozit mablag’i mavjud.

Albatta, bank “B” mijozga bergan krediti hisobidan olgan foiz daromadining sezilarli qismini “A”mijozning omonati uchun foiz to‘lovi sifatida to‘ladi. Eng asosiysi, ushbu operatsiya natijasida bank to‘lovga layoqatli bo‘lish bilan birga, “A” mijozning bankka bo‘lgan ishonchini ortishiga va uning vaqtinchalik foydalanilmay turgan mablag’i bo‘yicha foiz to‘lov to‘lash imkoniyatiga erishmoqda. Navbatdagi masala bank 6 oyga bergan kredit summasi va unga hisoblangan foizlarni o‘z muddatida “B” mijozdan undirib olishi zarur bo‘ladi.

Qisqacha xulosalar

Tijorat bankining likvidliligi – bu bankning mijozlari va boshqa banklar oldidagi to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajara olish qobiliyatidir.

Bank tizimining likvidliligi – bu mamlakatdagi banklar orqali o‘tadigan to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlash imkoniyatidir.

O‘zbekiston Mamlakat bank tizimida likvidlilik muammosining paydo bo‘lishi beriladigan kreditlar miqdorining kamayishiga, banklar orqali o‘tadigan to‘lovlarning kechikishiga va o‘tmay qolishiga sabab bo‘lish amaliyoti mavjud.

Tijorat banklari likvidligini ta’minlash va boshqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bazel-III standarti talablaridan kelib chiqqan holda, sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti va likvidlikni qoplash me’yori ko‘rsatkichlarini aniqlash metodikalarini tasdiqladi. Banklarning likvidligini samarali

boshqarishga uning kapitallashuv darajasining yuqori darajada ta’minlanganligi muhim hisoblanadi.

Mamlakatda barqaror banklararo va qimmatli qog’ozlar bozorining faoliyat yuritishi banklarning likvid mablag’larga bo‘lgan talabini zudlik bilan qondirish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligini ta’minlash va boshqarishdagi omillar quyidagilardan iborat:

-tijorat banklarida transformatsiya riskining chuqurlashib ketganligi; -tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik miqdorining katta ekanligi;

-O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozor operatsiyalarining past darajada va rivojlanmaganligi;

-Respublika Markaziy bankining diskont va lombard kreditlari mavjud emasligi.

Tayanch so‘z va iboralar

Transformatsiya riski, resurssiz kreditlash, sof barqaror moliyalashtirish, me’yori koeffitsient, barqaror moliyalashtirish, standart, substandart, qoniqarsiz, shubxali, umidsiz, aktivlarni joylashtirish muddati, jalb qilingan resurslar, balanslashmagan likvidlilik, ochiq bozor operatsiyasi, diskont va lombard kreditlari, tranzaksion depozintlar, overdraft, lombard, lahzalik, joriy.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tijorat banki likvidliligi tushunchasi.
2. Bank likvidliligiga ta’sir qiluvchi omillar deganda nimani tushunasiz?
3. Tijorat banklarida likvidlilikni tavsiflovchi kursatgichlar.
4. Banklar likvidliligini ta’minlash yo‘llari.
5. Tijorat banklari likvidliligini boshqarish usullari.
6. Tijorat banklarida likvidlilikni beshta mezon asosida tasniflash.
7. Standart aktivlar, substandart aktivlar, qoniqarsiz aktivlar, shubhali aktivlar, umidsiz aktivlar deganda nimani tushunasiz?
8. Mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holat omiliga tariff bering
9. Banklararo va qimmatli qog’ozlar bozorining rivojlanganlik darajasi omiliga tariff bering
10. Markaziy bankning pul-kredit siyosati (asosan qayta moliyalash stavkasi, ochiq bozor siyosati va majburiy zaxira stavkasi bevosita ta’sir qiladi) omiliga tariff bering

11. Markaziy bank tomonidan samarali nazorat faoliyatini tashkil etilganligi omiliga tariff bering.
12. Banklarning past likvidli aktivlari tarkibiga nimalar kiradi?
13. Tranzaksion depozitlarning faqat barqaror qoldig'idan resurs sifatida foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali nimalarga barham berish mumkin?
14. Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik muammosini hal qilish maqsadida nimalarni amalga oshirish mumkin?
15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozor operatsiyalarining past darajada va rivojlanmaganligi qanday holatlarni keltirib chiqarmoqda?
16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan markazlashgan diskont va lombard kreditlari berish amaliyotini yo‘lga qo‘yish bank tizimida qanday imkoniyatlarni amalga oshiradi?

5-bob. TIJORAT BANKLARI RISKLI AKTIVLARINI BOSHQARISH

5.1. Tijorat banklari aktivlarini risk darajalariga ko‘ra turkumlanishi

Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashuvi sharoitida, shuningdek butun dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hamda xalqaro bozorlardagi kuchli raqobat jarayonlari bank tizimida risklarni boshqarishning mavjud usullarini takomillashtirish zaruriyatini taqozo etmoqda. Xalqaro bank amaliyotida faoliyat yuritadigan qator tijorat banklari Markaziy banklar va xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan o‘rnatilgan yagona me’yor va mezonlarni bajargan bo‘lsada, dunyoning turli qit’alarida sodir bo‘layotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar natijasida bankrotlik holatiga tushib qolmoqda.

Bazel standartida xalqaro bank amaliyotida birinchi bo‘lib, tijorat banklarining aktivlari to‘rt risk darajasi bo‘yicha riskka tortildi.

I. 0 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlarga, ya’ni risksiz aktivlarga quyidagilar kiradi:

1.1. tijorat bankining kassalaridagi naqd pullar;

1.2. bankning Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisob-raqamidagi pul mablag’lari;

1.3. Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar;

1.4. Tijorat banki tomonidan hukumatning 90 kungacha muddatga chiqarilgan qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalar (O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan hukumatning qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalar, ularning muddatidan qat’iy nazar, risksiz aktiv hisoblanadi);

1.5. Hukumat va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to‘g’ridan-to‘g’ri talablar va bu emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog’ozlar;

1.6. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT)[53] kiruvchi mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog’ozlar, Suningdek, bu mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklariga qo‘yiladigan boshqa talablar;

1.7. Aktivlar yoki ularning “Iqtisodiy hamkorlik va tarraqiyot dasturi”(IHTT)ga kiruvchi mamlakatlar milliy valyutalariga

[53] Jahonning siyosiy xaritasida, 2023-yil holatiga ko‘ra, 278 dan ortiq mamlakat bo‘lib, jumladan jahon hamjamiyati tomonidan mustaqilligi rasman tan olingan 195 ta suveren davlat mavjud. Bulardan 193 tasi BMTning faoliyatida a’zo davlatlar sifatida, 2 tasi (Vatikan, Falastin)esa kuzatuvchi-davlatlar

denominatsiya qilinib, naqd pul bilan ta’minlangan hamda bankda alohida cheklab qo‘yilgan depozit hisobraqamda saqlanayotgan qismi.

II. 20 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

2.1. Tijorat bankining boshqa banklardagi «Nostro» vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag’lari;

2.2. Hukumatning 90 kundan ortiq muddatga chiqarilgan qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalar;

2.3. Flout (inkassatsiya jarayonidagi pul mablag’lari);

2.4. IHTT mamlakatlarida ro‘yxatdan o‘tgan banklar va boshqa depozitar institutlarning kreditlari, kafolatlari bilan ta’minlangan kreditlar va boshqa aktivlar yoki ularning qismi;

2.5. Bankning xalqaro kredit tashkilotlariga bergan kreditlari va boshqa talablari, Suningdek, ushbu tashkilotlarning qimmatli qog’ozlari bilan ta’minlangan talablar.

III. 50 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlarga quyidagilar kiradi:

3.1. Ipoteka kreditlari;

3.2. IHTT davlatlarida ro‘yxatga olingan depozitar institutlarga nisbatan talablar, shu jumladan, qarzlar va pul bozori vositalari;

3.3 IHTT davlatlarida ro‘yxatga olingan depozitar institutlarning kreditlari bilan ta’minlangan boshqa barcha aktivlar;

3.4 Bankning IHTT davlatlari mahalliy hokimiyat organlariga nisbatan talablari, suningdek, ular tomonidan kafolatlangan bank aktivlari. Bu talablar va kafolatlar bo‘yicha to‘lovlar alohida loyihalar bo‘yicha tushumlardan emas, balki yuqorida ko‘rsatilgan tashkilotlar byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

3.5 Bankning xalqaro kredit tashkilotlariga nisbatan talablari, suningdek, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari;

3.6 Joriy bozor qiymatida baholangan va xalqaro kredit tashkilotlari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlar bilan ta’minlangan aktivlar va ularning qismlari;

3.7 Bankning IHTTga a’zo bo‘lmagan mamlakatlarning milliy valyutalariga denominatsiya qilingan va milliy valyutadagi majburiyatlar bilan qoplangan, IHTTga a’zo bo‘lmagan davlatlar Markaziy Hukumatlari va markaziy banklariga nisbatan talablari. Milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar qismi risk darajasi yuqori (100 foiz) bo‘lgan aktivlar qatoriga kiritiladi.

IV. Tijorat banklarining 100 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlariga quyidagilar kiradi:

4.1. Korporativ qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalar;

4.2. Mijozlarga berilgan kreditlar;

4.3. Asosiy vositalar;

4.4. Boshqa aktivlar.

Quyidagi balansdan tashqari aktivlar yuqori riskli, ya’ni risk darajasi 100 foizga teng bo‘lgan aktivlar hisoblanadi:

4.5. Bank tomonidan mijozlarning foydasiga ochilgan ta’minlanmagan akkreditivlar;

4.6. Bank tomonidan berilgan kafolatlar;

4.7. Forvard transaksiyalari;

4.8. Bank tomonidan berilgan opsionlar va fyucherslar.

Bazel-1 tizimiga binoan risk darajasini o‘lchash standart koeffitsientlari aktivlarning keng toifalariga, chunonchi: davlat (suveren), bank va korporativ aktivlarga beriladi. Masalan, korporativ riskni qoplash uchun qarz oluvchining kredit sifatidan qat’i nazar kapitalga 8% (ya’ni riskni o‘lchash koeffitsientining 100% bo‘lgan holda) miqdorida ajratmalar qilish nazarda tutiladi.

5.2. Tijorat banklari riskli aktivlarini boshqarish usullari

Tijorat banklari riskli aktivlari ichida asosiy o‘rinni kreditlar egallaydi. Shu sababli, kredit portfelini boshqarish riskli aktivlarni boshqarish tizimida muhim, o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Tijorat bankining kredit portfeli – bu bank tomonidan berilgan va hali qaytarilmagan barcha kreditlarning yig’indisidir.

Kredit portfeliga muddati o‘tgan kreditlar ham, sharti qayta ko‘rib chiqilgan kreditlar ham, sud jarayonidagi kreditlar ham kiradi.

Kredit portfelining sifat ko‘rsatkichlari: (*muntazam takomilashtirib boriladi. 5.1-hamda 5.2-ilovalar*)

I. Muddati o‘tgan kreditlarning normal darajasi:

(Muddati o‘tgan kreditlar: Brutto kreditlar) x100%

Agar ushbu ko‘rsatkichning darajasi 3 foizdan oshmasa, u holda kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning darajasi normal hisoblanadi.

II. Muddati o‘tgan kreditlarning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegaraviy darajasi:

(Muddati o‘tgan kreditlar: Brutto kreditlar)x100%

Ushbu ko‘rsatkichning me’yoriy darajasi 5 foizni tashkil etadi. Agar bu ko‘rsatkich 5 foizdan oshsa, bank kredit portfelining sifati qoniqarsiz deb hisoblanadi.

Shu sababli, Germaniya va Fransiya banklarida ushbu ko‘rsatkich 5 foizga etishi bilan uning 2,0-2,5% bankning balansidan o‘chiriladi.

III. Kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi:

(ZAS : BAO‘S) x 100%

Bu erda:

ZAS – zaxira ajratmalari summasi

BAO‘S – bank aktivlarining o‘rtacha summasi

Ushbu ko‘rsatkichning yuqori me’yoriy darajasi 1,0 foizni tashkil etadi.

IV. 1 so‘mlik kredit quyilmasiga to‘g’ri keladigan daromad darajasi:

(KOFDS : KQS) x 100%

Bu erda:

KOFDS – kreditlardan olingan foizli daromadlar summasi

KQS – kredit quyilmalari summasi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining kredit emissiyasi darajasini baholashda kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan darajasi ko‘rsatkichidan keng foydalaniladi. Quyidagi rasm ma’lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklari kredit emissiyasining darajasiga baho beramiz

5.1-rasm



5.2. 1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan darajasi, foizda. (2017-yil 36.5, 2018-yil 41.1)[54]

[54] O‘R MB rasmiy sayti ma’lumotlari asosida (www.cbu.uz).

5.2.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, 2013-2018-yillarda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining YAIMga nisbatan salmog’ining 14.7 bandga o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, tijorat banklarining kredit emissiyasi ko‘lamini tobora kengayib borayotganligidan dalolat beradi.

2017-yilda tijorat banklari kreditlarining YAIMga nisbatan salmog’ining 2016-yilga nisbatan keskin oshganligi 2017-yil sentyabr oyida milliy valyutaning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursining keskin pasayganligi natijasida dollardagi kreditlarni so‘mdagi qiymatini oshganligi bilan izohlanadi (valyuta siyosatini liberallashtirilishi munosabati bilan).

Shunisi ahamiyatliki, tijorat banklarining kreditlash amaliyotini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarorida tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirish jarayonlariga vazirliklar va idoralarning, joylardagi davlat hokimiyati organlarining rahbarlarini aralashuviga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, 2009-yilning sentyabr oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxira stavkalarini tabaqalashtirilishi tijorat banklarining kreditlash salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynadi.

Ta’kidlash joizki, respublikamiz tijorat banklarining kapitallashish darajasining oshib borayotganligi, depozitlari miqdorining ko‘payayotganligi ular tomonidan berilayotgan kreditlar hajmining oshirishga imkon bermoqda (5.1-jadval).

5.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining regulyativ kapitali, depozitlari va kreditlari hajmi, trln. so‘mda.[55]

Ko‘rsatkich nomi	Yillar							2018-yilda 2012-yilga nisbatan o‘zgarishi, marta
	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	
Regulyativ kapital	6,2	6,5	6,9	7,8	9,4	20,0	24,2	3,9

[55] ЎР МБ нинг Статистик бюлетени-2018 йил

Depozitlar	22,9	26,1	28,5	35,6	44,6	59,6	70,0	3,1
Kreditlar	20,4	26,5	34,8	42,7	53,4	108,5	164,7	8,1

5.1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar ko‘rsatadiki, 2012-2018-yillarda respublikamiz tijorat banklarining regulyativ kapitali va depozitlari hajmining o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Buning ustiga, 2018-yilda mazkur ko‘rsatkichlarning 2012-yilga nisbatan yuqori darajadagi o‘sish sur’atlari kuzatilgan. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur davrda kreditlar hajmini yuqori sur’atlarda o‘sishini ta’minlash imkonini bergan.

Tijorat banklarining kreditlarini boshqarishda asosiy e’tibor kredit portfelining risk darajasini pasaytirishga va risk darajasining oshib ketishining oldini olishga qaratiladi.

V. Tijorat banklari kredit portfelining risk darajasini oshib ketishining oldini olishning sinalgan, ishonchli yo‘li bo‘lib, kredit portfelining diversifikatsiya darajasini ta’minlash hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining kredit portfelini kreditlarning tarmoq xususiyatiga ko‘ra diversifikatsiya qilish keng qo‘llaniladi. Bunda me’yoriy mezon sifatida 25% olingan. Ya’ni, tijorat banki tomonidan berilgan jami kreditlarning 25 foizdan ortiq qismi bitta tarmoqda to‘planib qolmasligi kerak.

VI. Suningdek, tijorat banklarining kreditlarini boshqarishda tasniflangan kreditlar tarkibini yaxshilash usulidan ham foydalaniladi.

Bunda asosiy e’tibor tasniflangan kreditlar tarkibida shubhali va umidsiz kreditlar salmog’ini pasaytirish hisobidan yaxshi va standart kreditlar salmog’ini oshirishga qaratiladi.

Respublikamizda to‘lovlarning maqsadli ketma-ketligi qo‘llanilayotgan hozirgi sharoitda davlat soliq xizmatiga solishtirish dalolatnomasisiz inkasso qo‘yish va soliq to‘lovlarini avans tariqasida undirish huquqining berilganligining tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni o‘z vaqtida undirishga to‘sqinlik qilayotganligi bu boradagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Suningdek, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga berilgan xorijiy valyutalardagi kreditlarning qaytmasligi muammosi ham mavjud.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyaev ta’kidlaganidek, “xalqaro moliya institutlarining kreditlari, ayniqsa, loyihalar buyurtmachilari bo‘lmish Respublika yo‘l jamg’armasi va

“O‘zkommunxizmat” agentligi tomonidan samarasiz ishlatilmoqda. chunki ularning faoliyatida tizim, nazorat va ma’suliyat yo‘q”[56].

Haqiqatdan ham, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi xatoliklar, suiste’molliklar tijorat banklari faoliyatiga va bank infratuzilmasiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltirmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, 2017-yilning 5-sentyabridan boshlab amalga oshirilgan valyuta siyosatini liberallashtirish banklar faoliyati va bank infratuzilmasiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltirdi.

2017-yilning 5-sentyabridan boshlab, valyuta siyosatini liberallashtirish talablaridan kelib chiqqan holda, so‘mning 1 AQSH dollariga nisbatan nominal almashuv kursi 8100,00 so‘m qilib belgilandi. Bu esa, bungacha amal qilgan almashuv kursidan qariyb ikki barobar yuqoridir. Natijada, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining importni to‘lash va xorijiy valyutalardan olingan bank kreditlarini qaytarish bilan bog’liq bo‘lgan xarajatlarini keskin oshishiga olib keldi. oqibatda, import hajmini qisqarishi va xorijiy valyutadagi kreditlarni qaytara olmaslik ehtimoli kuchaydi.

VII. Tijorat banklarining yuqori riskli aktivlarining ikkinchi turi bo‘lib, korporativ qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalar hisoblanadi.

Korporativ qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalarning risk darajasini pasaytirishning asosiy usuli bo‘lib, qimmatli qog’ozlar portfelini diversifikatsiya qilish hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Bazel standartida xalqaro bank amaliyotida riskli aktivlarni boshqarish uchun tijorat banklarining aktivlari to‘rt risk darajasi bo‘yicha riskka tortildi:

-0 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlar;

-20 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlar;

-50 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlar;

-100 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlar.

Tijorat banklari riskli aktivlari ichida asosiy o‘rinni kreditlar egallaydi. Shu sababli, kredit portfelini boshqarish riskli aktivlarni boshqarish tizimida muhim, o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

[56]Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 28-бет.

Tijorat banklari kredit portfelining risk darajasini oshib ketishining oldini olishning sinalgan, ishonchli yo‘li bo‘lib, kredit portfelining diversifikatsiya darajasini ta’minlash hisoblanadi.

Suningdek, tijorat banklarining kreditlarini boshqarishda tasniflangan kreditlar tarkibini yaxshilash usulidan ham foydalaniladi.

Bunda asosiy e’tibor tasniflangan kreditlar tarkibida shubhali va umidsiz kreditlar salmog’ini pasaytirish hisobidan yaxshi va standart kreditlar salmog’ini oshirishga qaratiladi.

Tijorat banklarining yuqori riskli aktivlarining ikkinchi turi bo‘lib, korporativ qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalar hisoblanadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Nol foizli risk, risk darajasi, ellik foiz risk, riskli aktivlar, zaxira ajratmalar, kredit portfelini diversifikatsiyasi, kredit portfeli, diversifikatsiyasi, korporativ qimmatli qog’ozlar, investitsiya, shubhali va umidsiz kreditlar, yaxshi va standart kreditlar, Bazel standarti, xalqaro bank, import hajmi, bank infratuzilmasi, xorijiy valyutalardagi kreditlar.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tijorat banklari aktivlarini risk darajalariga ko‘ra turkumlanishi.
2. Bank kredit porfelining sifat kursatgichlari.
3. Tijorat banklari riskli aktivlarini boshqarish usullari.
4. Tijorat banklari faoliyatidagi risklarning darajalariga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillar
5. 0 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlarga, ya’ni risksiz aktivlarga nimalar kiradi?
6. 20 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlar tarkibiga nimalar kiradi?
7. 50 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlarga nimalar kiradi?
8. 100 % risk darajasiga ega bo‘lgan aktivlariga nimalar kiradi?
9. Tijorat banklari riskli aktivlari ichida asosiy o‘rinni nimalar egallaydi?
10. Muddati o‘tgan kreditlarning normal darajasi nimalar hisoblanadi?
11. Muddati o‘tgan kreditlarning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegaraviy darajasi qancha?
12. Kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi qancha?

13. 1 so‘mlik kredit quyilmasiga to‘g’ri keladigan daromad darajasi qancha?

14. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining kredit portfelini kreditlarning tarmoq xususiyatiga ko‘ra diversifikatsiya qilish darajasi qancha?

15. Tijorat banklarining kreditlarini boshqarishda tasniflangan kreditlar tarkibini yaxshilash usulidan qanday foydalaniladi?

16. Tijorat banklarining yuqori riskli aktivlarining ikkinchi turi bo‘lib, nimalarga qilingan investitsiyalar hisoblanadi?

5.1-ilova

Markaziy bankning “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g’risida”gi nizomga sharh

Yangilangan sana: 19-May 2019, 13:40

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015-yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reytingko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g’risida” 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli va “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida” 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli Qarorlarida moliya bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, xususan umum qabul qilingan xalqaro me'yor va standartlarga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishning yanada yuqori darajaga chiqishini ta'minlash asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Jumladan, bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalariga (Bazel III standartlari) muvofiq, tijorat banklarida aktivlarining sifatini tasniflash va ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxiralar yaratish jarayoni yanada takomillashtirildi.

Markaziy bank tomonidan Jahon banki va Halqaro valyuta jamg’armasining halqaro ekspertlari bilan birgalikda respublika bank nazoratiga oid me'yoriy xujjatlarni xalqaro standartlar, shu jumladan bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish loyihasi asosida amalga oshirildi.

Ushbu loyiha doirasida ishlab chiqilgan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g’risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Mazkur nizomda aktivlarni tasniflash toifalarining nomlari jumladan, “yaxshi” kreditlar – “standart” kreditlarga, “standart”

kreditlar – “substandart” kreditlarga, “substandart” kreditlar – “qoniqarsiz” kreditlarga o‘zgartirilgan.

Banklar soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan so‘ng qolgan foyda hisobidan ushbu nizom kuchga kirgan sanadan e'tiboran ajratilib, hisobot sanasiga “standart” sifatida tasniflangan kreditlar (aktivlar) qoldig’iga 1 foiz miqdorida zaxiralar tashkil qilinishi joriy qilindi.

Mazkur zaxira “Standart” deb tasniflangan kreditlarning bank kapitali tarkibida zaxiralar yaratiladi va bu bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur nizomda tijorat banklari tomonidan korxonalarning qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalarini tasniflashning aniq omillari ko‘rsatilgan. Jumladan,

-oxirgi bir yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya – “qoniqarsiz” sifatida;

-oxirgi ikki yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya – “shubhali” sifatida;

-oxirgi uch yil davomida daromad olinmagan investitsiya sifati – “umidsiz” sifatida tasniflanadi.

Nizomda keltirilgan buxgalteriya o‘tkazmalari amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirildi hamda ular to‘ldirildi.

Yuqorida keltirilgan qoidalarning joriy qilinishi tijorat banklari tomonidan muddati o‘tgan, sud jarayonidagi kreditlarni undirish va bank balansiga olingan mol-mulklarni sotish bo‘yicha choralarni yanada kuchaytiradi va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish imkoniyatini yaratadi, pirovardida tijorat banklarining omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini yanada himoya qilinishini ta'minlaydi.

Ushbu Nizom kuchga kirishi munosabati bilan Markaziy bankning “Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish tartibi (ro‘yxat raqami 632, 11.02.1999 y.) va unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g’risida”gi Qarori o‘rnatilgan tartibda Adliya vazirligidan 2015-yil 14-iyulda 632-3-sonli bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Yuqoridagi nizomlar rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab uch oydan keyin kuchga kiradi.

5.2-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING

QARORI

TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR SIFATINI TASNIFLASH VA AKTIVLAR BO‘YICHA EHTIMOLIY YO‘QOTISHLARNI QOPLASH UCHUN ZAXIRALAR SHAKLLANTIRISH HAMDA ULARDAN FOYDALANISH TARTIBI TO‘G’RISIDAGI NIZOMGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 10-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2696-3]

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-son qarori (ro‘yxat raqami 2696, 2015-yil 14-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 28-son, 374-modda) bilan tasdiqlangan Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g’risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran bir oydan keyin kuchga kiradi.

Markaziy bank raisi M. NURMURATOV

Toshkent sh.,
2021-yil 19-noyabr,
27/7-son

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 19-noyabrdagi 27/7-son qaroriga

ILOVA

Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g’risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”gi va “Buxgalteriya hisobi to‘g’risida”gi qonunlariga muvofiq tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar (bundan buyon matnda zaxiralar deb yuritiladi) shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.”.

2. 1-bandda:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“aktivlar — kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog’ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag’lar, olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan va (yoki) undirilmagan foizli va foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklari, bo‘lib-bo‘lib to‘lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda kredit tavakkalchiligi mavjud bo‘lgan boshqa aktivlar va balansdan tashqari moddalar”;

quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“kredit tavakkalchiligi — qarzdor tomonidan bank oldidagi majburiyatlarini shartnoma yoki qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan muddat va shartlarda bajarilmasligi (lozim darajada bajarilmasligi) oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotish (zarar) va/yoki rejalashtirilgan daromadni olmaslik tavakkalchiligi;

muddati o‘tgan qarzdorlik — qarzdor tomonidan shartnoma yoki qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan muddat va shartlarda bajarilmagan (lozim darajada bajarilmagan) bank oldidagi majburiyatlar;

aktivning jami qiymati — aktivning bank balansida va balansdan tashqari moddalarda aks ettirilgan asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlari, penya, komission va boshqa foizsiz to‘lovlari qoldig’ining ular bo‘yicha yaratilgan zaxira ayrilmagan miqdori.”.

3. Quyidagi mazmundagi 1^2 — 1^4-bandlar bilan to‘ldirilsin:

“1^2. Mazkur Nizom talablariga muvofiq quyidagi aktivlar sifati bo‘yicha tasniflanadi:

banklararo depozitlar va kreditlar, vakillik hisobvaraqlaridagi pul mablag’lari;

banklararo hisob-kitoblarda foydalaniladigan mablag’lar va banklarga joylashtirilgan boshqa mablag’lar;

bankning kredit bo‘yicha talablari, shu jumladan qarz, kredit, mikroqarz, overdraft (mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi debet qoldig’i), lizing, faktoring;

yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) va qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalar, shuningdek repo kelishuvlari doirasida sotilgan qimmatli qog’ozlar;

olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan va (yoki) undirilmagan foizli va foizsiz daromadlar, jarima va penyalar;

bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan aktivlar bo‘yicha talablar;

aktivlar bo‘yicha garov hisobidan undirilgan mol-mulklar;

to‘lab berilgan bo‘naklar va debitorlik qarzdorliklari;

balansdan tashqari moddalardagi majburiyatlarning, shu jumladan bank kafolati va akkreditivning bank tomonidan bajarilishi natijasida vujudga kelgan aktivlar;

kredit tavakkalchiligi mavjud bo‘lgan balansdan tashqari moddalar, shu jumladan foydalanilmagan kredit liniyalari, kafolatlar, chaqirib olinmaydigan majburiyatlar, savdoga oid moliyalashtirishlar (akkreditiv va boshqalar);

kredit tavakkalchiligi mavjud bo‘lgan boshqa aktivlar va balansdan tashqari moddalar.

Balansdan tashqari moddalarning qiymatini hisoblashda kapital monandligi hisob-kitoblaridagi kreditning qayta hisoblash omili qo‘llanilgandan so‘ng chiqqan natijalar olinadi.

1^3. Mazkur Nizom talablari banklarning O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bankiga (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga nisbatan to‘g’ridan to‘g’ri talablariga, shu jumladan sotib olingan davlat qimmatli qog’ozlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

1^4. Aktivlar bo‘yicha qarzdorning muddati o‘tgan qarzdorliklari yoki 2-son kartotekasidagi to‘lov hujjatlari miqdori kichik miqdorga teng yoki undan kam bo‘lganda, ushbu aktiv sifatining tasnifi pasaytirilishi talab etilmaydi.

Kichik miqdor deganda jismoniy shaxsga ajratilgan aktiv bo‘yicha 100 000 so‘mdan, yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorga ajratilgan aktiv bo‘yicha 1 000 000 so‘mdan ko‘p bo‘lmagan hamda aktivning jami qiymatining bir foizidan oshmagan miqdor tushuniladi.”.

4. 9-bandning beshinchi xatboshisidagi “asosiy qarzi va” degan so‘zlardan keyin “(yoki)” degan so‘z bilan to‘ldirilsin.

5. 11, 13, 15, 18, 21, 23, 31, 44, 50, 54 va 55-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

6. 12-bandda:

beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“qarzdorning 2-son kartotekasi mavjud bo‘lib, undagi to‘lov hujjatlarining muddati 90 kundan oshmagan bo‘lsa (2-son kartotekasida ushbu aktivni so‘ndirish bo‘yicha to‘lov talabnomasi mavjud bo‘lgan yoki faoliyati mavsumiy xususiyatga ega qarzdorlar bundan mustasno);”;

yettinchi va sakkizinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ishonchli (e’timodli) aktivlarning asosiy qarzi va (yoki) foizlari bo‘yicha 90 kundan oshmagan muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa;

ta’minlangan aktivlar bo‘yicha asosiy qarz va (yoki) foizlar bo‘yicha 31 kun va undan ortiq, lekin 90 kundan oshmagan muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa.”.

7. 14-bandda:

beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“qarzdorning 2-son kartotekasida 91 kun va undan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan muddatga kechiktirilgan to‘lov hujjatlari mavjud bo‘lsa (2-son kartotekasida ushbu aktivni so‘ndirish bo‘yicha to‘lov talabnomasi mavjud bo‘lgan yoki faoliyati mavsumiy xususiyatga ega qarzdorlar bundan mustasno);”;

yettinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bank aktivining ta’minot qiymatiga nisbati bankning ichki hujjatlarida ko‘rsatilgan chegaradan ko‘p bo‘lsa (ishonchli (e’timodli) aktivlar bundan mustasno);”;

sakkizinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

to‘qqizinchi xatboshi sakkizinchi xatboshi deb hisoblansin;

sakkizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“asosiy qarz va (yoki) foizlar bo‘yicha 91 kun va undan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa.”.

8. 17-bandda:

to‘rtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“qarzdorning 2-son kartotekasida 181 kun va undan ortiq, lekin 365 kundan oshmagan muddatga kechiktirilgan to‘lov hujjatlari mavjud bo‘lsa (2-son kartotekasida ushbu aktivni so‘ndirish bo‘yicha to‘lov talabnomasi mavjud bo‘lgan yoki faoliyati mavsumiy xususiyatga ega qarzdorlar bundan mustasno);”;

beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

oltinchi xatboshi beshinchi xatboshi deb hisoblansin;

beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“asosiy qarz va (yoki) foizlar bo‘yicha 181 kun va undan ortiq, lekin 365 kundan oshmagan muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa.”.

9. 20-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“20. Quyida keltirilgan omillardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lsa, aktivlarning sifati “umidsiz” deb tasniflanadi:

qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo‘yilgan mol-mulkka bo‘lgan huquqlardan foydalanish yo‘li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo‘yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo‘lsa;

qarzdorning 2-son kartotekasida muddati 366 kun va undan ortiq kunga kechiktirilgan to‘lov hujjatlari mavjud bo‘lsa;

asosiy qarz va (yoki) foizlar bo‘yicha 366 kun va undan ortiq kunga muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa.”.

10. 22-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“22. Bitta qarzdorga berilgan bir nechta aktivlar mavjud bo‘lsa, bank o‘zi taqdim etgan aktivni qarzdorga berilgan barcha aktivlar ichida eng past toifada tasniflangan aktiv sifatidek tasniflashi lozim.”.

11. 26-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“26. Aktivlarning yuqori likvidli ta’minotiga:

davlat qimmatli qog’ozlari garovi;

bank kapitali monandligi hisob-kitoblarida tavakkalchilik darajasi 0 foiz bo‘lgan xorijiy davlatlarning hukumatlari va Markaziy banklarining kafolati yoki ular tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog’ozlar garovi;

Jahon banki guruhi (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro investitsiyalarni kafolatlash agentligi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi) hamda Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infrastruktura investitsiya banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki, Yevropa investitsiya jamg’armasi, Islom taraqqiyot banki va Yevropa Kengashining taraqqiyot banklari kafolati;

kreditor bankdagi depozitlar yoki depozit sertifikatlari garovi kiradi.”.

12. Quyidagi mazmundagi 26^1-band bilan to‘ldirilsin:

“26^1. Aktivlar yuqori likvidli ta’minot bilan ta’minlanganda ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira miqdori quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$Z = (AJM — TQ * (1-Ch)) * m$$

bunda:

Z — shakllantirilishi lozim bo‘lgan zaxira miqdori;

AJM — aktivning jami qiymati summasi;

TQ — yuqori likvidli ta’minot qiymati;

Ch — valyutadagi tafovutni hisobga olish omili. Mazkur omil aktiv ifodalangan valyuta u bo‘yicha qabul qilingan ta’minot valyutasidan farq qilmasa 0 ga, farq qilsa 0,1 ga teng bo‘ladi;

m — aktiv tasnifi bo‘yicha shakllantirilishi lozim bo‘lgan zaxira yaratish me’yori.

Bunda, aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira miqdori 0 yoki undan kichik (manfiy) bo‘lsa, aktiv bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira shakllantirilmaydi.”.

13. 27-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“27. Bank tomonidan qabul qilinuvchi mazkur Nizomning 26-bandida nazarda tutilgan garov turlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

qimmatli qog’ozlar, bankdagi depozitlar, depozit sertifikatlar garov sifatida qabul qilingan bo‘lsa, ularning muddati tegishli aktivni so‘ndirish muddatidan kam bo‘lmasligi;

kreditor bankdagi depozit garov predmeti bo‘lsa, garov shartnomasi shartlariga binoan qarz oluvchi o‘z majburiyatlarini bajarmagan holatda bankning ushbu mablag’larni so‘zsiz nazorat qilish va ularni tasarruf eta olish huquqi bo‘lishi;

bank aktivi bankdagi depozitlar bilan ta’minlangan bo‘lsa, depozit aktivni ta’minlash uchun tegishli hisobvaraqda yuritilishi hamda kredit shartnomasi yoki boshqa shartnomada qarz oluvchi tomonidan aktiv qaytarilmagan yoki majburiyatlari bajarilmagan holda bank akseptsiz tartibda depozitni tasarruf etishi, shuningdek qarz oluvchi ixtiyoriy ravishda ushbu depozitni u bilan ta’minlangan aktivni so‘ndirish uchun yo‘naltirishi mumkin ekanligi shart qilib qo‘yilishi lozim.

Bunda, bank aktivni qaytarish muddati yetib kelgunga qadar depozitdan mablag’larni olishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida zarur choralarni ko‘rishi va nazorat o‘rnatishi kerak.”.

14. Quyidagi mazmundagi 27^1-band bilan to‘ldirilsin:

“27^1. Kafolat yuqori likvidli ta’minot hisoblanishi uchun bir vaqtning o‘zida quyidagi talablarga javob berishi lozim:

kafolat muddati va asosiy majburiyat muddatlari mos bo‘lishi;

qarz oluvchi o‘z majburiyatlarini bajarmagan hollarda, shartnoma va (yoki) o‘zaro kelishuvda kafolat shartlarini bajarish muddatlariga doir hech qanday cheklovlar bo‘lmasligi;

kafil tomonidan taqdim etilgan kafolat hujjatlashtirilgan majburiyat hisoblanishi;

bankning majburiyatni kafildan to‘g’ridan to‘g’ri talab qilish huquqi bo‘lishi;

qarz oluvchining bank oldidagi majburiyati bo‘yicha taqdim etilgan kafolat miqdori aniq belgilangan bo‘lishi;

kafolat chaqirib olinmaydigan va so‘zsiz bo‘lishi, ya’ni bir tomonlama tartibda kafil kafolatni bekor qilishi, kafolat qiymatini oshirishi, kafolat muddatini qisqartirishi, shuningdek kafolat bo‘yicha mablag’larni to‘liq yoki qisman to‘lamasligiga imkon yaratuvchi shartlarning mavjud emasligi;

qarz oluvchi kafolat bilan ta’minlangan majburiyatlarini bajarmagan hollarda, bank kafildan kafolat bo‘yicha to‘lovni amalga oshirishini talab qilish huquqi bo‘lishi.”.

15. 28-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“28. Aktivlarning quyida keltirilgan asosiy shartlaridan hech bo‘lmaganda bittasi o‘zgartirilgan bo‘lsa, ular shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar deb hisoblanadi:

foiz stavkasining pasaytirilishi, shartnomada belgilangan o‘zgaruvchan foiz stavkasi pasayishi munosabati bilan foiz stavkasining pasaytirilishi holatlari bundan mustasno;

asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan qisman voz kechilishi, aktivning foydalanilmagan qismi kamaytirilishi bundan mustasno;

foizlar va (yoki) asosiy qarzga doir to‘lovlarning bir qismi yoki barchasidan voz kechilishi;

aktivning asosiy qismi va (yoki) foizlarining to‘lash muddati kechiktirilishi yoki uzaytirilishi, mijozni moliyalashtirishni boshlash muddati o‘zgarishi hisobiga to‘lov grafigining yoki to‘lovlar to‘lanadigan oy ichida to‘lov sanasining o‘zgartirilishi bundan mustasno;

ta’minot turining o‘zgartirilishi, kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta’minotdan chiqarilgan hamda aktiv summasini

garov summasiga nisbati bankning ichki hujjatlarida ko‘rsatilgan chegaradan ko‘p bo‘lmagan holatlar bundan mustasno;

foizlarning kapitalizatsiya qilinishi;

mazkur bandning ikkinchi — yettinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan shartlardan birini yoki bir nechtasini qo‘llagan holda qarz oluvchining o‘zgartirilishi.”.

16. Quyidagi mazmundagi 28^1-band bilan to‘ldirilsin:

“28^1. Kredit shartnomasi shartlari quyidagicha o‘zgartirilganda kredit tasnifi o‘zgartirilmaydi va shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar deb tasniflanmaydi:

foiz stavkasi pasaytirilganda, bunda o‘zgartirishdan so‘ng milliy valyutadagi kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasi + 2 foiz banddan kam bo‘lmasligi lozim;

kredit valyutasi o‘zgartirilganda, bunda kredit xorijiy valyutadan milliy valyutaga o‘zgartirilganda kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasi + 2 foiz banddan kam bo‘lmasligi lozim;

kreditning imtiyozli davri 6 oygacha uzaytirilganda, bunda dastlabki grafik bo‘yicha foizlar to‘liq to‘langan va yangi grafikda foiz to‘lovlari nazarda tutilgan hamda kreditning imtiyozli davri tugamagan va birinchi marta uzaytirilayotgan bo‘lishi, shuningdek shartnomaning oxirgi muddatini uzaytirish uzaytirilayotgan imtiyozli muddatdan ko‘p bo‘lmasligi shart.

Bunda, kredit shartnomasi shartlari qayta ko‘rib chiqilayotgan vaqtda qarzdorning barcha banklardan olingan kreditlari bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud bo‘lmasligi va uning krediti sifati “standart” yoki “substandart” toifasida bo‘lishi hamda qayta ko‘rib chiqilayotgan shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni to‘lashda so‘nggi 6 oy ichida muddati kechiktirilgan kunlarning jami miqdori 60 kundan oshmagan bo‘lishi lozim.”.

17. 30-bandning ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

18. 36-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“36. Tijorat banki aktivining jami qiymatiga nisbatan aktivlar:

“standart” deb tasniflanganda bir foiz;

“substandart” deb tasniflanganda o‘n foiz;

“qoniqarsiz” deb tasniflanganda yigirma besh foiz;

“shubhali” deb tasniflanganda ellik foiz;

“umidsiz” deb tasniflanganda yuz foiz miqdorda bank xarajati hisobidan zaxira shakllantirishi lozim.

Bunda, tijorat banki maxsus zaxiralarni aktivlarni tasniflash uchun mazkur Nizomda nazarda tutilgan asoslar vujudga kelgan sanadan boshlab shakllantirishi va ular bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmalarini dasturlashgan holda amalga oshirishi lozim.”.

19. 36^1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“36^1. Aktiv qaysi valyutada vujudga kelgan bo‘lsa, maxsus zaxira ham ushbu aktiv valyutasida har bir aktiv uchun alohida shakllantirilishi lozim.

Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar sifati standart deb tasniflangan jami aktivlar qoldig’iga nisbatan har oyning yakuniga qadar milliy valyutada shakllantirilishi lozim.”.

20. 42-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga doir zaxirani shakllantirish va undan foydalanishga oid buxgalteriya o‘tkazmalari Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasiga (ro‘yxat raqami 3336, 2021-yil 26-noyabr) muvofiq amalga oshiriladi.”.[57]

[57] (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.12.2021-y., 10/21/2696-3/1152-son)

6-bob. TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI. TIJORAT BANKINI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISH

6.1. Bankning kredit siyosati, unga qo‘yiladigan talablar va kredit siyosatini mezonlari

Bankni kredit siyosati - kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavvakalchilikni boshqarishda bank raxbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank raxbariyati bilan xodimlarini kreditlar protfelini samarali boshqarishga doir ko‘rsatmalar bilan ta’minlovchi xujjatdir. Kreditlash bank ishining o‘zagi bo‘lib, uning sifatiga qarab bankning faoliyati to‘g’risida xulosa chiqarish mumkin. Iqtisodchilar tomonidan jahon banklarining sinishi (bankrotlikka uchrashi) sabablarini tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, banklarning sinishiga sabab – bank aktivlari sifatini (eng avvalo kreditlarni) pastligidir. Kreditning sifati kreditlash jarayonini boshqarishga bog’liq bo‘lib quyidagi asosiy elementlardan iborat bo‘ladi:

- tijorat bankida mukammal ishlab chiqilgan kredit siyosati, kreditlashtirish jarayonini mavjudligi;
- kredit portfelini optimal boshqarishni yo‘lga qo‘yilganligi;
- kreditlarni muntazam nazorat qilishni tashkil qilinganligi;
- bank tizimida ishlaydigan xodimlarni tayyorgarlik darajasi.

“Kredit siyosati” hujjati kreditlarni boshqarish jarayonini poydevorini tashkil etadi. Tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd etilgan “Kredit siyosati” kreditlarni oqilona boshqarishni samarali yo‘llaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ushbu hujjat bankni kreditlashtirish faoliyatini andozalari va parametrlarini belgilab beradi. Ushbu belgilangan standartlar va parametrlarda kredit berish, qarzlarni hujjatlashtirish va boshqarish bo‘yicha ma’suliyatli bo‘lgan bank xizmatchilari qo‘llanma sifatida foydalanishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Infilatsion taregetlash rejimiga bosqichma bosqich o‘tish orqali pul kredit siyosatini takomilashtirish to‘g’risida”gi 2019-yil 18-noyabr PF 5877-sonli farmonida 2020-yilning 1-yanvariga qadar pul bozori foiz stavkalariga ta’sir ko‘rsatuvchi bozor instrumentlari, Shu jumladan Markaziy bank obligatsiyalari, overnayt depozitlar, doimiy tusdagi depozit auksionlari, davlat qimmatli qog’ozlari va xorijiy valyuta garovi ostida kredit

auksionlari va overniyt kreditlari”ni joriy etishni chora tadbirlarini ko‘rsatishni ta’minlashni yuklatilgan.

Tijorat banklarini kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishni asosi bo‘lib hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarini kredit berish, bankni kredit portfelini boshqarish bilan bog’liq, ob’ektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi. Kredit siyosatini to‘g’ri tuzish va olib borish, barcha bo‘limlar tomonidan bu siyosatni maqsadini aniq tushinilishi bank boshqaruviga kredit standartlarini to‘g’ri olib borishiga, yuqori risklardan qochishga, bank imkoniyatlarini to‘g’ri aniqlashga asos hisoblanadi.

Yaxshi ishlab chiqilgan kredit siyosati kredit riskini boshqarish va uni kamaytirishga (qulay) yaxshi imkon beradi.

Kredit siyosatini zarurligi shundaki, bankni katta yoki kichikligidan, unda kam yoki ko‘p xodim ishlashidan qat’iy nazar, bankda bu siyosat bo‘lishi lozim. Chunki bu siyosat kredit bo‘yicha unifitsirlashgan umumiy qoida va tamoyillarni bajarilishini, operatsiyalar bajarilishini ketma-ketligini ta’minlaydi. Bankni kredit siyosati bankni hamma xodimlari – kichik xodimdan yoki bank boshqaruvi raisigacha bir xil bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham kredit siyosatini oldindan belgilab olingan qoida va echimlar to‘plami deyiladi.

Kreditlash siyosati va uning samaradorligi to‘g’ri kredit narxlari belgilangan sharoitda muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin.

Kredit siyosatini samarali olib borishda bank xodimlari bank mijozlarini mablag’larini kimlarga foydalanishga berish mumkinligini aniq bilishi lozim.

Bank qanday kreditlar, qancha miqdorda, kimga, qaysi sharoitlar bilan berilishini hal qilishi zarur. Biznesning shunday turlari borki, bank kredit bera turib ular bo‘yicha qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun xar bir faoliyat risk bilan bog’liq ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Bankni kredit siyosati uni faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfli holatlarni oldini olishga, buning uchun depozitlar va kreditlar o‘rtasidagi nisbatni, bank majburiyatlari bilan kapitali o‘rtasidagi va boshqa ko‘rsatkichlarni me’yorida bo‘lishini taqazo etadi. Oqilona kredit siyosati beriladigan kreditlarni sifatini oshiradi. Shuning uchun kredit siyosatini asosiy maqsadi boshqaruv jarayoni, fondlarni etarliligi, risklarni sifat darajasi bo‘yicha turkumlashuvi, kredit portfelini balansi, majburiyatlarni tarkibiy qismlarini ajratish kabi elementlarini o‘z ichiga olmog’i lozim.

Bank kredit siyosatini mazmuni quyidagilardan iborat:

✓Bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish (kredit turlari, qoplash muddatlari, miqdori, sifati va boshqalar) masalalari;

✓Bank raiskining kredit faoliyati uchun javob beradigan o‘rinbosar, kredit qo‘mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro‘yxati (eng ko‘p kredit summasi va turlari);

✓Bankni kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo‘yicha jami majburiyatlari;

✓Kreditlar bo‘yicha arizalarni tekshirish va tegishli qaror chiqarish bayoni;

✓Kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida talab qilinadigan hujjatlar ro‘yxati (qarzdorning moliyaviy hisoboti, kredit shartnomasi, garov, kafolat haqida shartnoma va boshqalar);

✓Kredit xujjatlarini saqlanishi va tekshirilishi uchun ma’sul xodimning javobgarligi, (kim va qanday holatda ularni olish huquqi);

✓Kreditni ta’minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishni asosiy tartibi;

✓Barcha kreditlarni sifatini belgilaydigan me’yorlar bayoni;

✓Eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko‘rsatish (ya’ni kredit summalari va bank yalpi aktivlariga eng yuqori nisbati);

✓Bank xizmat ko‘rsatadigan mintaqa, kredit qo‘yilmalarini asosiy qismi, joriy etiladigan tarmoq, sohasi yoki sektorlari;

✓Muammoli kreditlar tarkibi va tahlili.

Qolgan hujjatlarda ta’qiqlanadigan yoki nomaqbul kredit turlari tavsiflanadi.

Kredit siyosati malakali tuzilib, bank rahbaridan tortib operatorgacha barcha darajalarda me’yorida amalga oshirilsa, bu bank rahbariyatiga to‘g’ri qarorlar chiqarish, ortiqcha risklardan xolos bo‘lish, bank kreditlarini to‘g’ri baholash imkoniyatini beradi.

Bankni kredit siyosati bank resurslari, ularni joylashtirilish bilan chambarchas bog’liq. Bank resurslarini asosiy qismini jalb qilingan mablag’lar, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni depozitlaridan tashkil topadi. Suningdek, hozirgi kunda jalb qilingan resurslar ichida banklararo kredit xam alohida o‘rini egallaydi. Depozitlar bo‘yicha belgilangan foiz stavkalari, hamda boshqa bankdan olingan kredit uchun foiz stavkalari bank tomonidan beriladigan kreditni foiz stavkalari bilan bog’liq bo‘ladi. Kredit siyosatini aniq va mukammal tayyorlash va izohlash xar bir bank uchun kreditlash jarayonini ijobiy

tashkil etish uchun asos bo‘lib xisoblanadi. Bank tomonidan to‘plangan resurslarni to‘g’ri va oqilona joylashtirish bankning kredit siyosatini sifatiga bog’liq bo‘ladi. Kredit siyosati sifatiga va xolatiga qarab bank jalb qilgan resurslarini to‘g’ri joylashtirish va oldindan ko‘zlangan daromad olish imkoniyatini beradi.

Har qanday tijorat bankning kredit siyosatini asosiy maqsadi quyidagilardan iborat bo‘ladi: kredit qo‘yilmalari hajmini o‘sishini, riski yuqori bo‘lgan operatsiyalarni odilona diversifikatsiyasini, o‘rta va uzoq muddatli kredit qo‘yilmalar hajmini ko‘paytirilishini va ularning samaradorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Suningdek, kredit siyosati investitsion kreditlar salmog’ini oshirish, imkon darajada iqtisodiyotning real sektorini kreditlash, ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kabi asosiy yo‘nalishlarni ham o‘z ichiga qamrab olishi lozim.

Kredit siyosati bankning o‘ziga xos “kredit manbai”ni yaratadi va u bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o‘zgarganda banknig huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qat’iy kredit siyosat asosida berilgan bank kreditlari umumiy kreditlash faoliyatini rivojlanishi va kreditlarni samarali ishlashi uchun zamin yaratadi. Bankni kredit siyosati qoidalariga rioya etishni asosiy maqsadlari: foyda olishni ta’minlash, risklarni boshqarish bank faoliyati me’yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Barcha talablar darajasida ishlab chiqilgan kredit siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, uning qarzdorlari va aksiyadorlari foydasini ko‘paytiradi va faravonligini oshiradi.

Tijorat bankini kredit siyosatida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari qilib quyidagilar belgilab olinadi:

- kredit risklari darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash,ularni baholash va bartaraf etish;
- qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy axvolini aniqlash kredit riskini bashorat qilish;
- muammmoli ssudalarni oldindan aniqlash va ularni so‘ndirish choralarini ishlab chiqish;
- kredit qo‘yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularni likvidliligini va daromadliligini ta’minlash;
- kredit olgan mijoz bilan doimo aloqada bo‘lib turish;

• kichik va o‘rta tadbirkorlikni, dehqon va fermer xo‘jaliklarni moliyaviy qo‘llab quvvatlash.

Bank tomonidan, xo‘jalik sub’ektlarini aylanma mablag’lari etishmasligi, mavjud mablag’larni me’yoridan ortiqcha tayyor mahsulot qoldiqlariga jalb qilinishi, mablag’larni tayyor mahsulot sifatida qotirib qo‘yish sabablarini o‘rganib borishi, zararga ishlayotgan va bankrotlik alomatlari ko‘zga tashlanayotgan xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy ahvolini doimiy monitoringini tashkil qilish bank kredit siyosatini ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib xisoblanadi.

Kredit siyosatida bank tomonidan beriladigan kreditlar toifasi va turlarini aniqlash va belgilashi lozim. Masalan, kreditlash sohalari bo‘yicha: tijorat faoliyati, sanoat, qishloq xo‘jaligi, kapital qo‘ylmalarni moliyalashtirish va boshqa tarmoqlarga kredit berish, kredit turlari bo‘yicha: “kredit liniyalarini ochib va ochmay” kreditlash yoki kreditlashning boshqa usullarini qo‘llashni belgilab berishi mumkin.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim, kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma’lum bo‘lgan salbiy o‘zgarishlar to‘g’risida raxbariyatni xabardor qilishi lozim. Qarzdor yoki garovchining ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo‘qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo‘yicha “to‘lovsizlik” tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o‘stirmaslik mezonlari, suningdek, bank boshqaruvi va Kengashini tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o‘z ichga olishi lozim. Kredit siyosatida qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko‘rilishini talab qilish kerak. Raxbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruvi a’zolariga yuklatilgan. Odatda tijorat bankini kredit siyosatini yo‘nalishlari quyidagilardan tashkil topadi:

• bankni o‘rni va obro‘sini moliyaviy-borqaror banklar singari yaxshilash;

• O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativlariga muvofiq darajada o‘z kaptalining etarliligini ta’minlash;

• bankni samaradorligi va barqarorligini qo‘llab-quvvatlagan holda uni daromadlarini maksimallashuvini ta’minlovchi aniq kredit va investitsiya siyosatini o‘tkazish;

- strategik jihatdan muhim bo‘lgan shahar tumanlarida yangi omonat kassalarini ochish bilan bog’liq bo‘lgan bank tarmog’ini kengaytirish.

Kreditlash jarayonida bank siyosati bank oldidagi majburiyatlarni bajara oladigan yangi mijozlarni kredit resurslari bilan ta’minlash, yuqori sifat darajasidagi kreditlarni taqdim etishni kengaytirish hisoblanadi. Tijorat banki foydaliligini hisobga olgan holda xalqaro standartlar miqyosida mijozlarga sifatli kredit xizmatini taqdim etishga erishiladi. Shuning uchun bank kredit siyosatini asosiy tamoyillariga quyidagilar kiritilgan:

✓kreditlash to‘g’risida qarorlar qabul qilishni barcha darajalari bo‘yicha javobgarlikni taqsimlash;

✓bank tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari uchun aniq belgilangan shartlarning mavjudligi;

✓maxsus kreditlash tamoyillari – muddatlilik, to‘lovlilik, qaytarib berishlilik, ta’minlanganlik va rentabellik asosida beriladigan kreditlarni nazorat qilish;

✓bank boshqaruvini umumiy siyosati bilan maxsus faoliyat yo‘nalishlari siyosati (ya’ni depozitlar bo‘yicha, investitsiya bo‘yicha, aktivlar va passivlarni boshqarish bo‘ycha va hokazo)ning uzviy bog’liqligi.

6.2. Tijorat banklari kredit siyosatida kreditlarni daromadliligini oshirish, ularni risk darajasini boshqarishga qo‘yiladigan talablar va kredit siyosatida kreditlarni garov ta’minotiga qo‘yiladigan talablar

Tijorat banklarini kredit siyosatida kreditlarni daromadliligini oshirish va ularni risk darajasini boshqarishni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Kreditlarni daromadliligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni prognoz darajalari kredit siyosatida aniq ko‘rsatilishi kerak.

Tijorat banklari kreditlarinin daromadliligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan keng foydalaniladi:

1. Xar bir so‘mlik kredit quyilmasiga to‘g’ri keladigan daromad darajasi.

Ushbu ko‘rsatkichni hisoblash uchun kreditlardan olingan foizli daromadlar summasi kredit quyilmalari summasiga bo‘linadi va olingan natija 100 foizga ko‘paytiriladi.

Shunisi xarakterliki, ushbu ko‘rsatkichning me’yoriy darajasini mavjud emasligi. Shu sababli, uni baholash uchun moliyaviy tahlilnin qiyosiy tahlili usulidan foydalaniladi. Ushbu usuldan foydalanganda, birinchidan, xar 1 so‘mlik kredit quyilmasiga to‘g’ri keladigan daromad darajasi boshqa banklarning shu ko‘rsatkichi bilan taqqoslanadi; ikkinchidan, ushbu ko‘rsatkichni joriy davrdagi darajasi oldingi davrlardagi darajalari bilan taqqoslanadi.

2. Tijorat banklari kredit quyilmalarini o‘sish sur’ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarni o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblik ko‘rsatkichi.

Mazkur ko‘rsatkichdan foydalangan holda, tijorat banklari kredit quyilmalarini o‘sish sur’ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarni o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblikni mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash uchun kredit quyilmalarini o‘sish sur’ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarni o‘sish sur’ati har biri tahlil davri uchun taqqoslanadi. Agar kredit quyilmalarini o‘sish sur’ati kreditlardan olingan foizli daromadlarning o‘sish sur’atidan baland bo‘lsa, mazkur ikkala ko‘rsatkich o‘rtasidagi mutanosiblik ta’minlanmagan hisoblanadi.

3. Kreditlardan olingan foizli daromadlarni tijorat banki yalpi daromadi hajmidagi salmog’ini o‘zgarishi.

Kreditlar tijorat banklari aktivlarini umumiy hajmida eng yuqori salmoqni egallaydi. Shu sababli, kreditlardan olingan foizli daromadlarni tijorat banki yalpi daromadi hajmidagi salmog’i ham yuqori bo‘lishi lozim.

Odatda, kreditlardan olingan foizli daromadlarni tijorat banki yalpi daromadi hajmidagi salmog’i kreditlarni brutto aktivlar hajmidagi salmog’iga mutanosib bo‘lishi shart.

Kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdorini qisqa muddatli davriy oraliqlarda keskin tarzda o‘sishi ijobiy holat sifatida baholanmaydi. Chunki, mazkur daromadlarni keskin o‘sishi kreditlarni foiz stavkalarini yoki kredit quyilmalarini yuqori sur’atlarda o‘sishi natijasida xosil bo‘ladi.

Tijorat banklarini Kredit siyosatida kreditlarni daromadlilik darajasini ta’minlash masalasi kreditlarni risk darajasini boshqarish masalasi bilan birga ko‘rib chiqiladi.

Kreditlarni risk darajasi va daromadliligi o‘rtasida to‘g’ri mutanosiblik mavjud. Ya’ni, kreditni foiz stavkasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Kredit siyosatida kredit riskini baholash mezonlari va boshqarish usullari o‘zini aniq ifodasini topgan bo‘lishi kerak.

Xalqaro bank amaliyotida kredit riski darajasiga baho berish uchun quyidagi uch ko‘rsatkichdan keng foydalanilmoqda:

1. Muddati o‘tgan kreditlarni brutto kreditlar hajmidagi salmog’i.

Ushbu ko‘rsatkichni yuqori me’yoriy darajasi 3% qilib belgilangan.

Agar muddati o‘tgan kreditlarni brutto kreditlar hajmidagi salmog’i 3 foizdan oshmasa, u holda, berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik me’yoriy hisoblanadi.

2. Muddati o‘tgan kreditlarni yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegaraviy darajasi.

Ushbu ko‘rsatkichni yuqori me’yoriy darajasi 5% qilib belgilangan.

3. Kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi.

Ushbu ko‘rsatkichni hisoblash uchun kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari summasi tijorat banki aktivlarini o‘rtacha summasiga bo‘linadi.

Mazkur ko‘rsatkichni yuqori me’yoriy darajasi qilib 1% belgilangan.

Respublikamiz tijorat banklarini kreditlash amaliyotidagi ayrim muammolarni mavjudligi ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, mamlakatimiz bank tizimida kreditlash shakllaridan to‘laqonli tarzda foydalanilmayotganligi, mijozlarni kreditga layoqatliligi baholash tizimida sezilarli kamchiliklarni mavjudligi, tijorat banklari kredit siyosatini tadqiqot qilishini, kredit siyosati asosida kreditlash jarayonini olib borish asoslarini o‘rganishini, kredit riski va uni boshqarish, kreditlash jarayonidagi boshqa mavjud kamchiliklarni aniqlash xamda ularni bartaraf etish yo‘llarini amalda qo‘llagan xolda banklar tomonidan beriladigan kreditlarni samaradorligini oshirish mumkinligini taqazo etadi .

Ikkinchi guruhga, kreditlash jarayonida mijozni kreditga layoqatliligini aniqlashdagi tashkiliy va iqtisodiy muammolarni kiritish mumkin. Tashkiliy muammolarga kredit oluvchini kreditga layoqatliligini aniqlashda kredit ta’minotining ob’ekti va uning likvidligini aniqlashdagi muammolarni kiritish mumkin. Aksariyat holatlarda bank mutaxassislari mijozni to‘lovga qodirligini kredit ta’minotini mavjudligini inobatga oladi. Biroq, kredit ta’minotini kreditni qaytishini asosiy omili ekanligini inobatga olmaydilar va uni likvidligini kredit muddatiga nisbatan aniqlamaydilar. Natijada mijoz kreditni qaytara olmasa bank tomonidan kredit ta’minotini musodara qilinishi tijorat banki uchun o‘ziga xos unumsiz sarflarni keltirib chiqaradi.

Ushbu muammolar natijasida tijorat banklarini kreditlar xisobidan olingan daromadlarni tushishiga, daromadni pasayishi natijasida bank

likvidliligiga salbiy ta’sir qilishi, muammoli kreditlarni ko‘payishi natijasida tijorat bankni nosog’lom bank maqomini olishiga xam olib keladi.

Kredit siyosatida kreditlarni garov ta’minotiga qo‘yilgan talablar hamda beriladigan kredit summasi va garov ob’ektini qiymati o‘rtasidagi marjinal qiymat aniq aks ettirilgan bo‘lishi kerak.

1.Qimmatli qog’ozlar garovi.

Qimmatli qog’ozlarni garovga olishda ularning barcha rekvizitlari shartnomada qayd qilinishi lozim (emitent, narxi, chiqarilgan vaqti va boshqalar).

Agar, garovga qo‘yiladigan qimmatli qog’ozlar naqd shaklda bo‘lsa, garovga qo‘yilgan qimmatli qog’ozlarni saqlash uchun bankka topshiriladi, naqdsiz shaklda bo‘lgan qimmatli qog’ozlar bankni depozitariyadagi “Depo” hisobvarag’iga o‘tkaziladi.

Garov sifatida qabul qilingan qimmatli qog’ozlar kredit bo‘yicha foizlari va kreditni asosiy summasi to‘liq so‘ndirilgandan so‘ng qaytariladi. Kreditni qaytmagan qismi bo‘lsa, garovga olingan qimmatli qog’ozlarni qisman qaytarib berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qimmatli qog’ozlarni garovga olishda, agarda bank uni garovga qo‘yish hukuqiga shubha qilmasa, shartnomani notarial tasdiqlamasdan rasmiylashtirilishi mumkin.

Qimmatli qog’ozlarni garov ob’ekti holatidagi sifat mezonlari:

1. Oson sotilishi.

2. Emitentni moliyaviy holati.

Ushbu mezonlardan kelib chiqqan holda, qimmatli qog’ozlar quyidagi marjinal qiymatda garovga olinadi:

– davlat qimmatli qog’ozlari – 95 foizgacha;

– korxonalarning aksiyalari – 80-85%;

– tijorat veksellari – 75-80%.

2.**Qimmatbaho buyumlar garovi**.

Qimmatbaho buyumlar (taqinchoqlar) garovga olinishida bunday boyliklar sifati va haqiqiyligi bo‘yicha ekspertiza qilinishi hamda baholash huquqiga ega bo‘lgan tashkilot tomonidan baholash xulosasi asosida garovga olinishi mumkin.

Qimmatbaho buyumlar umumiy mulk (masalan, oila mulki) hisoblanishi mumkin bo‘lgan hollarda bu shartnoma notarial tasdiqlanishi shart.

3.Garov ob’ektini baholash.

1. Garov ob’ekti bozor bahosida baholanishi kerak.

Ammo bank garov ob’ektini sotayotganda uning bozor bahosi o‘zgarishi mumkin. Yoki bozor bahosida sotib oladigan xaridor topilmaydi. Natijada bank garov ob’ektini bozor bahosidan past narxda sotishga majbur bo‘ladi.

2. Garov ob’ekti davriy ravishda qayta baholanib turishi lozim.

3. Garov ob’ekti qiymatini baholash tegishli malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

4. Garovni baholashda uni baholash va sotish xarajatlari hisobga olinishi kerak.

4.Ko‘chmas mulkni baholash usullari.

4.1. Xarajat usulida er uchastkasini sotib olish va kelgusida amalga oshiriladigan qurilish xarajatlari hisobga olinadi. Bunda investor oladigan daromad miqdori ham hisobga olinadi. Aniqlangan qiymatdan eskirish summasi ayirib tashlanadi.

4.2. Bozor usulida kuchmas mulkni bozorda sotilish bahosi hisobga olinadi. Lekin bunda bozor bahosiga o‘zgartirishlar kiritiladi. Chunki, birinchidan, bir-biriga 100% o‘xshaydigan ob’ektlar juda kam; ikkinchidan, mulkni haqiqiy bozor bahosini faqat uni sotganda bilish mumkin.

4.3. Daromad usulida ushbu kuchmas mulkni kelgusida foydalanish natijasida olinadigan sof daromad miqdori hisobga olinadi.

Ushbu usuldan foydalanishda quyidagi ma’lumotlarga e’tibor qaratiladi:

– xuddi shunday ob’ektni ijaraga berishdan olinayotgan daromad;

– ob’ektni bekor turib qolishi natijasida ko‘riladigan yo‘qotishlar;

– ob’ektni boshqa maqsadlarda ishlatish natijasida olinadigan daromadlar.

5. Kafolat xati va sug’urta polisi.

Bank ajratilgan kreditning qisman yoki to‘lig’icha qaytarilmasligini oldini olish yuzasidan to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan moliyaviy barqaror sug’urta kompaniyalarini sug’urta polisini qabul qilishi mumkin. Bank, Qarzdor va Sug’urta kompaniyasi o‘rtasida tuzilgan Sug’urta shartnomasida kredit qaytarilmagan taqdirda Sug’urta kompaniyasini majburiyatlari aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari, qarzdor O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligini hamda to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan tijorat banki va Sug’urta kompaniyalarini kredit qaytarilishini ta’minlovchi Kafolat

xatini taqdim etishi mumkin. Tijorat banki tomonidan taqdim etilgan kafolat xati ushbu tijorat bankini Boshqaruv raisi yoki u vakolat bergan o‘rinbosarlari hamda bosh muhosibi tomonidan imzolangan va muhrlangan bo‘lishi shart. Agar, kafolat berish xuquqi filial vakolatiga berilgan bo‘lsa, u holda bunday vakolat beruvchi hujjat nusxasi bilan filial boshqaruvchisi va bosh muhosibi tomonidan imzolangan va muxrlangan kafolat xati qabul qilinishi mumkin.

6.3.Tijorat bankini kredit portfeli tushunchasi va uni tashkil etilishi. kredit portfelini sifatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va kredit portfelini diversifikatsiya qilish zarurligi

Tijorat bankini kredit portfeli – bu bank tomonidan berilgan va hali qaytarilmagan barcha kreditlarni yig’indisidir.

Kredit portfeliga muddati o‘tgan kreditlar ham, shartlari qayta ko‘rib chiqilgan kreditlar ham, sud jarayonidagi kreditlar ham kiradi.

Tijorat banklari tomonidan berilgan barcha kreditlar uning kredit portfelida o‘z ifodasini topadi. Tijorat banklari o‘z mijozlariga turli kurinishdagi kreditlar berishi mumkin.

Avvalambor, qarz oluvchilarni asosiy guruhlari bo‘yicha:

- ✓ xo‘jalikka;
- ✓ aholiga;
- ✓ hukumatga va davlat organlariga berilgan kreditlarga bo‘linadi.

Yo‘nalishi bo‘yicha kreditlar quyidagicha:

- ✓ iste’mol;
- ✓ sanoat;
- ✓ savdo;
- ✓ qishlok xo‘jaligi;
- ✓ investitsion;
- ✓ byudjet.

Kreditlarni foydalanish muddatlari bo‘yicha:

- ✓ qisqa muddatli;
- ✓ uzoq muddatli kreditlarga bo‘linadi.

Mikdori bo‘yicha kreditlar:

- ✓ yirik;
- ✓ o‘rta;
- ✓ kichik kreditlarga bo‘linadi.

Ta’minlanganlik bo‘yicha:

- ✓ ta’minlanmagan (ishonchli) kreditlar;
- ✓ ta’minlangan kreditlarga bo‘linadi.

O‘z navbatida, taminlangan kreditlar ta’minlanish xarakteriga ko‘ra:

- ✓ garovli;
- ✓ kafolatlangan;
- ✓ sug’urtalangan kreditlarga bo‘linadi.

Bank kreditlarini maqsadi bo‘yicha:

- ✓ ipoteka ssudalari;
- ✓ moliyaviy tashkilotlarga berilgan ssudalar;
- ✓ qishloq xo‘jaligiga berilgan ssudalar;
- ✓ savdo va sanoat korxonalariga berilgan ssudalar;
- ✓ jismoniy shaxslarga berilgan ssudalar;
- ✓ boshqa ssudalar;
- ✓ lizingni moliyalashtirish.

Bunda bank o‘zining kaysi tarmokka ko‘proq etibor berishiga karab, u yoki bu kredit ulushi kredit portfelida ko‘prok bo‘ladi. Bu uning kredit siyosatidan kelib chiqadi.

Bank aktiv operatsiyalari ichida kredit asosiy va bank daromadini katta qismi ham aynan shu kredit operatsiyalari orqali keladi. Shu sababli bank kredit portfelini qanday shakllanishi bank faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bank yaxshi kredit portfelini shakllantirish niyatida ekan, kreditlash jarayonini to‘g’ri tashkil qilishi zarur bo‘ladi.

Biz yuqorida turli ko‘rinishdagi kreditlarni ko‘rdik, biroq konkret banklarni kredit portfelini tarkibi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Bank kredit portfelini tarkibini aniqlovchi muhim omillardan biri bu ayni bank xizmat ko‘rsatadigan bozor sektorining xususiyatidir.

Har bir bank o‘z bozor segmenti mijozlarini qarz mablag’lariga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olishi kerak. Masalan, bank shahar chekkasidagi uylar va kichik do‘konlarga ega, tumanda joylashgan bo‘lsa, asosiy uy binolari garovi ostida,ipoteka krediti, avtomobil, uy jixozlari, umuman uy xujaligini yuritish uchun xarajatlarni qoplashga kredit beradi, aksincha katta shaharda ofislar, katta univermaglar, sanoat korxonalari orasidagi banklar, odatda o‘z kreditlarini asosan tijorat firmalariga tovar materiallar zahiralarini to‘ldirishga, jihozlar sotib olishga va ish haqiga yo‘naltiradilar.

Albatta, banklar kredit berayotganlarida o‘zlari xizmat ko‘rsatayotgan xududlarga to‘lik bog’liq bo‘lmaydilar. Kerakli kredit mablag’larini to‘liq yoki qisman ular boshqa banklardan olishlari mumkin. Bu adolat agar bank xizmat qilayotgan region iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelsa, zarar kurish riskini pasaytiradi.

Bank miqyosi ham uning kredit portfeliga ta’sir etuvchi omillardan biri xisoblanadi, ayniksa, bir qarz oluvchiga beriladigan kreditni maksimal miqdorini belgilovchi kapitalni xajmi muhimdir. Katta banklar, odatda ulgurji kreditorlar hisoblanadilar, ular o‘zlarini kreditlari asosiy mikdorini korporatsiyalar va boshka firmalarga beradilar. Kichikroq banklarni faoliyati esa fuqarolarga kichik ssudalar, uy garovi ostida xususiy shaxslarga kreditlar, firma va ofis egalariga kichik kreditlar shaklidagi yakka holdagi kreditlarni berishga yo‘naltiradilar.

Bundan tashqari, kredit portfeli tarkibiga ko‘ra kreditlashni turli ko‘rinishlari sohasidagi menejerlarni tajriba va malakasi hamda o‘z kredit inspektorlariga ma’lum ko‘rinishdagi kreditlarni bermasligi ko‘rsatilgan bankni kredit siyosati ham ta’sir ko‘rsatadi.

Kredit portfelini tarkibi ma’lum darajada bankni kutilayotgan daromadiga ham bog’liq. Chunki bank, odatda kutilayotgan daromadi maksimal bo‘lgan sudalarni berishni ma’qul ko‘radi.

Tijorat banklari sifatli kredit portfelini shakllantirish uchun avvalambor kreditlash jarayonini to‘g’ri va sifatli olib borishi zarur.

Kreditlash jarayoni bir necha tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- ♦ maqsadlilik;
- ♦ ta’minlanganlik;
- ♦ muddatlilik;
- ♦ qaytarishlik;
- ♦ to‘lovlilik.

Ushbu tamoyillar asosida kredit olmoqchi bo‘lgan mijozlarga kredit paketi tayorlanadi va kredit olish mumkin yoki mumkin emasligi tahlil qilinadi.

Yaxlit olib qaralganda, kredit siyosati tijorat bankini yagona kreditlash tizimini vujudga keltiradi desak xato bo‘lmaydi. Chunki bu siyosat bank o‘sgan sari uni yangidan tashkil etiladigan bo‘linma va filiallariga bank faoliyatini, kredit vakolatlarini, burchlarini taqsimotida muhim ahamiyat kasb etadi. Aniq bir siyosatdan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan kredit siyosati bank krediti madaniyatini umumiy tarakkiyotini o‘zagini ko‘rsatadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari kredit portfelini sifatini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi **(KKZQMZAD).**

KKZQMZAD = (ZAS / BAO‘S) x 100% (1)

bu erda:

ZAS – zaxira ajratmalari summasi;

BAO‘S – bank aktivlarining o‘rtacha summasi.

Ushbu ko‘rsatkichning yuqori me’yoriy darajasi 1,0 foizni tashkil etadi.

Kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi ko‘rsatkichini me’yoriy darajadan yuqori bo‘lishi tijorat banki tasniflangan kreditlar tarkibini yomonlashganligidan dalolat beradi.

2. Muddati o‘tgan kreditlarni mo‘‘tadil darajasi **(MO‘KMD).**

MO‘KMD = (MO‘KS / BK) x 100% (2)

bu erda:

MO‘KS – muddati o‘tgan kreditlarni o‘rtacha summasi;

BK – brutto kreditlar.

Mazkur ko‘rsatkichni yuqori me’yoriy chegarasi 3,0 foiz qilib belgilangan.

3. Muddati o‘tgan kreditlarni yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegaraviy darajasi.

Ushbu ko‘rsatkich 2-formula orqali hisoblanadi va uning yuqori me’yoriy darajasi 5,0 foizni tashkil etadi.

4. Har bir so‘mlik kredit quyilmasiga to‘g’ri keladigan daromad darajasi

(KOFDS : KQS) x 100%

Bu erda:

KOFDS – kreditlardan olingan foizli daromadlar summasi

KQS – kredit quyilmalari summasi

5. Kreditlardan olingan foizli daromadlarni o‘sish sur’ati bilan kredit quyilmalarini o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblik ko‘rsatkichi (6.1-jadval)

6.1-jadval

Ko‘rsatkichlar	**Tahlil davri**		
	I	**II**	**III**
Kreditlardan olingan foizli daromadlar summasi, mln. so‘m	X1	X2	X3
O‘sish sur’ati,%	-	X2/X1	X3/X2
Kredit quyilmalari summasi, mln. So‘m	U1	U2	U3

O‘sish sur’ati,%	-	U2/U1	U3/U2
Usish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblik ko‘rsatkichi	-	X2/X1/ U2/U1	X3/X2/ U3/U2

6. “Mudis” xalqaro reyting agentligi tomonidan qo‘llaydigan ko‘rsatkichlar(6.2-jadval)

6.2-jadval

Ko‘rsatkichlar	**A**	**B**	**C**	**D**	**E**
Muammoli kreditlarning kredit portfelidagi salmog’i, %	0,8 % gacha	0,8 % dan 2,0 % gacha	2,0% dan 5,0% gacha	5,0% dan 12 % gacha	12% va undan yuqori
Ehtimoliy yo‘qotishlar zaxirasining muammoli kreditlarning umumiy summasiga nisbatan darajasi, %	10 % gacha	10% dan 20 % gacha	20% dan 30 % gacha	30 % dan 50 % gacha	50 % va undan yuqori

7. Kredit riskini baholash bo‘yicha xalqaro standartlashgan yondashuv (6.3-jadval)

6.3-jadval

Kredit reytingi	**AAA AA –**	**A+ A –**	**VVV+ VV–**	**VV– dan past**	**Reyting siz**
Risk darajasi	20%	50%	100%	150%	100%

8. Kredit portfelini diversifikatsiya darajasi (tarmoqlarning xususiyatiga ko‘ra 25% bo‘lishi kerak).

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari kredit portfelini mijozlarni tarmoq xususiyatiga ko‘ra diversifikatsiya qilish bo‘yicha me’yoriy mezon qilib 25% olingan. Ya’ni, tijorat banki kreditlarini 25 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqda to‘planib qolishi mumkin emas. Respublikamizning ayrim yirik banklarida ushbu ko‘rsatkichning darajasi 50 foizdan yuqoridir.

Xalqaro bank amaliyotida kredit portfelini diversifikatsiya qilishni asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilardan foydalanilmoqda:

- bank kredit quyilmalarini iqtisodiyotni turli tarmoqlari bo‘yicha diversifikatsiyalash;
- bank kredit quyilmalarini mijozlar kesimida diversifikatsiyalash.

Diversifikatsiya qilinmagan kredit portfeli doimo yuqori riskli bo‘lib boradi.

Bankni kredit portfelini diversifikatsiya qilish yo‘li bilan kredit portfelini boshqarish bankni strategik rejalashtirish jarayoni bilan uzluksiz bog’liqdir.

Diversifikatsiyani xususiyatlari shundaki:

- birinchidan, diversifikatsiya hamma vaqt riskni kamaytiradi;
- ikkinchidan, kredit bo‘yicha foyda harakati qancha kam mos kelsa, riskni kamaytirish hisobiga diversifikatsiyadan shuncha ko‘p naf ko‘radi.

Banklar uchun kredit portfelini diversifikatsiyalash oson, kreditni kam summada turli sohalarga, turli mintaqalarga ajratishga erishish lozim.

Kreditlarni ta’minlanganligi bo‘yicha diversifikatsiya qilishda - ta’minlash asos qilib olingan ob’ektni likvidlik darajasiga e’tibor berish zarur. Kreditni ta’minlanganligida likvidlilik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, kredit va u bo‘yicha foizni ham o‘z vaqtida qaytishi oson va tez bo‘ladi.

Agar kredit portfeli o‘n beshdan ortiq mijozga berilgan yigirmadan ortiq kreditdan tashkil topgan bo‘lsa, bunday portfel yaxshi diversifikatsiya qilingan portfel deyiladi. Demak, diversifikatsiya talab darajasida bo‘lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- portfel ko‘p sonli nisbatan mayda kreditlardan tashkil topishi;
- kreditlar risk jixatidan bir - biriga bog’liq emas, ya’ni biron bir kredit bo‘yicha to‘lay olmaslik extimoli boshka kredit bo‘yicha to‘lay olmaslik extimoli bilan bog’liq bo‘lmasligi kerak.

Diversifikatsiya yordamida kredit portfelini umumiy risk darajasini kamaytirishga erishish mumkin. Ba’zida alohida olingan kredit bo‘yicha risk o‘zgarmagan xolda haqiqiy olinadigan daromad kutilayotgan daromadga tenglashishi mumkin.

Banklar uchun kredit portfelini diversifikatsiyalash juda xam oson. Yuqorida ta’kidlaganimizdek kreditni kam summada turli soxalarga (sanoat, qishlok xo‘jaligi, transport, biznes, xorijiy mijozlarga), jumladan (shahar, viloyat, mamlakatlarga) turli mintaqalarga ajratishga erishish lozim.

Tijorat banklarni ma’lum sohalar bo‘yicha ixtisoslashuvi, Shu sohalar bo‘yicha an’anaviy kreditlar berishi - diversifikatsiyalash usuliga to‘liq, mos kelmasligi mumkin. Shu sababli bizning amaliy sharoitimizda ixtisoslashgan banklar ixtisoslashuv bilan diversifikatsiya

o‘rtasidagi muqobil chegarani tanlamoqlari, zarur holda ulardan biriga yon bermoqlari lozim.

Kredit portfelini diversifikatsiyalash qarzni to‘lashlik riskini eng oddiy va arzon usul - xedjirlash yordam beradi va bankni ssuda va depozitlari keng mijozlar ko‘lamiga bo‘lib chiqishni anglatadi.

Karz berishda diversifikatsiyalash bankni ssuda portfelida absolyut miqdor yoki yalpi tutgan salmoqni to‘g’ridan - to‘g’ri cheklashni anglatadi.

Kreditlarni diversifikatsiya qilishda kreditlarni kam miqdorda ko‘proq mijozlarga berishga alohida e’tibor qilish lozim. Jumladan: AT «Aloqabank»da 2023-yil 1-yanvar holatiga korporativ mijozlar va kichik biznes sub’ektlariga ajratilgan kreditlar qoldig’i 6 765,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, hisobot yili boshiga *(6 425,3 mlrd. so‘m)* nisbatan 340,1 mlrd. so‘mga yoki 105,3 foizga oshdi.

Korporativ biznesning jami kredit qo‘yilmalari qoldig’i «Murobaha» va «Postfin» xizmati bilan birga 2022 yil yakuniga nisbatan 7 221,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Korporativ mijozlar va kichik biznes sub’ektlariga ajratilgan kreditlarning 405,2 mlrd. so‘m yoki 6,0 foizini qisqa muddatli va 6 360,2 mlrd. so‘m yoki 94,0 foizini uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi.

Hisobot sanasiga korporativ kredit portfelining o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi milliy valyutada ajratilgan kreditlar bo‘yicha 19,2 foizni, xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar bo‘yicha 8,2 foizni tashkil qiladi.

Hisobot davrida bank tomonidan korporativ mijozlar va kichik biznes sub’ektlariga jami 3 361,7 mlrd. so‘m miqdorida kreditlar ajratildi hamda 2 402,2 mlrd. so‘m miqdoridagi kreditlar grafik asosida qaytarildi.

2022-yil yakuni bo‘yicha kredit qo‘yilmalar diversifikatsiya holati quyidagicha aks etdi:

Jumladan:

- sanoat korxonalari – 1 768,6 mlrd. so‘m;
- transport va kommunikatsiyasi – 1 234,3 mlrd. so‘m;
- qurilish sohasi – 1 291,7 mlrd.so‘m;
- savdo, oziq-ovqat va xizmat ko‘rsatish sohasi– 1 333,3 mlrd. so‘m;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish va uni qayta ishlash sohasi

– 334,9 mlrd. so‘m;

- tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi korxonalariga – 196,5 mlrd. so‘mlik;

- boshqa soha va korxonalar uchun – 606,1 mlrd. so‘mlik kredit qo‘yilmalarini tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashriflari davomida berilgan topshiriqlar hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror va majlis bayonlariga asosan dasturlar doirasida 2022-yil davomida 128 ta loyiha uchun jami 685,5 mlrd. so‘m hamda 40,3 mln. AQSH dollari miqdorida kreditlar ajratildi.

Yuqoridagi dasturlar bo‘yicha kreditlar ajratilishi natijasida umumiy qiymati 1 317,7 mlrd. so‘mlik 88 ta loyihalar ishga tushirildi va loyihalar ishga tushirilishi natijasida 1 690 ta ishchi o‘rinlari yaratildi.[58]

Kreditlarni ta’minlanganligi bo‘yicha diversifikatsiya o‘tkazish bizni banklarimiz amaliyotida kam qo‘llaniladi. Bizni fikrimizcha, diversifikatsiyani kreditlarni ta’minlanganligi bo‘yicha o‘tkazish ham ancha samara beruvchi usul hisoblanadi. Chunki ta’minlanganlik kreditni asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib kreditni o‘z vaqtida to‘lanishiga asos hisoblanadi.

Kreditlarni ta’minlanganligi bo‘yicha diversifikatsiya qilishda ta’minlash asos qilib olingan ob’ektni likvidlik darajasiga e’tibor berish zarur. Kredit ta’minotini likvidlilik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, kredit va u bo‘yicha foizni ham o‘z vaqtida qaytishi oson va tez bo‘ladi. Shu jihatdan amaliyotda banklar bergan kreditlari bo‘yicha ularni ta’minlanganligiga qarab diversifikatsiya qilish usulini qo‘llash kredit risklarni kamayishiga va bank foydasini oshishiga olib kelishi mumkin

6.4. Muammoli ssudalar va ularni boshqarish, kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar zaxirasini tashkil qilish tartibi

O‘zbekiston Respublikasida muammoli kreditlar kelib chiqishini asosiy sabablarini quyidagicha turkumlash mumkin:

- kredit oluvchini moliyaviy ko‘rsatkichlarini, kredit mablag’laridan foydalanish bo‘yicha biznes-rejalarini, investitsion loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslanishini past darajada tahlil qilinishi;

[58] Раскрытие информации согласно положения о биржевом котировальном листе республиканской фондовой биржи «Тошкент» 27.06.2023

- qarzdorni kredit mablag'laridan foydalanishi ustidan monitoringni sifatsiz olib borilishi, ya'ni qarzdorni moliyaviy holatini yomonlashishi, pul oqimlarini salbiy dinamikasi holatlarida kreditni restrukturizatsiyalash hamda kreditni statusini o'zgartirishni ham qamrab oluvchi choralarni o'z vaqtida ko'rmaslik;

- banklar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga turli davlat organlarini aralashuvi;

- milliy valyuta devalvatsiyasi, ya'ni xorijiy valyutadagi kreditlar bo'yicha investitsion davr mobaynida ayirboshlash kurslarida ortiqcha farqni paydo bo'lishi.

Muammoli kreditlarni bartaraf etish amaliyoti samarali bo'lishi uchun ularni kelib chiqish sabablarini aniqlash, tasniflash muammoli kreditlarni bartaraf etish jarayonini asosiy va dastlabki bosqichlaridan biridir.

Kredit faoliyati bankni kredit tashkiloti sifatida shakllantiruvchi faoliyat hisoblanadi. Banklarni xizmat ko'rsatish doirasi qanchalik kengaymasin, baribir kredit operatsiyalari banklar uchun asosiy daromad manbai bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, bank amaliyotida kredit operatsiyalari katta riskni ham keltirib chiqaradi. Chunki daromad qancha katta bo'lsa, risk ham shunchalik katta bo'ladi. Ayniqsa, qaytmaydigan kreditlar miqdorini oshish ehtimoli bank uchun katta zarar havfini keltirib chiqaradi.

Shu sababli har bir bank o'z kredit siyosatini aynan mana shunday muammoli kreditlar oldini olish, ular bilan ishlash chora tadbirlariga yo'naltiradi, ya'ni kredit siyosati, kredit operatsiyalarini samarali tashkil etish yo'li bilan muammoli kreditlarni yuzaga kelish xavfini oldini olish maqsadida tashkil etiladi.

Respublikamiz bank amaliyotida so'nggi yillarda berilayotgan kreditlar dinamikasi va ularni qaytarishda yuzaga kelayotgan qarzdorlik muammosi, uni yuzaga keltirayotgan omillar hamda yuzaga kelgan qarzdorlik bo'yicha tijorat banklarida shakllantirilayotgan zaxiralar holati haqida biroz to'xtalib o'tish lozim.

So'nggi yillarda kreditni iqtisodiyotdagi o'rni va roligina emas, balki kredit munosabatlarini tashkil etish jarayoni ham sifat jihatidan ancha o'zgardi.

Mijozlarni pul oqimi nobarqaror bo'lgan sharoitda tijorat banklari kredit berish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda asosiy e'tiborni yuqori likvidli ob'ektlarni garovga olishga qaratadi. Bu esa, amaliy jihatdan to'g'ri qabul qilingan qaror hisoblanadi. Chunki, kreditni qaytarish

vaqti kelganda mijozni joriy hisobraqamida pul mablag'larini bo‘lmay qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, iqtisodiyotni pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarni pul oqimi nobarqarorlik darajasini yuqori bo‘lishi kuzatiladi.

Kreditlar ustidan joriy nazoratni amalga oshirishda ushbu operatsiyalar turli darajalarda ikkita xolis mansabdor shaxs tomonidan tekshirilishi lozim.

Avvalo joriy nazorat jarayoni ushbu mijozni kreditlashni amalga oshirgan yoki ushbu kreditni ishini yuritish topshirilgan bank xodimi tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, har bir kredit ishini ma'lum davriy oraliqlarda tahlil qilib borish, kredit operatsiyalarini amalga oshirib borish ustidan nazorat qilish topshirilgan shaxs tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bunday ikki pog'onali tizimda har ikkala pog'onani to‘liq mustaqilligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega va nazorat tizimidagi xodim kredit berish to‘g'risidagi qarorda ishtirok etmasligi lozim. Nazoratni ikkinchi yo‘nalishi bo‘lgan mukammal nazoratni amalga oshirishda faqat tavakkalchilik darajasi yuqori bo‘lgan ma'lum operatsiyalarni to‘liq tahlil qilish uchun tanlab olish imkonini beruvchi mexanizmni ishlab chiqish lozim. Bank xodimi o‘zi kredit ishini bevosita yuritayotganligi sababli mijoz bilan doimiy ravishda munosabatda bo‘ladi. Bu esa, yangi ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi, u mijozni kredit shartnomasi shartlariga rioya qilayotganligi va to‘lov layoqatliligini baholash uchun katta imkoniyatga ega bo‘ladi. Ayni vaqtda nazorat jarayoni mijoz bilan bevosita aloqada bo‘lmagan shaxs tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, nazorat va tahlilni amalga oshirishda bank xodimi o‘zini baholash xususidagi qarashlariga asoslanadi va eng muhimi bu baho uni mijoz bilan o‘zaro shaxsiy munosabatlarini sub'ektiv ta'siri ostida bo‘lmasligi kerak, bank xodimi mijoz bilan doimiy aloqada bo‘lishi ular orasida shaxsiy munosabatlarni bo‘lishiga qulay muhit yaratadi.

Ikkinchidan, nazorat jarayoni bank xodimini to‘g'ri kredit qarori qabul qilish imkoniyatini beradi. Xolis tahlil ssudani berish to‘g'risidagi qarorni qabul qilishda bank xodimini holatini ob'ektivligini kafolatlash uchun zarurdir.

Tijorat banklarini kreditlash amaliyotini tahlil qilish natijalari ko‘rsatmoqdaki, ayrim tijorat bank rahbarlari o‘z mansab vakolatlaridan

foydalanib kredit qo‘mita a’zolari fikri bilan ham hisoblashmagan holda yoki qo‘mita qaroriga salbiy ta’sir etishi natijasida moliyaviy jihatdan beqaror bo‘lgan, biznes rejasida ko‘rsatkichlar real bo‘lmagan ayrim mijozlarga majburiyat ijrosini ta’minotisiz kreditlar bermoqdaki, buning oqibatida muammoli kreditlar miqdori ortmoqda.

Tijorat banklarini kredit siyosatiga Markaziy bank tomonidan qo‘yiladigan talablarda berilgan kreditlar ustidan doimiy monitoringni amalga oshirishni zarurligi belgilab qo‘yilgan. Mazkur monitoringda quyidagi holatlar tekshirilishi lozim:

– kredit olgan sub’ektni xo‘jalik-moliyaviy faoliyati;

– qarzdorni tuzilgan shartnomalarga muvofiq mahsulot etkazib berish majburiyatlarini bajarishi;

– kredit olgan sub’ektni ishlab chiqarish hajmlari, noishlab chiqarish xarajatlari va yo‘qotishlari, muomala chiqimlari, foydasi, o‘z aylanma mablag’larini etarliligi;

– qarzdorni tovar-moddiy boyliklar zaxiralarini ahvoli;

– debitor qarzdorlikni aylanish darajasi;

– asosiy vositalarni aylanishi va h.k.

Kredit portfelini boshqarish samaradorligini baholashda inobatga olinadigan asosiy omillardan biri – bu kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarini darajasi va dinamikasi hisoblanadi.

Hozirgi paytda mamlakatimiz tijorat banklarida aktivlarni tasniflash O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2015-yil 13-iyunda 14/5-son bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g’risida”ga nizomga muvofiq olib boriladi.

6.4-jadval

Tasniflangan kreditlar bo‘yicha zaxira stavkalari

Tasniflangan kreditlar tarkibi	Zaxira ajratmalari stavkasi
Standart kreditlar	5 %
Substandart kreditlar	10 %
Qoniqarsiz kreditlar	25 %
Shubhali kreditlar	50 %
Umidsiz kreditlar	100 %

Mamlakatimizda bank aktivlari quyidagi tartibda va toifalar bo‘yicha tasniflanadi:

Tijorat banklarini aktivlarini sifatiga ko‘ra “standart”, “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” toifalarga tasniflanadi.

1.“Standart” aktivlar. Bunda qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u etarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlarni, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun etarli pul mablag’lari oqimiga, suningdek amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan strategik rejaga, bozordagi raqobatdoshlik qobiliyatiga, yaxshi mahsulotni ishlab chiqarishga va o‘z mahsuloti bo‘yicha marketing rejasiga ega bo‘ladi. Ta’minot “yaxshi ta’minlangan” kredit mezonlariga mos keladi. Ta’minot turlari notarial jihatdan tasdiqlangan bo‘lishi (agar qonun hujjatlarida notarial tasdiqlanishi nazarda tutilgan bo‘lsa), zarur hollarda, tegishli mulk bitimini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda ro‘yxatga olinishi, shu jumladan, tijorat bankini garov mol-mulkiga doir huquqlari to‘g’risidagi yozuv garov reestrida aks ettirilishi lozim. Tijorat banki kredit qaytarilmagan holda cheklovlarsiz va erkin ravishda uni ta’minot hisobidan undirib olishga haqli. Ta’minotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi lozim.

Sifati “standart” deb tasniflangan aktivlar qaytarilishida muammolar kuzatilmaydi. Bunda asosiy qarz summasini va foizlarini hech qanday qismi muddati o‘tgan yoki shartlari qayta ko‘rib chiqilmagan bo‘lishi lozim. Asosiy qarz summasi yoki foizlardan muddati o‘tgan va shartlari qayta ko‘rilgan aktivlar sifati “standart” deb tasniflanishi mumkin emas.

Tijorat banki zaxira kapitali tarkibida sifati “standart” deb tasniflangan aktivlar uchun ularni qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasini bir foizi miqdorida standart aktivlarga yaratiladigan zaxira shakllantirishi lozim.

Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar tijorat banklari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan so‘ng qolgan sof foyda hisobidan mazkur Nizom kuchga kirgan kundan keyin ajratilib, hisobot sanasiga sifatida “standart” deb tasniflangan aktivlar qoldig’idan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi.

2. Qarzdorning moliyaviy holati barqaror hisoblangan, lekin ayrim salbiy holatlar yoki tendensiyalar mavjud bo‘lib, agar ular bartaraf etilmasa, moliyalashtirilgan loyihani amalga oshishiga yoki qarzdorni aktivni o‘z vaqtida to‘lash qobiliyatiga nisbatan shubha paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan aktivlar sifati “substandart” deb tasniflanadi. Bunda moliyaviy holati yoki ta’minotni nazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo‘lgan, kredit hujjatlarida etarlicha axborot bo‘lmagan yoki ta’minot bo‘yicha hujjatlari bo‘lmagan “standart” deb tasniflangan aktivlarni sifati ham “substandart” deb tasniflanishi lozim.

Tijorat banki sifatida “substandart” deb tasniflangan aktivlar uchun ularni qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasini o‘n (10) foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

3. Quyida keltirilgan omillardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lsa, aktivlarni sifati “qoniqarsiz” deb tasniflanadi:

❖ asosiy to‘lov manbalari qarz to‘lash uchun etarli bo‘lmasa, ta’minotga qo‘yilgan mulkni va qarz oluvchini boshqa asosiy vositalarini sotish, to‘lanishi lozim bo‘lgan qarzlarni uzaytirishlarni hisobga olgan holda qo‘shimcha to‘lov manbalarini topish talab etiladigan bo‘lsa;

❖ qarz oluvchini joriy moliyaviy holati yoki uni pul mablag’larini mo‘ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplashi uchun etarli bo‘lmasa;

❖ qarz oluvchini kapitali etarli darajada bo‘lmasa;

❖ ushbu sohaga nisbatan tendensiya va istiqbollar barqaror bo‘lmasa;

❖ ta’minot qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo‘lmaganda asosiy qarzni to‘lanmagan summasiga teng bo‘lsa;

❖ asosiy qarz va foizlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lib, uning muddati 90 kundan oshmagan bo‘lsa.

Tijorat banki sifati “qoniqarsiz” deb tasniflangan kreditlar uchun ularni qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasini yigirma besh (25) foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirilishi lozim.

Sifati “qoniqarsiz” deb tasniflangan aktivlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo‘lib, mavjud sharoitda aktivlarni to‘liq qaytarilishini shubha ostiga va kam ishonchli qilib qo‘yadigan aktivlar sifati “Shubhali” deb tasniflanadi. Bunda yo‘qotishlar ko‘rish ehtimoli yuqori bo‘lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo‘lgan aktivlar sifati sharoit oydinlashguncha “umidsiz” deb tasniflanmaydi.

4. Quyida keltirilgan omillardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lsa, aktivlarning sifati “Shubhali” deb tasniflanadi:

- Sifati “qoniqarsiz” aktivlarning hech bo‘lmaganda birorta ko‘rsatkichi, suningdek ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo‘lsa (bozorda oson sotiladigan ta’minotni mavjud emasligi yoki ta’minlanmagan aktivlarni mavjudligi yoxud qarz oluvchini bankrot deb e’lon qilinishi);
- yaqin kelajakda aktivni qisman to‘lanish ehtimoli mavjud bo‘lsa;
- asosiy qarz va foizlar bo‘yicha 90 kundan ortiq lekin, 180 kundan oshmagan muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa.

Tijorat banki sifati “Shubhali” deb tasniflangan aktivlar uchun ularni qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasini ellik foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan yoki qaytmasligidan dalolat beruvchi omillar yoki alomatlar mavjud bo‘lgan hamda qaytmaydigan yoki qiymati juda pastligi tufayli hisobini balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas deb baholanadigan aktivlar sifati “umidsiz” deb tasniflanadi. Bunday tasniflash aktivlarda umuman hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Biroq, tijorat banklari o‘z balanslarida bunday aktivlarni hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas. Tijorat banki tomonidan ta’minotga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish yoki uni qaytarish choralari qo‘llanishi lozim.

5. Quyida keltirilgan omillardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lsa, aktivlarning sifati “umidsiz” deb tasniflanadi:

- ✓ aktivlarni undirilishi sud jarayonida bo‘lsa;
- ✓ qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo‘yilgan mol-mulkka bo‘lgan huquqlardan foydalanish yo‘li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo‘yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo‘lsa;
- ✓ aktivlarning to‘lash muddati uzaytirilgan bo‘lsa;
- ✓ asosiy qarz va foizlar bo‘yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa.

Tijorat banki sifati “umidsiz” deb tasniflangan aktivlar uchun ularni qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasini yuz foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Agar tijorat bankida bitta qarzdorga berilgan bir necha aktivlar mavjud bo‘lsa, qarzdor tomonidan tijorat bankiga qaytariladigan barcha aktivlar sifati ulardan eng past toifada tasniflangan aktivlar sifatidek tasniflanishi lozim.

Agar qarzdorni bir nechta tijorat banklari oldida qarzi mavjud bo‘lib, ularni birida qaytarilishi lozim bo‘lgan aktivlar sifati eng past toifada tasniflangan bo‘lsa, boshqa tijorat banklari ham ushbu qarzdorga berilgan aktivlar sifatini mazkur toifada tasniflashlari shart. Bunda tijorat banklari qarzdorga boshqa tijorat banklari tomonidan berilgan aktivlar sifatini tasnifini aniqlash uchun kredit axboroti ma’lumotlar bazasidan foydalanishlari lozim.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

* diversifikatsiyalash usuli;
* kreditlarni restruktizatsiyalash usuli;
* zaxiralar shakllantirish usuli;
* muddati o‘tgan kreditlar va foizlarni balansdan chiqarish usuli.

Restrukturizatsiya qilingan kreditlar - qarzdorni moliyaviy ahvoli yomonlashishi sababli to‘lovni dastlabki shartlari o‘zgargan kreditlar. Agarda bank tomonidan quyidagi amallarni hech bo‘lmaganda bittasi bajarilsa, kredit restrukturizatsiyalangan hisoblanadi:

* foiz stavkasini kamaytirilishi yoki hisoblangan foizlarni undirib olinmasligi;
* asosiy qarzni kamaytirilishi yoki undan qisman voz kechilishi;
* foizlar va (yoki) asosiy qarzga doir to‘lovlarni bir qismi yoki barchasidan voz kechilishi;
* aktivni asosiy va (yoki) foizlarini to‘lash muddati kechiktirilishi yoki uzaytirilishi;
*qarz oluvchi va (yoki) ta’minot turining o‘zgartirilishi.

Aktivlarning quyida keltirilgan asosiy shartlaridan hech bo‘lmaganda bittasi o‘zgartirilgan bo‘lsa, ularni shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar deb hisoblanadi:

- foiz stavkasini pasaytirilishi, Markaziy bankni qayta moliyalash stavkasi pasayishi munosabati bilan foiz stavkasini pasaytirish holatlari bundan mustasno;
- asosiy qarzni kamaytirilishi yoki undan qisman voz kechilishi;

- foizlar va (yoki) asosiy qarzga doir to‘lovlarni bir qismi yoki barchasidan voz kechilishi;

- aktivni asosiy va (yoki) foizlarini to‘lash muddati kechiktirilishi yoki uzaytirilishi;

- qarz oluvchi va (yoki) ta’minot turini o‘zgartirilishi, kreditni bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta’minotdan chiqarilgan holatlar bundan mustasno.

Qisqacha xulosalar

Bankni kredit siyosati - kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavvakalchilikni boshqarishda bank raxbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank raxbariyati bilan xodimlarini kreditlar protfelini samarali boshqarishga doir ko‘rsatmalar bilan ta’minlovchi xujjatdir. Kreditlash bank ishining o‘zagi bo‘lib, uning sifatiga qarab bankning faoliyati to‘g’risida xulosa chiqarish mumkin.

“Kredit siyosati” hujjati kreditlarni boshqarish jarayonini poydevorini tashkil etadi. Tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd etilgan “Kredit siyosati” kreditlarni oqilona boshqarishni samarali yo‘llaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ushbu hujjat bankni kreditlashtirish faoliyatini andozalari va parametrlarini belgilab beradi. Ushbu belgilangan standartlar va parametrlarda kredit berish, qarzlarni hujjatlashtirish va boshqarish bo‘yicha ma’suliyatli bo‘lgan bank xizmatchilari qo‘llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Kredit siyosati malakali tuzilib, bank rahbaridan tortib operatorgacha barcha darajalarda me’yorida amalga oshirilsa, bu bank rahbariyatiga to‘g’ri qarorlar chiqarish, ortiqcha risklardan xolos bo‘lish, bank kreditlarini to‘g’ri baholash imkoniyatini beradi.

Bankni kredit siyosati qoidalariga rioya etishni asosiy maqsadlari: foyda olishni ta’minlash, risklarni boshqarish, bank faoliyati me’yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Tijorat bankini kredit portfeli – bu bank tomonidan berilgan va hali qaytarilmagan barcha kreditlarni yig’indisidir,

Kredit portfeliga muddati o‘tgan kreditlar ham, shartlari qayta ko‘rib chiqilgan kreditlar ham, sud jarayonidagi kreditlar ham kiradi,

Tijorat banklari tomonidan berilgan barcha kreditlar uning kredit portfelida o‘z ifodasini topadi. Tijorat banklari o‘z mijozlariga turli kurinishdagi kreditlar berishi mumkin.

Bank aktiv operatsiyalari ichida kredit asosiy va bank daromadini katta qismi ham aynan Shu kredit operatsiyalari orqali keladi. Shu

sababli bank kredit portfelini qanday shakllanishi bank faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi: diversifikatsiyalash usuli; kreditlarni restruktizatsiyalash usuli; zaxiralar shakllantirish usuli; muddati o‘tgan kreditlar va foizlarni balansdan chiqarish usuli.

Tayanch so‘z va iboralar

Kredit siyosati, kreditlash, kredit portfeli, andozalar, parametrlar, qarzlarni xujjatlashtirish, kredit faoliyatini maqsadi, kredit siyosatini zarurligi, kredit taminoti, muammoli kredit, kredit risklari, kreditga layoqatlilik, kafolat xati va sug’urta polisi, sudalar, kredit monitoringi, ikki pog’onali tizim, standart krediti, substandart krediti, qoniqarsiz krediti, Shubhali krediti, umidsiz krediti, kreditlarni rekonstruktizatsiyalash usuli, muddati o‘tgan kreditlar, foizlarni balansdan chiqarish.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bankning kredit siyosati tuShunchasi.
2. Bank kredit siyosatiniing ustuvor yo‘nalishlari.
3. Banklarning kredit siyosatiga qo‘yilgan talablar.
4. Tijorat banklarini kredit siyosatining mezonlari.
5. Tijorat banklari kredit siyosatida kreditlarning daromadliligini oshirish.
6. Banklari kredit siyosatida kreditlarning risk va daromadlilik darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash masalalari.
7. Tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilish mezonlari.
8. Universal va ixtisoslashgan tijorat banklari kredit siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari.
9. Kredit siyosatida kreditlarning garov ta’minotiga qo‘yiladigan talablar.
10. Kredit siyosatida kreditlarning monitoringiga qo‘yiladigan talablar.
11. Tijorat banklari kredit siyosatining samaradorligini baxolash.
12. Tijorat banklari kredit portfeli tuShunchasi
13. Tijorat banklari kredit portfelini shakllantirish
14. Kredit portfelini sifat jihatdan tahlili.
15. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish zarurligi.
16. Muammoli ssudalar.

17. Muammoli ssudalarni yuzaga kelishining belgilari va asosiy sabablari.

18. Kreditlarning qaytarilmaslik muammosini keltirib chiqaruvchi omillar.

19. Muammoli ssudalarni boshqarish usullari.

20. Muddati o‘tgan kreditlarni va ularga hisoblangan foizlarni tijorat banklarining balansidan chiqarish tartibi.

21. Tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish usullari.

7-bob. TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION OPERATSIYALARINI BOSHQARISH

7.1.Tijorat banklari investitsion operatsiyalarini mazmuni va zarurligi

Mamlakatimizdagi qulay investitsiya muhiti natijasida banklarning moliyaviy barqarorligi va faolligi oshib bormoqda. Xususan, sohadagi islohotlar tufayli so‘nggi 5 yilda banklarning kapitali 2 barobarga, kredit portfeli 2,3 barobarga hamda yillik kredit ajratish hajmi 1,8 barobarga ko‘paydi.

To‘rtta bank ilk bor evrobond chiqarib, chetdan 1 milliard 300 million dollar resurs jalb etdi. O‘tgan yili banklar 3,8 milliard dollarlik, shuningdek, ularning mijozlari hukumat kafolatisiz 6 milliard dollarlik xorijiy kreditlarni to‘g’ridan-to‘g’ri olib kelgan.[59]

Tijorat banki investor sifatida qimmatli qog’ozlarni sotib oladi va sotadi.

Bank qimmatli qog’ozlarni ikki maqsadda sotibi va sotib oladi:

1. Likvidliligini ta’minlash maqsadida
2. Daromad olish maqsadida

AQShning Kolumbiya universitetining professori F.Mishkinning xulosasiga ko‘ra, tijorat banklarini investitsion operatsiyalarini rivojlantirishda moliyaviy innovatsiyalarga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Foiz stavkalarining sezilarli darajada tebranishi yangi moliyaviy mahsulotlarga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga bevosita va kuchli ta’sir qiluvchi muhim iqtisodiy omil hisoblanadi. 1950-yillarda uch oylik xazina veksellari foiz stavkalarining tebranishi 1,0 foizdan 3,5 foizgacha diapazonda, 1970-yillarda – 4,0 foizdan 11,5 foizgacha, 1980-yillarda 5,0 foizdan 15,0 foizgacha bo‘lgan diapazonni tashkil etdi. Foiz stavkalarini bu qadar kuchli tebranishi kapital qiymatini sezilarli darajada oshishiga yoki kamayishiga olib` keldi, investitsiyalarning qaytishi borasidagi noaniqlik kuchaydi[60].

F.Mishkin AQSh misolida moliyaviy innovatsiyalarning bank tizimining barqarorligini ta’minlashdagi rolini asoslab bergan. Ammo, ushbu xulosa O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun hozircha amaliy

[59] Prezident Shavkat Mirziyoev “Banklarning investitsiyaviy faoliyati va aholi bandligidagi ishtiroki” 2024 yil 20 may kuni xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda banklarning ishtirokiga oid silektor yig’ilishdagi maruzasi.

[60] Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых циклов. 7-е изд. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2013. – С.295.

ahamiyatga ega emas. Chunki, respublikamizda Hukumatning qimmatli qog'ozlari kuchli rivojlanmagan va ayni paetda mavjud emas.

E. Dolan ikkilamchi zahiralarning quyidagi to‘rt shaklini ajratib ko‘rsatdi:

a) Hukumatning qimmatli qog'ozlari;

b) Boshqa banklarning depozit sertifikatlari;

v) Tijorat qimmatli qog'ozlari;

g) Investitsion fondlar.

Tijorat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqori likvidli aktivlar qatoriga kiritish mantiqan to‘g'ri emas. Chunki tijorat qimmatli qog'ozlari aniq moddiy kafolatga ega emas, ayniqsa, respublikamiz sharoitida ko‘plab korxonalarni qimmatli qog'ozlari bo‘yicha to‘lovsizlik muammosi mavjud. Bunday holatlarni "O‘zsanoatqurilish" bankida, Tashqi iqtisodiyot faoliyat "Milliy banki" da va boshqa tijorat banklarida kuzatish mumkin. Ana shu fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda tijorat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqori livkidli aktivlar tarkibidan chiqarib tashlash zarur deb hisoblaymiz.

7.1-jadval ma'lumotlaridan ko‘rinadiki, Barklays bank aktivlarini umumiy hajmida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar va kreditlar asosiy salmoqni egallaydi. Ushbu ikki aktivni jami aktivlar hajmidagi salmog'i, 2018-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, 82,0 foizni tashkil etdi. Bu esa, birinchidan, Barklayz bankning asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan birini kreditlash ekanligi bilan, ikkinchidan, bankning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarini rivojlanganligi bilan izohlanadi.

7.1-jadval

Barklays bank aktivlarining tarkibi, 2018 yilning 1 yanvar holati[61],[62] foizda

Aktivlar tarkibi	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2017 y.	2018 y.
Naqd pullar va Markaziy bankdagi pul mablag'lari	3,3	4,1	5,7	8,4	4,6	15,6
Boshqa banklardagi pul mablag'lari	2,3	1,7	2,1	0,1	0,7	6,8
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	37,6	39,4	40,1	46,7	47,2	27,3

[61]Жадвал AnnualReports. www.barclayc.com маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

[62] Barclays PLC Annual Report 2018

Berilgan kreditlar	47,3	46,5	44,7	35,9	34,8	28,8
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	6,8	4,2	2,7	5,9	9,1	19,6
Boshqa aktivlar	2,7	4,1	4,7	3,0	3,6	1,9
Aktivlar –jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100

7.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Barklays bank aktivlarini umumiy hajmida uning boshqa banklardagi “Nostro” vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag’lari juda kichik salmoqni egallaydi. Buning sababi shundaki, ushbu mablag’lar bankka daromad keltirmaydi. Asosiy vositalar ham tijorat banklari uchun daromad keltirmaydigan aktiv hisoblanadi. Shu sababli, tijorat banklarini aktivlar hajmida asosiy vositalar juda kichik salmoqni egallaydi.

7.1-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, AQSHning “Benk of Amerika” banki va Germaniyaning “Doychebank”i aktivlarini umumiy hajmida yuqori likvidli qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalar sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, mazkur banklarni joriy likvidliligini yuqori likvidli qimmatli qog’ozlar hisobidan ta’minlanishi bilan izohlanadi.



7.1.-rasm. Benk of Amerika (AQSH) va Doychebank (Germaniya) aktivlarini umumiy hajmida yuqori likvidli qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalarni salmog’i[63], 2018-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra (foizda)

[63]Расм муаллиф томонидан www.bankofamerica.com ва www.db.com сайтлари маълумотлари асосида тузилган.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklarini likvidliligini ta’minlashda kredit va foiz risklarini boshqarishga alohida e’tibor qaratiladi[64]. Bu esa, risk-menejmentni takomillashtirishga olib keladi.

7.2. Banklarni investitsion operatsiyalarini boshqarish tamoillari

Tijorat banklarini investitsion operatsiyalarini boshqarish bir qator tamoillarga tayanadi. Ana shunday muhim tamoillardan biri bo‘lib, bank investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish tamoillari hisoblanadi.

Korporativ qimmatli qog’ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar yuqori riskli bo‘lganligi sababli tijorat banklari qimmatli qog’ozlar portfelini diversifikatsiyalashga katta e’tibor beradilar

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari investitsiya portfelini diversifikatsiya qilishda 7 foizli me’yoriy chegara keng qo‘llaniladi. Ya’ni, bir emitentning qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalar tijorat banki investitsiya portfelini 7 foizidan oshib ketmasligi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarini investitsion faoliyatiga nisbatan uchta iqtisodiy me’yor belgilangan:

* tijorat bankini bir emitentni qimmatli qog’oziga qiladigan investitsiyalari miqdori uning birinchi darajali kapitalini 15 foiizdan oshib ketmasligi kerak;

* tijorat bankini oldi-sotdiga mo‘ljallangan qimmatli qog’ozlariga qiladigan investitsiyalari miqdori uning birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshib ketmasligi lozim;

* tijorat bankini barcha emitentlarni qimmatli qog’ozlariga qiladigan investitsiyalari miqdori uning birinchi darajali kapitalini 50 foizidan oshib ketmasligi kerak.

Tijorat banklari investitsion operatsiyalarini risk darajalari va daromadliligi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash tamoili ham asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda valyuta opsionlarini ikki standarti mavjud bo‘lib, ushbu standartlar risk darajasiga ko‘ra bir-biridan keskin farqlanadi. Valyuta opsionlarini birinchi standarti evropa standarti deb ataladi va bu opsionlar o‘z egasiga faqat shartnoma muddati tugagandan so‘ng opsiondan foydalanish huquqini beradi. Valyuta opsionlarining ikkinchi standarti esa, amerika standarti deyiladi va mazkur opsionlar

[64] Ephraim Clark , Davide Salvatore Mare, Nemanja Radic Cooperative banks: What do we know about competition and risk preferences? J. Int. Financ. Markets Inst. Money 52 (2018) 90–101 journal homepage: www.elsevier.com/locate/intfin

o‘z egasiga opsion shartnomasi muddatini istalgan vaqtida opsiondan foydalanish huquqini beradi. Demak, valyuta opsionlarini amerika standartida risk darajasi evropa standartiga nisbatan yuqori hisoblanadi[65].

Valyuta fyuchers bozorini beqaror valyuta kursi hukm surayotgan mamlakatlarda tashkil etish lozim. Valyutalarni beqaror bo‘lishida eng avvalo mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy tadbirlarga ishonchni yo‘qligidadir.

Qayd etish joizki, Xalqaro amaliyotda valyuta opsionlarini ikki standarti mavjud bo‘lib, ushbu standartlar risk darajasiga ko‘ra bir-biridan keskin farqlanadi va ular tijorat banklariga katta miqdorda zarar keltirishi mumkin. Bunga aniq misol qilib 1995 yil 25 fevralda bankrot deb e’lon qilingan Angliyaning “Berings” bankini keltirish mumkin. Holbuki, ushbu bank 233 yillik tarix tajribasiga ega edi.

Berings bankning Singapur filiali treyderi Nik Lison bankni passividagi barcha bo‘sh turgan pul mablag’larini Singapur fond birjasiga chiqib, Yaponiya korporatsiyalarini fyuchers va opsionlarini sotib olishga yo‘naltirdi. Oradan 3 kun o‘tgandan so‘ng Yaponiyaning Kobe shahrida dahshatli zilzila bo‘ldi. Zilzila natijasida Yaponiya korporatsiyalarini fyuchers va opsionlarini bahosi keskin pasayib ketdi. Natijada, Berings bank 1,3 mlrd. AQSH dollari miqdorida zarar ko‘rdi.

Berings bankini Prezidenti dunyoning eng boy odamlaridan biri hisoblangan Bruney Sultoni bilan do‘st edi. U bankni qutqarib qolish uchun Bruney Sultonidan 1,0 mlrd. dollar qarz so‘radi. Ammo sulton tavakkal qilishni hohlamadi. Oxir-oqibat 233 yillik tarixga ega bo‘lgan Berings bank bankrot bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasini tijorat banklarida valyutalarni sotib olish maqsadida berilgan opsionlar 92728 - «Opsion bitimi bo‘yicha sotib olish» hisobraqamini debetida va 96379 – “Opsion bo‘yicha sotib olish kontr hisobvrag’i»ni kreditida hisobga olinadi.

Tijorat banklarini valyuta opsionlaridan oladigan daromadlari 45404-hisobraqamini kreditida, opsionlardan ko‘rilgan zararlar esa, 55306-hisobraqamini debetida hisobga olinadi.

Qimmatli qog’ozlar bozorida tijorat banklari moliyaviy broker sifatida qimmatli qog’ozlarni oldi-sotdisida mijozni hisobidan va uning topshirig’i bilan komissiya shartnomasi yoki shartnoma topshirig’iga muvofiq agentlik funksiyasini bajaradi. Tijorat banklarining komission

[65] Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные отношения. – М. ФиС, 2013. – С. 173-176.

muomalalari (operatsiyalari) o‘z mijozni topshirig’iga muvofiq banklar komission operatsiyalarni bajaradi. Bunda ular mijozni topshirig’iga muvofiq komissioner sifatida o‘z nomlaridan, mijozni hamma ko‘rsatmalarini, masalan kurslarni cheklash, kelishuvlarni vaqti va kelishuv o‘tkaziladigan joy to‘g’risidagi ko‘rsatmalarni bajarishi lozim.

Bu xizmatlar uchun bank mijozdan komissiya haqi, qo‘shimcha xarajatlar kompensatsiyasini olishi kerak, chunki bu ishlar mijoz topshirig’ini bajarilishiga bog’liq tadbirlardir. Komission kelishuv tipi ikki shartnomani tuzishni ko‘zda tutadi:

-bank (komissioner)va mijoz(komitent) o‘rtasidagi komission shartnoma;

-bank komissioner va uchinchi kelishuv qatnashchisi o‘rtasidagi oldi-sotdi shartnomasi, qoida bo‘yicha, komitent sotib oluvchi qimmatli qog’ozlarni sotib olish shartnomasini tuzishdan oldin, vositachi-bank ixtiyoridagi o‘zini hisob varaqasiga pul mablag’larini o‘tkazadi. O‘tkazilgan pul mablag’lari qimmatli qog’ozlarni sotib olishga etadigan darajada bo‘lishi kerak.

Qimmatli qog’ozlarlarni sotishga bog’liq shartnoma komissiyasini tuzishda, komitent sotuvchi vositachi-bankda sotishga mo‘ljallangan qimmatli qog’ozlarni deponentlashtiradi.

Qimmatli qog’ozlarni investitsion jozibadorligi banklarni investitsion operatsiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, banklarni investitsiya portfelini daromadliligi va risk darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashda sotib olinadigan qimmatli qog’ozlarni investitsion jozibadorligiga alohida e’tibor qaratiladi.

7.3. Tijorat banklari investitsiya portfelini sifatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar

Tijorat banklarini investitsiya portfelini sifatini baholashda xalqaro bank amaliyotida bir nechta ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

1. Bir emitentning qimmatli qog’ozlariga qilinadigan investitsiyalarni maksimal miqdori.

Tijorat banki tomonidan bir emitentning qimmatli qog’ozlariga qilinadigan investitsiyalar summasi, bank birinchi darajali kapitalini 15 foizidan oshib ketmasligi kerak.

2. Oldi-sotdiga mo‘ljallangan qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalarni maksimal miqdori.

Tijorat banki tomonidan oldi-sotdi uchun mo‘ljallangan qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalarni jami summasi bank birinchi darajali kapitalini 25 foizidan oshib ketmasligi kerak.

3. Barcha emitentlarni qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalarning maksimal miqdori.

Tijorat banki tomonidan barcha emitentlarni qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalar summasi bank birinchi darajali kapitalini 50 foizidan oshib ketmasligi kerak.

4. Bank investitsiya portfelining daromadlilik darajasi.

$$IPd = (P1 – P0) : P0$$

Bu erda:

IPd – investitsiya portfelinii daromadlilik darajasi;

P1 – investitsiya portfelini so‘nggi qiymati;

P0 – investitsiya portfelini boshlang’ich qiymati.

5. Investitsiya portfelini diversifikatsiya darajasi.

Bir emitentning qimmatli qog’ozlariga qilingan investitsiyalarni investitsiya portfelidagi ulushi 7 foizdan oshib ketmasligi kerak.

6. Yuqori likvidli qimmatli qog’ozlarni investitsiya portfelidagi salmog’ini o‘zgarishi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarini yuqori likvidli qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalari, bir tomondan, ularni joriy likvidliligini ta’minlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari hajmini oshirish imkonini beradi.

Yuqori likvidli qimmatli qog’ozlar sifatida, odatda, Hukumat tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlar, Markaziy bankini qimmatli qog’ozlari va to‘lovi, Hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog’ozlarga kiradi.

Mamlakatimizda uzatma tijorat veksellari, ya’ni trattalar muomalasini mavjud emasligi Markaziy bankka diskont kreditlari berish imkonini bermaydi.

Mamlakat Markaziy bankida lombard kreditlarining mavjud emasligi uni qayta moliyalash siyosatini samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va mazkur kreditlarni berilmayotganini sababi Hukumatni qimmatli qog’ozlarini emissiya qilishni to‘xtatilganligidadir. Chunki, Markaziy bank faqat hukumat qimmatli qog’ozlarini o‘zining lombard kreditlari uchun garov ob’ekti sifatida tan oladi.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmi 107,1 trln so‘mni tashkil etdi.

Investitsiyalar tarkibi:

– korxonalar va tashkilotlarning o 'z mablag’ lari hisobidan — 18,8 trln so ' m (17,6 %);

– aholi mablag 'lari hisobidan — 6,9 trln so‘ m (6,5 %);

– to‘g’ridan — to‘g’ri xorijiy investitsiyalar hisobiga-33,3 trln so‘m (31,1 %).[66]

Ushbu holat tijorat banklari investitsion operatsiyalarini daromadliligiga va ularni joriy likvidliligiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi.

Respublikamiz tijorat banklarini investitsiya portfelida xorijiy valyutalarda emissiya qilingan qimmatli qog’ozlar mavjud emas. Demak, banklarni investitsiya portfeli milliy valyuta-so‘mda emissiya qilingan qimmatli qog’ozlardan iborat. Bu esa, respublikamiz tijorat banklarini investitsiya portfelini moliyaviy risklarga ta’sirchanligini oshiradi. Bunda inflyasiya va devalvatsiya ta’sirida banklarni qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalarini real qiymatini pasayish xavfi yuzaga keladi.

7.4. Tijorat banklarida investitsion operatsiyalarini boshqarish usullari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonii bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga etkazish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida e’tirof etilgan. Bugungi kunda qimmatli qog’ozlar bozorida 33 ta emitentning faqat obligatsiyalari sotuvga chiqarilgan bo‘lib (foiz daromadlari 24 % gacha), ularning so‘ndirish muddatlari bir yildan ortiq muddatni tashkil etib, qisqa muddatli likvid instrumentlar bozori mavjud emas. Bu esa, o‘z navbatida, qimmatli qog’ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni, ya’ni veksellarni barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan oddiy va o‘tkazma shakllarini chiqarishni ilmiy asosida tadqiq qilish va rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Mamlakatimizda fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan bir necha urinishlar amalga oshirilganiga qaramay, fond

[66] https://uzdaily.uz/ru/post/85488

bozorining mamlakat rivojlanishidagi o‘rni hamon pastligicha qolmoqda. Ayniqsa, moliyalashtirish manbalarida qimmatli qog’ozlar ulushi ancha past. YAIMga nisbatan aksiya va obligatsiyalarni chiqarish hajmi o‘rtacha 1,8% (1 mlrd doll)ga teng.

O‘zbekistonda mustaqillikka erishilganidan so‘ng iqtisodiyotni moliyalashtirish manbai sifatida asosiy e’tibor bank kreditlariga qaratildi. Aynan banklar aholi, korxona va tashkilotlar, shuningdek, davlat mablag’larini kredit asosida jalb qiluvchi muassasa sifatida iqtisodiyotning real sektoriga ulkan sarmoya kiritdilar. Pul (qarz) bozorining eng katta ulushi (98 %) kreditlarga to‘g’ri kelib, ularning o‘tacha stavkasi (so‘mda 28 %–30 %, valyutada 9%–10 %) edi. Kredit olgan tadbirkorning ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining o‘rtacha tannarxi 80- 90%ni tashkil qilmoqda.

Mamlakatda mustaqillik yillaridan fond bozori shiddat bilan rivojlana boshladi. Xususan, 1994-yilda Respublika fond birjasi tashkil etildi, 1996-yildan 2011-yilgacha davlat qimmatli qog’ozlari bozorining muayyan rivojlanishi kuzatildi, korxona va tashkilotlarning debitorkreditor qarzdorliklarini kamaytirish imkoniyatlari qulaylashdi. Oliy o‘quv yurtlarida soha bo‘yicha mutaxassislar tayorlash ishlari jadallik bilan amalga oshirildi. Markaziy bankda qimmatli qog’ozlar deportamenti va tijorat banklarda qimmatli qog’ozlar bo‘limlari tashkil etildi va soha mutaxassislari o‘qitilib malakalari oshirildi. Mablag’larni jalb etish maqsadida kapital iste’molchilari qimmatli qog’ozlarni muomalaga chiqaradi va ularni sotish natijasida ishlab chiqarish (savdo-sotiq, moliyaviy faoliyat va h.k.) jarayonini amalga oshirish uchun mablag’ oladi. Kapital iste’molchilari (emitentlar) va etkazib beruvchilari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida PF-60-sonli Farmoni. 2022-yil 28-yanvar 83 (sarmoyadorlar) o‘rtasidagi munosabatlar qaytarilish, to‘lovlilik yoki molmulkka egalik qilish huquqini o‘tkazish shartlari bilan amalga oshiriladi.[67]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Infilatsion taregetlash rejimiga bosqichma bosqich o‘tish orqali pul kredit siyosatini takomilashtirish to‘g’risida”gi 2019-yil 18-noyabr PF 5877 sonli farmonida “jamg’armalarni investitsiyalarga transformatsiya qilish uchun moliyaviy vositachilik institutlarini rivojlantirish maqsadida

[67] Ниёзов З. Д. Қимматли қоғозлар бозорини ривожи-барқарор иқтисодий ривожланишнинг зарурий шартлари. “IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHI VA EKOLOGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK MASALALARI” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Самарканд – 2024

bank tizimida moliya bozorlarini islox etish, suningdek, moliyaviy oqimlarni uzoq muddatli rejalashtirish uchun imkoniyat yaratish”[68] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi va Markaziy bankka to‘liq o‘tish uchun sharoitlar yaratish belgilab berilgan.

Tijorat banklarini investitsion operatsiyalarini boshqarishda bir qator investitsion menejment usullaridan foydalaniladi. Ana shunday usullardan biri bo‘lib, investitsion operatsiyalarni passiv boshqarish usuli hisoblanadi.

Investitsion operatsiyalarni passiv boshqarishda bank menedjerlari qimmatli qog’ozlarni sotib olish to‘g’risidagi qarorlarni ularning risk va daromad darajalarini baholashni umumqabul qilingan metodlari asosida qabul qiladilar. Bunday shakllantirilgan portfellarni bozor portfelini o‘ziga xos bo‘lgan surrogati sifatida qarash mumkin (index funds).

Passiv menedjerlar dastlab shakllantirilgan qimmatli qog’ozlar portfelini samaradorligida yuqori bo‘lgan samaradorlikni ta’minlashga intilmaydilar.

Investitsion operatsiyalarni passiv boshqarishni tayanch asoslari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

* mijozni hohishi;
* risksiz stavkani darajasi;
* riskni prognozi;
* daromadlilikni prognozi.

Investitsion operatsiyalarni aktiv boshqarishni menedjerlar vaqti-vaqti bilan bozor tomonidan noto‘g’ri baholangan qimmatli qog’ozlar uchrab turadi deb hisoblashadi.Bunda menedjerlarni qimmatli qog’ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni risk va daromadlilik darajalari to‘g’risidagi prognozlari mavjud umumiy tasavvurlardan farq qiladi.

Banklarni qimmatli qog’ozlar portfelini aktiv boshqarishda quyidagi ko‘rinish oladi (7.2-jadval).

Ikkinchi ustunda portfelni aktiv boshqarish uchun qimmatli qog’ozlarni haqiqatdagi salmog’i ko‘rsatilgan.

Uchinchi ustunda o‘rtacha bozor portfeli sifatida olingan dastlabki portfeldagi qimmatli qog’ozlarni ulushi ko‘rsatilgan.

Aktiv pozitsiya qimmatli qog’ozlarni haqiqatdagi portfeldagi ulushi bilan dastlabki portfeldagi ulushi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

[68] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Инфилацион тарегетлаш режимига босқичма босқич ўтиш орқали пул кредит сиёсатини такомилаштириш тўғрисида”ги 2019 йил 18 ноябр ПФ 5877 сонли фармони

7.3-jadval

Tijorat bankini aktiv usulda boshqarilayotgan qimmatli qog'ozlar portfelini shakli

Qimmatli qog'ozni nomi	Haqiqatdagi qimmatli qog'ozlar portfelidagi ulushi	Bozor portfelidagi ulushi	Aktiv Pozitsiya
1	2	3	4
S1	0,30	0,45	- 0,15
S2	0,20	0,25	- 0,05
S3	0,50	0,30	0,20
Jami	1,00	1,00	0,00

Mazkur farqning yuzaga kelishini sababi shundaki, aktiv menedjer qimmatli qog'ozlar bo'yicha kutilayotgan risk va daromad to'g'risidagi umumiy prognozga rozi emas.



7.2-rasm. Tijorat banki mablag'larini qimmatli qog'ozlarga joylashtirish

Tijorat banki tomonidan jalb qilingan mablag'lar va bank kapitalini qimmatli qog'ozlarga joylashtirishning ikki shakli mavjud (7.2-rasm):

1. Strategik joylashtirish.
2. Taktik joylashtirish.

Tijorat banklari mablag’larini qimmatli qog’ozlarga strategik joylashtirishda kutilayotgan daromadni, dispersiya va kovariatsiyani uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Mablag’larni qimmatli qog’ozlarga taktik joylashtirishi esa, kutilayotgan daromadni, dispersiya va kovariatsiyani qisqa muddatli prognoz ko‘rsatkichlariga asoslanadi.

Qisqacha xulosalar

Tijorat banki investor sifatida qimmatli qog’ozlarni sotib oladi. Bank qimmatli qog’ozlarni ikki maqsadda sotib oladi: likvidliligini ta’minlash maqsadida; daromad olish maqsadida.

Tijorat banklarini investitsion operatsiyalarini rivojlantirishda moliyaviy innovatsiyalarga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Foiz stavkalarining sezilarli darajada tebranishi yangi moliyaviy mahsulotlarga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga bevosita va kuchli ta’sir qiluvchi muhim iqtisodiy omil hisoblanadi.

Tijorat banklarini investitsion operatsiyalarini boshqarish prinsiplardan biri bo‘lib, bank investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish prinsipi hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarini yuqori likvidli qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalari, ularni joriy likvidliligini ta’minlash imkonini beradi.

Yuqori likvidli qimmatli qog’ozlar sifatida, odatda, Hukumat tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlar, Markaziy bankini qimmatli qog’ozlari va to‘lovi, Hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog’ozlar kiradi.

Respublikamiz tijorat banklarini investitsiya portfelida xorijiy valyutalarda emissiya qilingan qimmatli qog’ozlar mavjud emas. Banklarni investitsiya portfeli milliy valyuta-so‘mda emissiya qilingan qimmatli qog’ozlardan iborat. Bu esa, respublikamiz tijorat banklarini investitsiya portfelini moliyaviy risklarga ta’sirchanligini oshiradi. Bunda inflyasiya va devalvatsiya ta’sirida banklarni qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalarini real qiymatini pasayish xavfi yuzaga keladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Investitsion operatsiyalar, yuqori likvidli qimmatli qog’ozlar, investitsiya portfelini diversifikatsiyasi, korporativ qimmatli qog’ozlar, investitsion operatsiyalarni riski, investitsion operatsiyalarni

daromadliligi, valyuta opsionlari, valyuta opsionlarni evropa standarti, valyuta opsionlarni amerika standarti, derevativ operatsiyalar, investitsiya portfelini sifat ko‘rsatgichlari.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tijorat banklari investitsion operatsiyalarining mazmuni va zarurligi.
2. Tijorat banki investor sifatida qimmatli qog’ozlarni qaysi maqsadlarda sotib oladi?
3. Ikkilamchi zahiralarning qanday to‘rt shaklini ajratib ko‘rsatish mumkin?
4. Banklar investitsion operatsiyalarini boshqarish prinsiplari.
5. Tijorat banklari investitsion operatsiyalarini markazlashgan tarzda boshqarish
6. Tijorat banklari investitsion operatsiyalarini nomarkazlashgan tarzda boshqarish usullari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarini investitsion faoliyatiga nisbatan qanday iqtisodiy me’yor belgilangan?
8. Xalqaro amaliyotda valyuta opsionlarini nycha standarti mavjud, ushbu standartlar risk darajasiga ko‘ra bir-biridan kanday farqlanadi?
9. Tijorat banklarini investitsiya portfelini sifatini baholashda xalqaro bank amaliyotida qanday ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?
10. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarini yuqori likvidli qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalari qanday imkoniyatlarni beradi?
11. Tijorat banklari investitsion operatsiyalarining samaradorligini baholash.
12. Tijorat banklarini investitsion operatsiyalarini boshqarishda qanday investitsion menejment usullaridan foydalaniladi?
13. Investitsion operatsiyalarni passiv boshqarishni tayanch asoslari bo‘lib, qaysilar hisoblanadi?
14. Tijorat banki tomonidan jalb qilingan mablag’lar va bank kapitalini qimmatli qog’ozlarga joylashtirishning qanday shakli mavjud?
15. Tijorat banklari mablag’larini qimmatli qog’ozlarga strategik joylashtirishda kutilayotgan daromadni qanday ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi?

16. Mablag’larni qimmatli qog’ozlarga taktik joylashtirishi esa, kutilayotgan daromadni, qanday prognoz ko‘rsatkichlariga asoslanadi?

8-bob. TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARINI TEZKOR VA STRATEGIK REJALASHTIRISH

8.1. Tijorat banklari aktiv va passivlarini tezkor va strategik rejalashtirishni mohiyati

Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ularni resurs bazasini mustahkamlash O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini o‘rta muddatli istiqbolda rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, tijorat banklarida strategik rejalashtirishni takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Tijorat banklarini likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ularni resurs bazasini mustahkamlash bilan bog’liq bo‘lgan muammolarni mavjudligi banklarda strategik rejalashtirishni takomillashmaganligidan dalolat beradi. Xususan, respublikamiz tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosini chuqurlashganligi kuzatilmoqda. Buning ustiga, tijorat banklari depozit bazasini etarliligi ta’minlanmagan. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, jami portfelning yil boshiga nisbatan pasayishi talab qilib olinguncha depozitlar hisobiga (92,55 trln so‘mdan 82,65 trln so‘mgacha) amalga oshirildi. Muddatli omonatlar, aksincha, o‘sishni ko‘rsatdi (124,18 dan 128 trln gacha).

Tijorat banklarida tezkor rejalashtirish deganda strategik rejalashtirishda ko‘zda tutilgan reja ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar tushuniladi.

Tijorat banklarida strategik rejalashtirish deganda bankni quyidagi faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha boshqarish strategiyalarini muqobil senariylarini ishlab chiqish jarayonlari tushuniladi:

– aktivlarni boshqarish;
– resurslarni boshqarish;
– risklarni boshqarish;
– personalni boshqarish;
– marketing.

Tijorat banklarida tezkor rejalashtirish bank faoliyatini boqsharish jarayonida aniqlangan o‘zgarishlarning sabablarini aniqlash va ushbu o‘zgarishlarni salbiy ta’siriga barham berish choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSHlik professor J.Sinkining[69] xulosasiga ko‘ra, tijorat banki faoliyatini har bir yo‘nalishi bo‘yicha strategik rejalashtirish ishlab

[69] Синки Дж. Финансовий менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансових услуг. Пер. с

chiqilgan bo‘lishi va uning pirovard maqsadi bank aktivlarini daromadliligi va risk darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

J.Sinkining ushbu xulosasi hozirgi zamon bank amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, tijorat banklari faoliyatida risklarning chuqurlashib ketayotganligi sababli Bazel qo‘mitasi tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski va operatsion riskni baholash va boshqarish bo‘yicha talablar va yondashuvlarni 2004 yilda qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldi. Natijada, kredit riskini baholash bo‘yicha yangi “standartlashgan yondashuv” deb nomlangan yangi yondashuv va operatsion riskni boshqarish bo‘yicha yangi bazaviy indikativ yondashuv ishlab chiqildi.

Tijorat banklaridagi strategik rejalashtirishni bankni boshqarishning muqobil ssenariylarini ishlab chiqish jarayoni sifatida qarash lozim va bunda bank faoliyatini 5 sohasi bo‘yicha strategik rejalashtirishga ustuvor yo‘nalishlar sifatida qarash zarur:

– marketing;
– aktivlarni boshqarish;
– resurslarni boshqarish;
– risklarni boshqarish;
– bank xodimlarini boshqarish.

Tijorat banklari faoliyatini moliyaviy natijalarini rejalashtirishda asosiy e’tibor yuqori likvidli aktivlar bilan yuqori daromadli aktivlar o‘rtasidagi nisbatni oqilona darajasini ta’minlashga qaratilishi lozim.

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida tijorat banklari moliyaviy ko‘rsatkichlarini strategik rejalashtirishda asosan Bazel qo‘mitasini kapitalni etarlililigi va risk-menejmentga bo‘yicha belgilagan mezonlari va me’yorlaridan foydalaniladi.

8.2. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini tezkor va strategik rejalashtirish

Tijorat banklarini aktivlarini tezkor va strategik rejalashtirishda likvidli aktivlarini miqdorini depozitlarning nobarqaror qismiga nisbatan emas, balki joriy depozitlar va jamg’arma depozitlariga nisbatan belgilash maqsadga muvofiqdir. chunki aynan shu depozitlarni nobarqarorlik darajasi yuqori bo‘lib, tijorat banklarida likvidlilik riskini doimiy tarzda yuzaga keltiradi. Depozitlarni barqaror qismini jami

depozitlarning 75 foizi miqdorida shakllanishi rivojlangan xorijiy davlatlarni amaliyotiga xos bo‘lgan holat hisoblanadi. Mazkur mamlakatlarda moliya bozorlarini rivojlanganligi, moliyaviy holati barqaror bo‘lgan mijozlarning ko‘pligi, Markaziy bank monetar siyosatini maqsadi va vazifalarini aniq hamda shaffofligi, korxonalarni soliq yukini mutadil darajaga keltirilganligi va boshqa omillar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pul oqimini barqaror darajasini ta’minlashga zamin yaratadi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa, moliya bozorlari rivojlanmaganligi, Markaziy bankni monetar siyosatida noaniqliklarni mavjudligi, soliq siyosatini takomillashmaganligi va boshqa omillar xo‘jalik sub’ektlarini moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi. Bu holatlar, pirovard natijada, xo‘jalik sub’ektlarini pul oqimini barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida tijorat banklaridagi talab qilib olinadigan depozitlar va jamg’arma depozitlari qoldiqlarini nobarqarorligi kuchayadi.

Tijorat banklarini passivlarini tezkor va strategik rejalashtirishda asosiy e’tibor bankning depozit bazasini barqarorligini ta’minlashga qaratilishi kerak va bunda tijorat banklari resurslarini eng barqaror qismi bo‘lib muddatli depozitlar va jamg’arma omonatlari hisoblanadi va ular quyidagi muhim xususiyatlarga egadir:

– hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun foydalanilmaydi va ularga to‘lov hujjatlari yozilmaydi;

– muddatli va jamg’arma depozit hisobraqamlaridagi mablag’larni aylanish tezligi past;

– qat’iy belgilangan foiz to‘lanadi, Markaziy bank zarur hollarda foiz stavkalarini yuqori chegarasini tartibga solishi mumkin;

– tijorat bankini depozitni olish to‘g’risida oldindan ogohlantirish tartibi mavjud;

– nisbatan past majburiy zahira stavkalari qo‘llaniladi.

Transaksion depozitlardan resurs sifatida foydalanish tijorat banklarini likvidliligiga jiddiy ziyon etkazadi. Shu sababli, Glass-Stigoll qonuniga asosan 1933-yilda transaksion depozitlarga foiz to‘lashni ta’qiqlanishi oqilona tadbir hisoblanadi. Lekin muddatli va jamg’arma depozit hisobraqamlariga tijorat banklari tomonidan to‘lanadigan foiz stavkalarini yuqori chegarasini belgilanishi tijorat banklarini depozit bazasiga salbiy ta’sir qiladi.

Bank resurslarini boshqarishda strategik rejalashtirish kamida 2–10 yilga mo‘ljallanib ishlab chiqiladi, bunda asosiy e’tibor resurslarni jalb etish va joylashtirishni muddatlar bo‘yicha muvozanatlashtirish,

mijozlarni tarkibini shakllantirish, resurslarni jalb etishni omonatchilar va mijozlar bo‘yicha diversifikatsiyalash kabilarga e’tibor qaratiladi.

Iqtisodiy o‘tish sharoitida tijorat banklari resurslarini boshqarishni strategik rejalashtirish usuli iqtisodiy va siyosiy risklarni minimallashtirishda, bankni o‘zgaruvchan bozor sharoitiga moslashuvchanligida muhim rol o‘ynaydi.

AT «Aloqabank» rivojlantirish strategiyasida moliyaviy natijalar bo‘yicha quyidagi 6 ta ko‘rsatkich bo‘yicha strategik rejalashtirish amalga oshirilgan:

1. Kapitalning rentabelligi.
2. Birinchi darajali kapitalni etarliligi.
3. Xarajatlarni daromadlarga nisbati.
4. Xarajatlarni aktivlarga nisbati.
5. Sof foydani o‘sishi.
6. Aktivlarni o‘sishi.

2023-yil 1-yanvar holatiga AT «Aloqabank» Toshkent shahri, Qoraqalpog’iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan 14 ta hududiy kompleks xizmatlar ko‘rsatish markazlari va 109 ta xizmat ko‘rsatish nuqtalari *(74 ta kompleks xizmatlar ko‘rsatish markazi, 30 ta universal kassa, 5 ta ko‘chma kassa)* orqali turli mulk shaklidagi korxona va tashkilotlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar hamda aholiga barcha turdagi bank xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

Bankning 2022-yilga mo‘ljallangan siyosat va strategiyasi, shuningdek, xizmat ko‘rsatishda zamonaviy texnologiya va moliyaviy innovatsiyalardan samarali foydalanish hisobiga mijozlarning bankka bo‘lgan ishonchini hamda o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga erishilgan.

Bankning mijozlar bazasi 2023-yil 1-yanvar holatiga 1 734 421 tani tashkil etdi. (8.1-jadval).

2022-yil ish faoliyati natijalari bo‘yicha olingan jami bank daromadlari **2 335,7 mlrd. so‘m** bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga (**1 633,8 mlrd. so‘m**) nisbatan **701,9 mlrd. so‘m** yoki **143,0 foiz**ga oshgan.

Shundan, foizli daromadlar **1 499,6 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (**1 206,7 mlrd. so‘m**) nisbatan **292,9 mlrd. so‘m** yoki **124,3 foiz**ga oshdi. Foizciz daromadlar **836,1**

mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (**427,2 mlrd. so‘m**) nisbatan **408,9 mlrd. so‘m** yoki **195,7 foiz**ga oshdi.

8.1-jadval

AT «Aloqabank» mijozlari bazasining tarkibi to‘g’risida ma’lumot

(dona)

t/r	Mijozlar tarkibi	01.01.2022 yil holatiga	01.01.2023 yil holatiga	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan	
				+ ; -	%
1	Yuridik shaxslar	34 676	41 276	6 600	119,03%
2	Jismoniy shaxslar	1 264 090	1 693 145	429 055	133,94%
Jami:		**1 298 766**	**1 734 421**	435 655	133,54%

Bank jami xarajatlari amalda **2 107,3 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (**1 526,3 mlrd. so‘m**) nisbatan **581,0 mlrd. so‘m** yoki **138,1 foiz**ga oshdi.

Foizli xarajatlar **993,8 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilni shu davriga (**798,3 mlrd. so‘m**) nisbatan **195,5 mlrd. so‘m** yoki **124,5 foiz**ga o‘sgan. Foizciz xarajatlar **399,0 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilga (**211,9 mlrd. so‘m**) nisbatan **187,1 mlrd. so‘m** yoki **188,3 foiz**ga oshdi.

Operatsion xarajatlar **714,5 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilga (**516,0 mlrd. so‘m**) nisbatan **198,5 mlrd. so‘m** yoki **138,5 foiz**ga oshdi.

2022-yil davomida olingan jami sof foyda **228,4 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (**107,6 mlrd. so‘m**) nisbatan **120,8 mlrd. so‘m** yoki **212,3 foiz**ga oshdi.

2022-yilga belgilangan biznes-reja ko‘rsatkichi (**220,0 mlrd. so‘m**) **104,0** foizga bajarildi.

Shundan, foizli daromadlar **1 499,6 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (**1 206,7 mlrd. so‘m**) nisbatan **292,9 mlrd. so‘m** yoki **124,3 foiz**ga oshdi. Foizciz daromadlar **836,1 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (**427,2 mlrd. so‘m**) nisbatan **408,9 mlrd. so‘m** yoki **195,7 foiz**ga oshdi.

Bank jami xarajatlari amalda **2 107,3 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (**1 526,3 mlrd. so‘m**) nisbatan **581,0 mlrd. so‘m** yoki **138,1 foizg**a

Foizli xarajatlar **993,8 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilni shu davriga (**798,3 mlrd. so‘m**) nisbatan **195,5 mlrd. so‘m** yoki **124,5 foiz**ga o‘sgan. Foizciz xarajatlar **399,0 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilga (**211,9 mlrd. so‘m**) nisbatan **187,1 mlrd. so‘m** yoki **188,3 foiz**ga oshdi.

Operatsion xarajatlar **714,5 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilga (**516,0 mlrd. so‘m**) nisbatan **198,5 mlrd. so‘m** yoki **138,5 foiz**ga oshdi.

Hisobot davrida olingan jami sof foyda **228,4 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (**107,6 mlrd. so‘m**) nisbatan **120,8 mlrd. so‘m** yoki **212,3 foiz**ga oshdi. 2022 yilga belgilangan biznes-reja ko‘rsatkichi (**220,0 mlrd. so‘m**) **104,0** foizga bajarildi.[70]

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari depozit bazasini etarliligini aniqlashda ikki usuldan keng foydalanilmoqda.

Birinchi usul Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda tijorat banklari depozit bazasining etarliligi (Depozit Bazasining Etarliligi) quyidagi formulaga go‘eish orqali aniqlanadi:

$$DBE = \frac{TD}{TD+JD+MD} \quad 100\%$$

Bu erda:

TD – transaksion depozitlar;

JD – jamg’arma depozitlari;

MD – muddatli depozitlar.

XTTB ekspertlarining tavsiyasiga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkichning eng yuqori chegarasi 30 foizni tashkil etishi lozim. Agar uning amaldagi darajasi 30 foizdan yuqori bo‘lsa, u holda, ushbu tijorat bankining depozit bazasi etarli emas, deb hisoblanadi.

XTTB ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan usulda transaksion depozitlarning barqaror qoldig’i tijorat banklari depozit bazasini etarliligini aniqlashda hisobga olinmagan. Lekin ayrim iqtisodchi olimlar, jumladan, prof. O.I.Lavrushin[71] tijorat banklari depozit bazasini etarliligini baholashda transaksion depozitlarni barqaror qoldig’ini hisobga olish lozim, deb hisoblaydi.

[70] Раскрытие информации согласно положения о биржевом котировальном листе республиканской фондовой биржи «тошкент» 27.06.2023

[71] Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования: Учебное пособие. - М.: Кнорус, 2014. - 360 с.

Hozirgi davrda dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida, Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini inspeksion tekshirishda “CAMEL” reyting tizimidan keng foydalanilmoqda. Ushbu tizimda tijorat banklari depozit bazasini barqarorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{DBE} \quad \frac{\textbf{Asosiy depozitlar}}{\textbf{Depozitlar jami}} \quad \textbf{100\%}$$

Mazkur ko‘rsatkichning amaldagi darajasi 75 foizdan past bo‘lmagan taqdirdagina tijorat bankini depozit bazasi etarli hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, tijorat banklari depozitlarini umumiy hajmida asosiy depozitlarni salmog’i kamida 75 foizni tashkil etishi lozim.

“CAMEL” reyting tizimida asosiy depozitlar deganda depozitlarning bankni tark etmaydigan qismi tushuniladi. Shu jihatdan olganda, asosiy depozitlar har uch turdagi depozitlar – transaksion depozitlar, muddatli depozitlar va jamg’arma depozitlarini barqaror qoldig’ini o‘z ichiga oladi.

“CAMEL” reyting tizimidagi depozit bazasini etarliligini baholash usuli XTTBning baholash usuliga nisbatan mukammalroq hisoblanadi, ya’ni:

birinchidan, transaksion depozitlarni barqaror qoldig’i hisobga olinmoqda. Bu esa, juda muhim, chunki transaksion depozitlarning barqaror qoldig’idan foydalanilganda tijorat banklarini likvidliligiga nisbatan jiddiy xavf yuzaga kelmaydi;

ikkinchidan, jamg’arma depozitlarini barqaror qoldig’igina asosiy depozit sifatida e’tirof etilmoqda. Holbuki, jamg’arma depozitlarini ma’lum qismi nobarqaror passiv hisoblanadi.

Ular transaksion depozitlardan bankni ma’lum muddat oldindan ogohlantirish yo‘li bilan olinishi jihatidan farq qiladi.

8.3. Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni rejalashtirish

Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi bir qator ko‘rsatkichlar mavjud. Bular:

❖ kredit qo‘yilmalarini tasniflanishi *(standart, substandart, qoniqarsiz, shubhali, umidsiz)*;

❖ muammoli qarzdorliklar *(muddati o‘tgan, shundan oraliq muddati o‘tgan, sud jarayonidagi, shartlari o‘zgartirilgan, balansdan tashqari xisobvaraqdagi qarzlar)*;

❖ taqsimlanmagan foyda;

❖ bank tomonidan aktivlar bo‘yicha yaratilgan maxsus zahiralar;

❖ shakllantirilgan majburiy zahiralar jamg’armasi;

❖ naqd pul tushumi, birinchi darajali ijtimoiy to‘lovlar va ish haqlarni to‘lanishi;

❖ muomalaga chiqarilgan plastik kartalar va o‘rnatilgan terminallar, ular bo‘yicha o‘tayotgan to‘lovlar hajmi;

❖ Markaziy bank tomonidan belgilangan boshqa iqtisodiy normativlar va boshqa ko‘rsatkichlar.

Mazkur ko‘rsatkichlar ro‘yxatini albatta yana davom ettirish mumkin.

Ammo shuni doimo esda tutish lozimki, yuqorida sanab o‘tilgan ko‘rsatkichlar bankning makro darajadagi iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatib beruvchi ko‘rsatkichlar sanaladi.

Xuddi shunday, bank faoliyatini yo‘nalishlarini ichki tarafdan ochib beruvchi,

masalan aksiyalarni turlari, kreditlarni xududlarga yo‘naltirilishi, ularni foizlari,

muddatida qaytarilishi, garovlarni turlari, investitsiya portfelini daromadliligi,

qanday turdagi korxonalarga yo‘naltirilganligi,

muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlarni muddatlari,

foizlari,

depozitlarni qanday valyutada jalb qilinganligi va muddatlari,

bank daromadi va xarajatlarini tarkibi,

I-darajali kapitalni etarliligi,

leveraj,

aktivlar bo‘yicha tavakkalchilik darajasini ko‘rsatuvchi me’yorlar,

naqd pul tushumlarini mijozlar turlari bo‘yicha tarkibi,

muomalaga chiqarilgan plastik karta turlari (aholiga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga, xo‘jalik sub’ektlariga),

ularga kirim qilinayotgan mablag’lar,

ularni qoldig’i kabi o‘nlab ko‘rsatkichlarni sanab o‘tish mumkin.

Bu kabi ko‘rsatkichlar yuqorida ta’kidlanganidek, bank faoliyatini ichki xususiyatlarini yoritib beradi va ulardan asosan tarmoq ichidagi hisobotlarda foydalaniladi.

Navbatda Navbatdagi qabul qilingan qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora - tadbirlari to‘g’risida”gi 2344 –sonli qarori bo‘ldi. Ushbu qaror talablari hozirda amal qilmoqda. Demak, unga ko‘ra:

* regulyativ kapital etarliligi me’yorini bosqichma-bosqich 10%dan 14,5%ga etkazish;

* I-darajali kapitalni etarliligi me’yorini bosqichma-bosqich 5%dan 11%ga etkazish;

* likvidlilikni qoplash me’yorini joriy etish va 100%ga etkazish;

*sof barqaror moliyalashtirish me’yorini jorish etish va 100%ga etkazish;

* likvidlilik – bu bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o‘sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag’lari darajasini pasayishini samarali boshqarishni bildiradi.

Joriy likvidlilik koeffitsienti - joriy aktivlar summasini (to‘lov muddati 30 kungacha bo‘lgan bankni likvidli aktivlari va qo‘yilmalari, bundan muddati uzaytirilgan yoki qaytarish muddati o‘tgan kreditlar mustasno) joriy majburiyatlar (talab qilib olinguncha va ijro etish muddati 30 kungacha bo‘lgan majburiyatlar) summasiga nisbati orqali aniqlanadi.

Mazkur ko‘rsatkich 30 foizdan kam bo‘lmasligi lozim.

Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti yuqori likvidli aktivlarni keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati sifatida aniqlanadi (LQMK = yuqori likvidli aktivlar/keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqim). Mazkur ko‘rsatkich 2018-yil 1-yanvardan boshlab 100 foizdan kam bo‘lmasligi lozim.

2018-yil 1-yanvardan boshlab banklarda **sof barqaror moliyalashtirish me’yori** joriy qilindi.

Ushbu me’yor barqaror moliyalashtirishni mavjud summasini barqaror moliyalashtirishni zarur summasiga nisbati sifatida aniqlanadi va ko‘rsatkich 100 foizdan kam bo‘lmasligi lozim.

Bunda barqaror moliyalashtirishni mavjud summasiga:

– bank regulyativ kapitali;

– amaldagi qaytarish muddati 1 yil va undan ortiq bo‘lgan bank majburiyatlari;

– qaytarish muddati belgilanmagan boshqa depozitlar va qarz mablag’lari summasining 30 foizi;

– qaytarish muddati 1 yildan kam bo‘lgan boshqa depozitlar va qarz mablag’lari summasining 30 foizi kiritiladi.

Barqaror moliyalashtirishni zarur summasiga :

– qaytarilishiga 1 yil va undan ortiq muddat qolgan bank aktivlari, shu jumladan, muammoli kreditlar va nomoliyaviy aktivlar (er uchastkalari, binolar, mebel, kompyuterlar va avtomashinalar);

– sud jarayonida bo‘lgan yoki belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar;

– qaytarish muddati 1 yildan kam bo‘lgan boshqa aktivlar summasini 30 foizi (qaytarish muddati 1 yildan kam bo‘lgan yoki muddatsiz likvidli aktivlar bundan mustasno);

– balansdan tashqari moddalardagi majburiyatlarni 15 foizi kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qaroriga muvofiq, 2017-yil 1-oktyabrdan boshlab tijorat banklari ustav kapitalini eng kam miqdoriga nisbatan talab 100 mlrd. so‘m qilib belgilandi. Bu esa, banklarning kapitallashish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

8.4. O‘zbekiston tijorat banklarida tezkor va strategik rejalashtirishni takomillashtirish

Banklarda tezkor va strategik rejalashtirishni takomillashtirish yo‘llari:

I. Strategik rejalashtirish jarayonida moliyaviy aktivlarni amortizatsiya qilinadigan qiymatini to‘g’ri aniqlash va ularni qadrsizlanishini aniq baholash maqsadida samarali foiz stavkasi usulini rejalashtirish jaryoniga joriy qilish lozim.

Samarali foiz stavkasi shunday foiz stavkaki, u moliyaviy instrument bo‘yicha kutilayotgan davr mobaynidagi barcha pullik tushumlar va to‘lovlarni hisoblangan summasini ularni dastlab tan olingan sof balans qiymatiga keltirish imkonini beradi (diskontlash yo‘li bilan).

Samarali foiz summasini stavkasini hisoblash uchun har bir tegishli hisobot davrida samarali foiz stavkasi aktiv yoki majburiyatning o‘tgan hisobot davrini so‘nggidagi amortizatsiyalangan qiymatiga ko‘paytiriladi. Mazkur davr uchun hisoblangan samarali foiz bilan aktivni foizli kuponi o‘rtasidagi farq summasi mazkur davrdagi amortizatsiya summasi hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlardagi qoidalariga koʻra, barcha moliyaviy majburiyatlar dastlabki tan olingandan soʻng samarali foiz stavkasini qoʻllagan holda amortizatsiyalangan qiymat boʻyicha baholanishi kerak. Biroq, mazkur qoidalar quyidagi turdagi moliyaviy majburiyatlarga nisbatan qoʻllanilmaydi:

1.1. Adolatli qiymat boʻyicha baholanadigan moliyaviy majburiyatlar,

Chunki mazkur turdagi moliyaviy majburiyatlar shu davrdagi foyda yoki zarar tarkibida hisobga olinadi.

1.2. Moliyaviy aktivni uzatayotganda tan olinishi toʻxtamaydigan holatda yuzaga keladigan moliyaviy majburiyatlar.

1.3. Bozor stavkasidan past boʻlgan foiz stavkalarida beriladigan kreditlar berish boʻyicha bitimlar boʻyicha yuzaga keladigan moliyaviy majburiyatlar.

II. Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini rejalashtirish samaradorligini oshirish maqsadida, birinchidan, qimmatli qog'ozlar emitentlarini moliyaviy va mulkiy holatini tahlil qilish tizimini takomillashtirish orqali banklarni korporativ qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar hajmini oshirish zarur; ikkinchidan, banklarni Markaziy bankning obligatsiyalariga qilingan investitsiyalari hajmini oshirish orqali ularni joriy likvidlilik darajasini oshirish lozim; uchinchidan, banklarni "Nostro" vakillik hisobraqamidagi ortiqcha pul mablag'larini iqtisodiyotni turli tarmoqlariga mansub boʻlgan korxonalarni qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish lozim.

Ushbu taklifimizni amaliyotga tatbiqi natijasida:

– tijorat banklarini qimmatli qog'ozlardan oladigan daromadlari miqdori koʻpayadi;

– yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar hisobidan tijorat bankini joriy likvidlilik darajasi oshadi;

– banklarni qimmatli qog'ozlar portfelini likvidlilik darajasi oshadi.

III. Tijorat banklari daromadlarini tezkor rejalashtirishda asosiy e'tibor tijorat banklarini kreditlardan olinadigan foizli daromadlarini yalpi daromad hajmidagi salmog'ini barqarorligini ta'minlashga qaratilishi lozim.

Birinchidan, kreditlarni brutto aktivlar hajmidagi salmog'ini pasayishiga yoʻl qoʻymaslik zarur; ikkinchidan, kreditlar foiz stavkalarini keskin tebrashini oldini olish lozim;

-uchinchidan, muddati oʻtgan kreditlarni brutto kreditlar hajmidagi salmog'i koʻrsatkichini me'yoriy darajasini ta'minlash zarur.

Qisqacha xulosalar

Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ularni resurs bazasini mustahkamlash O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini o‘rta muddatli istiqbolda rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, tijorat banklarida strategik rejalashtirishni takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Tijorat banklarida strategik rejalashtirish deganda bankni quyidagi faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha boshqarish strategiyalarini muqobil ssenariylarini ishlab chiqish jarayonlari tushuniladi:

-aktivlarni boshqarish;

-resurslarni boshqarish;

-risklarni boshqarish;

-personalni boshqarish; marketing.

Tijorat banki faoliyatini har bir yo‘nalishi bo‘yicha strategik rejalashtirish ishlab chiqilgan bo‘lishi va uning pirovard maqsadi bank aktivlarini daromadliligi va risk darajalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Tijorat banklarini likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ularni resurs bazasini mustahkamlash bilan bog’liq bo‘lgan muammolarni mavjudligi banklarda strategik rejalashtirishni takomillashmaganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarida tezkor rejalashtirish deganda strategik rejalashtirishda ko‘zda tutilgan reja ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar tushuniladi.

Tijorat banklarida tezkor rejalashtirish bank faoliyatini boqsharish jarayonida aniqlangan o‘zgarishlarning sabablarini aniqlash va ushbu o‘zgarishlarni salbiy ta’siriga barham berish choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Strategik rejalashtirish, banklarni likvidliligi, bankni moliyaviy barqarorligi, depozit bazasini etarligi, depozit bazasini barqarorligi, mudatli depozitlar, jamg’arma omonatlari, transaksion depozitlar, “SAMEL” reyting tizimi, samarali foiz stavkasi, aktivning ammortizatsiyalangan qiymati, tezkor rejalashtirish, reja ko‘rsatkichlari, moliyaviy barqarorlig, resurs bazasi, risk darajalari, aktivlarni boshqarish; resurslarni boshqarish; risklarni boshqarish; personalni boshqarish; marketing.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tijorat banklari aktiv va passivlarini tezkor rejalashtirish bosqichlari deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat banklari aktiv va passivlarini strategik rejalashtirish bosqichlari deganda nimani tushunasiz?
3. Tijorat banklari aktiv va passivlarini operativ va strategik rejalashtirish prinsiplari.
4. Banklar aktiv va passivlarini rejalashtirish jarayonlariga ichki muhitning ta’siri deganda nimani tushunasiz?
5. Banklar aktiv va passivlarini rejalashtirish jarayonlariga tashqi muhitning ta’siri.
6. Tijorat banklari aktiv va passivlarini operativ va strategik rejalashtirish usullari.
7. Tijorat banklarida tezkor va strategik rejalashtirish samaradorligini baholash.
8. Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini rejalashtirish samaradorligini oshirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilishi lozim?
9. 2017-yil 1-oktyabrdan boshlab tijorat banklari ustav kapitalini eng kam miqdoriga nisbatan talab qancha belgilangan va u qanchaga o‘zgaradi?
10. 2018-yil 1-yanvardan boshlab banklarda sof barqaror moliyalashtirish me’yori qanch etib joriy qilindi?
11. Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi qanday ko‘rsatkichlar mavjud?
12. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari depozit bazasini etarliligini aniqlashda qanday usuldan keng foydalanilmoqda?
13. Bank resurslarini boshqarishda strategik rejalashtirish qancha yilga yilga mo‘ljallanib ishlab chiqiladi?
14. Bank resurslarini boshqarishda strategik rejalashtirish nimalarga asosiy e’tibor qaratiladi?
15. Tijorat banklarida tezkor rejalashtirish deganda strategik rejalashtirishda ko‘zda tutilgan qanday tadbirlar tushuniladi?

9-bob. TIJORAT BANKLARI KAPITALINI BOSHQARISH

9.1. Bank kapitalini tashkil qiluvchi asosiy elementlarni tavsifi

Har qanday bank tizimini barqarorligini, to‘lovga qobilligi va ishonchliligini ta’minlashda, bank aktivlarini o‘stirishda bank kapitali muhim vosita bo‘lib hisoblanadi. Faqatgina etarlicha miqdorda barqaror kapitalga ega tijorat banklari aktiv operatsiyalarini erkin amalga oshirishlari, talab etilgan darajada likvidlikni doimo saqlagan holda samarali faoliyat yuritishlari hamda moliya bozorlariga erkin chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Bank tizimini barqarorligini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini, ularni resurs bazasini yanada oshirish orqali bank-kredit tizimini barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta’minlash, banklarni iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bank sarmoyasi Bazel andozadari talablariga ko‘ra “Asosiy” (I darajali) va “qo‘shimcha” (II darajali) sarmoyadan tashkil topadi. 1988-yilda Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan bank kapitali etarliligiga doir kelishuv (Bazel I) ishlab chiqildi va unda kapital etarliligini hisoblash maqsadida regulyativ kapital (umumiy kapital) tushunchasi amaliyotga joriy qilindi. Regulyativ kapital asosiy va qo‘shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me’yorlarni hisob-kitobini o‘tkazish maqsadida hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

Bunda asosiy kapital jami sarmoyani kamida 50% ni tashkil etishi kerak.

Bazel qo‘mitasi bozor iqtisodiyoti sharoitida ko‘zda tutilmagan risklarni qoplash maqsadida 1997-yildan III darajali kapitalni amaliyotga joriy qilish haqida qaror qabul qildi. Unga ko‘ra, uchinchi darajali kapital qisqa muddatli (ikki yildan ortiq bo‘lmasligi lozim) subordinar qarzlardan iborat bo‘lib, birinchi darajali kapitalni 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Amaliyotda Respublikamizda fond bozori to‘lig’icha o‘z quvvatida ishlamayotganligi sababli hozirda 3-darajali kapitalni ajratish uncha katta ahamiyat kasb etmaydi.



9.1-rasm. Bazel andozalariga ko‘ra asosiy kapital elementlari

Hozirgi vaqtda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatida tijorat banklari kapitalini tarkibini shakllantirishda va uni ytarlilik darajasini belgilashda xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan andozalardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Bazel andozalariga ko‘ra asosiy kapital elementlari quyidagi rasmda keltirilgan.

Xorijiy bank amaliyotida O‘zbekiston bank amaliyotidan farqli ravishda banklarda audit tekshiruvi o‘tkazilib, audit xulosasi tasdiqlangunga qadar joriy yilni foydasi asosiy kapital tarkibiga kiritiladi. Audit xulosasidan keyin esa faqat taqsimlanmagan foyda kiritiladi.

Xalqaro Bazel andozalari bo‘yicha banklarni qo‘shimcha kapitali tarkibi asosiy elementlari quyidagi chizmada berilgan.

O‘zbekiston tijorat banklari kapitalining tarkibi va uning etarliligiga qo‘yilgan talablar Markaziy bankning 1998-yil 2-noyabrda tasdiqlangan 420–sonli «Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo‘yiladigan talablar to‘g’risida»gi Nizomi asosida tartibga solinadi.

Unga ko‘ra, tijorat banki

I darajali kapitali tarkibi quyidagilardan iborat:

a). to‘liq to‘langan va muomalaga chiqarilgan oddiy aksiyalar,

b).nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar.

Bu aksiyalar:

- muayyan sotib olish sanasi va shartlariga ega emas;
- egasining xohishiga ko‘ra sotib olinishi mumkin emas;
- bank aksiyadorlari umumiy yig’ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to‘lanmasligi mumkin;
- ular bo‘yicha o‘tgan davrdagi olinmagan (nokumulyativ) dividendlar to‘lanmaydi;



9.2-rasm. Bazel andozalari bo‘yicha banklarni qo‘shimcha kapitali tarkibini asosiy elementlari

v) qo‘shimcha kapital (kapitalning ortiqcha qismi) — oddiy va imtiyozli aksiyalar bozor narxini ularni nominal qiymatidan oshib ketishi;

g) taqsimlanmagan foyda,

shu jumladan:

- kapital zaxiralar;
- avvalgi yillar taqsimlanmagan foydasi;
- joriy yil zararlari.

d) ozchilik aksiya egalarining birlashgan korxonalar aksiyadorlik hisobvaraqlaridagi ulushi. Bu ulush sho‘ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida umumlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalini 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi.

e) bankni ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo‘lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiyaga zaxiradir.

Dividend stavkalari o‘zgarib turadigan imtiyozli aksiyalar I darajali kapital hisobiga kiritilmaydi.

II darajali kapital quyidagilardan iborat:

a) joriy yildagi sof foyda;

b) xatarni hisobga olgan holda aktivlar summasining 1,25 foizi va hisob-kitoblardan so‘ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdordagi umumiy zaxira;

v) hisob-kitoblardan so‘ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aksiyadorlik va qarz kapitali tavsiflarini o‘z ichiga olgan vositalar). I darajali kapitalga kiritilmagan aralash turdagi majburiyatlar, jumladan, imtiyozli aksiyalar agarda ular quyidagi shartlarga javob bersalar, II darajali kapitalga kiritilishi mumkin:

- to‘liq to‘langan bo‘lishi kerak;
- garov bilan ta’minlanmagan;
- bank tugatilganda ularga doir talablar bank depozitorlari talablari qondirilganidan so‘ng qondirilishi;
- aksiya egasini tashabbusi bilan va oldindan olingan Markaziy bank ruxsatisiz to‘lanishi mumkin emas;
- bankni har qanday zararlarini qoplashi va bankni to‘lovga qobiliyatsiz deb e’lon qilish huquqini bermasligi;
- agar bank oxirgi 3 chorak mobaynida foyda olmagan bo‘lsa, emitent xohishiga ko‘ra yoki oddiy va imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar (foizlar) to‘lash to‘g’risida qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlar (foizlar)ni to‘lash muddati kechiktirilishi mumkinligi.

g) subordinar qarz, bu bankni qarz majburiyatlari shakli bo‘lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so‘ng I darajali

kapitalni 50 foizidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to‘lash muddati etib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 20 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- garov ta’minotiga ega bo‘lmaslik;
- bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo‘yicha talablar depozitorlar talablari qondirilganidan so‘ng amalga oshirilishi;
- boshlang’ich to‘lov muddati 5 yildan ortiq bo‘lishi;
- bankni ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo‘lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya uchun zaxiralar.

O‘zbekiston tijorat banklarini birinchi darajali kapitali tarkibiga xalqaro Bazel andozalaridan farqli o‘laroq, bankni ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo‘lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya zaxirasi alohida manba sifatida e’tirof etiladi. Suningdek, tijorat banklarini joriy yildagi sof foydasi ikkinchi darajali kapitali tarkibiga kiritilgan.

Maxsus zahiralar bank balansini kontr-aktiv hisob varaqasida aks ettirilib bank xarajatlari hisobidan shakllantiriladi. Bazel qo‘mitasini andozalariga ko‘ra aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash zahirasini riskka tortilgan jami aktivlar summasini 1,25 foizga teng miqdorini II darajali bank kapitali tarkibiga kiritiladi.

Devalvatsiya zahirasi esa, u shubhasiz bankni o‘ziga tegishli bo‘lgan xorijiy valyutadagi kapital zahira qiymatini o‘sishi natijasida yuzaga keladi, ya’ni devalvatsiya zahirasiga nobarqaror moliyaviy manba sifatida qarash mumkin. Ayni vaqtda, milliy valyutasini kursi nobarqaror bo‘lgan mamlakatlarda devalvatsiya zahirasi miqdorida keskin tebranish yuz bermoqda. Bu esa devalvatsiya zahirasini nobarqaror moliyalashtirish manbaiga aylantirmoqda. Shu munosabat bilan taklif qilardikki, xorijiy valyutalar bo‘yicha devalvatsiya zahirasini asosiy kapital tarkibidan chiqarib qo‘shimcha kapital tarkibiga kiritish lozim.

Tijorat banklarini kapitalini samarali boshqarishga erishish iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarini samaradorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Tijorat banklari kapitalini boshqarish ko‘pqirrali jarayon bo‘lib, ushbu jarayonda asosiy e’tibor kapitalni tarkibiga qaratiladi. Quyidagi

chizmada bank kapitalini boshqarish ob’ektlaridan kelib chiqib uni bank faoliyatiga ta’sirini ko‘rish mumkin.



9.3-rasm. Bank kapitalini boshqarishni asosiy ob’ektlari

9.3-rasmda bank kapitalini boshqarishning ob’ektiv asoslari keltirilgan. Tijorat banklarini kapitalini barqaror darajasini ta’minlash bank kapitalini boshqarishni asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

Bunda asosiy e’tiborni tijorat banklari kapitalini shakllantirishni barqaror manbalariga qaratiladi. Tijorat banklari kapitali tarkibida barqaror manbalar sifatida ularni ustav kapitali va o‘tgan yillarni taqsimlanmagan foydasini keltirish mumkin. Ustav kapitali banklarni barqaror manbai hisoblangani bois tijorat banklari ham jami kapital tarkibida uning ulushini oshirib borishga e’tibor qaratishi zarur. Tijorat banklari kapitalini boshqarishning yana bir asosiy jihati sifatida ular jami kapitalini etarliligini ta’minlash masalasi hisoblanadi. Jami kapitalni etarliligini ta’minlash tijorat banklarini faoliyatini normal ravishda harakat qilishga imkon berish bilan birga, ularni moliyaviy mustahkamligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Banklar asosiy kapitali etarliligini ta’minlash bank kapitalini boshqarishni muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Uning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bank faoliyatini samaradorlik darajasini past yoki yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Tijorat banklari kapitalidan foydalanish samaradorligiga ta’sir qiluvchi omil guruhiga asosan quyidagi omillar kiradi:

a) Bank kapitalini daromadlik koeffitsientini o‘zgarishi. Bank kapitalini daromadlik darajasini aniqlash bank kapitalidan foydalanish samaradorligini belgilovchi bilvosita ko‘rsatkich hisoblanadi. Chunki,

birinchidan, bank kapitali hisobidan aynan qaysi aktiv operatsiya moliyalashtirilayotganligini bilishni iloji yo‘q; ikkinchidan, bank kapitali bankni jami resurslariga nisbatan kichik salmoqni egallaydi.

Daromadlik koeffitsientini pasayishi kapitaldan samarali foydalanish darajasini pasayayotganligidan dalolat beradi.

b) Bank ustav kapitalini jami kapital hajmidagi salmog’ini o‘zgarishi. Bunda ko‘zda tutilmagan xarajatlar va zararlarni ustav kapitalidan qoplash imkoniyati nazarda tutiladi. Bankni ustav kapitali o‘ziga xos sug’urta fondi sifatida operatsion faoliyat davomida yuzaga keladigan ko‘zda tutilmagan xarajatlar va zararlarni qoplash uchun etishi kerak.

9.2. Bank kapitali etarliligi va unga nisbatan o‘rnatilgan me’yorlar

Regulyativ kapitalni etarlilik koeffitsienti tijorat banklarini to‘lovga qobilligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Suningdek, Bazel standartiga ko‘ra, birinchi darajali kapitalni etarliligi ham baholanadi va bunda birinchi darajali kapitalni etarlilik koeffitsienti qo‘llaniladi.

Birinchi darajali kapitalni etarlilik koeffitsienti birinchi darajali kapitalni bank aktivlarini riskka tortilgan summasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi va uning eng past me’yoriy darajasi 0,04 yoki 4% qilib belgilangan.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari kapitalini etarliligini baholash bo‘yicha uchta metodika mavjud bo‘lib, ularni ichida nisbatan mukammali bo‘lib, Bazel qo‘mitasi ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan metodika hisoblanadi.

Tijorat banki kapitalini etarliligini baholash bo‘yicha Xalqaro hisob-kitoblar banki tomonidan ishlab chiqilgan metodikada kapitalni etarliligi regulyativ kapitalni aktivlarni umumiy summasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Ushbu koeffitsientni eng past normativ darajasi 8% qilib belgilangan.

AQSh Federal zaxira tizimi tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo‘yicha, tijorat banki kapitalini etarliligi kapitalni depozitlarni umumiy summasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Ushbu koeffitsientni eng past normativ darajasi 10% qilib belgilangan.

O‘zbekiston banklarining I-darajali kapitali regulyativ kapitalni 75 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

II-darajali kapital miqdori I-darajali kapital miqdorini uchdan bir qismidan oshib ketsa, oshgan summa regulyativ kapital tarkibiga kiritilmaydi.

I-darajali kapital I-darajali asosiy kapital va I-darajali qo‘shimcha kapitaldan iborat.

I-darajali asosiy kapital bank regulyativ kapitalini 60 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

Subordinar qarzlar I-darajali kapitalni uchdan bir qismidan oshmasligi kerak.

II-darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz oxirgi 5 yil davomida yiliga 20% kamayib borishi shart.

9.1-jadval

Bazel-I standartida ko‘zda tutilgan kapitalni etarliligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularning me’yoriy darajalari

	Ko‘rsatkichlar	**Me’yoriy darajasi**
	Regulyativ kapitalni etarlilik koeffitsienti	0,08
	Birinchi darajali kapitalni etarlilik koeffitsienti	0,04

Bazel-I standartida tijorat banklarini birinchi darajali kapitali miqdorini reguyativ kapitalni yarmidan kam bo‘lmasligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kapitallashuv darajasini tavsiflovchi ayrim ko‘rsatkichlar:

Bank sektorining sof qiymati. 2022-yilda u 79,6 trillion so‘mni tashkil etdi, bu 2021-yilga nisbatan 12,2 foizga ko‘pdir.

Balans majburiyatiga nisbatan tartibga soluvchi kapital darajasi. 2019-2023 yillarda bu ko‘rsatkich pasayish tendentsiyasiga ega bo‘lib, bu banklarning kapitallashuv darajasining pasayishini ko‘rsatadi.

9.3. Bank kapitalini oshirishning asosiy manbalari. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha xalqaro talab va standartlar (Bazel III) hamda ulardan O‘zbekiston bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlari

2010-yil sentyabr oyida Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi bank kapitali va likvidliligini yangi standartlari to‘liq ishlab chiqilganligini e’lon qildi hamda noyabr oyida ushbu yangi standartlar katta yigirmalik davlatlari rahbarlarini Seul Sammitida tasdiqlandi. Bazel III deya nomlanayotgan ushbu yangi standartlar

banklar kapitali etarliligа minimal talablarni tobora va bosqichma-bosqich kuchaytirishni nazarda tutadi. Ushbu yangi standartlarga katta yigirmalik davlatlarida 2013-yildan boshlab o‘tilishi hamda 2019-yilga kelib ushbu davlatlarda banklar o‘z kapitallarini Bazel III talablariga to‘liq moslashtirishlari kutilmoqda.

Bazel III talablari o‘zi nimalardan iborat, degan savol yuzaga kelishi aniq. Ushbu savolga batafsilrok to‘xtalib o‘tsak. Bazel III da bank kapitaliga oid qator yangi tushunchalar, jumladan «Bufer kapitali» deb umumiy nom olgan ikkita: konservatsion hamda kontrsiklik bufer kapitali tushunchalari kiritilmoqda.

Konservatsion kapital iqtisodiy, moliyaviy inqirozlar davrida banklar zararlarini qoplash uchun o‘ziga yarasha qalqon sifatida xizmat qilishi kutilmoqda.

Kontrsiklik kapital har bir mamlakat shart-sharoitidan kelib chiqqan holda, 0-2,5 foiz doirasida belgilanadi. Yana bir yangi tushuncha — bu tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo‘shimcha talablardir. Tizim uchun muhim banklar deganda hajmi, murakkabligi hamda tuzilmaviy o‘zaro bog’langanligi sababli ularni tanazzulga uchrashi butun moliya tizimi inqiroziga hamda iqtisodiy faollik falajiga sabab bo‘ladigan banklar tushuniladi. Bazel III da bunday banklar kapitaliga nisbatan qo‘shimcha talablar ishlab chiqilishi lozimligi to‘g’risida umumiy kelishuvga kelingan. Demak, Bazel III ga ko‘ra, banklar regulyativ kapitali ko‘rsatkichi birinchi darajali bank kapitali, konservatsion bufer kapitali, kontrsiklik bufer kapitali hamda tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo‘shimcha talablar yig’indisidan iborat bo‘ladi. Tijorat banklarida risk boshqaruvini takomillashtirish lozim. Xalqaro amaliyotda bank menejmentini markaziy bo‘g’ini risk boshqaruvi ekanligi allaqachon isbotlangan. Bazel I, Bazel II va Bazel III, standartlarini asl mohiyati ham risk va kapital o‘rtasidagi bog’liqlikda namoyon bo‘ladi. Bazel III kelishuvini bosh maqsadi – bank ishida risk boshqaruvi sifatini oshirish hisoblanadi.

Bazel-III tavsiyalarini qo‘llashdan ko‘zlanayotgan asosiy maqsadlar:

►bank sektorini moliyaviy-iqtisodiy tanglikdan kelib chiqadigan inqirozlarga qarshi tura olish imkoniyatini oshirish;

►risk-menejment va boshqaruv sifatini oshirish;

►banklar faoliyati, kapital bazasi shaffofligini (transparentligi) kuchaytirish.

Bazel-III negizidagi asosiy yangi talablar:

►kapital etarliligiga nisbatan yangi talablar (oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foydaga ustuvorlik berish, qo‘shimcha maxsus zaxira kapitalini shakllantirish);

►2 ta likvidlilik koeffitsientiga (liquidity coverage ratio, net table funding ratio) nisbatan me’yoriy talablarni joriy etish;

►leveraj koeffitsientini joriy qilish (Bunda koeffitsientni o‘rtacha choraklik darajasi hisoblanadi va dastlabki bosqichda uning me’yoriy darajasi 3 foiz etib belgilanadi).

Tijorat banklari kapitalini oshirish manbalari

a) Tijorat banklari oddiy va imtiyozli aksiyalari bozor bahosining o‘zgarish omili.

Tijorat banklari oddiy va imtiyozli aksiyalari bozor bahosini o‘sishi ularni sotish jarayonini tezlashtiradi va sotilish koeffitsientini yuqori darajasiga erishish imkoniyatini beradi. Buning natijasida, ustav kapitalini haqiqatda to‘langan qismi oshadi. Aksincha, bank oddiy va imtiyozli aksiyalari bozor bahosini pasayishi ularni sotishdan olinadigan tushumlari miqdoriga va emissiyaviy daromadlari hajmiga salbiy ta’sir qiladi.

Shunisi xarakterliki, ko‘pchilik rivojlanayotgan davlatlarda moliya bozori rivojlanmaganligi oqibatida oddiy va imtiyozli aksiyalar bozor bahosini aniqlash imkoniyati mavjud emas. Buning ustiga, banklarni moliyaviy barqarorligi va to‘lovga qobilligi to‘g’risida ishonchli ma’lumotlar mavjud emasligi investorlarda qimmatli qog’ozlarni sotib olishga bo‘lgan ishonchning pasayishiga sabab bo‘ladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda inflyasiya darajasining yuqori ekanligi bank aksiyalari bozor bahosiga salbiy ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Inflyasiyani yuqori darajasi investorlar tomonidan bank aksiyalarini sotib olishga qilingan qo‘yilmalar va ulardan olinadigan daromadlarni real qiymatini pasayishiga olib keladi. Aksiyalar bozor bahosini o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan yana biri milliy valyuta kursini xorijiy valyutaga nisbatan sezilarli darajada tebranishidir.

b) Aksiyadorlarni ustav kapitalini shakllantirish bo‘yicha majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish omili.

Bizga ma’lumki, atsiyadorlik tijorat banklari ustav kapitali ikki qismdan iborat bo‘ladi: 1) ustav kapitalini e’lon qilingan qismi; 2) ustav kapitalini haqiqatda to‘langan qismi.

Aksiyadorlarni ma’lum qismi ayrim hollarda o‘zlari ustav kapitalini shakllantirish yuzasidan olgan majburiyatlarini bajarishdan bosh tortadi yoki bajarish muddatini juda cho‘zib yuboradilar. Buning natijasida ustav kapitalini shakllanishiga nisbatan salbiy ta’sir yuzaga keladi. Bu, o‘z navbatida, uni boshqarish jarayonini samaradorligini pasaytiradi.

v) Bank aktivlari riskka tortilgan miqdorini o‘zgarish omili.

Bu omilni muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini shundan ham bilsa bo‘ladiki, xalqaro Bazel andozalari bo‘yicha jami kapitalni ham, asosiy kapitalni ham etarlilik darajasi aktivlar riskka tortilgan miqdoriga nisbatan belgilangan.

Mazkur andozalarni amaliyotga joriy qilingunga qadar tijorat banklari to‘lovga qobilligini asosiy ko‘rsatkichi sifatida ular mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajara olish imkoniyati e’tiborga olinar edi. Unga muvofiq, bank mijozni, asosan muddatsiz depozitlari bo‘yicha qo‘ygan talablarini shu zahoti bajara olish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur edi. Albatta, ushbu ko‘rsatkich hozirgi kunda ham o‘zining dolzarbligini saqlab turibdi, lekin banklar iqtisodiy jihatdan inqirozga tushib qolishini asosiy omillari sifatida ularni aktiv operatsiyalari tarkibida riskka tortilgan aktivlari darajasini holatiga qarab aniqlanishi muhim ko‘rsatkich bo‘lib qoldi.

Mulohaza o‘rnida ta’kidlash lozimki, xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari iqtisodiy jihatdan bankrotlikka uchramasliklari uchun qancha miqdorda kapital mablag’i zarur bo‘ladi, degan savolga aniq javob mavjud emas. Chunki, katta miqdorda kapitalga ega bo‘lgan Yaponiya, G’arbiy Evropa mamlakatlarda ko‘zga ko‘ringan banklar iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tutganligi tarixdan ma’lum. Demak, Bazel andozalariga ko‘ra bank kapitalini etarliligi tijorat banklari riskka tortilgan aktivlarini sifatiga bog’liqligi mantiqan to‘g’ri. Ya’ni, riskka tortilgan aktivlarni sifati qanchalik yomon bo‘lsa, bank kapitalini miqdori ham shunga nisbatan yuqori bo‘lishi va tegishli zaxiralarni yaratish lozim, va aksincha.

g) Bank kapitali etarliligi sharoitida uning likvidliligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan likvidli aktivlar mavjudligi omili.

Ushbu omilning ahamiyati shundaki, ayrim tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida resurslarni, shu jumladan, kapitalni asosiy qismini yuqori riskli aktiv operatsiyalarga yo‘naltiradilar. Bunday sharoitda banklar likvidliligi xavf ostida qoladi. Shuning uchun, bank aktivlari tarkibida uning likvidliligini ta’minlash maqsadida ma’lum

miqdordagi likvidli aktivlarni saqlab turish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro Bazel qo‘mitasini kapital etarliligiga qo‘yilgan yangi talablarini jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

9.2-jadval

Bank kapitali etarliligi bo‘yicha Bazel-III talablarini joriy etish muddatlari (Tegishli moliyaviy yilning 1 yanvar holatiga)

Ko‘rsatkich nomi	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Bazaviy 1 darajali kapital (Oddiy aksiyalar+ taqsimlanmagan foyda)	3,5%	4,0%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%
Maxsus zaxira kapitali				0,625%	1,25%	1,875%	2,50%
Bazaviy 1 darajali kapitalga minimal talab(maxsus zaxira kapitali)	3,5%	4,0%	4,5%	5,125%	5,75%	6,375%	7,0%
1 darajali kapitalga minimal talab	4,5%	5,5%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%
Umumiy kapitalga minimal talab	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%
Umumiy kapitalga minimal talab+maxsus zaxira kapitali	8,0%	8,0%	8,0%	8,625%	9,25%	9,875%	10,5%

Jadvaldan ma’lum bo‘ladiki I darajali kapitalga minimal talab amaldagi 4 %dan 2013-yil 1-yanvarga kelib 4,5 foizga, 2019-yil 1-yanvarga kelib esa 6 %ga etadi. Bazaviy I darajali kapital esa (oddiy aksiyalar + taqsimlanmagan foyda)ga nisbatan talab 2013-yildan boshlab 3,5%, 2015-yildan buyon esa 4,5 % darajasida belgilanadi. Favqulodda holatlar uchun maxsus zaxira kapitali (Capital Conservation Buffer) shakllantirilib, uning me’yoriy darajasi 2019-yilga kelib 2,5% etib belgilangan. Kontrsiklik zaxira kapitali (Countercyclical Capital Buffer) milliy sharoitlardan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich 2019-yilga kelib bazaviy I darajali kapitalning 2,5 %i miqdorida belgilanadi. Bundan tashqari Bazel-IIIga muvofiq, banklarga kapitalni 15 foizidan oshmaydigan miqdorda konsolidatsiyalashmagan moliyaviy muassasalarni oddiy aksiyalariga investitsiyalar qilishga ruxsat beriladi. Investitsiyalarni yuqoridagi 15 foizdan ortiq qismi 2018-yilning 1 yanvaridan boshlab kapital tarkibidan 100 foiz chegirib tashlanadi. Bazel-III da bank

likvidligiga nisbatan ham yangi talablarni belgilaydi:

1. Joriy likvidlilik qoplash koeffitsienti (Liquidity Coverage Ratio (LCR))–2016 yil 1 yanvardan boshlab

LCR= (yuqori sifatli aktivlar)/(30 kun mobaynida sof pul chiqimlari) ≥ 100%

2. Sof barqaror manbalar koeffitsienti (The Net Stable Funding Ratio (NSFR))–2018 yil 1 yanvardan boshlab

NSFR= (Mavjud barqaror manbalar)/(talab qilingan barqaror manbalarni foydalanilishi)≥ 100%

Yuqoridagi yangi talablar bank tizimida joriy etishda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

– oddiy aksiyalar salmog'ini oshirish uchun qo‘shimcha aksiyalarni muomalaga chiqarish va investorlarni jalb etish, aksiyalar taklifini ortishi hisobiga aksiya bahosini pasayishi;

– taqsimlanmagan foyda salmog'ini oshirish borasida aksiyadorlar o‘rtasida manfaatlar kelishmovchiligini yuzaga kelishi;

– iqtisodiy retsessiya sharoitida sof foydani oshirish imkoniyatini cheklanishi;

– yangi likvidlilik talabini joriy etish hisobiga daromadlilikni pasayishi;

– banklarning kreditlash ko‘lamini qisqarishi va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26- noyabrdagi “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g'risida”gi PQ-1438-sonli qaroriga muvofiq, tijorat banklarini kapitallashuv darajasi, barqarorligi va likvidliligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilandi. Birgina tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha quyidagi choralar ma'qullandi:

-2011-2015-yillar mobaynida tijorat banklarining yalpi kapitalini qo‘shimcha aksiyalar chiqarish hisobidan o‘rtacha 2,1 marta ko‘paytirish; - bank tizimi ustav kapitali tarkibida nodavlat sektori ulushini yanada oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

-bank nazorati tizimiga, kapital etarliligiga bo‘lgan talablarni takomillashtirishni, kutilayotgan yo‘qotishlar modeli asosida ehtimoliy yo‘qotishlarga zaxiralarni shakllantirishni ko‘zda tutuvchi Bazel qo‘mitasini yangi tavsiyalarini tadbiq etish;

-xalqaro bank amaliyotiga muvofiq operatsion xarajatlarini qoplashni va banklar tuzilmalarini ratsional foydaliligini ta’minlashni hisobga olgan holda respublika tijorat banklarini tarif siyosatini takomillashtirish;

-banklar kapitali, aktivlari, boshqaruvi, daromadlari, majburiyatlarini sifati va darajasini xolis baholanishini ta’minlovchi CAMEL(S) tizimini yangi talqinini tadbiq qilishni ko‘zda tutgan holda tijorat banklarini moliyaviy holatini baholash tizimini yanada takomillashtirish;

-har chorakda bank Kengashi yig’ilishlarida bank boshqaruv raisi va a’zolari, ichki audit bo‘limi rahbarlarini bank aktivlari, kredit va investitsiya portfellari holati, bank kapitalini o‘sishini ta’minlash, daromadlilik va likvidlilik ko‘rsatkichlari, suningdek bank tizimi oldiga qo‘yilgan boshqa ustuvor vazifalarni ijrosi to‘g’risidagi masalalar bo‘yicha hisobotlarini ko‘rib chiqish.

Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasini yangi tavsiyalariga muvofiq tijorat banklarini kapital etarliligiga nisbatan talablarni oshirish, tijorat banklari tarkibida ularni inqiroz holatlari ta’siriga barqarorligini ta’minlaydigan barqarorlashtirish zaxiralarini yaratish maqsadida Markaziy bank tomonidan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg’armasini xalqaro ekspertlari bilan birgalikda bank nazoratiga oid me’yoriy hujjatlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish ishlari olib borildi. Natijada 2012-yil 29-dekabrdagi “Tijorat banklari kapitalini etarliligiga qo‘yiladigan talablar to‘g’risida”gi Nizomga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g’risidagi Markaziy Bank Boshqaruvining 36/2-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur Nizomga bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasini yangi tavsiyalari asosida tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan bo‘lib, ular bosqichma-bosqich amal qila boshladi.

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Bazel qo‘mitasini banklarni kapitaliga nisbatan belgilangan talablarni keskin kuchaytirishga majbur qildi. Natijada Bazel-III deb nomlanuvchi yangi Bitim yuzaga keldi va uning asosiy jihatlari 2010-yil 12-sentyabridan kuchga kirdi.

Ushbu yangi Bitim Bazel-II ni bekor qilmaydi, balki uni to‘ldiradi.

Bazel-III ning asosiy talablari:

1. Qo‘mitani yangi talablarini bajara olmagan tijorat banklari bonus to‘lovlari va dividendlar miqdorini kamaytirishga majbur bo‘ladilar.

2. Aksiyadorlik kapitali mikdoriga nisbatan belgilangan talablar oshirildi.

Agar mazkur talab bundan oldin aktivlarni riskka tortilgan summasini soliq to‘langunga qadar bo‘lgan miqdorini 2 foizini tashkil etgan bo‘lsa, endi ushbu ko‘rsatkich mazkur summaning soliq to‘langandan keyingi mikdorini 4,5 % darajasida belgilandi.

3. Birinchi darajali kapitalni etarliligiga nisbatan belgilangan minimal talab oshirildi.

Ushbu talab 2013-yildan 2015-yilgacha bo‘lgan davrda amaldagi 4 foizdan 6 foizga oshiriladi.

4. Kapitalni ximoyaviy «konservatsiya «buferi» joriy etiladi.

Kapitalni ximoyaviy «konservatsiya «buferi» birinchi darajali kapitalni 2,5 foizi xajmida tashkil etiladigan qo‘shimcha zaxiradan iboratdir. Shunday kilib, birinchi darajali kapitalga nisbatan belgilangan umumiy talab darajasi 7 foizni tashkil etadi (2,5% + 4,5 %).

5. Kontrsiklik bufer joriy etiladi.

Kontrsiklik bufer bank o‘z kapitalini 0 %dan 2,5 foizigacha xajmda tashkil etiladi va kreditlash xajmini keskin oshishiga to‘sqinlik qiladi.

6. Tijorat banklarini o‘z kapitali va jalb etilgan kapitali o‘rtasidagi nisbat.

Ushbu nisbat risksiz miqdorni aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Risksiz miqdor sifatida birinchi darajali kapitalni 3% darajasi olinadi. Mazkur ko‘rsatkich 2013-2017-yillarda joriy qilindi va tegishli tuzatishlardan so‘ng direktiv ahamiyat kasb etadi.

7. 2016-yildan boshlab likvidlilikni qoplash ko‘rsatkichi – Liquidity Coverage Ratio (LCR) joriy etiladi.

LCR 30 kunlik muddatda kapital chiqimini yuqori likvidli aktivlar zahirasi bilan qoplanishini ko‘rsatadi.

Banklarda moliyalashtirishni etarliligini nazorat qilish maksadida The Net Stable Funding Ratio (NSFR) ko‘rsatkichini 2018-yildan boshlab joriy etish ko‘zda tutilgan. Ushbu ko‘rsatkich mavjud va talab

qilinadigan moliyalashtirish hajmi o‘rtasidagi nisbat shaklida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishni ustuvor yo‘nalishlari to‘g’risida”gi va 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli “Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularni resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Qarorlarida Bazel qo‘mitasini bank nazorati bo‘yicha yangi talablarini mamlakat bank amaliyotiga joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar qo‘yildi. Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklarini likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda Markaziy bankni 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyuldagi 2693-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklari kapitalini monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomalari qabul qilindi.

Ushbu yo‘riqnomalarda Bazel qo‘mitasini bir qator yangi talablari, shu jumladan, banklarni likvidliligi va barqaror moliyalashtirish manbalari, kapitalini etarliligiga qo‘yiladigan talablarni bosqichma-bosqich oshirib borish bo‘yicha talablari o‘z aksini topdi.

Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

LQMK =YULA:30 k.JSCH (1)

bu erda:

YULA – yuqori likvidli aktivlar;

30 k. JSCH – keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqim.

Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsientini eng past me’yoriy darajasi quyidagicha belglangan:

* 2016-yil 1-yanvardan boshlab – 80%
* 2017-yil 1-yanvardan boshlab - 90%
* 2018-yildan 1-yanvardan boshlab – 100%.

yuqori likvidli aktivlar tarkibi quyidagilardan iborat:

* sof quyma oltin;

* bankning Markaziy bankdagi “Nostro” vakillik hisobraqamidagi pul mablag’lari (10301);

* 7 kungacha muddatdagi banklararo kreditlar va depozitlar;

* “Standart & Poors”, “Fitch Retings” va “Moods” xalqaro reyting agentliklarini eng yuqori baholari berilgan, rivojlangan fond birjalari ro‘yxatiga kiritilgan, risk darajasi past bo‘lgan mamlakatlarni transmilliy kompaniyalarini qimmatli qog’ozlari;

* bankni boshqa banklarda ochilgan “Nostro” vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag’lari (10501);

* risk darajasi past bo‘lgan mamlakatlardagi banklarga aktivlarni joylashtirilib, ta’minot sifatida qo‘yilmagan likvidli aktivlar.

Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (SBMMK) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

SBMMK = BMMS : BMZS (2)

Bu erda:

BMMS – barqaror moliyalashtirishni mavjud summasi;

BMZS – barqaror moliyalashtirishni zarur summasi.

Barqaror moliyalashtirishni mavjud summasiga quyidagilar kiradi:

* bankni regulyativ kapitali;

* qaytarish muddati 1 yil va undan ortiq bo‘lgan bank majburiyatlari;

* qaytarish muddati belgilanmagan boshqa depozitlar va qarz mablag’lari summasini 30 foizi;

* qaytarish muddati 1 yildan kam bo‘lgan boshqa depozitlar va qarz mablag’lari summasini 30 foizi.

Barqaror moliyalashtirishni zarur summasiga quyidagilar kiradi:

* qaytarilishiga 1 yil va undan ortiq muddat qolgan bank aktivlari, shu jumladan, muammoli kreditlar va nomoliyaviy aktivlar (er uchastkalari, binolar, mebel, kompyuterlar va avtomashinalar);

* sud jarayonida bo‘lgan yoki belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar;

* qaytarish muddati 1 yildan kam bo‘lgan boshqa aktivlar summasini 30 foizi, muddatsiz likvidli aktivlar bundan mustasno;

* balansdan tashqari moddalardagi majburiyatlarni 15 foizi.

9.4. Tijorat banklari kapitalini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari va usullari

Bank kapitali tijorat banki faoliyatida vujudga keladigan iqtisodiy tanglik hamda ziddiyatli vaziyatlar sharoitida xavfsiz “moliyaviy yostiq” vazifasini bajarishi bilan birga, bank kutilmaganda moliyaviy qiyinchilik va yo‘qotishlarga duch kelganda unga to‘lovga qobiliyati darajasini saqlab qolish va faoliyatini davom ettirish imkoniyatini beradigan moliyaviy manba hisoblanadi. Xalqaro va mahalliy bank amaliyotida bank kapitali etarliligi uning riskka tortilgan aktivlariga nisbatan aniqlanadi. Bank kapitalining hajmi riskka tortilgan aktivlarga nisbatan judayam past bo‘lishi uni inqiroz holatiga tushib, turli xizmatlarni ko‘rsatish va hisob-kitoblarni amalga oshirolmay qolishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchi jihatdan bank kapitalining hajmi haddan ziyod ortishi bank leverejini[72] boshqarishda turli salbiy holatlarni vujudga kelishi va daromad darajasini pasayishiga olib keladi.

Odatda tijorat banklari leverej darajasi yuqori bo‘lishini, ya’ni bank kapitaliga nisbatan riskka tortilgan aktivlar hajmining oshib ketishiga yo‘l qo‘yadi, biroq nazorat organlari esa moliya bozorlari va bank tizimi barqarorligini oshirish nuqtai nazaridan leverej darajasini pasaytirishga intiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar kabi tijorat banklari faoliyati samaradorligi va to‘lov qobiliyati mustahkamligini ta’minlashda ularning kapitali barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Barqarorlik – tashqi va ichki ta’sirlarning mavjudligi sharoitida sub’ektning faoliyat yuritish qobiliyatini saqlab qolishini anglatadi. Turli mulk shaklida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar barqarorlik holatida o‘z faoliyatini davom ettirish va majburiyatlarini bajarishi mumkin, aks holda unga taziyq soladigan moliyaviy inqiroz va moliyaviy salbiy holatlardan chiqolmasligi natijasida faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ladi.

Xalqaro va mahalliy bank amaliyotida tijorat banklari kapitali barqarorligiga alohida e’tibor qaratishadi. Ta’kidlash joizki, tijorat banklari kapitali barqarorligiga qator omillar ta’sir qiladi. Ushbu

[72]Xalqaro ekspert va mutaxassislarning fikriga ko‘ra, leverej jalb qilingan moliyaviy resurslar hajmini o‘z kapitaliga nisbati sifatida qaraladi. Nomoliyaviy korxonalarda leverj 1:1 va 3:1 past darajadagi nisbatda bo‘lib, bu ularning moliyaviy jihatdan barqarorligini anglatadi. Banklarda ushbu ko‘rsatkich, ya’ni kapitalning yetarlilik darajasi riskka tortilgan aktivlarga nisbatan 8% yoki 12,5:1 yuqori darajadagi nisbatda bo‘ladi, bu bank muassasalarining nomoliyaviy tashkilotlarga nisbatan yuqori leverjga ega ekanligini anglatadi.

omillarni tashqi va ichki omillarga guruhlagan holda o‘rganish maqsadga muvofiq.

Tijorat banklari kapitali barqarorligini ta’minlashning tashqi omillari quyidagilardan iborat.

I *Xalqaro va mahalliy fond bozorlarida qimmatli qog’ozlar bahosi indekslarining o‘zgarishi*. Tijorat banklari kapitali ustav fondi asosan ular tomonidan chiqarilgan aksiyalar hisobidan shakllantiriladi. Bank aksiyalari oddiy va imtiyozli aksiyalardan tashkil topgan bo‘lib, bu haqda oldingi paragrafda atroflicha mushohada yuritgan edik. Tijorat banklari aksiyalarining oldi-sotdisiga mamlakatda qimmatli qog’ozlar bozorining holati bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, ikkilamchi qimmatli qog’ozlarning rivojlanganligi tijorat banklari aksiyalarini oldi-sotdi hajmiga sezilarli ta’sir o‘tkazish orqali ularning asosiy kapitali tarkibidagi emission daromadlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Tijorat banklari kapitali tarkibida emission daromadning vujudga kelishi ularning aksiyalari bahosining ortib borayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, xalqaro fond bozorlarida aksiyalar bahosining tushib ketishi banklar kapitali barqarorligiga to‘g’ridan-to‘g’ri salbiy ta’sir qilib, ularni inqiroz holatiga olib kelishi mumkin. Buni, dunyoda, keyingi 200 yil davomida ro‘y bergan 20 dan ortiq jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlari, suningdek AQSHda 2008 yilda yuz bergan jahon moliyaviy inqirozlari ham tasdiqlab turibdi.

II *Xalqaro to‘lov vositasi vazifasini bajarayotgan valyutalar kursining barqarorligi va mustahkamligi*. Ma’lumki, o‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligida, suningdek, respublikamizda ham tijorat banklari minimal kapitaliga qo‘yilgan talablar AQSH dollari yoki evroda o‘rnatiladi. Buning asosiy sababi, ushbu valyutalarning to‘lov qobiliyati boshqa valyutalarga nisbatan mustahkam bo‘lib, ularning kursi sezilarli ravishda tebranib turmaydi. Shu bois ham tijorat banklari ustav kapitali minimal darajasiga qo‘yilgan talabning ushbu valyutalarda belgilanishi milliy valyutalar kursining mazkur valyutalarga nisbatan tushib ketgan holatida ham bank ta’sischilarini tegishli miqdordagi moliyaviy mablag’ni jamg’arish zaruriyatidan ozod etilmaydi yoki boshqacha talqin qiladigan bo‘lsak milliy valyutaning inflyasiyaga uchrashi ta’sischilarga bank ochishda hech qanday engillik tug’dirmaydi.

Biroq shuni ta’kidlash joizki, keyingi paytlarda xalqaro moliya tashkilotlarining o‘zaro yaqinlashuvi va ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi jahon zaxira va to‘lov vositasi vazifasini

bajarayotgan valyutalar kursining sezilarli ravishda tebranishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, 2008-yil iyulda AQSH dollari kursi dunyodagi etakchi valyutalariga nisbatan juda past darajaga tushib ketdi. Jumladan, AQSH dollari evroga 35-50 sentga va Britaniya funtiga 20-30 sentga (1981 yil iyunidan buyon eng past daraja) pasaydi, Suningdek, Yangizellandiya dollariga 79,41 sentgacha pasaydi (bu 1985-yil mart oyidan buyon eng past daraja), Kanada dollariga nisbatan 96 sentga pasayishi keyingi 30 yil ichidagi eng yuqori pasayish hisoblandi.

Buning asosiy sababi, bizning nazarimizda, jahondagi ko‘plab mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati ortib borishi bilan birga, ularning oltin va valyuta zaxiralari tarkibida AQSH dollarining salmog’i ortib borishi bilan izohlanadi. Chunki ushbu mamlakatlar AQSH iqtisodiyotiga to‘g’ridan-to‘g’ri iqtisodiy ta’sir qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, ayrim hollarda informatsion xurujlar ham salbiy ta’sir qilmoqda.

III *Markaziy bankning pul-kredit siyosati va iqtisodiy me’yorlari.* Markaziy bank pul-kredit siyosati va iqtisodiy me’yorlari orqali tijorat banklari kapitali barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini pasaytirishi natijasida tijorat banklari jalb qilingan resurslari hajmini oshirishi mumkin, bu o‘z-o‘zidan ularning kredit berish imkoniyatini oshirish bilan birga tijorat banklari riskka tortilgan aktivlariga nisbatan kapitalini ko‘paytirishni talab etadi.

IV *Milliy iqtisodiyot va milliy valyutaning barqarorligi*. Mamlakatda milliy iqtisodiyot va milliy valyutaning barqarorligi tijorat banklari kapitali barqarorligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga ta’kidlash joizki, millliy valyuta barqarorligiga milliy iqtisodiyot barqarorligi chambarchas bog’liqdir. Agar milliy iqtisodiyot barqarorligi va raqobatbardoshligi yuqori bo‘lmasa, uning tashqi importga bog’liqligining ortishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida milliy valyutaning xarid qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, mamlakat ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan tovarlarning asosiy qismi chetdan keltirilishi xorijiy valyutalarni turli yo‘llar bilan mamlakatdan chiqib ketishiga olib keladi, bu esa xorijiy valyutalarga ichki talab darajasini oshishiga sabab bo‘ladi.

Milliy valyutaning xorijiy valyutalarga bog’liqligining ortib borishi bankdan tashqari aylanmalar hajmining ortishi, milliy valyutaning rasmiy kursi bilan birgalikda “qora bozor” kursining vujudga kelishi kuzatiladi va ular o‘rtasidagi farq sezilarli darajada o‘sib boradi,

Suningdek, tovar va xizmatlar bahosining naqd pulda va naqdsiz puldagi baholari o‘rtasida farq paydo bo‘ladiki, naqd puldagi baholar naqd pulsizga nisbatan arzon bo‘ladi. Bularning barchasi bevosita va bilvosita tijorat banklari kapitali barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi;

V *Mamlakat tashqi siyosati va iqtisodiyotni boshqarishning shaffofligi*. Ma’lumki, mamlakat tashqi siyosatining barqarorligi xalqaro moliyaviy aloqalar hamda eksport va import borasidagi munosabatlarning rivojlanishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida mamlakat to‘lov balansi va milliy valyuta kursiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Milliy valyuta kursining xorijiy valyutalar kursiga nisbatan mustahkamlanishi aksiyador, investor, omonatchi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar daromadi barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi mamlakat tijorat banklari kapitali barqarorligida o‘zining aksini topadi.

9.5. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va rivojlantirishning zamonaviy bosqichida tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi farmoni bilan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishni beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” tasdiqlandi.

Harakatlar strategiyasida tijorat banklarini kapitallashish darajasiin yanada oshirish vazifasi qo‘yildi.

Ushbu vazifa O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”gi Qonunida quyidagict belgilandi

13-modda. Bankning ustav kapitali

Bank ustav kapitalining eng kam miqdori:

2023-yil 1-sentabrga qadar yuz milliard so‘mni;

2023-yil 1-sentabrdan e’tiboran ikki yuz milliard so‘mni;

2024-yil 1-apreldan e’tiboran uch yuz ellik milliard so‘mni;

2025-yil 1-yanvardan e’tiboran besh yuz milliard so‘mni tashkil etishi kerak.

Bankning ustav kapitali O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida shakllantiriladi hamda bank muassislari va aksiyadorlari kiritgan pul mablag’laridan yoki davlatning qimmatli qog’ozlaridan tashkil topadi, bundan quyidagi hollar mustasno:

bank aksiyalarini bankning kreditorlari orasida joylashtirish va bankning kreditorlar oldidagi pul majburiyatlari bo‘yicha har qanday huquqlarini (talablarini) hisobga olish yo‘li bilan ularning haqini to‘lash;

qimmatli qog’ozlarni bank aksiyalariga ayirboshlash;

bankning joylashtirilgan bir turdagi aksiyalarini ushbu bankning boshqa turdagi aksiyalariga almashtirish.

Bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag’lardan, shuningdek majburiyat yuklatilgan boshqa mablag’lardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.[73]

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bankini Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va Asakabankni valyutada shakllantirilgan ustav kapitalini ushbu xorijiy valyutalarni sotish yo‘li bilan milliy valyutada shakllantirish to‘g’risidagi taklifi qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankini 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyuldagi 2693-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan) “Tijorat banklari kapitalini monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomasi qabul qilindi. Ushbu yo‘riqnomada respublikamiz tijorat banklari regulyativ kapitalini etarliligiga nisbatan belgilangan minimal talablarni bosqichma-bosqich oshirib borish talabi o‘z aksini topdi (9.4-rasm).



9.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari regulyativ kapitalining etarliligiga nisbatan belgilangan minimal talablarni bosqichma-bosqich oshirib borish talabi[74]

[73] “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”gi Qonun 05.11.2019 yildagi O‘RQ-580-son

9.4-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarini regulyativ kapitaliga va birinchi darajali kapitaliga nisbatan belgilangan minimal talablar 2015-yilni 1-yanvaridan boshlab 2019-yilni 1-yanvariga qadar bo‘lgan davrda bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Ushbu jarayonda, ayniqsa, birinchi darajali kapitalni etarliligiga nisbatan belgilangan minimal talab sezilarli darajada oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

Bank tizimini barqarorligini, to‘lovga qobilligi va ishonchliligini ta’minlashda, bank aktivlarini o‘stirishda bank kapitali muhim vosita bo‘lib hisoblanadi. Faqatgina etarlicha miqdorda barqaror kapitalga ega tijorat banklari aktiv operatsiyalarini erkin amalga oshirishlari, talab etilgan darajada likvidlikni doimo saqlagan holda samarali faoliyat yuritishlari hamda moliya bozorlariga erkin chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan bank kapitali etarligigiga doir kelishuv (Bazel I) ishlab chiqildi va unda kapital etarliligini hisoblash maqsadida regulyativ kapital (umumiy kapital) tushunchasi amaliyotga joriy qilindi. Regulyativ kapital asosiy va qo‘shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me’yorlarni hisob-kitobini o‘tkazish maqsadida hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

Regulyativ kapitalni etarlilik koeffitsienti tijorat banklarini to‘lovga qobilligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Bazel I, Bazel II va Bazel III standartlarini asl mohiyati ham risk va kapital o‘rtasidagi bog’liqlikda namoyon bo‘ladi. Bazel III kelishuvini bosh maqsadi –bank ishida risk boshqaruvi sifatini oshirish hisoblanadi.

Bazel III ga ko‘ra, banklar regulyativ kapitali ko‘rsatkichi birinchi darajali bank kapitali, konservatsion bufer kapitali, kontrsiklik bufer kapitali hamda tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo‘shimcha talablar yig’indisidan iborat bo‘ladi.

---

[74]Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2015 йил 13 июндаги 14/3-сонли (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2015 йил 6 июлда 2693-рақам билан рўйхатдан ўтказилган) “Тижорат банклари капиталининг монандлигига қўйиладиган талаблар тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2015. - №27.- 27-б.

Tijorat banklari faoliyati samaradorligi va to‘lov qobiliyati mustahkamligini ta’minlashda ularning kapitali barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Bank kapitali. regulyativ kapital, 1 darajali (asosiy) kapital, 2 darajali (qo‘shimcha) kapital, bank kapitali etarliligi, Xalqaro Bazel qo‘mitasi, Bazel 1 keliShuvi, Bazel andozalari va talablari, asosiy kapital elementlari, banklarning kapitallaShuv darajasi, qisqa muddatli subordinar qarzlar, nomoliyaviy aktivlar, bank leveraji, fond bozorlari, valyuta kurslarning barqarorligi, markaziy bankning pul-kredit siyosati, milliy valyutani barqarorligi, mamlakat to‘lov balansi.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bank kapitalini tashkil qiluvchi asosiy elementlar.
2. Bazel andozalari bo‘yicha banklarning qo‘shimcha kapitali tarkibidagi asosiy elementlari.
3. Tijorat banklari I va II darajali kapitallari nimalardan iborat?
4. Bank kapitalini boshqarishning asosiy ob’ektlari.
5. Bank kapitali etarliligi va unga nisbatan o‘rnatilgan talablar.
6. Bazel III talablari nimalardan iborat?
7. Tijorat banklari kapitalini oshirish manbalari.
8. Bank sarmoyasi Bazel andozadari talablariga ko‘ra qanday sarmoyadan tashkil topadi?
9. Tijorat banklari kapitali tarkibida barqaror manbalar nimalarni keltirish mumkin?
10. Bazel-III tavsiyalarini qo‘llashdan ko‘zlanayotgan asosiy maqsadlar nimalardan iborat?
11. Barqaror moliyalashtirishni mavjud summasiga qanday manbalar kiradi?
12. Tijorat banklari kapitali barqarorligini ta’minlashning tashqi omillari nimalardan iborat?
13. Harakatlar strategiyasida tijorat banklarini kapitallashish darajasiin yanada oshirishning qanday vazifalari qo‘yildi?
14. 2017-yil 1-oktyabrdan boshlab ustav kapitalini eng kam miqdoriga nisbatan talablar qanchadan qili belgilandi?
15. Regulyativ kapital asosiy va qo‘shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini qanday hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan bank kapitali?

16. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarini regulyativ kapitaliga va birinchi darajali kapitaliga nisbatan belgilangan minimal talablar qanday oshrilib boriladi?

17. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”gi Qonuni (oxirgi yangilangan nashrida) qaysi moddasida tijorat banklarning ustav kapitalini oshirib borish miqdorlari belgilangan?

10-bob. TIJORAT BANKLARI EMISSION OPERATSIYALARINI BOSHQARISH. TIJORAT BANKLARI DEPOZITLARINI BOSHQARISH

10.1. Tijorat banklarini emission faoliyati

Xalqaro bank amaliyotida banklarni depozit bo‘lmagan resurslari tarkibida yirik manbalardan biri qimmatli qog’ozlar hisoblanadi.

“Depozit sertifikatlarini joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog’ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Veksellarni joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog’ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.”[75] O‘zbekiston Respublikasining Qimmatli qog’ozlar bozori to‘g’risida Qonunida belgilab qo‘yilgan.

Banklar moliyaviy resurslarni shakllantirish maqsadida aksiya, obligatsiya, depozit va jamg’arma sertifikatlarni muomalaga chiqaradi. Suningdek, tijorat banklari uzoq muddatli resurslarini shakllantirishda ipoteka va subordinar qimmatli qog’ozlari muhim o‘rin tutadi. Banklarni qimmatli qog’ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish bilan bog’liq operatsiyalarini ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga, tijorat banklari ustav va qo‘shimcha kapitalini shakllantirish maqsadida aksiya va subordinar qimmatli qog’ozlarni muomalaga chiqarish bo‘yicha operatsiyalari, ikkinchi guruhga, qisqa va uzoq muddatli resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qoplash uchun obligatsiya va ipoteka qimmatli qog’ozlari, depozit va jamg’arma sertifikatlari bilan bog’liq operatsiyalari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida” Qonunida “qimmatli qog’ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog’ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish”[76] deb belgilab qo‘eilgan.

---

[75] O‘zbekiston Respublikasining Qimmatli qog’ozlar bozori to‘g’risida Qonuni (yangi tahriri) -T., 2015-yil 3-iyun, O‘RQ-387-son

[76] O‘zbekiston Respublikasining”**Banklar va bank faoliyati to‘g’risida”** Qonuni (yangi tahriri) -T., 2019-yil 5-noyabr, O‘RQ-580-son

Aksiya va sertifikatlarning bozor bahosi banklarning ushbu bozordagi faoliyatini baholovchi iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Tijorat banklari aksiyalari va sertifikatlarni bozor bahosi ortib borishi ularni oldi–sotdisiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pchilik hollarda tijorat banklari o‘z aksiyalari va sertifikatlarini ikkilamchi qimmatli qog’ozlar bozoridagi bahosini oshirish maqsadida investitsion kompaniyalar orqali investor sifatida ham maydonga chiqishi mumkin.

Tijorat banklari aksiyalari, obligatsiyalari va sertifikatlarni bozor bahosi moliya bozoridagi mavjud talab va taklif asosida o‘rnatiladi. Aksiya va sertifikatlarni nominal va bozor bahosi o‘rtasidagi farq ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Agar ushbu farq ijobiy bo‘lsa, tijorat banklari moliyaviy jihatdan barqaror va raqobatbardosh ekanligidan dalolat beradi. Mazkur holat banklarni qimmatli qog’ozlar orqali resurslarini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklari aksiya, obligatsiya va sertifikatlarini bahosiga ta’sir qiladigan asosiy omillardan biri ularga to‘lanadigan dividend miqdori va foiz to‘lovlari hisoblanadi. Aksiya va sertifikatlarga to‘lanadigan to‘lovlar miqdorini yuqoriligi va barqarorligi banklarni qimmatli qog’ozlar bozoridagi emitent nufuzini oshirishga bevosita ta’sir qiladi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatni asosida iqtisodiy manfaatdorlik yotadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklariga resurslarni jalb qilishni maqbul usullaridan biri qimmatli qog’ozlarni qayta sotib olish bo‘yicha shartnomalar tuzish yoki «repo» operatsiyasi hisoblanadi. Ushbu kelishuvda, bank sotilgan qimmatli qog’ozlarni ma’lum muddatdan so‘ng oldindan kelishilgan bahoda qayta sotib olishni o‘z zimmasiga oladi.

Bu operatsiyani afzalligi shundaki, bank o‘zini qisqa muddatli kredit resurslariga bo‘lgan ehtiyojini qondirsa, benifitsar esa vaqtincha bo‘sh mablag’larini ishonchli manbaga samarali joylashtirish orqali nisbatan yuqori miqdorda foyda oladi. Odatda, ushbu operatsiyalar bo‘yicha mablag’lar bir kundan bir necha oygacha, asosan, qisqa muddatga beriladi. Shu bilan birga, «repo» operatsiyasi bankka quyidagi qulayliklarni beradi:

- bankni likvidlilik jihatidan yuqori riskka duchor qilmaydi. Chunki, qimmatli qog’ozlar ma’lum kelishilgan muddatga emissiya qilinadi;

- bank sotilgan qimmatli qog’ozning qiymati miqdoridagi mablag’ni mijozni hisobvarag’ini, agar uni hisobvarag’i shu bankda

ochilgan bo‘lsa, debetlash yo‘li bilan yoki benefitsarni boshqa bankdagi hisobavarag’idan qisqa muddatda olish imkoniyatiga ega. Suningdek, agar benefitsarning hisobvaraqasi shu bankda ochilgan bo‘lsa, u holda bank Markaziy bankka «repo» summasi miqdoridagi summaga majburiy zaxira ajratmasi bazasini kamaytiradi;

- xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari «repo» operatsiyalari asosida jalb qilingan mablag’lari hisobidan Markaziy bankka majburiy zahiralar to‘lashdan va depozit operatsiyalardagi kabi mablag’ni sug’urta qilishdan ozod etilgan. Ushbu holat O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari amaliyotida ham joriy etilgan bo‘lib, ularga mazkur operatsiya asosida mablag’larni kengroq jalb qilish imkoniyatini beradi.



10.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlar miqdori, trln. so‘m (2017-yil 1.9 trln so‘m, 2019-yil 1.5 trln so‘m)[77]

10.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamiz tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlar miqdori 2016- yilda 2014-yilga nisbatan sezilarli darajada o‘sgan.

2019-yilda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan chiqarilgan mahalliy korporativ obligatsiyalarning foiz stavkasi, hamda xalqaro moliya bozoridan kapital jalb qilish maqsadida London fond birjasiga evroobligatsiyalar joylashtirganligi va bu orqali 300 mln. AQSH dollari miqdoridagi kapital 5 yil muddatga jalb qilingan[78]

2016-yil qimmalbaho qog’ozlarni umumiy hajmi 25 trln tashkil etdi va yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6% ni tashkil etdi 605 ta

[77] O‘R MB rasmiy sayti ma’lumotlari asosida (www.cbu.uz).
[78] Ходжаев Э.Н., Ниёзов З.Д., Ходжаев О.Э.Молиявий ресурсларни купайтиришда векселдан фойдаланиш.

aksioner jamiyati mavjud bo‘lib ularni 85% davlatga tegishli jamiyatdir. 105 ta aksioner jamiyatdan atigi 5% aksiya fond bozorida ishtirok etgan. Shuning uchun aholi va investorlar fond bozorida faolligi sust bo‘lgan.[79]

Ushbu holat tijorat banklari investitsion operatsiyalarini daromadliligiga va ularni joriy likvidliligiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi.

Respublikamiz tijorat banklarini investitsiya portfelida xorijiy valyutalarda emissiya qilingan qimmatli qog’ozlar mavjud emas. Demak, banklarni investitsiya portfeli milliy valyuta-so‘mda emissiya qilingan qimmatli qog’ozlardan iborat. Bu esa, respublikamiz tijorat banklarini investitsiya portfelini moliyaviy risklarga ta’sirchanligini oshiradi. Bunda inflyasiya va devalvatsiya ta’sirida banklarni qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalarini real qiymatini pasayish xavfi yuzaga keladi.

10.2. Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog’ozlarni muomalaga chiqarish tartibi

O‘zbekistonda banklar shu, jumladan, ularning qimmatli qogozlar bozorida emitent, investor, investitsion vositachi va boshqa faoliyatni amalga oshirishi mumkin. Banklar qimmatli qog’ozlar bilan bog’liq faoliyati turlarini amalga oshirishlari uchun qo‘yidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tug’risida”, “Banklar va bank faoliyati tug’risida”, “Qimmatli qog’ozlar bozorining faoliyat yuritishi mexanizmi tug’risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g’risida”gi va boshqa qonunchilik xo‘jjatlariga muvofiq holda amalga oshiriladi. Bu qonun xo‘jjatlariga asosan qimmatli qog’ozlar emissiyasi qilishi-joylashtirish shartlari bir xil bo‘lgan hamda jismoniy va yuridik shaxs bo‘lgan birinchi egalari yoki investorlarni bir xil xajmdagi xuquqlari bilan ta’minlaydigan muomiladagi bank qimmatli qog’ozlari majmui tushiniladi. Chiqarilgan qimmatli qog’ozlarni joylashtirish esa – fuqarolik huquqiy bitimlar tuzish yo‘li bilan qimmatli qog’ozlarni qiymatini to‘liq to‘lashni ko‘zda tutgan holda ularni birinchi egalariga bank tomonidan sotilishi tushiniladi. Qimmatli qog’ozlar muomalasi – qimmatli qog’ozlar egasining almashuvga olib keladigan qimmatli qog’ozlarni oldi–sotdisi

[79] Банк,пул кредит журнали №11 2019 йил стр 37 Азизов Улуғбек Капитал бозор: иқтисодий ўсишни таминотчи драйвер.

suningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tutilgan boshqa xarakatlar tushiniladi. Banklar tomonidan muomilaga chiqariladigan qimmatli qog’ozdar naqd yoki naqdsiz muomalaga chiqarilishi mumkin. Naqdsiz qimmatli qog’ozlar deb – depozitariylarning hisob registrlarida yozuvlar shaklida muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlar tushiniladi.

Veksellarni naqdsiz muomalaga kiritish bo‘yicha takliflar.

1) dastlabki bosqichda (2024-2025-yillarda):

a) Veksellarni tadbirkorlik sub’ektlarining yuqori barqarorlik reytingiga (“AAA” – 483 ta, “AA” – 1 454 ta , “A” – 2 211 ta) kiritilgan korxonalarga ular sof aktivining 50 foiziga qadar 1 yilgacha bo‘lgan muddatda chiqarish;

b) faqat tovar veksellarni chiqarishga, ya’ni tovar ishlab chiqarish maqsadida aylanma mablag’larini to‘ldirish uchun chiqarish;

v) oddiy veksellarni (ikki sub’ekt o‘rtasidagi o‘zaro majburiyatlarni bajarish uchun) elektron shaklda chiqarish. 1 rasm.



10.2-Rasm. Veksellarni muomilaga chiqarish sxemasi

Afzalliklari:

- ishlab chiqaruvchilar aylanma mablag’lar bilan qisqa muddatda (*3 kunda*) ta’minlanadi (*ishlab chiqarish sikli davom etadi*);

- korxona o‘zining moliyaviy sharoitiga mos shartlarda mablag’ jalb etadi (*kredit stavkalari qat’iy belgilangan*).[80]

[80] Ниёзов З. Д.,Давронов Ш. З Иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш. “Сервис” 2024 №4

Naqd qimmatli qog’ozlar esa – sertifikatlar yoki qimmatli qog’ozlar blankalari ko‘rinishida muomilaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlar tushiniladi. Qimmatli qog’ozlar emissiya risolasi yoki chiqarilish so‘rovnomasi deb bank to‘g’risida, chiqariladigan qimmatli qog’ozlarning xajmi, nominal qiymati, chiqarilish shakli, turi va soni, chiqarish shartlari va shu qimmatli qog’ozlarni sotib olish yoki sotib olishdan voz kechish to‘g’risidagi qarorga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa axbarotni o‘z ichiga olgan xo‘jjat.

Qimmatli qog’ozlarni ochiq hamda yopiq holda joylashtirish mumkin. Qimmatli qog’ozlarga ochiq obuna, ommaviy joylatirish yoki ochiq joylashtirish deganda – cheklanmagan doiradagi investorlar orasida joylashtirishdir. Qimmatli qog’ozlarga yopiq obuna, xususiy joylashtirish xam deyiladi. Bunda avvaldan ma’lum bo‘lgan cheklangan doiradagi investorlar o‘rtasida joylashtirish tushiniladi.

O‘zbekistonda quyidagi qimmatli qog’ozlar amal qiladi:

- Aksiyalar;
- Obligatsiyalar;
- Xazina majburiyatlari;
- Depozit sertifikatlari;
- Qimmatli qog’ozlarning hosilalari;
- Veksellar bilan bog’liq operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Bu qimmatli qog’ozlarga turli ma’nolarni anglatib bo‘larga qo‘yidagicha tarif beramiz.

Aksiya-bu boshqa qimmatli qog’ozlardan mutloq farq qilib, aksiya – aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga yuridik yoki jismoniy shaxs muayyan xissa qo‘shganidan guvoxlik beruvchi, aksiya egasining mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini tasdiqlovchi hamda dividend olishda, qoida tariqasida, ushbu jamiyatni boshqarishda qatnashish xukukini beruvchi, amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog’ozlardir.

Obligatsiyalar-esa ularning egasi po‘l mablag’lari berganligini tasdiq etuvchi va qimmatli qog’ozlarni belgilangan qiymatini ularda ko‘rsatilgan muddatda, qayd etilgan foiz to‘langan holda basharti obligatsiyalarni chiqarish shartlarida o‘zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog’ozlardir. Tijorat banklari faqatgina korporativ obligatsiyalarni emissiya faoliyati bilan shug’illanadi.

Depozit sertifikatlari – bu po‘l mablag’lari – omonatga qo‘yilgani to‘g’risidagi, omonatchi yoki uning xuquqiy vorisini belgilangan muddat tugagandan keyin omonat so‘mmasini va unga tegishli foizlarni olishga bo‘lgan xukukini tasdiklovchi bank – emitent guvoxnoma deyiladi. Depozit sertifikatlarini chikarish va ruyxatdan o‘tkazish koidalarini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydi.

Veksel-beruvchining yoxud vekselda ko‘rsatilgan boshka tulovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani tulash yuzasidan qat’iy majburiyatini tasdiklovchi qimmatli qog’oz veksel hisoblanadi.

Qimmatli qogozlarning xosilalari – daromadi (zarari) bir yoki bir necha bozor ko‘rsatkichlari (indekslari) mazmuniga bog’lik bo‘lgan qimmatli qogozlardir. Qimmatli qog’ozlarning hosilalari opsionlar, fyucherslar va boshka moliyaviy vositalar tarzida chiqarilishi mumkin. Opsion-shartnoma bo‘lib, uning egasiga qimmatli qog’ozlarni yoki tovarlarni bitimda qayd etilgan narxda belgilangan muddatda xarid kilish xuquqini beradi. Fyuchers shartnoma bo‘lib, muayyan qimmatli qogozlar va boshka moliyaviy vositalarni yoki tovarlarni shartnomada belgilab ko‘yilgan narxda belgilangan kelgusi sanada xarid kilish yoki sotishdan iborat so‘zsiz majburiyatini tasdiklaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Xazina majburiyatlari – ularni egalari byudjetga po‘l mablag’lari berganliklarini tasdiqlovchi hamda bu qimmatli qogozlarga egalik qilishini butun muddati davomida qayd etilgan daromadni olish xuquqini beruvchi, taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog’ozlar turidir. Xazina majburiyatlarini ko‘yidagi turlari chikariladi: *uzoq muddatli* – besh yil va undan ko‘prok muddatga mo‘ljallangan xazina majburiyatlari; o‘*rtacha muddatli* – bir yildan besh yilgacha muddatga mo‘ljallangan xazina majburiyatlari; *qisqa muddatli* – bir yilgacha bo‘lgan muddatga mo‘ljallangan majburiyatlari. Uzoq muddatli va o‘rta muddatli xazina majburiyatlarini chikarish to‘g’risidagi qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi bilan birga Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi. Xazina majburiyatlarini chikarish to‘g’risidagi qarorlarda daromadlarni hamda majburiyat karzlarini to‘lash shartlari belgilab ko‘yiladi. Tijorat banklari Xazina majburiyatlarini emissiyasini amalga oshirmaydi.

Aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari va qimmatli qog’ozlar hosilalarini rekvizitlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat mo‘lkini boshqarish qo‘mitasi xuzuridagi Bozor kapitalini rivojlantirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Depozit sertifikatlari va

veksellarini rekvizitlari esa O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Qimmatli qog’ozlar egasi yozilgan va taqdim etuvchiga tegishli bo‘lishi mumkin. Egasi yozilgan qimmatli qog’ozni bir mulkdordan ikkinchisiga berish hisob – kitobdagi tegishli yozuvlarni o‘zgartirishda aks etadi.

Har bir tijorat banklari emission faoliyatini amalga oshirishda o‘zining emissiya siyosatini ishlab chiqadi. Ushbu siyosatda emissiya faoliyatini quyidagi starategiyasi va maqsadlari belgilanadi:

- Aksiya chiqarish yo‘li bilan ustav sarmoyasini shakllantirish;
- Aholi omonatlari hajmini ko‘paytirish, Suningdek, bank balansi likividligini saqlab to‘rish maqsadida o‘rtacha hamda uzoq muddatli depozit sertifikatlarini yil davomida uzluksiz chiqarishi;
- Eng kam harajatlar bilan uzoq muddatli, subordinatsiyalangan, aniq maqsadli obligatsiyalar chiqarish orqali (ipoteka va iste’mol kreditlari bo‘yicha ta’minot uchun) qarz mablag’larini jalb etish;
- Moliya vositasini bozor qiymati o‘zgarishidan maksimal daromad olish uchun qimmatli qog’ozlar chayqov operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida xosila qimmatli qog’ozlarni chiqarish.

Emissiya siyosati tarkibida bank chiqaradigan qimmatli qog’ozlarni turlari xillari va muddati aniq ko‘rsatiladi. Emissiya siyosatini strategiyasi va maqsadlaridan kelib chiqib, bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun ho‘jjatlariga muvofiq aksiya, obligatsiyalar va depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog’ozlarni chiqarishi mumkin. Bank aksiyalari emissiyasi asosan egasi ko‘rsatiladigan oddiy aksiyalar va egasi ko‘rsatilmaydigan imtyozli aksiyalarni muomilaga chiqaradi.

Bank aksiyalarini chiqarish protsedurasi qo‘yidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Bankning vakolatli boshqaruv organi qimmatli qog’ozlar chiqarilishi to‘g’risida qaror qabul qilishi.
- Qimmatli qog’ozlarni chiqarishi tug’risida qaror qabul qiladigan bank vakolatli organi tomonidan qimmatli qog’ozlar emissiyasi prospektini tayyorlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirish agentligida qayd etish;
- Qimmatli qog’ozlar nashrini va emissiya prospektini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishish;
- Qimmatli qog’ozlar nashrini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

- Qimmatli qog’ozlar chiqarilganini tasdiqlovchi hujjatlarning asl nushalarini hisobga olish uchun ularni ro‘yxatga oluvchi organ Markaziy depozitariyaga yuborish;
- Qimmatli qog’ozlarni sertifikatlari va blanklarni tayyorlash (naqd qimmatli qog’ozlarni chiqaradigan hollarda);
- Qimmatli qog’ozlar nashri to‘g’risidagi ma’lumotlarni e’lon qilish yo‘li bilan axborotni berish;
- Qimmatli qog’ozlar chiqarish yakunlari to‘g’risida ro‘xatga oluvchi organga hisobot taqdim etish;
- Qimmatli qog’ozlar chiqarish yakunlari to‘g’risidagi axborotni berish.

Bank har yili dividendlar to‘lanishini ta’minlaydi va shu tariqa mazkur moliya vositasini likvidligini tasdiqlaydi. Bank aksiyalari ochiq yoki yopiq obuna yo‘li bilan joylashtiriladi va ularning qay biri qullanilishi bank Ustavida begilanadi. Agar bank Ustavida bu haqida ko‘rsatmalar bo‘lmasa, obuna usulini bankning qimmatli qog’ozlar chiqarish tug’risida qaror qabul qilgan organi belgilaydi.

Aksiyalar ochiq obuna yo‘li bilan joylashtirilganda davlat ro‘yxatida o‘tkazish emissiya prospektini ro‘yxatga olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Aksiyalar yopiq obuna yo‘li bilan joylashtirilganda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish nashr anketasini ro‘yxatga olish bilan amalga oshiriladi. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalar nominal qiymati bank Ustav sarmoyasining 20 foizidan oshmasligi kerak.

Chiqarilgan aksiyalar emissiya prospektida (nashr anketasida):

- Aksiyalarning birinchi nashri muassislar orasida joylashtirilganda – bank davlat ro‘yxatidan o‘tgan vaqtdan boshlab 1 yildan oshmaydigan muddatda;
- Aksiyalarning ikkinchi va keyingi nashrlari – nashr davlat ro‘yxatidan o‘tgan vaqtdan boshlab 1 yildan oshmaydigan muddatda joylashtiriladi;
- Bir yil mobaynida nashr umumiy miqdorini 60 foizidan kam qismi joylashtirilgan taqdirda nashr amalga oshmagan deb hisoblanadi.

Bank obligatsiyalari emissiyasi.

Bank obligatsiyalari – uning egasi pul mablag’larini kiritganligini isbotlovchi hamda unda ko‘rsatilgan muddatda egasiga qimmatli qog’ozni nominal qiymati va foizni to‘lash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog’oz (agar nashr shartlarida boshqa holat nazarda tutilgan bo‘lmasa).

Bank obligatsiyalarini chiqarish to‘g’risida qaror qabul qilingan sanadan o‘z sarmoyasi doirasi miqdorida ularni chiqaradi. Uning o‘z sarmoyasi miqdori auditorlik tashkilotini xulosasi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Bank qimmatli qog’ozlar chiqarish to‘risidagi qarorni Bank Kengashi qabul qiladi.

Bankning ustav sarmoyasini ko‘paytirish maqsadida, Suningdek bank faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq zararlar o‘rnini qoplash uchun obligatsiyalar chiqarishga yo‘l quyilmaydi.

Bank obligatsiyalarini chiqarish protsedurasi qo‘yidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Bank Kengashi obligatsiyalar chiqarish to‘g’risidagi qarorni qabul qilishi;
- Bank Kengashi emissiya prospektini tasdiqlashi;
- Markaziy bankida kelishish;
- Qimmatli qog’ozlar emissisi prospektini yoki nashr anketasini tayyorlash hamda O‘zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligida tasdiqlatish;
- Obligatsiyalar chiqarilanligini tasdiqlovchi hujjatlarni asl nusaxalarini hisobga olish uchun ularni ro‘yxatga oluvchi organ Markaziy depozitariyga yuborishi;
- Obligatsiyalar blankalarini tayyorlash (naqd qimmatli qog’ozlar chiqariladigan hollarda);
- Obligatsiyalar nashri to‘g’risidagi ma’lumotlarni e’lon qilish yo‘li bilan axborotni ochib berish;
- Qimmatli qog’ozlar chiqarish yakunlari to‘g’risida ro‘yxatga oluvchi organga hisobot taqdim etish;
- Qimmatli qog’ozlar chiqarish yakunlari to‘g’risidagi axborotni ochib berish.

Obligatsiyalar chiqarish to‘g’risidagi qaror qimmatli qog’ozlar qancha joylashtirilgan taqdirda nashr amalga oshmagan deb hisoblanishi belgilab quyiladi. Bunday ulush nashr obligatsiyalari umumiy miqdorini 60 foizidan kam qilib belgilanishi mumkin emas. Bunda qimmatli qog’ozlar chiqarilishi to‘g’risidagi qarorda, qimmatli qog’ozlarni belgilangan qismi joylashtirilmay qolib, nashr amalga oshmay qolgan deb topilgan taqdirda obligatsiyalar uchun haq sifatida bank tomonidan olingan mablag’larni qaytarish tartibi nazarda tutiladi.

Bankning depozit va jamg’arma sertifikatlari emissiyasi: Depozit sertifikati – pul mablag’lari qo‘yilgani to‘g’risida bank bergan guvohnoma bo‘lib, bunday sertifikat omonatchi yoki uning vorisi belgilangan muddat tugagandan keyin depozit so‘mmasini va uning foizlarini olish huquqiga egaligini tasdiqlaydi.

Sertifikatlar ikki turda chiqarilishi mumkin:

- “Depozit sertifikatlari” – yuridik shaxslar uchun;
- “Depozit (jamg’arma) sertifikatlari” jismoniy shaxslar uchun.

Depozit jamg’arma sertifikatlari sotilgan tovarlar va kursatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob yoki to‘lov vositasi bo‘lib xizmat qila olmaydi. Bank sertifikatlari O‘zbekiston Respublikasining birja va birjadan tashqari qimmatli qog’ozlar bozorida oldi-sotdi ob’ekti bo‘lishi, egasi ko‘rsatilmaydigan sertifikatlar ularni oddiy topshirishi yo‘li bilan boshqa shaxsga berilishi mumkin. Bu holat mazkur qimmatli qog’ozning yuksak darajadagi likvidliligini qayta-qayta isbotlaydi. Bank Kengashi boshqaruv tayyorlagan, emissiyani iqtisodiy asosnomasi, muddatlari, foiz stavkalari va boshqa ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oluvchi emissiya xujjatlari asosida depozit, jamg’arma sertifikatlarini chiqarish to‘g’risida qaror qabul qiladi, Suningdek yuqorida aytilgan talablar asosida depozit sertifikatlarini chiqarish, ular muomalada bo‘lishi va so‘ndirilishi shartlari ishlab chiqiladi. Bu shartlarni o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tasdiqlaydi. Depozit sertifikatilari bank kattaroq foyda me’yorini taklif etish yo‘li bilan mustaqil ravishda jalb etishi mumkin bo‘lgan boshqariladigan passivlar hisoblanadi. Bank depozit, jamg’arma sertifikatlarini bir martalik tartibda ham turkumlar bo‘yicha ham hoh naqdsiz, xoh naqd shaklda chiqarishi mumkin.

Banklarni qimmatli qog’ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish bilan bog’liq operatsiyalarini ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga, tijorat banklari ustav va qo‘shimcha kapitalini shakllantirish maqsadida aksiya va subordinar qimmatli qog’ozlarni muomalaga chiqarish bo‘yicha operatsiyalari, ikkinchi guruhga esa qisqa va uzoq muddatli resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qoplash uchun obligatsiya va ipoteka qimmatli qog’ozlari, depozit va jamg’arma sertifikatlari bilan bog’liq operatsiyalari kiradi.

Aksiya obligatsiya va sertifikatlarni bozor bahosi banklarni ushbu bozordagi faoliyatini baholovchi iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Tijorat banklari aksiyalari va sertifikatlarni bozor bahosi ortib borishi ularning oldi–sotdisiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pchilik hollarda tijorat banklari o‘z aksiyalari va sertifikatlarini ikkilamchi qimmatli qog’ozlar bozoridagi bahosini oshirish maqsadida investitsion kompaniyalar orqali investor sifatida ham maydonga chiqishi mumkin.

Tijorat banklari aksiyalari va sertifikatlarni bozor bahosi moliya bozoridagi mavjud talab va taklif asosida o‘rnatiladi. Aksiya va sertifikatlarni nominal va bozor bahosi o‘rtasidagi farq ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Agar ushbu farq ijobiy bo‘lsa, tijorat banklari moliyaviy jihatdan barqaror va raqobatbardosh ekanligidan dalolat beradi. Mazkur holat banklarning qimmatli qog’ozlar orqali resurslarini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklari emitent sifatida quyidagi qimmatli qog’ozlarni muomalaga chiqaradi:

1. Emission qimmatli qog’ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar, opsionlar);
2. Noemission qimmatli qog’ozlar (depozit sertifikatlari, jamg’arma sertifikatlari).

Qimmatli qog’ozlarni emissiya qilish 5 bosqichdan iborat:

1. Qimmatli qog’ozlarni joylashtirish to‘g’risidagi qarorni qabul qilish;
2. Qimmatli qog’ozlarni chiqarish to‘g’risidagi qarorni tasdiqlash;
3. Chiqarilgan qimmatli qog’ozlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;
4. Qimmatli qog’ozlarni joylashtirish;
5. Qimmatli qog’ozlarni chiqarish yakunlari to‘g’risidagi hisobotni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.

Tijorat banklariga qimmatli qog’ozlarni chiqarishga ruxsat beradigan organlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki;
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi kapital bozorni rivojlantirish agentligi.

Tijorat banklari ustav kapitalini shakllantirish uchun oddiy va imtiyozli aksiyalarni muomalaga chiqaradi.

Bankning barcha aksiyalari tartib raqami va chiqarilgan vaqtidan qat’iy nazar bir xil nominal qiymatga ega bo‘lishi shart.

Muomalaga chiqarilgan aksiyalar to‘liq sotib bo‘linmagunga qadar yangi aksiyalarni muomalaga chiqarishga ruxsat etilmaydi.

Qimmatli qog’ozlar prospekti bank Boshqaruvi tomonidan tayyorlanadi va Boshqaruv raisi va Bosh buxgalter tomonidan imzolanadi.

Qimmatli qog’ozlar prospektida quyidagi ma’lumotlarni bo‘lishi shart:

1. Emitent to‘g’risidagi ma’lumotlar;
2. Emitentning moliyaviy holati to‘g’risidagi ma’lumotlar;
3. Qimmatli qog’ozlarni oldingi emissiyasi to‘g’risidagi ma’lumotlar.

Sessiya – sertifikat bo‘yicha talab qilib olish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish.

Sedent – sertifikat bo‘yicha talab qilib olish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechayotgan tomon.

Sessionariy – sertifikat bo‘yicha talab qilib olish huquqini oluvchi tomon.

10.3. Tijorat banklarining emission operatsiyalarini boshqarish usullari

Tijorat banklarining emission operatsiyalarini boshqarishda ta’sir etish nuqtai nazaridan quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Ma’muriy usullar.
2. Iqtisodiy usullar.

Ma’muriy usullarga quyidagilar kiradi:

* emission operatsiyalarni rejalashtirish;
* emission operatsiyalarni amalga oshirish siyosati, qoidaalri va me’yorlarini o‘zida aks ettirgan ichki bank hujjatlarini ishlab chiqish.

Emission operatsiyalarni boshqarish usullaridan foydalanish samaradorligini ta’minlashning zaruriy shartlaridan biri bo‘lib, qimmatli qog’ozlarni joylashtirishda risk va daromad darajalarini to‘g’ri baholash imkonini beradigan ishonchli ma’lumotlarni mavjudligi hisoblanadi.

Emission operatsiyalarni boshqarish usullari quyidagilarga bo‘linadi:

* analitik usullar;
* spetsifik usullar;
* marketing usullari.

Analitik metodlar emission operatsiyalar bilan bog’liq bo‘lgan tendensiyalar va muammolarni aniqlash imkonini beradi. O‘z navbatida, analitik metodlarga quyidagilar kiradi:

– guruhlash usuli;
– qiyosiy tahlil usuli;
– tarkibiy tahlil usuli;
– trendli tahlil usuli.

Spetsifik usullar emission operatsiyalar bilan risklarni kamaytirish, bankning resurs bazasini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Marketing usullari quyidagilardan iborat:

* mijozlarni turli toifalari bo‘yicha turkumlash;
* mijozlarning kartotekasini yaratish;
* emission bank xizmatlari bozorini monitoring qilish;
* emission bank xizmatlarini reklama qilish;
* bank qimmatli qog’ozlarini investitsion jozibadorligini ta’minlash.

Jahon banki ekspertlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari ko‘rsatdiki, tijorat banklari daromadlarini 80 foizini mijozlarni 40 foizini tashkil qiluvchi guruh beradi. Qolgan 20 foiz bank daromadini yana 40% mijozlar beradi. Qolgan 20% mijoz bankka hech qanday daromad keltirmaydi. Shu sababli, tijorat banklarining emission operatsiyalarini amalga oshirishda birinchi toifaga kiruvchi 40% mijozning hohish-istaklarini, emission bank xizmatlariga bo‘lgan talablarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari xarajatlarini asosiy qismini resurslar jalb qilish bilan bog’liq bo‘lganligi sababli resurslarni o‘rtacha qiymatini aniqlash va uning o‘zgarishiga baho berish tijorat bankini moliyaviy barqarorligini ta’minlash nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonno ATB “Aloqabank” misolida ko‘rish mumkin:

Aksiyadorlik-tijorat «Aloqabank» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-oktyabrdagi 502-sonli Qaroriga asosan O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi korxonalari hamda kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini iqtisodiy qo‘llab-quvatlash maqsadida tashkil qilingan.

AT «Aloqabank» universal-tijorat bank sifatida:

• 1995-yil 22-mart O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 48-sonli bank amaliyotlarini amalga oshirish litsenziyasi (2004-yil 13-avgustda 48- sonli litsenziyaga almashtirilgan);

• 1996-yil 21-avgust O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 38-sonli xorijiy valyutada amaliyotlarni amalga oshirish haqidagi Bosh litsenziyasi (2005-yil 29-yanvarda 7-sonli litsenziyaga almashtirilgan) asosida faoliyat ko‘rsatmoqda. AT «Aloqabank»:

• O‘zbekiston Respublikasi banklar assotsiatsiyasi a’zosi;

• O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasi a’zosi;

• «Aholining banklardagi omonatlarini kafolatlash» jamg’armasi qatnashchisi;

• «Toshkent» Respublika-Fond Birjasi qatnashchisi;

• O‘zbekiston umumdavlat to‘lov tizimining a’zosi;

• SWIFT xalqaro to‘lov tizimi a’zosi;

Bank auditori – Deloitte & Touche LLS. Bankning Toshkent shahrida, Qoraqalpog’iston Respublikasida va viloyat markazlarida 12 ta filiali, 27 ta minibanki, 39 ta jamg’arma kassalari, 21 ta «Western Union», «Coinstar» va «Blizko» xalqaro pul o‘tkazish hamda 35 ta valyuta ayirboshlash shoxobchalari mijozlarga keng turdagi bank xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda. Hisobot davriga AT «Aloqabank»ning jami aksiyadorlari soni 3 517 tadan iborat bo‘lib, ularning 601 tasi yuridik va 2 916 tasi jismoniy shaxslarni tashkil etdi.

Bank aktivlari 2008-yil 1-yanvar holatiga bank aktivlari 103 747,8 mln. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (51 915,8 mln. so‘m) nisbatan 51 832,0 mln. so‘mga yoki 99,8 foizga o‘sdi. Bank aktivlari, asosan mijozlar bazasining kengayi- shi va ularning muddatli va talab qilib olinguncha hisob raqamlaridagi qoldiqlarning muntazam ravishda ko‘payib borishi hamda bank kapitallashuv darajasining oshishi evaziga o‘sib bordi. Hisobot sanasiga yuridik shaxslar hisob raqamlaridagi resurslar qoldig’i 53 963,4 mln. so‘mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan qariyb ikki barobarga, aholi omo- natlari qoldig’i 11 102,1mln.so‘mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 43,0 foizga o‘sdi.

Bank aktivlarini boshqarishda kelgusidagi strategik yo‘nalishlarni belgilash orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, likvidlik va daromadlilikning eng maqbul darajasiga erishish hamda bank tavakkalchiliklarini oqilona boshqarishga rioya qilib kelindi. Daromad keltiruvchi aktivlarning bank umumiy balansidagi ulushini oshirib borish tadbirlari izchil olib borildi. Natijada, hisobot sanasiga daromad keltiruvchi aktivlar miqdori 87 730,8 mln. so‘m bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga (35 059,8 mln.so‘m) nisbatan 52 671,0 mln. so‘mga yoki 150,2 foizga o‘sib, jami aktivlardagi salmog’i 84,6 foizni tashkil etdi.

Kapital Bankning kapitallashuv darajasini yanada oshirish, aholi, tadbirkorlik sub’ektlari va investorlarning bo‘sh pul mablag’larini jalb qilish uchun qo‘shimcha aksiyalar chiqarish va ularni fond bozorlarida faol joylashtirish asosiy ustuvor vazifalardan birini tashkil etdi.

2008-yilning 1-yanvar holatiga AT «Aloqabank» aksiyadorlarining 2007-yil 25-maydagi umumiy yig'ilishi qarori bilan e'lon qilingan 6,0 mlrd. so‘mlik aksiyalarning 2 633,5 mln. so‘mi yoki 43,9 foizi joylashtirildi va bank ustav kapitali 10 633,5 mln. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (6 873,7 mln. so‘m) nisbatan 3 759,8 mln. so‘mga yoki 54,7 foizga o‘sdi. 2007-yildan boshlab bank aksiyalari «Toshkent» Respublika Fond Birjasi listinggining oliy «A» toifasiga kiritildi. Hisobot sanasiga bank kapitali 14 620,4 mln. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (9 015,0 mln. so‘m) nisbatan 5 605,4 mln. so‘mga yoki 62,2 foizga o‘sdi.

Kredit faoliyati Mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror sur'atlar bilan o‘sishi, makroiqtisodiy mutanosiblikning ta'minlanganligi, bank aktivlari va kapitallashuv darajasining oshishi natijasidagi imkoniyatlar, resurslar bazasidan samarali foydalanish bank boshqaruvidan kredit siyosatini qayta ko‘rib chiqishni taqazo etdi. Hisobot davrida bank aktivlarining 50 140,0 mln. so‘mi yoki 48,3 foizi kredit qo‘yilmalari hissasiga to‘g'ri keldi. Xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga ajratilgan kreditlar qoldig'i o‘tgan yilning shu davriga (22 536,6 mln. so‘m) nisbatan 27 603,4 mln. so‘mga yoki 122,5 foizga o‘sdi. 2007 yil davomida bank tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga jami 61 931,9 mln. so‘m miqdorida kreditlar ajratildi.

Bank tomonidan investitsiya jarayonlarida, iqtiso- diyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashda keng ishtirok etishni ta'minlash maqsadida ajratilgan kreditlar qoldig'i hisobot sanasida 39 388,5 mln. so‘mni yoki jami kredit portfelining 78,6 foizini tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 23-yanvardagi «O‘zbektelekom» Aksiyadorlik Kompaniyasi telekommunikatsiya tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish to‘g'risida»gi PQ-572-sonli qarori talablarini bajarish maqsadida loyihalarni texnik tomondan ta'minlash va moliyalashtirish borasida olib borilgan ishlar natijasida Xitoy Taraqqiyot Banki, «O‘zbektelekom» AKsi, AT «Aloqabank» va «Huawei Technologies» CO. Ltd. (Xitoy) kompaniyalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik qilish to‘g'risida kelishuv imzolandi. Kelishuvga asosan Xitoy Taraqqiyot Bankining 15,5 mln. AQSH dollari miqdoridagi xorijiy kredit liniyasi davlat kafolatisiz jalb qilinib, jami 18,3 mln. AQSH dollari miqdoridagi shartnomaning qolgan 15 foizi AT «Aloqabank» shaxsiy mablag'lari hisobidan moliyalashtirilib, hisobot

sanasiga «O‘zbektelekom» AKsiga ushbu loyiha doirasida 16,3 mln. AQSH dollari yoki 21 088,7 mln. so‘mlik uskuna sotib olish bo‘yicha lizing xizmati ko‘rsatildi.

Kredit portfeli muddatlari bo‘yicha:

• qisqa muddatli kreditlar — 10 318,6 mln. so‘m yoki umumiy qo‘yilmalardagi ulushi 20,6 foizni;

• uzoq muddatli kredit qo‘yilmalar — 39 821,4 mln. so‘m yoki umumiy qo‘yilmalardagi ulushi 79,4 foizni tashkil etdi.[81]

10.4. Tijorat banklari depozitlarining zarurligi va banklar faoliyatida tutgan o‘rni

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag’larini bankga jalb qilish bilan bog’liq operatsiyalar depozit operatsiyalari deyiladi. Depozit operatsiyalari yordamida tijorat banklarning 90 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari o‘zlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchars bog’liq bo‘lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta’minlashga qaratilgandir. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining ob’ekt va sub’ektini aniqlash lozim.

Depozit operatsiyalarni subektlari bo‘lib bir tomondan tijorat banklari qatnashsa, ikkinchi tomondan:

- davlat korxona va tashkilotlari;
- moliya, sug’urta, investitsion va trast kompaniyalar;
- xususiy korxona va tashkilotlar;
- aksioner kompaniyalar;
- banklar va boshqa kredit muassasalari;
- qo‘shma korxonalar, kooperativlar;
- jamoa tashkilotlari va fondlar;
- alohida jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmalari qatnashadilar.

Depozit operatsiyalarini obekti bo‘lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag’lari (qo‘yilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi bo‘lib, balans likvidliligi, mijozlarning moliyaviy

[81] https://bank.uz/news/text1709_aloqabank_faoliyatiga_bir_nazar

ahvolini barqarorligi hisoblanadi. Depozit operatsiyalari tijorat banklarini depozit siyosatini amalga oshirish orqali ta’minlanadi, ya’ni:

- depozit operatsiyalari bank daromadini oshishga yoki kelajakda daromad olishga sharoit yaratishi kerak;
- bank balansini likvidliligini saqlash maqsadida depozit siyosatini amalga oshirish kerak;
- depozit operatsiyalarini amalga oshirishda muddatli qo‘yilmalarga e’tibor qaratish lozim;
- depozitlarni jalb qilish va ularni vaqtida qaytarib berish bilan bog’liq bank xizmatlarini rivojlantirish choralarini ko‘rish zarur va boshqalar.

Pul qo‘yuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda depozitlar quyidagilarga bo‘linadi:

1. Yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar) qo‘yilmalari;
2. Jismoniy shaxslar qo‘yilmalari.

Mablag’larni olish shakliga ko‘ra depozitlar quyidagilarga bo‘linadi:

- muddatli depozit mablag’lar;
- talab qilib olingunga qadar depozit mablag’lar;
- aholining jamg’arma qo‘yilmalari.

O‘z navbatida bu guruhlarning har biri turli belgilariga qarab tasniflanadi. Muddatli depozit mablag’lar ularning muddatidan kelib chiqib:

- 3 oy muddatgacha depozitlar;
- 3 oydan 6 oygacha depozitlar;
- 6 oydan 9 oygacha depozitlar;
- 9 oydan 12 oygacha depozitlar;
- 12 oydan yuqori bo‘lgan depozit mablag’lariga tasniflanadi.

YUridik va jismoniy shaxslar o‘zlariga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko‘rsatish uchun banklarni mustaqil ravishda tanlaydilar hamda bir yoki bir necha banklarda milliy va xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar hamda depozit hisobvaraqlarning boshqa turlarini ochish huquqiga egalar.

Mijoz tomonidan har qanday hisobvaraq ochilayotganda bank hisobvarag’iga xizmat ko‘rsatish shartnomasi tuziladi.

Bank hisobvarag’i shartnomasi bo‘yicha yuzaga keladigan munosabatlar Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektni birinchi marta milliy valyutada ochgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag’i uning asosiy hisobvarag’i hisoblanadi.

Mijozlar qonunchilik asosida bir yoki bir necha banklarda ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochishlari mumkin.

Byudjet muassasalariga hisobvaraqlar respublika yoki mahalliy byudjetlar hisobidan ajratiladigan mablag’larni kirim qilish va shu mablag’lardan foydalanish uchun ochiladi. Bundan tashqari, byudjetdan tashqari mablag’lar uchun talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochilishi mumkin. Byudjet tashkilotlariga jamg’arma va muddatli hisobvaraqlar faqat byudjetdan tashqari mablag’larni saqlash uchun ochiladi. Respublika va mahalliy byudjetlar hisobidan mablag’lar ajratiladigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga har bir byudjet bo‘yicha alohida hisobvaraqlar ochiladi. Mijozlar tomonidan hisobvaraqlar ochish uchun bankka ushbu yo‘riqnomada ko‘zda tutilgan zaruriy hujjatlar taqdim qilingan kundan boshlab, banklar ikki bank ish kuni mobaynida ularga hisobvaraqlar ochishlari shart. Hisobvaraqlarning egalari hisobvaraq ochish uchun taqdim qilingan hujjatlarning haqiqiyligi bo‘yicha javobgardirlar. Tadbirkorlik sub’ektlari uchun, banklarda ochiladigan hisobvaraqlar uchun to‘lov miqdori eng kam oylik ish haqining bir karrasidan oshmasligi lozim. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga hisobvaraqlar ochilgandan keyin, banklar keyingi ish kunidan kechiktirmay, hisobvaraqlar ochilganligi to‘g’risida tegishli soliq organiga yozma ravishda xabar berishlari shart.

Mijozlarning (tadbirkorlik faoliyati bilan Shug’ullanmaydigan jismoniy shaxslardan tashqari) hisobvaraq ochish uchun asos bo‘lgan hujjatlari, bank hisobvarag’iga xizmat ko‘rsatish shartnomasi, Suningdek unga qilingan o‘zgartirishlar, mijozning manzili o‘zgarganligi to‘g’risidagi bankka bergan xati va nomi o‘zgarganligini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi mijozning alohida jildi (yuridik yig’majildi)da saqlanadi.

Tadbirkorlik sub’ektlari (yuridik shaxsni tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda faoliyat ko‘rsatadigan) tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) hisobvaraq ochish to‘g’risida ariza;

b) davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g’risidagi guvohnomaning nusxasi;

v) imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan varaqcha.

Tadbirkorlik sub’ekti bo‘lmagan rezident yuridik shaxslar, jumladan byudjet tashkilotlari tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) hisobvaraq ochish to‘g’risida ariza

b) soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to‘g’risidagi guvohnomaning nusxasi;

v) imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan varaqcha

Yuridik shaxsning tarkibiy bo‘linmalari (vakolatxonalari, filiallari)ga talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ushbu yuridik shaxsning iltimosnomasi bo‘yicha (iltimosnomada yuridik shaxsning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami ko‘rsatiladi) hisobvaraq ochish to‘g’risida ariza hamda imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan varaqcha taqdim etilganda ochiladi.

O‘z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirmoqchi bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat ro‘yxatidan o‘tgunlariga qadar ta’sischilar (ishtirokchilar)ning dastlabki badallarini kiritish uchun milliy va/yoki xorijiy valyutada vaqtinchalik (mablag’ yig’ish uchun) talab qilib olinguncha hisobvaraq ochilishi mumkin.

Vaqtinchalik hisobvaraq ochish uchun vakolatli shaxs bankka ta’sischi (ishtirokchi)lar nomidan ixtiyoriy shaklda hisobvaraq ochish to‘g’risida ariza taqdim qiladi.

Rezident va norezident jismoniy shaxslar tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochish uchun bankka hisobvaraq ochish to‘g’risida ariza hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki unga tenglashtirilgan hujjatlar) taqdim qilinadi. Hujjatdagi ma’lumotlar hisobvaraq ochish to‘g’risidagi arizaga yoziladi.

10.5. Tijorat banklari depozit bazasining etarliligi, uni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va uni boshqarish

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari depozit bazasining etarliligini aniqlashda ikki usuldan keng foydalanilmoqda. Birinchi usul Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda tijorat banklari depozit bazasining etarliligi (DBE) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$DBE \quad \frac{TD}{TD+JD+MD} \quad 100\%$$

Bu erda:

TD – transaksion depozitlar;

JD – jamg’arma depozitlari;

MD – muddatli depozitlar.

XTTB ekspertlarining tavsiyasiga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkichning eng yuqori chegarasi 30 foizni tashkil etishi lozim. Agar uning amaldagi darajasi 30 foizdan yuqori bo‘lsa, u holda, ushbu tijorat bankining depozit bazasi etarli emas, deb hisoblanadi.

XTTB ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan usulda transaksion depozitlarning barqaror qoldig’i tijorat banklari depozit bazasining etarliligini aniqlashda hisobga olinmagan.

Hozirgi davrda dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini inspeksion tekshirishda “CAMEL” reyting tizimidan keng foydalanilmoqda. Ushbu tizimda tijorat banklari depozit bazasining barqarorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$DBE \quad \frac{\text{Asosiy depozitlar}}{\text{Depozitlar jami}} \quad 100\%$$

Mazkur ko‘rsatkichning amaldagi darajasi 75 foizdan past bo‘lmagan taqdirdagina tijorat bankining depozit bazasi etarli hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, tijorat banklari depozitlarining umumiy hajmida asosiy depozitlarning salmog’i kamida 75 foizni tashkil etishi lozim.

“CAMEL” reyting tizimida asosiy depozitlar deganda depozitlarning bankni tark etmaydigan qismi tuShuniladi. Shu jihatdan olganda, asosiy depozitlar har uch turdagi depozitlar – transaksion depozitlar, muddatli depozitlar va jamg’arma depozitlarining barqaror qoldig’ini o‘z ichiga oladi.

“CAMEL” reyting tizimidagi depozit bazasining etarliligini baholash usuli XTTBning baholash usuliga nisbatan mukammalroq hisoblanadi. YA’ni, birinchidan, transaksion depozitlarning barqaror qoldig’i hisobga olinmoqda. Bu esa, juda muhim, chunki transaksion depozitlarning barqaror qoldig’idan foydalanilganda tijorat banklarining likvidliligiga nisbatan jiddiy xavf yuzaga kelmaydi; ikkinchidan, jamg’arma depozitlarining barqaror qoldig’igina asosiy depozit sifatida

e’tirof etilmoqda. Holbuki, jamg’arma depozitlarining ma’lum qismi nobarqaror passiv hisoblanadi. Ular transaksion depozitlardan bankni ma’lum muddat oldindan ogohlantirish yo‘li bilan olinishi jihatidan farq qiladi.

Tijorat banklari depozit bazasining etarliligini baholashda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan jihatlardan biri, fikrimizcha, o‘zida ham transaksion depozit hisobraqamini, ham muddatli depozit hisobraqamini namoyon etayotgan yangi hisobraqamlarining paydo bo‘layotganligi hisoblanadi. Masalan, AQShdagi “NAU” hisobraqamlari ana Shunday yangi turdagi hisobraqami hisoblanadi. Unga bozor stavkalarida foiz to‘lanadi. Shu bilan birga, mazkur hisobraqamlar o‘zida transaksion depozit hisobraqamlariga xos bo‘lgan xususiyatni ham ifoda etadi: ularning qoldig’iga to‘lov hujjatlarini yozishga ruxsat etiladi.

“NAU” hisobraqamlarining qoldig’i barqarorligi jihatidan transaksion depozitlarni barqaror qoldig’idan qolishmaydi. Shu sababli, ularni qoldig’ini tijorat banki depozit bazasini barqarorligini aniqlashda hisobga olish lozim deb hisoblaymiz.



10.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlari, trln. so‘m. (2017 yil 59.6 trln so‘m, 2018-yil 70.0 trln so‘m, 2019-yil 63,9 trln so‘m)[82]

10.3-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2012-2019-yillarda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlari miqdori o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, banklarning resurs bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

[82] O‘R MB rasmiy sayti ma’lumotlari asosida (www.cbu.uz).

Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo‘lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo‘yilgan mablag’larga daromad olish mijozlarning qo‘yilma qo‘yishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Depozit foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o‘zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit schetlarining alohida ko‘rinishlari bo‘yicha daromad hajmi qo‘yilma muddati, summasi, hisobvarag’ini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi, xarakteri va nihoyat, mijozning qo‘yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog’liq.

Talab qilingungacha bo‘lgan depozitlar bo‘yicha hisobvaraqalari egalari tomonidan joriy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi va ular qoldiqning nomuntazamligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bunday schetlar guruhi daromadlik darajasi bilan ajralib turadi. Yuridik shaxslarga ochilgan talab qilinguncha hisobvaraqalaridagi mablag’lar qoldig’i bo‘yicha foizlar umuman to‘lanmasligi mumkin. Bunday foyda, odatda, mijozlarni hisob kassa xizmatlari uchun to‘lov mablag’larini talab qilinguncha hisobvaraqalarda mablag’larni minimallashtirish va ortiqcha summalarni qo‘yilmalarning daromadliroq shakllariga joylashtirishga undaydi.

Jismoniy shaxslar uchun ochilgan talab qilinguncha varaqalar bo‘yicha foizlar deyarli majburiy tartibda o‘rnatiladi, ammo u bo‘yicha daromad hamisha muddatli qo‘yilmalarga qaraganda pastroq bo‘ladi. Muddatli qo‘yilmalar bo‘yicha foiz stavkasi hajmini o‘rnatishdagi muhim omil bo‘lib, mablag’lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi.

Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidliligi nuqtai nazaridan tijorat banklarining ular tomonidan jalb qilingan mablag’lardan foydalanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi.

Nazariy jihatdan zamonaviy bank tizimida naqd pulsiz aylanishlarning rivojalanishi natijasida dastlabki shakllantirilgan depozitlarni (dastlabki yoki real depozitlar Markaziy bank tomonidan chiqarilgan naqd pullar asosida shakllanganlikni taqozo qiladi) cheklanmagan tarzda bir bankdan ikkinchi bankka o‘tkazish, Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarni cheksiz oshirish imkoniyati mavjud. Xorijiy nazariyada bu jarayon depozit

multiplikatsiyasi (ya’ni mablag’larning bir bankdan boshqasiga zanjirsimon shaklda o‘tkazilishi) va kredit ekspansiyasi deb nom olgan.

Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan majburiy zaxira talablari bank tizimida depozit va kreditlarni oshirishning bevosita cheklovchisi bo‘lib xizmat qiladi.

“A” bankdagi dastlabki depozit 1000 birlikning 20%i (200 birlik) majburiy zaxira sifatida Markaziy bankka o‘tkazilgandan keyin tijorat bankining kredit berish imkoniyati 800 birlikni tashkil qiladi. Bu kredit mijozga berilgandan keyin boshqa bank depozitiga aylanishi mumkin. Masalan. Ushbu berilgan kredit summasi “B” bankning mijozi bo‘lgan mahsulot etkazib beruvchining hisobvarag’iga sotuvdan tushum shaklda kelib tushadi. “A” bankning krediti “B” bankda depozitni vujudga keltiradi. “B” bank bu depozitdan kredit beradigan bo‘lsa, majburiy zaxirani hisobga olgan holda (800*20/100) uning miqdori 640 (800-160) birlikka teng bo‘ladi. Ushbu jarayonni oxirigacha (ya’ni depozit va kreditlarning to‘liq ishlatilishigacha) tasavvur qiladigan bo‘lsak, 1000 birlik shakllantirilgan dastlabki depozit miqdori, majburiy zaxira darajasi 20% bo‘lganda barcha banklar bo‘yicha 5000 birlikkacha, 800 birlikka teng bo‘lgan dastlabki kredit miqdori esa 4000 birlikka o‘sishi mumkin.

Agar majburiy zaxira yo‘q deb taxmin qilinsa nazariy jihatdan depozit mul’tiplikatsiyasi va kredit ekspansiyasi cheksizlikka teng va teskarisi, majburiy zahira 100% bo‘lgan taqdirda depozit multiplikatsiyasi 0 ga teng bo‘ladi.

Depozit (yoki kredit) multiplikatsiyasining maksimal miqdori yoki chegarasini hisoblash uchun quyidagi matematik formuladan foydalaniladi.

$$D=D_0*1/R$$

Bundan:

D─bank tizimida shakllantirilishi mumkin bo‘lgan depozitning maksimal miqdori;

D_0─dastalabki depozit;

R─depozit birligiga teng keladigan likvidlik zahirasi.

Yuqorida keltirilgan misolimizda depozit mul’tiplikatsiyasi koeffitsenti 5 yoki 5000 birlikka (D=1000*(1/0,2)), kredit mul’tiplikatsiyasi koeffitsenti esa 4 yoki 4000 birlik (K=800*(1/0.2)ka teng.

Multiplikatsiya darajasi majburiy zaxira darajasiga teskari mutanosib ravishda o‘zgaradi, demak majburiy zahira darajasi oshsa, bank tizimining kredit salohiyati imkoniyatlari ham kamayadi.

Depozit multiplikatsiyasi va kredit ekspansiyasi g’oyasi quyidagi iqtisodiy zaruriyatni keltirib chiqaradi: har qanday tijorat banki depozitlarni qabul qila turib, o‘z mijozlari oldidagi majburiyatlarini bajarishlari uchun uning ma’lum bir qismini likvidlik zahirasi sifatida saqlashlari lozim. Shu bois tijorat banklarini kredit berish salohiyati miqdori bank tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar, majburiy zahira hajmiga bog’liq. Kredit potensiali (salohiyati) miqdori (Ks)ni qisqacha holda quyidagi formula bilan ifodalash mumkin.

Ks=D-Mz-Lz

Bu erda:

D─jalb qilingan mablag’lar;

Mz─majburiy zahira miqdori;

Lz─likvidlikni ta’minlash bo‘yicha zahiralar.

Shunday qilib tijorat banklarini kredit salohiyatiga:

- bankka jalb qilingan mablag’larni umumiy miqdori;
- Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan majburiy zahira darajasi;
- joriy likvidlilikni saqlash maqsadida tashkil qilingan zahira va undan foydalanish tartibi;
- kredit salohiyati manbalarining tarkibi va barqarorligi;
- bank majburiyatlarining tarkibi va umumiy miqdori kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklarining depozit operatsiyalarini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Ma’muriy usullar.
2. Iqtisodiy usullar.

Ma’muriy usullarga quyidagilar kiradi:

* depozit operatsiyalarni rejalashtirish;

* depozit operatsiyalarni amalga oshirish siyosati, qoidalari va me’yorlarini o‘zida aks ettirgan ichki bank hujjatlarini ishlab chiqish.

Depozit operatsiyalarni boshqarish usullaridan foydalanish samaradorligini ta’minlashning zaruriy shartlaridan biri bo‘lib, depozitlar jalb qilish va ularni aktivlarga joylashtirishda risk va

daromad darajalarini to‘g’ri baholash imkonini beradigan ishonchli ma’lumotlarning mavjudligi hisoblanadi.

Depozit operatsiyalarni boshqarish usullari quyidagilarga bo‘linadi:

* analitik usullar;
* spetsifik usullar;
* marketing usullari.

Analitik metodlar depozitlar jalb qilish bilan bog’liq bo‘lgan tendensiyalar va muammolarni aniqlash imkonini beradi. O‘z navbatida, analitik metodlarga quyidagilar kiradi:

- guruhlash usuli;
- qiyosiy tahlil usuli;
- tarkibiy tahlil usuli;
- trendli tahlil usuli.

Spetsifik usullar depozit operatsiyalar bilan bog’liq bo‘lgan risklarni kamaytirish, bankning resurs bazasini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Marketing usullari quyidagilardan iborat:

* mijozlarni turli toifalari bo‘yicha turkumlash;
* mijozlarning kartotekasini yaratish;
* depozit xizmatlari bozorini monitoring qilish;
* depozit xizmatlarini reklama qilish;
* depozitlarning barqarorligini ta’minlash.

Qisqacha xulosalar

Xalqaro bank amaliyotida banklarni depozit bo‘lmagan resurslari tarkibida yirik manbalardan biri qimmatli qog’ozlar hisoblanadi.

Banklar moliyaviy resurslarni shakllantirish maqsadida aksiya, obligatsiya, depozit va jamg’arma sertifikatlarni muomalaga chiqaradi. Suningdek, tijorat banklari uzoq muddatli resurslarini shakllantirishda ipoteka va subordinar qimmatli qog’ozlari muhim o‘rin tutadi.

Tijorat banklari aksiyalari, obligatsiyalari va sertifikatlarni bozor bahosi moliya bozoridagi mavjud talab va taklif asosida o‘rnatiladi. Aksiya va sertifikatlarni nominal va bozor bahosi o‘rtasidagi farq ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Agar ushbu farq ijobiy bo‘lsa, tijorat banklari moliyaviy jihatdan barqaror va raqobatbardosh ekanligidan dalolat beradi. Mazkur holat banklarni qimmatli qog’ozlar orqali resurslarini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklari aksiya, obligatsiya va sertifikatlarini bahosiga ta’sir qiladigan asosiy omillardan biri ularga to‘lanadigan dividend

miqdori va foiz to‘lovlari hisoblanadi. Aksiya, obligatsiyalar va sertifikatlarga to‘lanadigan to‘lovlar miqdorini yuqoriligi va barqarorligi banklarni qimmatli qog’ozlar bozoridagi emitent nufuzini oshirishga bevosita ta’sir qiladi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida Aksiya, obligatsiyalar va sertifikatlarning bozor bahosi banklarning ushbu bozordagi faoliyatini baholovchi iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari depozit bazasining etarliligini aniqlashda ikki usuldan keng foydalanilmoqda. Birinchi usul Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan.

XTTB ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan usulda transaksion depozitlarning barqaror qoldig’i tijorat banklari depozit bazasining etarliligini aniqlashda hisobga olinmagan.

Hozirgi davrda dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari depozit faoliyatini inspeksion tekshirishda “CAMEL” reyting tizimidan keng foydalanilmoqda.

“CAMEL” reyting tizimida asosiy depozitlar deganda depozitlarning bankni tark etmaydigan qismi tushuniladi. Shu jihatdan olganda, asosiy depozitlar har uch turdagi depozitlar – transaksion depozitlar, muddatli depozitlar va jamg’arma depozitlarining barqaror qoldig’ini o‘z ichiga oladi.

“CAMEL” reyting tizimidagi depozit bazasining etarliligini baholash usuli XTTBning baholash usuliga nisbatan mukammalroq hisoblanadi. Birinchidan, transaksion depozitlarning barqaror qoldig’i hisobga olinmoqda, ikkinchidan, jamg’arma depozitlarining barqaror qoldig’igina asosiy depozit sifatida e’tirof etilmoqda. Holbuki, jamg’arma depozitlarining ma’lum qismi nobarqaror passiv hisoblanadi.

Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo‘lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo‘yilgan mablag’larga daromad olish mijozlarning qo‘yilma qo‘yishga undovchi muhim omil hisoblanadi.

Muddatli qo‘yilmalar bo‘yicha foiz stavkasi hajmini o‘rnatishdagi muhim omil bo‘lib, mablag’lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi.

Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan majburiy zaxira talablari bank tizimida depozit va kreditlarni oshirishning bevosita cheklovchisi bo‘lib xizmat qiladi.

Depozit operatsiyalarni boshqarish usullari quyidagilarga bo‘linadi: analitik usullar; spetsifik usullar; marketing usullari.

Tayanch so‘z va iboralar

Aholining jamg’arma qo‘yilmalari, rezident va norezident jismoniy shaxslar, talab qilib olungunga qadar depozit, asosiy va ikkilamchi hisob varag’lari, bank varag’iga xizmat ko‘rsatish shartnomasi, tadbirkorlik sub’ekti, rezident yuridik shaxslar, depozit multiplikatsiyasi, kredit potensiali miqdori, banklar depozitlarini boshqarish usullari, marketing usullari, REPO operatsiyasi, emitent, benifitsar, naqd va naqdsiz qimmatli qog’ozlar, emissiya (prospekti) risolasi, qimmatli qog’ozlarni ochiq va yopiq joylashtirish, xazina majburiyatlari, veksillar, korporativ obligatsiyalar, qimmatli kog’ozlar hosilalari, opsionlar, fyucherslar, emissiya siyosati, qimmatli qog’ozlar chayqov operatsiyalari, sessiya, sedent, sessionariy, ma’muriy usullar, iqtisodiy usullar, analitik usullar, spetsifik usullar, marketing usullari.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tijorat banklari depozitlarini zarurligi tuShuntirib bering?
2. Depozit operatsiyalarini ob’ekt va sub’ektini aniqlab bering?
3. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan tijorat banklari depozit bazasining etarliligini tuShuntirib bering?
4. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini inspeksion tekshirishda “CAMEL” reyting tizimini mohiyat maxmunini tuShuntirib bering?
5. Tijorat banklari depozitlari bahosini shakllantirish usullari nimadan iborat?
6. Banklar depozitlarini boshqarish usullarini tuShuntirib bering?
7. Tijorat banklarining emission faoliyati to‘g’risida gapirib bering.
8. O‘zbekistonda qaysi turdagi qimmatli qog’ozlar amal qiladi?
9. Tijorat banklaridagi emissiya faoliyatining starategiyasi va maqsadlarini gapirib bering.
10. Bank aksiyalarini chiqarish protsedurasi qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
11. Bank obligatsiyalari emissiyasini gapirib bering.
12. Sertifikatlarni necha turda chiqarilishi mumkin?
13. Tijorat banklari emission operatsiyalarini boshqarishda qaysi usullardan foydalaniladi?

14. Depozit operatsiyalarni subektlari bo‘lib bir tomondan tijorat banklari qatnashsa, ikkinchi tomondan qaysi subektlar qatnashadi?

15. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari depozit bazasining etarliligini aniqlashda qanday usullardan keng foydalanilmoqda?

16. Depozit multiplikatsiyasi va kredit ekspansiyasi g’oyasi qanday iqtisodiy zaruriyatni keltirib chiqaradi?

17. Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo‘lib qanday ko‘rsatkichlar hisoblanadi?

18. Bank tizimida naqd pulsiz pul aylanishlarning rivojalanishi qanday iqtisodiy natijalarni kuchaytiradi?

19. Depozit operatsiyalarni boshqarishni qanday usullari bo‘linadi?

20. Depozit operatsiyalar bilan bog’liq bo‘lgan risklarni kamaytirish qanday iqtisodiy natijalarni beradi?

11-bob. BANKLARARO KREDIT RESURSLARI BOZORI

11.1. Banklararo kredit resurslari bozorining mazmuni va tarkibi

Banklararo bozorning rivojlanishi vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag’larini banklar o‘rtasida qayta taqsimlanishiga imkoniyat tug’diradi. Undan bank o‘zining likvidligini ta’minlashi uchun turli xil muddatda mablag’larni jalb etishlari mumkin, xususan, bir kundan to bir necha oygacha bo‘lgan muddatni tashkil etadi. Bu mablag’larni banklararo kredit resurslari bozoridan qay darajada jalb qilishi iqtisodiy kon’yunkturaga, bank nufuziga va banklararo bozordagi boshqa tijorat banklarining faoliyati bilan bog’liq. Banklararo kredit resurslari bozori mamlakatimizda o‘z faoliyatini yuritmoqda, unda bank resurslarini sotish va sotib olish indikatorlari e’lon qilinadi va qatnashish huquqini olgan banklar bo‘sh turgan bankning resurslarini sotadi, o‘zining majburiyatlarini bajarish uchun etishmagan mablag’larini boshqa banklarning mablag’lari hisobidan jalb qiladi. Banklar resurslarni sotishlari natijasida o‘ziga foizli daromad oladi, bank resurslarga zaruriy ehtiyojlar sezganda bank ularni sotib olishi ham mumkin. Bu jarayon banklararo bozordagi eng arzon va qulay usullardan biri hisoblanadi. Bunda bank o‘zining resurslarini mijozlar uchun joylashtirmasdan, balki boshqa banklarga o‘zining bo‘sh turgan resurslarini joylashtirish siyosatini olib boradi. Bu siyosat ularning xatarlilik darajasini kamaytirish siyosatining yuritilayotganligini ko‘rsatadi. Buning sababi banklar tomonidan boshqa banklarga berilgan resurslarning xatari mijozlarga berilgan kreditlarning xataridan pastroq bo‘lishi shuhbasiz.

Banklararo bozorning rivojlanish omili Markaziy bankning qayta moliyalash tizimi bilan o‘zaro bog’liq. Banklarda likvidli aktivlar bilan ta’minlash manbai Markaziy bankning maqsadli kreditlash resurslari bilan shakllanishidadir. Markaziy bank tijorat banklarining likvidliligiga qayta moliyalash siyosati orqali ta’sir ko‘rsatishi ma’lum. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi kuzatilayotganda ko‘pgina davlatlar Markaziy bankning hisob stavkasini ancha pasaytirishgan va ular arzon pullar siyosatini yuritganlar. Masalan, bu sharoitda AQSH Federal Zaxira Tizimi tomonidan hisob stavkasini 5,25 foizdan 1 foizgacha tushirgan. Bunday choralar mamlakatning moliyaviy inqirozdan chiqib ketishiga va banklarning likvidliligini ta’minlashga o‘z samarasini bermay qolmaydi.

Banklararo kredit resurslari bozori – bu kredit resurslarini oldi-sotdi qilish maqsadida tashkil etilgan maxsus markazlardir. Banklararo kredit resurslari bozori ssuda kapitallari bozori ham deb ataladi.

Banklararo kredit resurslari bozorida tijorat banklarining birinchi qismi kredit resursi sotuvchi sifatida, ikkinchi qismi esa, kredit resursini sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi.

Banklararo kredit resurslari bozori ikki segmentdan iborat:

- pul bozori;
- kapital bozori.

Pul bozorida qisqa muddatli, ya’ni muddati 12 oygacha bo‘lgan depozitlar va kreditlarning foiz stavkalari shakllanadi.

Kapital bozorida o‘rta va uzoq muddatli depozitlar va kreditlarning foiz stavkalari shakllanadi.

Banklar resurslarini boshqa banklardan ssuda olish, ya’ni banklararo kredit hisobiga ham kengaytirish mumkin. Ortiqcha kredit resurslarini sotish bilan moliyaviy barqaror tijorat banklari shug’ullanadi. Bu resurslar daromad keltirishi uchun banklar bu resurslarni boshqa banklarga joylashtirishga harakat qiladilar. Banklar resurslarini joylashtirib, daromad olishdan tashqari, bank-kreditor uchun bankning boshqa faoliyatlari bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Banklar uchun o‘z kredit resurslarini xo‘jaliklarga joylashtirishdan ko‘ra, banklarga joylashtirgan foydaliroqdir. Ayniqsa, hozirgi sharoitda kreditning qaytishi uchun kafolat xo‘jalik korxonalaridan ko‘ra banklarda kattaroqdir. Banklararo kreditning muddatlari har xil. Rivojlangan davlatlar tijorat banklari amaliyotida bir, uch, olti oy muddatli banklararo kredit berish ko‘prok ishlatiladi. Yana shuni aytib o‘tish joizki, 1 kundan tortib bir necha yil muddatga beriladigan banklararo kredit berish ham rivojlanmokda.

Hozirgi paytda MDH davlatlarida 3 oydan 6 oy muddatgacha banklararo kreditdan foydalanish banklar faoliyatida keng tarqalgan. Banklararo kreditning foiz stavkasi, odatda, xo‘jaliklarga beriladigan kreditlar foiz stavkasidan past bo‘ladi va Markaziy bank tomonidan bu stavkalar nazorat qilinadi. Resurslarni jalb qilish nuqtai nazaridan esa bank uchun banklararo kredit boshqa depozitlarni jalb qilishdan ko‘ra qimmatroqqa tushadi. Banklar resurslarini banklararo kreditlar hisobiga shakllantirishdan maqsadi shuki, banklar o‘z mijozlarini kreditga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdir va kredit qo‘yilmalarini yanada kengaytirib foyda olishdir.

Banklararo bozor moliya bozorining segmentlaridan biri hisoblanib, bank investitsiyalarini real iqtisodiyotga bank tizimida jamlangan mablag'larni tez va samarali qayta taqsimlash orqali joylashtirishni ta'minlaydi. Banklararo bozorning faoliyat yuritishi iqtisodiyot uchun investitsiya bo'yicha ma'lum qarorlarini qabul qilish nuqtai nazaridan ularning umumiy hajmi va samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi va pirovard natijada iqtisodiy o'sishga erishishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Banklararo bozor faoliyatida tartibga solingan tizimning mavjudligi har qanday zamonaviy bank tiziminining asosini tashkil etib, banklarning zaruriy mablag'lardan foydalanishlarini engillashtiradi, bank bitimlari hajmini ko'payishini ta'minlaydi, qo'shimcha mablag'larni ushlab turish zaruriyatini pasaytiradi. Suningdek banklarning ham harajatlar evaziga yanada samarali ishlashlariga imkoniyat yaratib beradi. Yaxshi ishlaydigan banklararo bozor nafaqat banklar faoliyatini engillashtiradi, balki bozor nomutanosibliklarining vujudga kelishini kamaytiradi. Har qanday bank tizimiga likvidlikning tebranishi xos. Lekin yaxshi faoliyat yuritayotgan banklararo bozor likvidli mablag'larning nazarda tutilmagan iste'moli natijasida vujudga kelgan nobarqarorlikni kamaytiradi va kutilmagan holatlarga nisbatan bank sektori barqarorligini ta'minlaydi.

Tor ma'noda **ssuda kapitalining jahon bozori (SKJB) deganda** – xalqaro kredit operatsiyalari ro'y beradigan bozor yoki ssuda kapitalining xalqaro bozori tushuniladi. U o'z ichiga chet el kreditlari va zayomlar bozorini oladi. Bu bozor, o'z navbatida, ssuda kapitali (SK) milliy bozoridagi xalqaro operatsiyalarini keltirib chiqaradi. Evrovalyuta bozori yoki evrobozor bu chet el valyutasida mamlakat tashqarisida naqd pulsiz depozit – ssuda operatsiyalari ro'y beradigan bozordir. Evrovalyuta operatsiyalari SKJ bozorini deyarli qamrab olganligi tufayli ba'zi adabiyotlarda SKJB sinonimi sifatida evrobozor tushunchasi ham ishlatiladi. (Ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda SKJBdagi 70-90% operatsiyalar evrovalyuta operatsiyalariga to'g'ri keladi).

Keng ma'noda **SKJB** deganda ssuda kapitalining jahon miqyosida taqsimlanishi va kayta taqsimlanishining iqtisodiy mexanizmi tushuniladi. Ya'ni bu jarayon ssuda kapitali milliy bozorini va evrobozorni muvofiqlashtirishga asos bo'ladi.

SKJB evolyusiyasi jahon iqtisodiyotining baynalminallashuv jarayoni dinamikasida o'z aksini topadi. Bu rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin.

Birinchi bosqich, rivojlanishining monopol darajasi, SKJB ko‘p tarqalgan SK milliy bozorlarining muvofiqlashuvi sifatida ko‘ringan.

Ikkinchi bosqich, yuqori rivojlanish davrida xo‘jalik aloqalarini baynalminallashuvi va xalqaro kreditning rivojlanishi asosida SKJB shakllanadi.

Dastlab xalqaro kreditning rivojlanishi milliy bozorlarda faqat xalqaro operatsiyalar shaklida namoyon bo‘lgan. Asta-sekin yirik bozorlar (London, Parij, Nyu-Yorkda) jahon moliya markazlariga aylanadi. Bu moliya markazlarida o‘tkazilgan operatsiyalar jahon bozorining ikkinchi sektorini shakllantirdi. Bu markazlar offshoring. Off-shove – mamlakat tashqarisida ma’lum bir masofada joylashgan. Jahon moliya markazlariga banklar va kredit-moliya institutlari jamlangan. Xalqaro kredit oltin va chet el valyutasida operatsiyalar olib boradigan bu muassasalar SKJBning tashkiliy markazlari bo‘lib qoldi. 1929-1933 yillarda jahon iqtisodiy tanazzuli, undan keyin depressiya va II Jahon urushi davrida tashqi savdo hajmi suningdek, jahon markazlarida ham, milliy bozorda ham xalqaro operatsiyalarning soni qisqarib bordi. Keyingi bosqichlarda SKJBning rivojlanishining 50-yillardagi evrobozorning paydo bo‘lishi bilan bog’liq. Valyuta munosabatlarini olib borishda valyuta cheklovlarining yuzaga kelishi va SK milliy bozorlari orasidagi farqlanish mavjudligi sharoitida xalqaro moliya kapitalining harakati va rivojlanishi yagona, milliy davlat boshqaruvidan uctunroq boshqariluvchi bozorni talab qildi. Evrobozor shunday bozor sifatida vujudga keldi. U milliy bozorlar o‘rtasida o‘ziga xos faoliyat olib boruvchi vositachi hisoblanadi. Chunki bunda operatsiyalar milliy davlat tashkilotlari tomonidan boshqarilmaydi. Evrobozorlar dastlab evrodollar bozori shaklida rivojlana bordi. Evrodollarning paydo bo‘lishi dollarning chet el banklarida jamg’arilishiga va ularning kredit operatsiyalarda ishlatilishiga olib keldi. 60-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab evrobozor operatsiyalari evromarka, evrosterling, evrofranklar kabi boshqa valyutalarda olib borila boshlandi. Evrobozor ta’sirida Evropada yirik jahon moliya markazlari vujudga keldi. Londonda, Syurixda, Parijda va boshqa rivojlangan davlatlarda moliyaviy markazlar paydo bo‘lib bordi. “Evrobozor” terminidagi evro qo‘shimchasi shu bilan izohlanadi. 60-yillar iqtisodiyotining yana bir xususiyati shundaki, bu davrda Amerika dollar bozori paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston 1 mlrd dollarlik yevroobligatsiyalarni chiqarishga tayyorlanmoqda. Dastlabki savdolar vaqtida talab yuqori bo‘lgani sababli yevrobondlar daromadliligi pasaytirildi.

O‘zbekiston 14-fevral kuni 500 mln dollar miqdoridagi besh yillik yevrobondlar va 10 yillik 500 mln dollarlik yevrobondlarni joylashtirishni rejalashtirmoqda. Dastavval kuponlar diapazoni 5,625−5,75 foiz va 6 foiz etib belgilandi. Biroq talab yuqori bo‘lgani sababli yevroobligatsiyalar foiz stavkalari Toshkent vaqti bilan 22:30 da 4,75 va 5,375 foizgacha pasaytirildi.

O‘zbekiston nomidan yevrobondlar JP Morgan Chase, Citibank va «Gazprombank» tomonidan joylashtirilmoqda.

Reuters agentligining Aberdeen Standard Investments kompaniyasi investitsiyalar bo‘yicha direktori Kevina Deyliga asoslanib xabar qilishicha, O‘zbekiston davlat qarzlari miqdorini YAIMga nisbatan 20 dan 30 foizgacha oshirishni rejalashtirmoqda.

Uning so‘zlariga ko‘ra, mamlakat vakillari 1 mlrd dollarlik yevroobligatsiyalar joylashtirilganidan so‘ng bozorga yana qaytish va muntazam ravishda obligatsiyalarni joylashtirish haqida ma’lum qilgan.

O‘zbekiston hukumati bilan bir qatorda, mamlakatdagi ikkita bank ham xalqaro qarz bozoriga chiqishni rejalashtirmoqda. Ehtimoliy nomzodlar safida «Sanoatqurilishbank», «Asaka», «Ipoteka» va Milliy bank bor. «O‘zbekneftgaz» kompaniyasi ham qarz bozoriga chiqishni mo‘ljallamoqda.

Fond menejerlari besh va o‘n yillik obligatsiyalar daromadliligi mos ravishda 5 va 6 foiz bo‘lishini taxmin qilmoqda.

«Biz [O‘zbekistonni] Ozarbayjon bilan taqqoslamoqdamiz, biroq O‘zbekiston shaffoflik yo‘qligi sababli ko‘proq to‘lashiga to‘g’ri kelmoqda», — deya qo‘shimcha qildi fond menejeri. Ozarbayjonning 2024-yilda qoplanishi lozim bo‘lgan obligatsiyalari foiz stavkalari 4,3 foizni tashkil etmoqda.[83]

11.2. Banklararo kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari

Banklarning kreditlar bo‘yicha foiz stavkasini belgilash ularning asosiy faoliyatida samaradorlikni belgilaydi va natijada ularning moliyaviy asoslarining barqarorligiga, kapital mablag’larini to‘plash orqali ta’sir qiladi. Shuning uchun kredit foiz stavkalarini belgilash

[83] «Газета.uz» 14 fevral 2019, 09:52 Iqtisodiyot

banklarning alohida eng muhim qarorlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, bank kreditlarining foiz stavkalarini qanday belgilaganligi, moliyaviy tizimda markaziy rol o‘ynaganligi sababli, pul kredit siyosatining samaradorligining muhim hal qiluvchi omilidir. Shu sabablarga ko‘ra, banklarning kreditlar bo‘yicha foiz stavkasini aniqlash xatti-harakatlarini tahlil qilish, bank operatsiyalarini monitoring qilish va pul siyosatini uzatish kanallarini tushunish uchun foydalidir. Ko‘pgina mavjud tadqiqotlar banklarning foiz stavkasini belgilashdagi xatti-harakatlari foiz stavkasini o‘tish istiqbolidan o‘rganib chiqiladi va bu kredit foiz stavkalarining, bozor foiz stavkalari o‘zgarishiga ta’sirini tekshiradi. Suningdek, banklarning kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari, bozor foiz stavkalari o‘zgarishlariga asta-sekin javob berishga qodir ekanligini e’tirof etadi, bu esa kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarining bog’liqlik darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Qisqa muddatda, bozor foiz stavkalari ortib borayotganiga qaramay, banklar har qanday sabablarga ko‘ra qarzdorlik byudjetini moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirishga harakat qilishadi, hatto bunday xatti harakatlar ularning foiz stavkalarini belgilashda ham nomoyon bo‘ladi.

Bozorni banklararo kreditlar o‘rtacha foizlari stavkalari bo‘yicha ma’lumotlar bilan ta’minlashning yo‘llaridan biri banklararo bozorlar pul mablag’lari milliy ko‘rsatkichlarini qabul qilinishi hisoblanadi. Banklararo pul bozori ko‘rsatkichlari xalqaro bank amaliyotida keng qo‘llaniladi. Ularning ichida eng taniqlisi Buyuk Britaniya banklari uyushmalari tomonidan e’lon qilinadigan LIBOR foiz stavkasidir. Ushbu stavkalar bo‘yicha banklar boshqa banklardan pul mablag’larini qarzga oladilar. Shunday stavkalar Frankfurt moliya bozorlari ishtirokchilari (FIBOR), Tokio (TIBOR), Gonkong (XIBOR) va boshqalarda ham mavjud. Bundan tashqari shunga o‘xshash stavkalardan Rossiya va Qozog’iston moliya bozorlarida ham foydalaniladi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- banklararo kreditlar o‘rtacha statistik foiz stavkalarini aniqlash bo‘yicha marketing tadqqiqotlari o‘ziga xos umumlashtiruvchi natijalar hisoblanadi;

- pul mablag’larini joylashtirishning uzoq muddatlari bo‘yicha fiksing tavsiya etiladi;

- xalqaro andozadagi ko‘rsatkich hisoblanadi;

- banklararo pul bozorida keng tarqalgan;
- ularni hisoblash mexanizmi ochiq va hamma uchun tushunarli;
- hisoblar tizmiga kiruvchi banklar yuqori kredit reytingiga ega.

O‘zbekistonda pul mablag’lari banklararo bozorida o‘rtacha statistik foiz stavkalarini o‘rnatish tajribasi mavjud emas. Bundan tashqari, banklarning qarz beruvchi banklar haqida kerakli va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lishlari zaruriyati mavjud bo‘lib, banklararo shartnomalar xulosalari bo‘yicha me’yorlarni unifikatsiya (bir xil) qilish yo‘lga qo‘yilmagan.

Taklif qilinayotgan ko‘rsatkichlar O‘zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi (Uyushmasi) tomnidan hisoblab chiqilishi mumkin va ular kelajakda qisqa muddatli kreditlar foiz stavkalari ko‘rsatkichlari (indekslari) vazifasini o‘taydi. Hisoblangan ko‘rsatkichlar tijorat banklariga bepul taqdim etiladi. Indeks hisoblari bazasiga (market-meykerlar) kiruvchi banklar, Assotsiatsiya (Uyushma)ni markaziy banklar bilan kelishilgan holda ularni banklararo bozorda mavqei va faollik darajasi asosida tanlanadi. Ushbu banklar Markaziy bank me’yorlariga rioya qilishlari va bozor balansini tuzishlari lozim. Banklar har bir ish kunida Assotsiatsiyaga (Uyushmaga) o‘zlarining kotirovkasini taqdim etadilar va Assotsiatsiya (Uyushma) banklarni fiksingini milliy valyuta so‘m bo‘yicha chop etadi. Bunda banklarni e’lon qilingan stavkalar bo‘yicha pul mablag’larini sotishlari yoki sotib olishlari shart emas.

O‘rtacha statistik foiz stavkalarini hisoblashni unifikatsiya (bir xil) qilish uchun pul mablag’lari banklararo bozori ko‘rsatkichlarini shakllantirishni yagona uslubi ishlab chiqilishi zarur. (keyingilarda uslub deyiladi). Bankning banklararo bozor milliy ko‘rsatkichlarda ishtirok etishi bevosita uning obro‘yiga va moliyaviy holatiga bog’liq bo‘ladi. Market-meykerlar dastlab pul mablag’lari banklararo bozori ko‘rsatkichlarini shakllantirish haqida Memorandum imzolashlari lozim. (keyingilarda memorandum deyiladi). Memorandumda har bir bankning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi. Ular boshqa banklar va market-meykerlar faoliyati manafaatlariga zid bo‘lmasligi yoki bunday holatlardan o‘zlarini tiyishlari zarur. Memorandum me’yorlarini buzgan ishtirokchilar market-meykerlar ro‘yxatidan chiqariladi. Ushbu hujjatlarning mavqeini oshirish uchun ularni dastlab Markaziy bank va tijorat banklari bilan kelishlgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

XX asrning 90-yillari boshlarida jahondagi zayomlarning 80%i evrozayomlar hissasiga to‘g’ri keldi. Evrozayomlarning asosiy ustunligi shundaki, ular kreditor va qarzdorlar uchun ham valyuta zayomi mavqeiga ega bo‘ladi. Zayomlarning bu turlari Buyuk Britaniya, AQSHda tarqalgan. Yana boshqa bir farqi an’anaviy xorijiy zayomlar biror mamlakat milliy bozorida chiqarilsa, evrozayomlar esa bir paytda bir necha davlatlarda tarqatiladi. Evroobligatsiya, odatda, 7 yildan 15 yil muddatga chiqariladi. 80-yillarda 30 va hatto 40 yil muddatli obligatsiyalar chiqarildi. Asosiy zayom chiqaruvchilar bo‘lib, davlat, xalqaro tashkilotlar mahalliy hokimiyat organlari, davlat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatgan. Evrozayomlar, odatda, yirik banklar tomonidan chiqarilgan. Bu yirik banklar evrozayomlarni xalqaro konsorsiumlar va sindikat tashkilotlari sifatida chiqardilar. Konsorsiumlar faoliyatiga banklar, har xil moliya-kredit institutlari: pensiya fondlari, cug’urta va investitsion kompaniyalarni jalb qildilar. Jahon moliya bozorida har xil turdagi oddiy yoki “doimiy”, “suzuvchi” foiz stavkali, nol foizli (kupon bilan), konvertirlangan obligatsiyalar kabilar amal qiladi. Bu obligatsiyalarning 60% i oddiy obligatsiyalar tashkil qiladi va bu bo‘yicha obligatsiya emitenti zayom muddati tugaguncha mustaxkam (o‘zgarmas) foiz to‘laydi. “Suzuvchi” stavkali obligatsiyalar stavkasi va daromadi ham bozor foizlari o‘zgarishiga bog’liq holda tebranib turadi.

Obligatsiyalar bo‘yicha suzuvchi foiz stavkalari Libor stavkasida ifodalanadi.

O‘zgaruvchi stavkali obligatsiyalar farqli ravishda indeksatsiyalangan foizli obligatsiyalar hisoblanadi.

Foiz stavkasining makroiqtisodiy darajada harakat qilishdagi asosi bo‘lib bozor jarayonlarining rivojlanishi va kreditga to‘lov miqdorining erkin o‘zgarishi sharoitida xo‘jalikda o‘rtacha foyda normasi hisoblanadi. Foyda normasidan u yoki bu tomonga o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni umumiy va maxsus omillarga bo‘lamiz. Umumiy omillarga qarz mablag’alariga talab va taklifning o‘zgarishi, Markaziy bank siyosati, pul qadrsizlanishi darajasi.

Aktiv operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkasini aniqlovchi xususiy omillarga quyidagilar kiradi:

- ❖ Ssuda hajmi va uni qaytarish muddati;
- ❖ Ta’minot va uning xarakteri;
- ❖ Ssuda kapitalining hajmi;
- ❖ Qarz oluvchining kreditga layoqatligi va boshqalar.

Ssuda foizlaridan foydalanish mexanizmi bir tomondan foiz mohiyatini tovar ishlab chiqarish sifatida boshqa tomondan foiz siyosatini oshirish maqsadida aniqlaydi.

Banklarning foiz siyosati bugungi kunda bank likvidligini ta’minlash va uni optimal boshqarishga qaratilishi kerak. Ssuda foizining differensasiyasi aktiv operatsiyalar bo‘yicha qo‘yilmalar likvidligiga bog’liq holda bo‘lishi lozim. Milliy iqtisodiyotda bank foizining rolini oshirish, uning bevosita ta’sir doirasini kengaytirish va iqtisodiy jarayonlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

Depozitlar va kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari, ularning summasi, ularni to‘lash vaqti davri, to‘lash shartlari va boshqalar mijoz bilan bank o‘rtasida kelishib olinadi va tuziladigan shartnomada aks ettiriladi. Kreditlar bo‘yicha foiz stavkalar kreditning muddati, qarz oluvchi tomonidan tavsiya qilingan garov holati va qiymati, uning likvidliligiga, kredit resurslari baxosiga, kredit riskning darajasiga qarab tijorat banki tomonidan mustaqil belgilanadi va u kredit shartnomada aks ettiriladi. Kredit bo‘yicha foizlar muddati kelganda memorial order bilan rasmiylashtirilib, mijozning asosiy talab qilib olinguncha bo‘lgan depozit varag’idan grafik bo‘yicha undirib olinadi.

Foiz darajasi kredit bitimi tomonlari o‘rtasidagi kredit resurslariga bo‘lgan talab va taklifni hisobga olgan holda shartnoma orqali aniqlanadi.

Markaziy bank doimiy ravishda to‘g’ridan-to‘g’ri ssuda foiz normasini ma’muriy boshqaruvidan uning darajasini qayta moliyalashtirish foiz stavkasini o‘zgartirish va majburiy rezervlar normasini manevrlash orqali tartibga solishning iqtisodiy usullariga o‘tayapti.

Ssudalar bo‘yicha foiz stavkalari tijorat banklari tomonidan kredit kelishuvining aniq shartlarini hisobga olib o‘rnatilmoqda, ya’ni ssuda hajmi va uni tugash muddati, ta’minot mavjudligi, mablag’larni jalb qilishdagi xarajatlar, kreditni rasmiylashtirish va nazorat bo‘yicha xarajatlar, qarz oluvchining kreditga layoqatliligi va boshqalar.

Bank passiv operatsiyalari bo‘yicha foiz bo‘sh pul mablag’larini vaqtincha omonatlarga jalb qilish stimuli sifatida oshib bormoqda.

Foizlarning o‘tkazilishi va undirilish tartibi shartnomada belgilanadi. Amaliyotda ssuda kunlari sanasi yaqinlashishi bilan oddiy foizlar hisoblash usulidan foydalaniladi.

Xozirgi vaqtda foizlarni to‘lash manbasi kredit qo‘yilmalarining yo‘nalishidan kelib chiqib turlichadir. Qisqa muddatli ssudalar bo‘yicha

to‘lovlar mahsulot tannarhiga qo‘shiladi, uzoq muddatli va muddati o‘tgan kreditlar bo‘yicha xarajatlar korxona soliqqa tortilgan foydasiga olib boriladi.

Zamonaviy mexanizmning xususiyati bevosita foizlar bo‘yicha daromad va xarajatlarning bank yakuniy moddiy manfaatlari bilan bevosita bog’liqligi hisoblanadi.

Bank ssuda kapitalining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari umumiy summasining joylashtirilgan mablag’lar xajmiga nisbatan ifodalaydi.

Ssuda kapitalining tannarxi, ya’ni bank xarajatlari 2 asosiy elementlardan tarkib topgan:

- Resurslarni shakllantirish bo‘yicha xarajatlar;
- Bank faoliyatini ta’minlovchi xarajatlar.

Birinchi guruh xarajatlarga – jalb qilinadigan depozitlar (muddatli va talab qilib olingunga qadar depozitlar)ga to‘lovlar, Markaziy bankning resurslariga foiz, banklararo ssudalar bo‘yicha, qimmatli qog’ozlar bo‘yicha va boshqalar.

Ikkinchi guruhga boshqa operatsion va bank ma’muriy boshqruv xarajatlari kiradi. Jumladan:

✓qimmatliklar va hujjatlarni tashish uchun transport ijarasi xarajatlari;

✓blankalar, magnit lentalar va boshqa narsalarni sotib olish uchun xarajatlar;

✓hisoblar markazi xizmatlariga xarajatlar;

✓amortizatsiya xarajatlari;

✓bank xodimlariga ish haqi xarajatlari;

✓binolarni saqlash va ta’mirlash xarajatlari.

Amaliyotda ssuda kapitalining tannarxi aktiv operatsiyalar bo‘yicha foiz darajasini aniqlashda ularni bergan vaqtdan boshlab foizlar hisoblash boshlanadi. Ssuda foizining yuqori chegarasi bozor sharoitidan kelib chiqib belgilanadi. Quyi foiz darajasi bankning jalb qilish va faoliyatini ta’minlash bo‘yicha xarajatlari orqali aniqlanadi. U kreditlash resurslariga to‘g’ridan-to‘g’ri bog’liq bo‘lib hisoblanadi.

Har bir alohida olingan bitimda foiz normasini hisoblashda tijorat banklari quyidagilarni hisobga oladilar:

- Bazaviy foiz stavkasining darajasi, bu ma’lum davrga ta’minlangan ssudalar bo‘yicha bankning eng kreditga layoqatli mijozlari uchun o‘rnatiladi;

- Alohida har bitim sharoitidan kelib chiqib riskni qo‘shish.

Bazaviy foiz stavkasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Bazaviy foiz stavka = S_1+ S_2+ P; (1)

Bu erda:

S_1 - rejalashtirilayotgan davrga barcha kredit resurslarining o‘rtacha real bahosi;

S_2 - bank faoliyatini ta’minlash bo‘yicha rejalashtirilayotgan xarajatlarning joylashtirilayotgan mablag’lar hajmiga nisbati;

P – bank ssuda operatsiyalarining rejalashtirilgan foydalilik darajasi.

Kredit resurslarining o‘rtacha real bahosi (S_1) o‘rtacha tortilgan formula bo‘yicha hisoblanib alohida resurs turi bahosi va uning bank umumiy jalb qilingan resurslar summasidagi ulushidan kelib chiqib hisoblanadi.

O‘z navbatida alohida bank jalb qilgan resursning o‘rtacha haqiqiy bahosi mazkur resurs bozoridagi nominal bahosi va majburiy zahira normasiga korrektirovka asosida aniqlanadi.

Riskni hisobga olgan holatda quyidagi mezonlardan kelib chiqib guruhlanadi:

- qarz oluvchining kreditga layoqatliligi;
- ssuda bo‘yicha ta’minot va uning xarakteri;
- mijozning bank bilan mustahkam aloqasi;
- foizlarni hisoblash usullari;
- qarz oluvchining kredit muddatiga rioya qilishligi.

Ma’lumki ssuda foizi bank daromadini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va jalb qilingan mablag’larga to‘lovlar uning xarajatlari tarkibida muhim o‘rin egallaydi. Bank foiz marjasi bank aktiv va passiv operatsiyalari bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalari o‘rtasidagi farq muhim ma’no kasb etadi.

Quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{M_{fakt} = \frac{D_p - R_p * 100\ \%}{A_d}} \qquad \mathbf{(3)}$$

Bunda:

M_{fakt} - foiz marjasining amaldagi hajmi;

D_p - foizli daromadlar;

R_p - foizlarni to‘lash bo‘yicha xarajatlar;

A_d - foiz ko‘rinishida daromad keltiruvchi aktivlar.

Foiz marjasining tahlili quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:
amaldagi foiz marjasini bazaviy bilan solishtirish usuli;
foiz marjasi komponentlarini o‘zgarishining tahlili.

Tahlil ko‘rsatkichlari daromad (xarajatlarning)larning qaysi kategoriyasi uning umumiy o‘zgarishiga olib kelishini aniqlash imkonini beradi.

Kredit qo‘yilmalari va ularning manbalarining hajmi va tarkibi, to‘lovlar muddati qo‘llaniladigan foiz stavkalar xarakteri va boshqalar foiz marjasining hajmiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi.

11.3. Banklararo kredit resurslari bozoriga Markaziy bank pul-kredit siyosatining ta’siri

Milliy ssuda kapitallari bozori faoliyatining uzluksizligi va uning likvidligi kredit resurslari taklifi va ularga bo‘lgan talab o‘rtasidagi muvozanatning ta’minlanishiga bog’liq. Bu esa, kredit resurslariga bo‘lgan talabning oshib ketishi natijasida yuzaga keladigan kreditlar foiz stavkalarining keskin ko‘tarilishi natijasida yuzaga keladigan bozor muvozanatining buzilishiga barham beradigan maxsus zahira fondini shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Milliy ssuda kapitallari bozori faoliyatining uzluksizligini ta’minlash Markaziy bank tomonidan REPO auksionlari orqali foiz stavkalarining o‘zgarishini nazorat qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bunda, Markaziy bank milliy ssuda kapitallari bozorining doimiy va to‘laqonli a’zosi sifatida o‘zining kredit resurslarini, bozordagi vaziyatdan kelib chiqqan holda, to‘g’ri REPO va teskari REPO shartlari bo‘yicha joylashtirishi lozim.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va majburiy zahira talabnomalarining bazaviy stavkasi inflyasiyaning joriy darajasiga, monandliligini ta’minlashga tijorat banklarining resurs bazasi hajmini va likvidlik darajasini oshirish imkonini beradi. Buning ustiga, tijorat banklari kreditlarining nominal foiz stavkasining barqarorligini ta’minlashda kredit quyilmalari hajmini barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Markaziy banki Boshqaruvi 2019-yil 1-iyuldan e’tiboran tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga qo‘yiladigan majburiy rezervlari normativlariga o‘zgartirish kiritish to‘g’risida qaror qabul qildi.

Majburiy rezervlash instrumentining samaradorligini oshirish va tijorat banklari tomonidan qisqa muddatli likvidlikni boshqarish

sharoitlarini yengillashtirish maqsadida 2019-yilning 1-iyulidan boshlab majburiy rezerv normativlariga quyidagi o‘zgartirishlar kiritilmoqda:

- tijorat banklarining Markaziy bankda rezerv sifatida shakllantiriladigan milliy valyutadagi depozitlari uchun 4 foiz hamda chet el valyutasidagi depozitlari uchun 14 foiz miqdorida majburiy rezerv normativlari belgilanmoqda;
- majburiy rezervlarning normativ miqdoriga nisbatan 0,25 o‘rtachalash koeffitsiyenti o‘rnatilmoqda.

Majburiy rezervlarning normativ miqdoriga nisbatan o‘rnatilayotgan o‘rtachalash koeffitsiyenti Markaziy bankka o‘tkazilishi lozim bo‘lgan majburiy rezerv miqdorining 25 foizini banklarning vakillik hisobvarag’ida qoldirishga ruxsat etiladi.

Bunda, tijorat banklarning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag’i qoldig’ining saqlash davridagi o‘rtacha kunlik miqdori hisoblangan majburiy rezerv miqdorining 25 foizidan kam bo‘lmasligi kerak. Bu, o‘z navbatida, tijorat banklari uchun likvidlikni samarali boshqarishga imkon beradi.[84]

Markaziy bank o‘zining qayta moliyalash siyosati orqali ham banklararo kredit resurslari bozoridagi foiz stavkalarining darajalariga ta’sir eta oladi. (1-ilova) ga qarang. Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash bilan bog’liq bo‘lgan tadbirlar majmui bo‘lib, ushbu siyosat quyidagi uch xil kreditlash usulidan foydalanilgan holda amalga oshiriladi:

Tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan, ularning balansidagi trattalarni qayta hisobga olish yo‘li bilan, kreditlash usuli.

Mazkur usulda berilgan kreditlar hisob yoki diskont kreditlari hisoblanadi, ularning foiz stavkasi esa, hisob yoki diskont stavkasi deyiladi.

Markaziy bank har bir moliyaviy yil uchun oldindan trattalarni, ya’ni uzatma tijorat veksellarini o‘zida qayta hisobga olish kontingentini belgilaydi. Qayta hisobga olish kontingenti hajmini belgilashda pul massasining o‘sish sur’ati, inflyasiya darajasi kabi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hisobga olinadi.

[84] Jamiyat.28 may 2019

1.Trattalarni qayta hisobga olish kontingentini mamlakatdagi tijorat banklari soniga bo‘lish yo‘li bilan har bir bank uchun belgilanadigan qayta hisobga olish limiti summasi aniqlanadi. Bu esa, limitni aniqlashning adolatli usuli hisoblanadi. Chunki, ushbu usulda barcha tijorat banklariga, ularning katta yoki kichikligidan qat’iy nazar, bir xil limit belgilanadi. Ammo ushbu usulning kamchiligi shundaki, bunda tijorat banklari aktivlari miqdori o‘rtasidagi farq natijasida yuzaga keladigan likvidli mablag’larga bo‘lgan talab o‘rtasidagi farq hisobga olinmaydi.

2. Tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan, ularning balansidagi qimmatli qog’ozlarni garovga olish yo‘li bilan kreditlash usuli.

Ushbu usulda berilgan kreditlar lombard kreditlari bo‘lib, ularning foiz stavkasi esa, lombard stavkalari deyiladi.

3. Tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan to‘g’ridan-to‘g’ri kreditlash usuli.

Mazkur usulda berilgan kreditlar overdraft, overnayt, kunlik va muddatli kreditlar shaklida bo‘ladi.

Markaziy bankning overdraft kreditlari tijorat banklarining milliy valyutadagi “Nostro” vakillik hisob raqamida yuzaga kelgan pul mablag’lari etishmasligi muammosini hal qilish maqsadida beriladi.

Overnayt kreditlari bir sutkaga beriladigan kreditlar bo‘lib, ular tijorat banklarida favqulodda yuzaga keladigan juda qisqa muddatli likvidlilik muammosini hal qilish maqsadida beriladi.

Kunlik kreditlar bir operatsion kun davomida beriladi.

Dunyoning bir qator mamlakatlarida (Shvetsiya, Rossiya va boshq.) kunlik kreditlar Markaziy banklar tomonidan qimmatli qog’ozlarni garovga olgan holda foizsiz beriladi va ular milliy to‘lov tizimini qo‘llab-quvvatlash maqsadida beriladi[85].

Respublikamizda banklararo kreditlar bozorining rivojlanmaganligi Markaziy bank qayta moliyalash siyosatining ta’sirchanligi, samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki,

birinchidan, banklararo kreditlar bozoridagi depozitlar va kreditlarning bozor bahosi aniqlanadi va kredit resurslariga bo‘lgan talab va taklifning amaldagi holatini baholash va prognozlash imkoni yuzaga keladi;

[85] Моисеев С.Р. Денено-кредитная политика: теория и парктика. Учебное пособие. – М.: Московская финансово-промышленная академия, 2011. - С. 723.

ikkinchidan, talab va taklif asosida shakllangan foiz stavkasigina ssuda kapitallari harakatini tartibga solishning bozor regulyatori hisoblanadi.

Banklararo kreditlar bozori rivojlanmagan sharoitda Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan kreditlarning miqdorini oshirish yo‘li bilan milliy valyutadagi pullarga bo‘lgan talabga va ular taklifiga ta’sir etishning ahamiyati oshadi. Lekin buning uchun, birinchidan, tijorat banklari Markaziy bank kreditlarini qisqa vaqt ichida, tezkor tarzda olish imkoniga ega bo‘lishlari lozim; ikkinchidan, Markaziy bank qayta moliyalash instrumentlarining (lombardli kreditlar, overnayt, muddatli kreditlar, diskontli kreditlar, overdraft) deyarli barchasiga ega bo‘lishi lozim. Aks holda, Markaziy bankning qayta moliyalash kreditlari hajmini oshirish imkoniyati chegaralanib qoladi. Masalan, hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining diskontli kreditlari mavjud emas, lombardli kreditlari miqdori kichik. Bu esa, o‘z navbatida, tijorat banklarining diskontli va lombardli kreditlarga bo‘lgan talablarini qondirilmay qolishiga sabab bo‘ladi.

Markaziy bank moliya bozoridagi operatsiyalari orqali foiz stavkasining shakllanishiga jadal ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, Markaziy bankning foiz stavkalariga ta’siri bank tizimining joriy likvidliligini tartibga solish operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida namoyon bo‘ldi. Markaziy bank likvidlikni ta’minlash operatsiyalarini tijorat banklari bilan bitim(lar)da belgilangan foiz stavkasida amalga oshirdi. Bu holat, o‘z navbatida, bank tizimidagi resurslar qiymati hamda banklarning moliyaviy aktivlari bilan operatsiyalariga ta’sir ko‘rsatadi va tizimida foiz stavkalari tebranishlari intervalini yuzaga keltiradi. Bu jarayonda Markaziy bank aniq tamoyillar va munosabatlarga tayanib, operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalarini tartibga soladi. Bu sa’yi-harakatlar taktik jihatdan pul-kredit siyosatini asosiy yo‘nalishlarda hamda bank tizimi joriy likvidliligini tartibga solish jarayonlarida o‘z aksini topadi. Mazkur yo‘nalishdagi iqtisodiy jarayonlar dinamikasini o‘rganish va tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, qat’iy pul-kredit siyosati 2024 yilning oktyabr-dekabr oylarida monetar omillarning inflyasiyaga ta’sirini minimal darajaga pasaytirib, aynan, shu davr uchun dastlab prognoz qilingan ko‘rsatkichlarga erishilishida qulay sharoitni yaratib berdi. Milliy valyutadagi aktivlarning daromadliligini saqlab qolish, real foiz stavkalari ijobiyligini ta’minlash va iqtisodiyotda pul taklifi sur’atlari o‘sishini oldini olish maqsadida Markaziy bank qayta

moliyalash stavkasi 13,5 foiz qilib belgilandi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati birinchidan, valyuta instrumentlari bo‘yicha daromadlilikni (tebranish darajasi va koridorini) oshirish, valyuta operatsiyalarining pul bozorlaridagi daromadligi darajasining o‘rta muddatlardagi istiqbolini aniq belgilash, xuddi shunday qisqa muddat oralig’ida, shu jumladan, valyuta kursi o‘zgarishlari riskini baholash, uni kamaytirishga imkon beradi, ikkinchidan, milliy valyutaning qiymatini foiz stavkasi orqali tartibga solishga erishiladi. Markaziy bank pul-kredit siyosati orqali makrodarajada eng muhim hisoblangan hamda o‘zaro bog’liq va ta’sirga ega bo‘lgan quyidagi:

- jamiyatda jamg’arish darajasi va jamg’arishga moyillik;
- iqtisodiyotga kiritiladigan investitsiyalar;
- inflyasiya darajasi;
- moliyaviy aktivlarga bo‘lgan talab va taklif;
- kapital harakati kabi ko‘rsatkichlarni muvofiqlashtiradi.

Bu esa, o‘z navbatida mamlakatdagi moliyaviy munosabatlarning jadal sur’atlarda rivojlanishi va samaradorligi ortishiga zamin yaratadi. Markaziy bank pul-kredit siyosati strategiyasiga muvofiq moliya bozorida operatsiyalarni amalga oshirib, nafaqat foiz stavkalari tebranishi intervalini shakllantiradi, balki tijorat banklari moliyaviy resurslarini samarali boshqarishiga rag’bat berishi, shu jumladan, resurs bazasini shakllantirish va ularni joylashtirish bilan bog’liq tezkor qarorlarni qabul qilish imkoniyatini yuzaga keltirishi orqali iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish omillari ham shakllanishiga turtki beradi. O‘zbekistonda pul-kredit siyosati konsepsiyasi negizida foiz stavkaning optimal bo‘lishi mamlakatdagi pul-kredit tizimining barqarorligini ta’minlaydi. Aynan ushbu maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilishi Markaziy bank foiz instrumentlari samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi pirovardida pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha “foiz oralig’i” shakllantirilishiga zamin yaratadi.

Qisqacha xulosalar

Banklararo bozorning rivojlanishi vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag’larini banklar o‘rtasida qayta taqsimlanishiga imkoniyat tug’diradi. Bunda bank o‘zining resurslarini mijozlar uchun joylashtirmasdan, balki boshqa banklarga o‘zining bo‘sh turgan resurslarini joylashtirish siyosatini olib boradi. Bu siyosat ularning xatarlilik darajasini kamaytirish siyosatining yuritilayotganligini

ko‘rsatadi.

Banklararo kredit resurslari bozori – bu kredit resurslarini oldi-sotdi qilish maqsadida tashkil etilgan maxsus markazlardir. Banklararo kredit resurslari bozori ssuda kapitallari bozori ham deb ataladi.

Banklararo kredit resurslari bozori ikki segmentdan iborat:

pul bozori;

kapital bozori.

Pul bozorida qisqa muddatli, ya’ni muddati 12 oygacha bo‘lgan depozitlar va kreditlarning foiz stavkalari shakllanadi.

Kapital bozorida o‘rta va uzoq muddatli depozitlar va kreditlarning foiz stavkalari shakllanadi.

Tor ma’noda ssuda kapitalining jahon bozori (SKJB) deganda – xalqaro kredit operatsiyalari ro‘y beradigan bozor yoki ssuda kapitalining xalqaro bozori tushuniladi. U o‘z ichiga chet el kreditlari va zayomlar bozorini oladi. Bu bozor, o‘z navbatida, ssuda kapitali (SK) milliy bozoridagi xalqaro operatsiyalarini keltirib chiqaradi. Evrovalyuta bozori yoki evrobozor bu chet el valyutasida mamlakat tashqarisida naqd pulsiz depozit – ssuda operatsiyalari ro‘y beradigan bozordir.

Bozorni banklararo kreditlar o‘rtacha foiz stavkalari bo‘yicha ma’lumotlar bilan ta’minlashning yo‘llaridan biri banklararo bozorlar pul mablag’lari milliy ko‘rsatkichlarini qabul qilinishi hisoblanadi. Banklararo pul bozori ko‘rsatkichlari xalqaro bank amaliyotida keng qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda pul mablag’lari banklararo bozorida o‘rtacha statistik foiz stavkalarini o‘rnatish tajribasi mavjud emas va banklararo shartnomalar xulosalari bo‘yicha me’yorlarni unifikatsiya (bir xil) qilish yo‘lga qo‘yilmagan.

Jahon moliya bozorida har xil turdagi oddiy yoki “doimiy”, “suzuvchi” foiz stavkali, nol foizli (kupon bilan), konvertirlangan obligatsiyalar kabilar amal qiladi.

Ssuda kapitalining tannarxi ya’ni xarajatlari 2 asosiy elementlardan tarkib topgan: resurslarni shakllantirish bo‘yicha xarajatlar; bank faoliyatini ta’minlovchi xarajatlar.

Ssuda foizining yuqori chegarasi bozor sharoitidan kelib chiqib belgilanadi. Quyi foiz darajasi bankning jalb qilish va faoliyatini ta’minlash bo‘yicha xarajatlari orqali aniqlanadi.

Respublikamizda banklararo kreditlar bozorining rivojlanmaganligi Markaziy bank qayta moliyalash siyosatining ta’sirchanligi, samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining diskontli kreditlari mavjud emas, lombardli kreditlari miqdori kichik. Bu esa, tijorat banklarining diskontli va lombardli kreditlarga bo‘lgan talablarini qondirilmay qolishiga sabab bo‘ladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Resurslari bozori, foiz stavkalari, bankni bo‘sh pul mablag’lari, bank resurslari, bank resurslarga zaruriy ehtiyoj, foizli daromad, ssuda kapital bozori, pul bozori, kapital bozori, moliya bozorni segmenti, seuda kapitalning jahon bozori, Evrovalyuta bozori, ssuda kapitali milliy bozori, evro bozorni muvofiqlashtirish, jahon moliya markazlari, xalqaro operatsiyalari, xalqaro valyuta munosabatlari, valyuta cheklovlari, xalqaro moliya kapitalni xarakati, evrodollor bozori, LIBOR foiz stavksi, banklararo kredit resurslari bozorining kotirovkasi, fiksingi, indeks hisoblari bazasiga kiruvchi banklar, market-mayker.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1.Banklararo kredit resurslari bozorining qanday segmentlari mavjud?

2.Banklararo kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarining mohiyati

3.Banklararo kreditlar bozorida savdoni tashkil etish tartibi qanday amalga oshiriladi?

4.Xorijiy zayomlar bozori va evrozayomlar bozori rivojlanish holati

5. Banklararo bozorning faoliyat yuritishi iqtisodiyot uchun investitsiya bo‘yicha ma’lum qarorlarini qabul qilish nuqtai nazaridan qanday muhim rol o‘ynaydi?

6. ssuda kapitalining jahon bozori (SKJB) deganda –qanday bozori tushuniladi?

7. Asta-sekin yirik bozorlar qaysi (....., ….., ….-……) jahon moliya markazlariga aylanadi?

8. Evrobozor qanday bozor sifatida vujudga keldi?

9. Amerika dollar bozori nechanch yillarda paydo bo‘ldi?

10. Moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanishning asosiy afzalliklari nimalardan iborat?

11. Aktiv operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkasini aniqlovchi xususiy omillarga nimalar kiradi?

12. Ssuda kapitalining tannarxi, ya’ni bank xarajatlari qanday asosiy elementlardan tarkib topgan?

13. Ssuda kapitalining tannarxi, ya’ni bank xarajatlari qanday asosiy elementlardan tarkib topgan?

14. Riskni hisobga olgan holatda qanday mezonlardan kelib chiqib guruhlanadi?

15. Markaziy bank milliy ssuda kapitallari bozorining doimiy va to‘laqonli a’zosi sifatida o‘zining kredit resurslarini, qaysi shartlari bo‘yicha joylashtirishi lozim?

16. Markaziy bank pul-kredit siyosati orqali makrodarajada eng muhim hisoblangan hamda o‘zaro bog’liq va ta’sirga ega bo‘lgan qanday ko‘rsatkichlarni muvofiqlashtiradi?

17. Markaziy bank pul-kredit siyosati strategiyasiga muvofiq moliya bozorida qanaqa operatsiyalarni amalga oshirish orqali iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish omillari ham shakllanishiga turtki beradi?

12-bob. TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH

12.1. Bank faoliyatida aktiv va passivlarini shakllantirish bilan bog’liq risklar va ularning turlari

Iqtisodiy adabiyotda “bank riski” tushunchasini turli xilda talqin qilish holatlari mavjud.

Bankning risklarni boshqarish strategiyasi bankning barcha imkoniyatlaridan to‘la foydalanish, bankni rivojlantirish istiqbollarini belgilab berish va bank risklarini oldini olib banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.[86]

Bazel Qo‘mitasining Konsultativ xati asosida taqdim etilgan ro‘yxatda risklarning 9 ta turi mavjud:

* kredit riski;
* operatsion risk;
* huquqiy risk;
* sug’urta riski;
* transfert riski;
* bozor riski;
* foiz riski;
* likvidlik risk;
* reputatsiya riski.

Ammo ko‘pchilik iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklari faoliyatiga xos bo‘lgan asosiy risk turlari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

* kredit riski;
* foiz riski;
* valyuta riski;
* operatsion risk;
* likvidlilik riski;
* bozor riski.

Kredit riski – bu kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytmasligi natijasida bankning zarar ko‘rish xavfidir.

Foiz riski – bu foiz stavkalarining tebranishi natijasida tijorat bankining zarar ko‘rish xavfidir.

Tijorat banklariga nisbatan foiz riski foiz stavkalarining tebranishi natijasida sof daromadning kamayishi va kapital qiymatining ma’lum qismining yo‘qotilishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

[86] S.S. Togayev. Bank risklari. O`quv qo`llanma. SamISI. Samarqand 2019 y. 8-bet

Foiz riski ta’sirida tijorat banki katta miqdorda daromad olishi mumkin. Ammo, foiz riskining chuqurlashishi sharoitida foiz stavkalarining bank uchun noqulay tebranishi tijorat bankini katta miqdorda zarar ko‘rishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, tijorat banklari rahbariyati foiz riskini boshqarish samaradorligini oshirish masalasiga katta e’tibor qaratadilar.

Valyuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayirboshlash kurslarini o‘zgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalarini amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar (yoki daromad olish) tuShuniladi. Valyuta risklarining yuzaga kelishining asosiy sababi – valyuta kurslarini o‘zgarishi hisoblanadi. Bunday o‘zgarishlar hamma shaxslarga: ishbilarmon firmalar va davlat strukturalariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Likvidlilik riski 2 xil holatda namoyon bo‘ladi:

1. Bankning vakillik hisob raqamlarida ortiqcha pul mablag’larining to‘planib qolishi.

2. Bankning vakillik hisob raqamlarida pul mablag’larining etmay qolishi.

Likvidlilikning 2-ko‘rinishi balanslashmagan likvidlilik deyiladi.

Bozor riski foiz stavkalarining barqaror emasligi oqibatida moliyaviy aktivlarning bozor qiymatining o‘zgarishi sababli bankning aktiv operatsiyalaridan keluvchi daromadni o‘zgarishi ehtimoli tufayli yuzaga keladi.

Operatsion risk – bu bank xodimlarining noqonuniy hatti-haarkatlari va dasturiy ta’minotning buzilishi natijasida bankning zarar ko‘rish xavfidir.

Bazel-II kredit riskini baholash bo‘yicha uch yondashuvni taklif etadi:

a) standartlashgan yondashuv;
b) ichki reytinglarga asoslangan bazaviy yondashuv (IRB);
c) ichki reytinglarga asoslangan takomillashgan yondashuv.

Tijorat banklarida (IRB) bazaviy yondashuvi asosida defolt bo‘lish ehtimolini baholash uchun quyidagi modeldan foydalaniladi:

$$PD_i = \frac{\Delta ICR_{Ti}}{ICR_{Def} - ICR_{t_1}} \times 100\%,$$

Bu erda:

PD_i – i – mijozning defolt bo‘lish ehtimoli;

ΔICR_{Ti} – i mijozning kredit shartnomasi davrida kredit reytingining o‘zgarishi;

ICR_{Def} – maksimal defolt reytingi.

Ushbu modelni tuzish uchun ikki bosqichdan o‘tish talab etiladi.

Birinchi bosqich – mijozning kredit reytingini o‘zgarish tezligini hisoblash.

$$V_{\Delta CR_{Ti}} = \frac{ICR_{t_2 i} - ICR_{t_1 i}}{(t_{2i} - t_{1i})},$$

Bu erda:

ICR_{t2i} - i-mijozning t_2 vaqtdagi kredit reytingi;

ICR_{t1i} - i-mijozning t_1 vaqtdagi kredit reytingi;

t_1 - i-mijozning hisobot sanalari ($t_2 > t_1$).

Ko‘rsatilgan hisobot sanalari sifatida quyidagilarni ishlatish mumkin:

t_1 – hisobot yilining boshi yoki kreditni berish sanasi (kreditlanayotgan mijozlar uchun), agar kredit joriy yilda berilgan bo‘lsa;

t_2 – defolt ehtimolini baholashdan oldingi so‘nggi hisobot sanasi.

Ikkinchi bosqich – ΔICR_{ti} – i – mijozning kredit shartnomasi davrida kredit reytingini o‘zgarishi.

Bazel-II kredit riskini baholashda qo‘llaniladigan koeffitsientlar quyidagilarni hisobga oladi:

-mamlakatning suveren kredit reytingi;

-bankning reytingi;

-kredit olgan mijozning reytingi;

-bank operatsiyasining turi.

12.1-jadval

Kredit riskini baholash bo‘yicha standartlashgan yondashuv

Kredit reytingi	**AAA AA –**	**A+ A –**	**VVV + VV –**	**VV – dan past**	**Reyting Siz**
Risk darajasi	20%	50%	100%	150%	100%

Bazel-II ning muhim talablaridan biri etarli darajada zahira ajratmalari bilan ta’minlanmagan bank kreditlarining risk darajasini oshirish talabidir. Ushbu talabning mohiyati shundaki, kreditning qaytarish muddati tugaganiga 90 kun va undan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa,

yaratilgan zahira ajratmasi miqdori kredit bo‘yicha umumiy qarzdorlikning 20 foizidan kam bo‘lsa, u holda, mazkur kreditlarning risk darajasi 150 foizni tashkil qiladi. Bu esa, muddati o‘tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog’i nisbatan yuqori bo‘lgan tijorat banklarining likvidliligiga va kapital bazasining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro bank amaliyotida kredit riski darajasini baholashda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi ko‘rsatkichlardan keng foydalaniladi:

1. Kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zahira ajratmalari darajasi (KKZQMZAD).

KKZQMZAD= (ZAS / BAO‘S) x 100% (1)

Bu erda:

ZAS – zahira ajratmalari summasi;

BAO‘S – bank aktivlarining o‘rtacha summasi.

Ushbu ko‘rsatkichning yuqori me’yoriy darajasi 1 foizni tashkil etadi.

Kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zahira ajratmalari darajasi ko‘rsatkichining me’yoriy darajadan yuqori bo‘lishi tijorat banki tasniflangan kreditlari tarkibini yomonlashganligidan dalolat beradi.

2. Muddati o‘tgan kreditlarning mo‘‘tadil darajasi (MO‘KMD).

MO‘KMD = (MO‘KS / BK) x 100% (2)

Bu erda:

MO‘KS – muddati o‘tgan kreditlarning o‘rtacha summasi;

BK – brutto kreditlar.

Mazkur ko‘rsatkichning yuqori me’yoriy chegarasi 3,0 foiz qilib belgilangan.

3. Muddati o‘tgan kreditlarning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegaraviy darajasi (MO‘KYQMBCHD).

MO‘KYQMBCHD = (MO‘KS / BK) x 100% (3)

Ushbu ko‘rsatkich 2-formula orqali hisoblanadi va uning yuqori me’yoriy darajasi 5,0 foizni tashkil etadi.

12.2-jadval

“Mudis” xalqaro reyting agentligi tomonidan kredit riskini baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar	A	B	C	D	E
Muammoli kreditlarning kredit portfelidagi salmog’i, %	0,8 % gacha	0,8 % dan 2,0 % gacha	2,0 % dan 5,0 % gacha	5,0 % dan 12 % gacha	12 % va undan yuqori
Kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar zaxirasining muammoli kreditlarning umumiy summasiga nisbatan darajasi, %	10 % gacha	10 % dan 20 % gacha	20 % dan 30 % gacha	30 % dan 50 % gacha	50 % va undan yuqori

Bazel qo‘mitasining 1997 yilda ishlab chiqilgan “Foiz stavkalari risklarini boshqarish prinsiplari” nomli hujjatida foiz riskini yuzaga keltiruvchi 4 omilning mavjudligi e’tirof etilgan:

1. Baholarning o‘zgarish riski.

Ushbu omil tijorat banklari faoliyatidagi foiz riskini yuzaga keltiruvchi asosiy sabab hisoblanadi.

Bunda foiz riski aktivlar va passivlarning muddatlari o‘rtasida nomuvofiqlikning yuzaga kelishi natijasida paydo bo‘ladi. Masalan, qisqa muddatli depozit hisobidan qat’iy belgilangan stavkadagi uzoq muddatli kredit beriladi. Bunday holatda bozor stavkalarining oshishi natijasida bankda sof daromad kamayadi, ya’ni bank zarar ko‘radi. Buning sababi shundaki, berilgan kreditning foiz stavkasi o‘zgarmaydi, ammo jalb qilingan depozitning bahosi ko‘tariladi.

2. Daromadlilikning o‘zgarishi.

Aktivlar va passivlar bo‘yicha foiz stavkalarini o‘zgarishini davriy oraliqlarda mos kelmasligi natijasida daromadlilik darajasi pasayadi. Masalan, tijorat banki kredit bergandan keyin o‘tgan ma’lum davr mobaynida kreditlarning foiz stavkasi oshadi. Natijada tijorat bankida kreditlar bo‘yicha yo‘qotilgan daromad yuzaga keladi.

3. Bazis riski.

Bazis riski turli moliyaviy instrumentlar bo‘yicha olingan va to‘langan foizlarni tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan nomuvofiqliklar natijasida yuzaga keladi. Masalan, bir yil muddatga berilgan kreditning oylik to‘lovi LIBOR stavkasi bo‘yicha qayta baholanganda, LIBORning o‘zgarishi bazis riskini yuzaga keltiradi.

Xalqaro ssuda kapitallari bozorida xorijiy valyutalardagi kreditlarning bahosi har kuni aniqlanadi va turli omillarning ta’sirida ular tebranib turadi. Bu esa, bazis riskini yuzaga kelishi uchun zamin yaratadi.

4. Opsionlar bilan bog’liq bo‘lgan risklar.

Koll va put opsionlar bo‘yicha foiz stavkalarining o‘zgarishi, bankning pozitsiyasi muvozanatlashmagan sharoitda, zararni yuzaga keltirishi mumkin.

Opsionlarning birinchi standarti evropa standarti deb ataladi va bu opsionlar o‘z egasiga faqat shartnoma muddati tugagandan so‘ng opsiondan foydalanish huquqini beradi. Opsionlarning ikkinchi standarti esa, amerika standarti deyiladi va mazkur opsionlar o‘z egasiga opsion shartnomasi muddatining istalgan vaqtida opsiondan foydalanish huquqini beradi. Demak, valyuta opsionlarining amerika standartida foiz riski darajasi evropa standartiga nisbatan yuqori hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklarida valyutalarni sotib olish maqsadida berilgan opsionlar 92728-“Opsion bitimi bo‘yicha sotib olish” hisob raqamining debetida va 96379-“Opsion bo‘yicha sotib olish kontr hisobvarag’i”ning kreditida hisobga olinadi.

Tijorat banklarining valyuta opsionlaridan oladigan daromadlari 45404-hisob raqamining kreditida, opsionlardan ko‘rilgan zararlar esa, 55306-hisob raqamining debetida hisobga olinadi.

Hozirgi davrda taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklari tomonidan foiz riskini baholashda quyidagi usullardan foydalanilmoqda:

1. Aktivlar va passivlar o‘rtasidagi farqni tahlil qilish usuli (GEP usuli).
2. Dyuratsiya usuli.
3. Imitatsion modellashtirish usuli.
4. Statistik tahlil usullari.

I. GEP usuli.

GEP usuli aktivlar va passivlar o‘rtasidagi farqni o‘lchashga asoslangan bo‘lib, ushbu aktivlar va passivlarning qiymati ma’lum davriy oraliqda o‘zgaradi. Bunda aktivlar va passivlar quyidagicha guruhlanadi:

RSA – o‘zgaradigan foiz stavkalariga ega bo‘lgan aktivlar;

RSL – o‘zgaradigan foiz stavkalariga ega bo‘lgan passivlar.

Agar RSA > RSL bo‘lsa, u holda GEP ijobiy hisoblanadi. Agar RSA < RSL bo‘lsa, u holda GEP salbiy bo‘ladi.

Agar foiz stavkalari oshsa, ijobiy GEPga ega bo‘lgan banklarda foiz marjasi o‘sadi. Chunki, bunday sharoitda o‘zgaradigan foiz stavkasiga ega bo‘lgan aktivlar miqdori shunday stavkadagi passivlar miqdoridan katta bo‘ladi.

II. Dyuratsiya usuli.

Dyuratsiya usuli bank kapitalining kutilayotgan o‘zgarishini foiz stavkalarini o‘zgarishini prognozlash yo‘li bilan baholash imkonini beradi. Ushbu usul dyuratsiyani aniqlashga asoslangan.

Dyuratsiya – bu foizli aktivlar va foizli passivlarning muddatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir.

$$DGAP = DA – (DL \times L – A)$$

Bu erda:

DGAP– dyuratsiya;

DA – aktivlar dyuratsiyasi;

DL – passivlar dyuratsiyasi;

L – passivlar;

A – aktivlar.

Dyuratsiyani aniqlashda faqat foiz ko‘rinishida daromad keltiruvchi instrumentlar hisobga olinadi.

III. Imitatsion modellashtirish usuli.

Imitatsion modellashtirish bank balansining tarkibini va foiz stavkalari daromadliligining kelgusidagi o‘zgarish ssenariylarini ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

Imitatsion modellashtirish natijalari hisob-kitoblardagi u yoki bu xatoliklarning qo‘llanilishini asoslab berishga bog’liq.

Imitatsion modellashtirishda modellashtirishning ikki usulidan foydalaniladi:

1. Statik.
2. Dinamik.

Statik modellashtirishga ko‘ra, balans va balansdan tashqari talab va majburiyatlarning tarkibi o‘zgarmaydi, ya’ni bank tahlil qilingan

davr mobaynida resurslar jalb qilishni ham, resurslar joylashtirishni ham rejalashtirmagan.

Dinamik modellashtirish balans aktivlari va passivlari joriy tarkibi va balansdan tashqari moddalardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ammo bunda kelgusida jalb qilinadigan va joylashtiriladigan resurslar hisobga olinadi.

IV. Tahlilning statistik usullari.

Foiz riskini miqdoriy baholash maqsadida keng qo‘llaniladigan statistik usul bo‘lib, **VAR-tahlil** usuli hisoblanadi.

Bazel-II operatsion riskni baholashda qo‘llaniladigan koeffitsientlar quyidagilarni hisobga oladi:

-mamlakatning suveren kredit reytingi;

-bankning reytingi;

-kredit olgan mijozning reytingi;

-bank operatsiyasining turi.

Bazel - II standarti talablarini bajarish borasidagi tayyorgarlik tadbirlarini amalga oshirish jarayonida Bitimni milliy bank tizimlari sharoitiga moslashtirish bilan bog’liq bo‘lgan bir qator qiyinchiliklar, murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida dasturiy ta’minotidan foydalangan holda operatsion riskni ekspert baholash usuli keng qo‘llaniladi.

Dusturiy ta’minoti operatsion riskni baholashda qo‘llash uchun qulay hisoblanadi. Buning sababi shundaki, mazkur tizim grafik shaklidagi interfeys va toq sonli algoritmlar orqali operatsion riskning darajasidagi o‘zgarishlarni aniqlash va kuzatib borish imkonini beradi.

Bazel qo‘mitasining yangi standartida taklif etilgan standartlashgan yondashuvda beta omillarning ulushi quyidagicha taqsimlangan:

12.2-jadval

Operatsion riskni baholash bo‘yicha standartlashgan yondashuvda beta omillar ulushining taqsimoti[87]

Biznes-liniyalar	Beta omillar
Korporativ moliyalashtirish	18%
Savdo	18%
Bankning chakana operatsiyalari	12%
Bankning tijorat operatsiyalari	15%

[87] Международная конвергенция измерения капитала и стандартов капитала. Уточненные рамочные подходы. Банк международных расчетов. – Базель, 2004. – С. 158.

To‘lovlar va hisob-kitoblar	8%
Agentlik xizmatlari	15%
Aktivlarni boshqarish	12%
Chakana brokerlik xizmatlari	12%

12.2–jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, korporativ moliyalashtirish va savdo operatsiyalari nisbatan yuqori ulushni egallaydi. Buning sababi shundaki, tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida kreditlar va qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalari eng yuqori salmoqni egallaydi.

12.2. Kredit risklari va ularni kelib chiqish sabablari

Kredit mohiyatiga ko‘ra bitta iqtisodiy sub’ektda aniqrog’i, banklarda pul oqimlarini yuzaga keltirib, boshqa iqtisodiy sub’ekt (qarz oluvchi)larga ushbu pul oqimlaridan o‘z maqsadlariga erishish uchun foydalanishlariga imkon yaratib beradigan mexanizmdir. Bugungi kunda makroiqtisodiy barqarorlikka erishilgan, iqtisodiy o‘sishlar mavjud bo‘lsa-da, mikrodarajadagi ayrim xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning to‘la moliyaviy barqarorligini mustaxkamlash bo‘yicha birqancha muammolar ilmiy-uslubiy echimini kutmoqda. Respublikada amal qilayotgan me’yoriy-xuquqiy tizim va iqtisodiyotning xozirgi axvoliga mos ravishda kreditlash operatsiyalari banklar uchun ham, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun ham jiddiy risklar bilan bog’liq. Kreditlash jarayonida risklar yuzaga kelish extimolining yuqoriligi va ularning oldini olish zarurati kredit risklari tahlilining tashkiliy-uslubiy jixatlarini takomillashtirishni taqazo etmoqda.

Kredit risklarining ko‘lamiga makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Makroiqtisodiy omillarga xo‘jalik yurituvchi sub’ektga bog’liq bo‘lmagan, lekin kredit majburiyatlarining bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xodisalar kiradi.

Mikroiqtisodiy omillarga esa qarz oluvchi korxonaning ma’lum bir sohadagi faoliyati va korxona rahbariyati qabul qiladigan qarorlar bilan bevosita bog’liq tadbirlar kiradi. Iqtisodiy munosabatlarda kredit alohida o‘rin egallaydi. Kredit – foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanish uchun pul yoki tovar mablag’lari berish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar tizimidir. Tabiiyki, bu borada olingan mablag’ni qaytarish masalasi ham yotadi. Kredit risklari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– kreditni o‘z vaqtida qaytarmaslik bilan bog’lik risk. Bu risk qarz oluvchining kredit shartnomasining shartlarini bajarmasligi;

– likvidlik riski (to‘lovlarning muddatida o‘tkazmaslik), bu risk kreditni va foizlarni muddatida kaytara olmaslik natijasida bank likvid mablaglarining kamayishiga olib kelishi bilan bog’lik;

– kreditni ta’minlash bilan bog’lik risk, bu riskni alohida ko‘rib bo‘lmaydi, chunki bu holat kreditni qaytarmaslik bilan bog’liq bo‘lgan risk bilan birgalikda o‘rganiladi. Ushbu risk turi kredit uchun qo‘yilgan garovni sotishdan tushgan mablag’ ajratilgan kreditni qoplash uchun etarli emasligi bilan bog’liqdir, natijada bank o‘z talabini to‘la qondira olmaydi;

– qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog’liq risklar. Bu risk korxonaning ish faoliyati bilan bog’liq bo‘lib (sotib olish, ishlab chiqarish va sotish), ammo boshqa risklardan farqli o‘laroq bu riskka korxona rahbaridan bog’liq bo‘lmagan faktorlar ta’sir ko‘rsatadi, masalan tarmoqning rivojlanishi va kon’yukturasi. Bu riskning hajmini investitsion dastur va ishlab chiqarilgan mahsulot turi va sifati belgilaydi;

– kapitalning tarkibiy qismi bilan bog’lik risklar. Bu risklar passivlarning tarkibiy qismi va ishbilarmonlik riski bilan bog’lik.

AT “Aloqabank” misolida kredit portfeli sifat tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, jami kreditlarning 96,87 % standart kreditlar bo‘lib, substandard, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz kreditlar atigi 3,13%ni tashkil etadi.

Kredit portfeli mudatli tarkibi bo‘yicha ham 95,3 % uzoq muddatli kreditlarni tashkil etadi.[88]

Bank kredit riskining darajasi quyidagi omillarga bog’liq:

– bank kredit faoliyatining ma’lum bir sohada markazlashuvi darajasi;

– o‘ziga xos ma’lum qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan mijozlarga kredit va boshqa bank xizmatlarining qanchaga to‘g’ri kelishi;

– kam o‘rganilgan, yangi, noan’anaviy sohalarda bank faoliyatining markazlashuvi;

– kredit berish, qimmatli qog’ozlar portfelini shakllantirish bo‘yicha bank siyosatiga xususiy va jiddiy o‘zgarishlar kiritish;

– yangi va yaqinda jalb qilingan mijozlarning foizi;

[88] АТ “Алоқабанк”нинг 2022 йил фаолияти якунлари тақдимоти

– qisqa vaqt ichida amaliyotga juda ko‘p xizmatlarning kiritilishi (u vaqtda bankda salbiy talablar ko‘payishi mumkin);

–bozorda sotilishi qiyin bo‘lgan qimmatliklarni yoki qiymati tez tushadigan narsalarni garov sifatida qabul qilib olish va boshqalar.

Kredit risklarini baholashning besh asosiy o‘lchovi mavjud:

a) Reputatsiya. Mazkur jarayon shaxsiy muomala, ham shaxsiy, ham ish bo‘yicha tajribasidan iborat bo‘lishi kerak. (kreditor, mahsulot etishtirib beruvchilar va mijozlarni tekshirish)

b) Imkoniyatlar. Karz oluvchi o‘zining barcha operatsiyalari bo‘yicha (o‘zining butun faoliyati davomida qarz oluvchining olgan pullari) yoki aniq loyiha bo‘yicha mablag’ olish qobiliyati va pul vositalarini boshqarish qobiliyati.

v) Kapital. Qarz oluvchining kapital bazasi va kredit so‘ralgan loyiha uchun o‘zining mablag’larini sarflashga doir qat’iyligi. Qarz oluvchi loyiha xavfi mas’uliyatini kredit beruvchi bank bilan birga o‘z zimmasiga olishi , o‘zining hissadorlik kapitalining qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qismini taqdim etib, o‘ziga tegishli bo‘lgan majburiyatlarni zimmasiga olishi kerak.

g) Shart-sharoitlar. Mahalliy, xududiy va umummilliy iqtisodning joriy ahvoli va tavsifi, suningdek, qarz oluvchvi xo‘jaligining sohalari.

d) Garov. Kreditni garov yoki kafillik shaklida ishonchli ta’minlash boshqa tomondan kuchsizliklarni yo‘qqa chiqarib qo‘yadi. Yaxshi bir qoida bor: faqat garov va kafillik asosida xech vaqt kredit bermang.

Har bir kreditor o‘zining kredit risklarini va yo‘qotishlarini imkon qadar pasaytirishga intiladi. Hozirgi kunda kredit risklarini tahlil qilish va ularni kamaytirish bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud. Banklar kredit risklarini kreditlarning barcha turlari bo‘yicha baholashlari lozim. Kreditlarning turkumlanishi banklar tomonidan mustaqil ravishda yoki shartnoma asosida auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshirilishi zarur. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning aktivlarini tahlil qilishda banklar tomonidan foydalanadigan mezonlar ro‘y berish ehtimoli bo‘lgan yo‘qotishlarni qoplash uchun rezervlarni shakllantirish va ulardan foydalanishga doir qarorlar qabul qilish hamda ijro etish tadbirlari, suningdek, ularni amalga oshirishga nisbatan yondashuvlar bankning kredit va hisob siyosatini belgilaydigan xujjatlarida qayd etilishi lozim.

Aksiyadorlik tijorat bankining ijroiya organi kredit risklarini boshqarishga doir strategiya va kredit siyosatining muhim qoidalarini tasdiqlash hamda vaqti-vaqti bilan qayta ko‘rib chiqish (bir yilda kamida bir marta) uchun mas’ul hisoblanadi. Tijorat bankining ijroiya

organlari kredit riskining maqbul darajasini va bank o‘z zimmasiga turli kredit risklarini olishi natijasida kutilayotgan daromadlilik darajasini aks ettirishi lozim. Bank rahbariyati ijroiya organ tomonidan qabul qilingan kredit riskini boshqarishga oid strategiyani amalga oshirish, bunday risklarni nazorat qilish va baxolash uchun mas’uldir. Bu aloxida kredit bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarga ham, butun kredit portfeli bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarga ham taalluqlidir. Kredit risklarini tahlil qilar ekan, banklar ham, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ham o‘zlariga bevosita bog’liq bo‘lmagan qator muammolar: mamlakatdagi iqtisodiy ahvol, siyosiy ahvol, me’yoriy-huquqiy tizim, uning mamlakatning kreditlash sohasidagi real holatga muvofiqligi, inflyasiya darajasi, bank tizimining rivojlanish darajasi kabilarni hisobga olishlari zarur. Bularning barchasi kredit risklarining yuzaga kelish extimoli va ularni baholash usullariga ta’sir ko‘rsatadi.

12.3. Bank risklarini boshqarish usullari

Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishda kredit portfelini diversifikatsiya qilish, kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zahiralar tashkil etish va limitlar belgilash usullaridan keng foydalaniladi.

Xalqaro bank amaliyotida umume’tirof etilgan mezonga ko‘ra, tijorat banklari kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqda to‘planib qolishi mumkin emas.

Valyuta riskini boshqarishda tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirishga alohida e’tibor qaratiladi. Tijorat banklarining valyuta faoliyatlarini tartibga solishda ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilishi haqidagi hisobot muhim o‘rin tutadi. Bu hisobotning tahlil qilishning zarurati Markaziy bank tomonidan respublikadagi mavjud vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishga qaratilgan siyosati bilan izohlanadi. Chunki, Markaziy bank tomonidan vakolatli banklarga chet el valyutasi bilan bog’liq operatsiyalarga limit o‘rnatiladi. Bu tartib bo‘yicha bankning o‘z mablag’lariga nisbatan 20 foizgacha valyuta sotib olishi va sotishiga ruxsat bor. Bir valyuta turi bo‘yicha bu ko‘rsatkich 5 foiz qilib belgilangan. Limit o‘rnatishning asosiy sababi, vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishdir. Chunki, vakolatli banklar barcha aktivlarini chet el valyutalariga qo‘ysa, va bu valyutalarning kursi jahon valyuta bozorida tushib ketsa, bank aktivlari kamayishi va hatto bank bankrot bo‘lishi mumkin (bu o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyotini

sekin-astalik bilan inqirozga yuz tutishiga zamin yaratadi). Shuni oldini olish maqsadida, bu limit barcha vakolatli banklar uchun joriy qilingan.

Bazel-II standartida operatsion risk bo‘yicha kapitalning etarliligini hisoblash uchun uch usuldan foydalanish tavsiya etilgan. Birinchi usul - bazaviy indikativ usuli, ikkinchi usul – standartlashtirilgan usul, uchinchi usul esa, kengaytirilgan usul hisoblanadi. Mazkur usullar bo‘yicha hisoblangan kapitalning etarlilik koeffitsientlari bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli, fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mavjud uch usuldan birini tanlab olishi va respublikamiz tijorat banklarining barchasida operatsion risk bo‘yicha kapitalning etarliligi ana shu usulda hisoblanishi lozim. Kapitalning etarliligini hisoblashning kengaytirilgan usulini respublikamiz bank amaliyotida qo‘llash uchun sharoit mavjud emas. Chunki ushbu usul banklarning o‘zlari ishlab chiqqan reyting baholash natijalariga asoslanadi. Respublikamiz banklarida esa, operatsion riskni baholashning reyting usuli mavjud emas.

Bazaviy indikativ yondashuvga ko‘ra:

$$\mathbf{KBIA = [(\Sigma GI1\ldots n x \square)]/n},$$

Bu erda:

KBIA – tijorat bankining kapitaliga bo‘lgan talab;

GI – so‘nggi uch yil mobaynidagi har yillik ijobiy yalpi daromad;

n – o‘tgan uch yil ichida yalpi daromad ijobiy bo‘lgan yillar soni;

 =15% – bu ko‘rsatkich Bazel qo‘mitasi tomonidan indikatorning tarmoq darajasiga nisbatan o‘rnatilgan[89].

Likvidlilik riskini boshqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

– Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining likvidliligiga nisbatan iqtisodiy me’yorlar o‘rnatish;

– bankning vakillik hisob raqamidagi ortiqcha pullarni turli emitentlar tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlarni sotib olishga yo‘naltirish;

– jalb qilingan mablag’larning muddatlari bilan aktivlarning muddatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash;

– bank aktivlarining sifatini yaxshilash;

– yuqori likvidli qimmatli qog’ozlarga qilinadigan investitsiyalar hajmini oshirish.

[89] Международная конвергенция измерения капитала и стандартов капитала. Уточненные рамочные подходы. Банк международных расчетов. – Базель, 2004. – С. 156.

Bozor riskini boshqarishda aktivlar portfelini diversifikatsiyalash, sug'urtalash, kapitalning etarliligini ta'minlash usullaridan keng foydalaniladi.

Bozor riski bo'yicha yo'qotishlar paydo bo'lishining ehtimollarini hisoblash uchun ko'rilayotgan operatsiyalarning bank tomonidan amalga oshirish natijaviyligiga taaluqli barcha statistik ma'lumotlarni tahlil qilinadi. Bunda, hisoblarni aniqligini oshirish uchun nisbatan katta statistik tanlovdan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tasdiqlangan bank tizimini rivojlantirishning 2016-2020-yillarga mo'ljallangan strategiyasida bank risklari darajasining oshishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha aniq vazifalar qo'yilgan.

Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan) "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi hamda Markaziy bankning 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyuldagi 2693-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan) "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi yo'riqnomalari qabul qilindi.

Ushbu yo'riqnomalarga asosan 2 ta yangi koeffitsient – likvidlikni qoplash me'yori va sof barqaror moliyalashtirsh me'yori koeffitsientlari qabul qilindi.

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

LQMK =YULA : 30 k.JSCH

Bu erda:

YULA – yuqori likvidli aktivlar;

30 k. JSCH – keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqim.

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsientining eng past me'yoriy darajasi quyidagicha belglangan:

* 2016 yil 1 yanvardan boshlab – 80%
* 2017 yil 1 yanvardan boshlab - 90%

* 2018 yildan 1 yanvardan boshlab – 100%.

Yuqori likvidli aktivlar tarkibi quyidagilardan iborat:

* sof quyma oltin;

* bankning Markaziy bankdagi “Nostro” vakillik hisob raqamidagi pul mablag’lari (10301);

* 7 kungacha muddatdagi banklararo kreditlar va depozitlar;

* “Standart & Poor’s”, “Fitch Ratings” va “Moody’s” xalqaro reyting agentliklarining eng yuqori baholari berilgan, rivojlangan fond birjalari ro‘yxatiga kiritilgan, risk darajasi past bo‘lgan mamlakatlarning transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog’ozlari;

* bankning boshqa banklarda ochilgan “Nostro” vakillik hisob raqamlaridagi pul mablag’lari (10501);

* risk darajasi past bo‘lgan mamlakatlardagi banklarga joylashtirilib, ta’minot sifatida qo‘yilmagan likvidli aktivlar.

Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (SBMMK) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

SBMMK = BMMS : BMZS

Bu erda:

BMMS – barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi;

BMZS – barqaror moliyalashtirishning zarur summasi.

Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasiga quyidagilar kiradi:

* bankning regulyativ kapitali;

* qaytarish muddati 1 yil va undan ortiq bo‘lgan bank majburiyatlari;

* qaytarish muddati belgilanmagan boshqa depozitlar va qarz mablag’lari summasining 30 foizi;

* qaytarish muddati 1 yildan kam bo‘lgan boshqa depozitlar va qarz mablag’lari summasining 30 foizi.

Barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga quyidagilar kiradi:

* qaytarilishiga 1 yil va undan ortiq muddat qolgan bank aktivlari, shu jumladan, muammoli kreditlar va nomoliyaviy aktivlar (er uchastkalari, binolar, mebel, kompyuterlar va avtomashinalar);

* sud jarayonida bo‘lgan yoki belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar;

* qaytarish muddati 1 yildan kam bo‘lgan boshqa aktivlar summasining 30 foizi, muddatsiz likvidli aktivlar bundan mustasno;

* Balansdan tashqari moddalardagi majburiyatlarning 15 foizi.

Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab joriy etiladi va uning eng past me’yoriy darajasi 100% qilib belgilangan.

Qisqacha xulosalar

Bazel Qo‘mitasining Konsultativ xati asosida taqdim etilgan ro‘yxatda risklarning 9 ta turi mavjud: kredit riski; operatsion risk; huquqiy risk; sug’urta riski; transfert riski; bozor riski; foiz riski; likvidlik risk; reputatsiya riski.

Xalqaro bank amaliyotida kredit riski darajasini baholashda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi ko‘rsatkichlardan keng foydalaniladi:

– kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zahira ajratmalari darajasi; muddati o‘tgan kreditlarning mo‘‘tadil darajasi;

– muddati o‘tgan kreditlarning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegaraviy darajasi;

Bazel qo‘mitasining ishlab chiqilgan “Foiz stavkalari risklarini boshqarish prinsiplari” nomli hujjatida foiz riskini yuzaga keltiruvchi 4 omilning mavjudligi e’tirof etilgan:

– baholarning o‘zgarish riski;
– daromadlilikning o‘zgarishi;
– bazis riski;
– opsionlar bilan bog’liq bo‘lgan risklar.

Hozirgi davrda taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklari tomonidan foiz riskini baholashda quyidagi usullardan foydalanilmoqda:

– Aktivlar va passivlar o‘rtasidagi farqni tahlil qilish usuli;
– (GEP usuli), dyuratsiya usuli;
– imitatsion modellashtirish usuli;
– statistik tahlil usullari.
– Kredit risklari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:
– kreditni o‘z vaqtida qaytarmaslik bilan bog’lik risk;
– likvidlik riski (to‘lovlarning muddatida o‘tkazmaslik);
– kreditni ta’minlash bilan bog’lik risk;
– qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog’liq risklar;
– kapitalning tarkibiy qismi bilan bog’lik risklar.

Kredit risklarini baholashning besh asosiy o‘lchovi mavjud:

– reputatsiya;
– imkoniyatlar;
– kapital;
– shart-sharoitlar;
– garov.

Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishda kredit portfelini diversifikatsiya qilish, kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zahiralar tashkil etish va limitlar belgilash usullaridan keng foydalaniladi.

Valyuta riskini boshqarishda tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Limit o‘rnatishning asosiy sababi, vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishdir.

Bazel-II standartida operatsion risk bo‘yicha kapitalning etarliligini hisoblash uchun uch usuldan foydalanish tavsiya etilgan:

– bazaviy indikativ usuli;
– standartlashtirilgan usul;
– kengaytirilgan usuli.

Tayanch so‘z va iboralar

Kredit riski, operatsion risk, huquqiy risk, sug’urta riski, transfert riski, bozor riski, foiz riski, likvidlik risk, reputatsiya riski, valyuta riski, “Mudis” xalqaro reyting agentligi, opsion, GEP usuli, Dyuratsiya usuli, imitatsion modellashtirish usuli, statistik tahlil usullari, limit o‘rnatish, vakolatli banklar, risklarini kamaytirish, kapitalning etarliligi, bazaviy indikativ usuli; standartlashtirilgan usul; kengaytirilgan usuli.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bank riski tushunchasining iqtisodiy mohiyati
2. Amaliyotda bank risklarini baholash usullari
3. Bank risklarini boshqarishda qanday usullardan foydalaniladi?
4. Bazel Qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ro‘yxatda risklarning qanday turlari mavjud?
5. Markaziy bank tomonidan respublikadagi mavjud vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishga qaratilgan siyosati nima bilan izohlanadi?

6. Aksiyadorlik tijorat bankining ijroiya organi kredit risklarini boshqarishga doir strategiya va kredit siyosatining muhim qoidalarini ko‘rib chiqadimi?

7. Hozirgi davrda taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklari tomonidan foiz riskini baholashda qanday usullardan foydalanilmoqda?

8. Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasiga nimalar kiradi?

9. Likvidlilik riskini boshqarishda qanday usullardan foydalaniladi?

10. Xalqaro bank amaliyotida umume’tirof etilgan mezonga ko‘ra, tijorat banklari kreditlarining qancha foizdan ortiq qismini bitta tarmoqda to‘planib qolishi mumkin emas?

11. Bozor riskini boshqarishda qanday usullaridan keng foydalaniladi?

12. Xalqaro bank amaliyotida kredit riski darajasini baholashda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan qanday ko‘rsatkichlardan keng foydalaniladi?

13. Bazel qo‘mitasining ishlab chiqilgan “Foiz stavkalari risklarini boshqarish prinsiplari” nomli hujjatida foiz riskini yuzaga keltiruvchi qanday omillarning mavjudligi e’tirof etilgan?

14. Hozirgi davrda taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklari tomonidan foiz riskini baholashda qanday usullardan foydalanilmoqda?

15. Kredit risklarini baholashning qanday asosiy o‘lchovlari mavjud?

16.Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishda qanday usullaridan keng foydalaniladi.?

17. Bazel-II standartida operatsion risk bo‘yicha kapitalning etarliligini hisoblash uchun qanday usulardan foydalanish tavsiya etilgan?

13-bob. MOLIYA VA ELEKTRON PUL BOZORLARI AKTIVLARINI BOSHQARISH

13.1. Moliya bozori va uning segmentlari

Moliya bozori – bu moliyaviy xizmatlar taklif etiladigan bozor bo‘lib, bunda oldi-sotdi obyekti pul yoki pulga tenglashtirilgan qog‘oz bilan bog‘liq bo‘lgan bozor. Bu bozorda moliya mablag‘larini vaqtincha haq to‘lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan munosabatlar olib boriladi, shuningdek, pul mablag‘larini jamg‘arganlardan qarzga oluvchilarga o‘tishi ta’minlanadi. Ortiqcha mablag‘larga ega bo‘lgan xo‘jalik subyektlari o‘z moliyaviy resurslarini mablag‘larga muhtoj subyektlarga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o‘tkaziladi.

Moliya bozorining quyidagi segmentlari mavjuddir:

- ssuda kapitallari bozori;
- valyuta bozori;
- qimmatli qog’ozlar bozori;
- sug’urta bozori;
- lizing bozori.

Ssuda kapitallari bozorida kredit resurslari oldi-sotdi qilinadi. Ssuda kapitallari bozorining o‘zi 2 ta segmentga ega:

1. Qisqa muddatli pul bozori;
2. Kapital bozori

Valyuta bozorida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadi.

Qimmatli qog’ozlar bozorida qimmatli qog’ozlar oldi-sotdi qilinadi.

Sug’urta bozorida sug’urta xizmatlari taklif etiladi.

Lizing bozorida lizing kompaniyalari va tijorat banklari tomonidan lizing xizmati taklif etiladi.

Moliya bozorining emitentlarini quyidagi belgilarga asosan tasniflash mumkin:

1. Tashkiliy-xuquqiy shakli bo‘yicha: davlat organi, turli mulkchilik asosidagi yuridik shaxs.
2. Faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha: davlat, xalqaro va nodavlat moliyaviy institutlar va nomoliyaviy tashkilotlar.
3. Moliyaviy instrumentlari bo‘yicha: davlat, munitsipal, xalqaro va nodavlat (korporativ) instrumentlar chiqaruvchi tashkilotlar.
4. Emission siyosati bo‘yicha: davlatning iqtisodiy siyosatini (monetar, byudjet-soliq) yurituvchi vakolatli tashkilotlar, xalqaro

iqtisodiy siyosatni yurituvchi tashkilotlar, investitsion siyosat (strategik, portfel, xorijiy investorlarga qaratilgan siyosat) yurituvchi tashkilotlar.

5. Milliyligi bo‘yicha: rezidentlar va norezidentlar.

6. Emission potensiali bo‘yicha: katta, o‘rta va kichik hajmda moliyaviy instrumentlarni chiqaruvchi tashkilotlar.

7. Imidji va riski bo‘yicha: yuqori, o‘rta va kamnufuzli va riskli tashkilotlar.

8. Moliyaviy instrumentlarining jalbdorliligi bo‘yicha: yuqori, o‘rtacha va kam jalbdor emitentlar.

Investorlarni quyidagi belgilarga asosan tasniflash mumkin:

1. Tashkiliy-xuquqiy shakli bo‘yicha: davlat tashkiloti (davlat boshqaruvi va hokimiyati organi), turli mulkchilik asosidagi yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar (fuqarolar va vaqtinchalik fuqarolik xuquqiga ega emaslar).

2. Faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha: individual va institutsional bo‘lgan davlat, xalqaro va nodavlat moliyaviy institutlar va nomoliyaviy tashkilotlar, jismoniy shaxslar.

3. Investitsion vositalari bo‘yicha: pul, valyuta, kredit, mulk, tovar-xom-ashyo, qimmatli qog’ozlar va h.k. resurslariga ega bo‘lgan investorlar.

4. Investitsion siyosati bo‘yicha: davlatning iqtisodiy siyosatini (monetar, byudjet-soliq) yurituvchi vakolatli tashkilotlar, xalqaro iqtisodiy siyosatni yurituvchi tashkilotlar, investitsion siyosat yurituvchi shaxslar.

5. Milliyligi bo‘yicha: rezidentlar (ichki) va norezidentlar (tashqi).

6. Investitsion potensiali bo‘yicha: katta (institutsional, strategik), o‘rta va kichik (minoritar) hajmda investitsiyalarni yo‘naltiruvchilar.

7. Riski bo‘yicha: yuqori, o‘rta va kam riskli investorlar.

8. Strategiyasi bo‘yicha: agressiv, konservativ va ularning gibridiga asoslangan investorlar.

9. Investitsiyalar turlari bo‘yicha: portfel, to‘g’ri investitsiyalar qiluvchi investorlar. Portfe’lli investorlar spekulyativ-portfe’l va strategik-portfel turida bo‘lishi mumkin.

10. Investitsiya muddati bo‘yicha: qisqa, o‘rta va uzoq muddatli investorlar.

2. Moliya bozori instrumentlarini boshqarish usullari.

Moliya bozori instrumentlarini boqsharishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Orttirish va diskontlash.

Investitsion qo‘yilmalarning turli variantlari to‘lovlar tushumini turli grafiklariga ega bo‘lganligi bu grafiklarni o‘zaro solishtirishni bir muncha qiyinlashtiradi. Shuning uchun pul tushumlarini vaqtning bir momentiga keltirish lozim. Agar bu moment kelajakda joylashgan bo‘lsa, unda bunday protsedurani orttirish deyiladi, agar bu moment o‘tgan vaqtda bo‘lsa – diskontlash deyiladi.

2. Pullarning kelajakdagi bahosini aniqlash.

Investorning hozirgi vaqtda bo‘lgan pullari unga kelajakda kapitalini bank depozitiga qo‘yish yo‘li bilan orttirish imkonini beradi. Natijada investorda kelajakda bir muncha ko‘proq pul summasi (avvalgi pul qo‘yilmasi bilan birga) paydo bo‘lishi pullarning kelajakdagi bahosi deyiladi.

3. Daromadlilikning joriy va to‘liq normasini ta’minlash

Obligatsiya daromadliligining kupon normasi *g*-ga teng. Daromadlilikning joriy normasi

$$i_T = \frac{gxN}{Ц}$$

Bu erda:

g-kuponli foiz normasi,

N-obligatsiyani soni,

S-obligatsiyani narxi

Obligatsiya daromadliligining to‘liq normasini hisoblaymiz.

Bunda qisqa muddatli qimmatli qog’ozlar bo‘yicha daromadlilikni topishdagiga o‘xshash yo‘l tutamiz. Faraz qilaylik, obligatsiya so‘ndirilguniga qadar t_1 yil qolganda S’ narhda sotib olingan va so‘ndirilishiga t_2 yil qolganda S’’ narhda sotilgan.

S’ va S» uchun quyidagi tenglikni olamiz:

$$Ц'(1+i)^{t_1-t_2} = Ц'' \Rightarrow i = (\frac{Ц''}{Ц'})^{\frac{1}{t_1-t_2}} - 1.$$

Kelishuvga binoan bu obligatsiyalar foiz stavkalari u yoki bu tovar bahosi o‘zgarishiga qarab o‘rnatiladi. Masalan, 80-yillarda mis, neft yoki oltin bahosiga asoslangan bir necha obligatsiyalar mashhur bo‘lgan. Bunda «suzuvchi» foizli obigatsiyalarning foiz stavkasi baholarga qarab o‘zgarib turadi va ma’lum bir darajaga etganda barqaror foyda keltira boshlaydi yoki obligatsiyaning boshqacha bir turi mustahkam (o‘zgarmas) foizli obligatsiya bo‘lib, bunda obligatsiya chiqarilganidan keyin birinchi besh yil davomida bir foizdan ma’lum darajaga etguncha daromad to‘langan. Nol kuponli obligatsiya har yili

emas, balki faqat bir marta obligatsiya qayta sotib olinganida foiz olish imkonini beradi. Bu obligatsiyalarga foiz ularning emissiyasi kursi bo‘yicha to‘lanadi. Emissiya bahosi nominal bahoda amalga oshirilishi tufayli obligatsiya egasi emission va nominal kurs summalari orasidagi farq miqdorida daromad oladi. Bu obligatsiyalar bo‘yicha investorlar foydadan soliq to‘lashdan ozod qilinishi mumkin. Shu tufayli bu obligatsiyalarga bo‘lgan talab yuqoridir.

Konvertirlanadigan obligatsiyalar 80-yillarda keng tarqaldi. Bu turdagi obligatsiyalar kamroq foyda keltiradi. Bu obligatsiyalarning ijobiy tomoni Shundaki, agarda zayom chiqaruvchi kompaniya aksiyalariga to‘lanadigan dividend obligatsiya foizidan katta bo‘lsa, konvertirlanadigan obligatsiyalarni aksiyaga almashtirib olishga imkon beradi.

XX asrning 80-yillarida evroobligatsiya bozorida paydo bo‘lgan yana bir yangilik auksionli obligatsiyalar joylashuvini ta’minlash, ya’ni investorga har xil shartnoma variantlaridan o‘ziga qulay bo‘lgan turini tanlab olish huquqini bergan. Bu usulning mohiyati shundaki, oldindan o‘rnatilgan baho bo‘yicha obligatsiya egasiga 1 troya unsiya oltin sotib olish imkonini beruvchi zayom chiqariladi. Agar oltinning bozor bahosi o‘rnatilgan bahodan yuqori bo‘lsa, bunday obligatsiyani sotib olish qiziqish uyg’otadi. Boshqa opsionli obligatsiyalar bir qimmatli qog’ozni boshqasiga almashtirish imkonini beradi. Masalan, obligatsiyani – aksiyaga, «suzuvchi» stavkali obligatsiyani qat’iy belgilangan stavkali obligatsiyaga almashtirish imkonini berish va turli xil obligatsiyalarni chiqarish shubhasiz, investor va kreditorlarni jalb etadi. Mablag’larni evrozayom bozoriga jalb etishda zayom chiqaruvchilar tomonidan turli xil qimmatli qog’ozlarni turli xil shartlarda chiqarishga yoki obligatsiyalarning kechiktirib sotishi yordam beradi. Sotib oluvchi obligatsiyaning kurs qiymatini dastlab bir qismini to‘laydi. Ma’lum vaqtdan keyin qolgan qismini to‘laydi.

13.2. Elektron pul bozori tushunchasi va unda to‘lovlarni amalga oshirish tartibi

Elektron pul bozori – bu nomoddiy ko‘rinishga ega bo‘lgan elektron pullar vositasida to‘lovlarni amalga oshirish uchun takshil etilgan maxsus markazdir. Elektron pullarning keng tarqalib borayotgan turi bo‘lib, raqamli pullar hisoblanadi. Raqamli pullar (dijital cash) –bu tovar va xizmatlar uchun to‘lov vositasi bo‘lib, raqamli ma’lumotni bir kompyuterdan ikkinchisiga uzatuvchi nomoddiy ko‘rinishga ega

bo‘lgan vosita hisoblanadi. Raqamli pullar ham moddiy ko‘rinishga ega bo‘lgan pullarniki kabi unikal raqam ketma-ketligiga ega bo‘ladi. Agar elektron tashuvchida joylashgan pullar egasi xaqida ma’lumot olish imkoniyati bo‘lsa, raqamli pullarda anonimlik mavjud, ya’ni pul egasi xaqida ma’lumot olish imkoniyati yo‘q va ular ko‘p marotaba ishlatilishi mumkin. Demak, bu tizimda ichki (raqamli) valyuta mavjud bo‘lib, uni ma’lum to‘lov tizimi ishtirokchilarida naqdlashtirish mumkin. Raqamli pullarning joriy qilinishi elektron savdoni yanada rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Oxirgi yilarda moliya bozorlarida yuqori tendetsiyalarda rivojlanib borayotgan chakana elektron to‘lov tizimi vositalaridan biri “virtual kartalar”dir.

Virtual karta – bu maxsus bank kartasi bo‘lib, u Internet orqali to‘lovlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan vositadir. U moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan vosita bo‘lib, ushbu kartochkaga internet orqali savdo qilish uchun zarur bo‘lgan foydalanuvchi ma’lumotlari kiritilgan bo‘ladi.

Odatda virtual kartalar rekvizitlari quyidagicha:

- Karta raqami (PIN)
- Amal qilish muddati: oy va yil
- Xavfsizlik kodi SVV2/SVS2
- Karta egasining ismi – virtual kartalarda ko‘rsatilmagan ham bo‘lishi mumkin.

Virtual kartalar o‘z kelib chiqishiga ko‘ra maxsus yo‘nalishga ega bo‘lgan, onlayn instrumentdir. Ushbu kartalarning boshqa kartochkalardan ahamiyatli tomoni Shundaki, bu kartochkalar orqali xorij internet-magazinlarida savdo qilish imkoniyati kengroq va eng asosiysi “virtual kartochka” bu bank hisob raqami va fizik kartasi bo‘lmagan qatnashchilar uchun qulay vositadir.

Virtual kartalarning o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. *Universallik.* Bank plastik kartochkalar, Shu jumladan virtual kartochkalar, butun dunyoda internet magazin orqali xarid amalga oshirishda qulay to‘lov vositasidir. U nobank to‘lov tizimidan farq qiladi (raqamli pullar). Ushbu tizimdan foydalanish uchun kartaga pul mablag’larini o‘tkazilishi kerak.

2. *Kartochkani olish qulayligi.* Virtual kartalarni bankka tashrif buyurmasdan Internet yoki mobil aloqa orqali olish imkoniyati

mavjudligi bilan ajralib turadi. Fizik ko‘rinishga ega bo‘lmagan kartochkani kechiktirilmagan holda murojaatni o‘zida to‘xtatish mumkin.

3. *Xavfsizlik.* Virtual kartalardan foydalanish jarayonida Internet orqali o‘g’irlik va ma’lumotlarini olish riskining kamligi, chunki virtual kartalar ko‘pincha bir marttalik to‘lov amalga oshirish uchun etarli bo‘lgan summaga ochiladi.

4. *Anonimlik.* Virtual kartalar debetli yoki oldindan to‘langan bo‘lishi mumkin. Oldindan to‘langan kartalar bank hisob rakami ochish uchun bankka murojaat qilishni talab etmaydi. Shu sababli virtual kartalar egasining ismi sharifi kartaning asosiy rekviziti hisoblanmaydi.

Mobil pullar – termini o‘z mohiyatiga ko‘ra mobil telefon vositasi orqali, ixtiyoriy kiritilgan va tugatilgan moliyaviy tranzaksiyalardir. Mobil pullar orqali taklif etiladigan xizmatlar turli shaklda bo‘lishi mumkin. Bu xizmatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Mobil to‘lov;
- Mobil banking;
- Mobil o‘tkazmalar.

Mobil pullar mobil tijorat uchun mo‘ljallangan vosita hisoblanadi.

Banking – offlayn tizimida bank kartalari hamda hisob-raqamlarini boshqarish xizmati, barcha turdagi moliyaviy hujjatlar bilan ishlash imkonini beradi. Oldingi ma’lum bo‘lgan Bank-Mijoz xizmatining evolyusion rivojlanishi natijasi hisoblanadi. Elektron raqamli imzo shifrlash mexanizmiga ega bank serveri bilan bog’langan holatda mijozlik komponentlarini avtomatik yangilashni ta’minlaydi, jamoa bo‘lib ishlash imkonini yaratadi hamda buxgalteriya dasturlari bilan o‘zaro aloqada ishlash imkoniyatiga ega.

Banking tizimi “yirik” hamda “nozik” mijozlarga mo‘ljallangan tizimlarga bo‘linadi. Oxirgi yillarda banklar chakana xizmatlarining shakli “nozik mijozlar” uchun mo‘ljallangan bo‘lishi tarafdori bo‘lishmoq-da, chunki Internet-bankingda mijozlar har qanday internet tarmog’iga ulangan kompyuter yordamida maxsus dasturiy ta’minot o‘rnatmasdan turib ham ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. “Yirik mijoz” esa ko‘proq yuridik shaxslar bilan ishlash uchun qulay hisoblanadi.

Mobil e-banking – bank kartalari yoki hisob-raqamlarini planshet, smartfonlar orqali boshqarish hisoblanadi va onlayn tizimida ishlaydi. Barcha turdagi moliyaviy xujjatlar bilan ishlash imkonini beradi. Mobil e-banking tunu kun ishlaydi, tezkor va mijozlarning elektron banking

xizmatlar ispektoridan to‘liq funksiyada foydalanishni ta’minlaydi. Ushbu xizmat turining tarkibida yana bir nechta turli xil nomlar bilan qayd etiladigan, faqatgina ayrim cheklangan imkoniyatlar bilangina bir nechta boshqa bank xizmatlari ham mavjud. Masalan Java-banking, STK-banking, Phone-banking va Shu kabi boshqa tizimlar.

Yuqorida sanab o‘tilgan tizimlarga o‘xshash va elektron to‘lovlarni amalga oshirish uchun moslashtirilgan to‘lov tizimlarini ko‘plab keltirish mumkin. Ushbu tizimlarni rivojlanishida elektron tijoratning ahamiyati katta.Uning yildan-yilga rivojlanishi yangidan yangi chakana to‘lov tizimlarini joriy qilinishida zamin yaratmoqda.

Xalqaro amaliyotda Internet tarmog’ida deyarli barcha sohalardagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida ishchan munosabatlarni amalga oshirish, aholining keng qatlamlariga Internet tarmog’i orqali tovarlarni sotish hamda iste’molchilar o‘rtasida tovarlar va xizmatlar bilan tarmoqda almashishga xizmat qiluvchi oldi-sotdi turlari keng tarqalgan hisoblanadi.

13.3. Elektron pullar muomalasini boshqarish usullari

Texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to‘lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish elektron to‘lovdir.

Elektron to‘lov tizimida tovarlar va xizmatlar to‘lovi xaridorning elektron hisobidan shaxsiy bank raqami hisobiga pul mablag’larini chiqarish imkoniga ega bo‘lgan sotuvchining elektron hisobiga pul mablag’larini o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Elektron chuntakni to‘ldirish va ulardan pul echish quyidagi usullar bilan amalga oshirish mumkin:

* tijorat banklarida naqd pul bilan;

* bank kartalari (VIZA, Master Kard, Uz Kart, Humo kart) yordamida;

* pochta orqali;

* Internet-banking yordamida;

* pul o‘tqazmalar tizimlari yordamida;

* mobil aloqa yordamida.

Savdo ishtirokchilari mustaqil ravishda savdo tizimiga kirishning quyidagi uslublaridan birini tanlashlari mumkin:

- masofaviy — ish o‘rnidan foydalanish orqali;

- valyuta birjasi savdo zalidagi ish o‘rnidan foydalanish orqali.

Valyuta birjasi savdo tizimida ishlash uchun savdo ishtirokchilarini ikki bosqichli login va parol bilan ta’minlaydi.

Birinchi bosqich logini va parolidan foydalanish huquqiga faqatgina treyder ega bo‘ladi.

Birinchi bosqich logini va paroli savdo ishtirokchisi savdo tizimini faollashtirish huquqini beradi.

Ikkinchi bosqich logini va parolidan foydalanish huquqi bank rahbari tomonidan vakolat berilgan birja savdolari bo‘yicha birja bitimlarini tuzishga mas’ul bo‘lgan shaxsga beriladi.

Ikkinchi bosqich logini va paroli savdo ishtirokchisi birja bitimini tasdiqlash huquqini beradi.

Birja bitimlarini tuzish uchun savdo tizimiga bitim tuzishga tashabbus qilayotgan savdo ishtirokchisining pul mablag’larini joylashtirish va/yoki jalb etish bo‘yicha buyurtmasi kiritiladi.

Dastlabki buyurtmada quyidagi ko‘rsatkichlar ko‘rsatilishi lozim:

- pul mablag’larini jalb etish yoki joylashtirish;
- jalb etiladigan yoki joylashtiriladigan valyuta turi;
- jalb etiladigan yoki joylashtiriladigan pul mablag’lari miqdori;
- pul mablag’larini jalb etish yoki joylashtirish muddati;
- pul mablag’larini jalb etish yoki joylashtirish bo‘yicha foiz stavkasi;
- foiz to‘lovlarini to‘lash muddati.

Savdo tizimiga kiritilgan dastlabki buyurtmaga pul mablag’larini jalb etish va/yoki joylashtirish maqsadida kontragentlar tomonidan qarshi buyurtmalar kiritiladi.

Pul mablag’larini joylashtirish uchun buyurtmalar navbati foiz stavkasining o‘sib borishi tartibida, foiz stavkalari teng bo‘lganda esa buyurtmalar taqdim etilgan vaqt tartibida joylashtiriladi.

Pul mablag’larini jalb etish uchun buyurtmalar navbati foiz stavkasining kamayib borishi tartibida, foiz stavkalari teng bo‘lgan taqdirda esa buyurtmalar taqdim etilgan vaqt tartibida joylashtiriladi.

Har bir birja bitimi tuzilganda savdo tizimi uni ro‘yxatga oladi, unga ro‘yxatga olish raqamini biriktiradi va savdo ishtirokchilariga o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishga asos bo‘ladigan birja guvohnomalarini taqdim etadi.

Tuzilgan birja bitimlari bo‘yicha barcha hisob-kitob operatsiyalarining ijrosi savdo ishtirokchilari tomonidan bitim tuzilgan bank ish kuni Markaziy bankning banklararo hisob-kitoblar bo‘yicha

elektron to‘lov xujjatlarini uzatish, qabul qilish va nazorat qilish vaqti yakunlanishiga qadar amalga oshiriladi.

Savdo tizimiga taqdim etilgan har qanday dastlabki buyurtma u bekor qilingunga, to‘liq qondirilgunga yoki birja savdolari yakuniga qadar amal qiladi. Savdo tizimiga taqdim etilgan har qanday buyurtma birja bitimlari tuzilgunga qadar savdo ishtirokchilari tomonidan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Savdo tizimi orqali tuzilgan birja bitimlari bo‘yicha pul mablag’larini qaytarish muddati kelganda jalb qilingan mablag’lar va unga hisoblangan foizlarni qaytarish bank tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Pul mablag’larini qaytarish kuni pul mablag’lari tegishli hisob raqamiga kelib tushgan kun deb hisoblanadi.

Birja bitimlari bo‘yicha barcha to‘lovlar bitim tuzilgan valyutada amalga oshiriladi. Birja bitimlari bo‘yicha joylashtirilgan pul mablag’lari tomonlarning o‘zaro keliShuviga asosan muddatidan avval qaytarilishi mumkin.

Pulning evolyusion rivojlanishida innovatsion ko‘rinishining paydo bo‘lishiga: jamiyatimizda mavjud pullardan tez va qulay foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj borgan sari oshib borib, pulning qulay evolyusion shakli elektron pullarning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bugungi kunda elektron pullardan - pullarni uzatish va saqlash hamda tizimli kompyuter tarmoqlaridagi vositachi sifatida foydalanish mumkin. Elektron pullar - muomalada bo‘lgan milliy birlikdagi pullar yoki nodavlat xususiy(shaxsiy) pul va unga tenglashtirilgan birliklar. Elektron pullardan foydalanish va ularni tartibga solishda, mamlakatning Markaziy banki tomonidan belgilangan va qabul qilingan tartib qoidalar asosida yoki nodavlat to‘lov tizimlari qoidalari asosida amalga oshiriladi.

AT «Aloqabank» tomonidan emissiya qilingan bank kartalari (2023-yil 1-yanvar) bank tomonidan muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni 1 194 609 ta (shundan: «UzCard» – 677 417 ta, «UzCard-UnionPay» kobeydj 26 697 ta, «VISA – 49 842 ta, «Numo» - 423 874 ta va boshqalar – 16 779 ta)ni tashkil etdi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga bank tomonidan naqd pulsiz to‘lov tizimini rivojlantirish va aholidan elektr energiya, tabiiy gaz, telefon aloqasi, kommunal xizmatlar, savdo hamda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlarni yig’ishga alohida e’tibor qaratilganligi sababli, joylarda **13758 ta** savdo (POS) terminal o‘rnatilgan. Savdo

(POS) terminallari soni o‘tgan yilning shu davriga (12 299 ta terminal) nisbatan **1459 ta**ga ko‘paydi va o‘sish **111,8 foiz**ni tashkil etdi (13.3.1-jadval).

13.1-jadval

AT «Aloqabank» tomonidan emissiya qilingan bank kartalari va savdo (POS) terminallar to‘g’risida ma’lumot *(dona)*

t/r	Ko‘rsatkichlar	01.01.2022 yil holatiga	01.01.2023 yil holatiga	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan	
				+ ; -	%
1	Savdo (POS) terminallari soni	12 299	13 758	1 459	111.8%
2	Bank kartalari soni	1 049 471	1 194 609	145 138	113,8%
2.1	«*UzCard*»	557 014	677 417	120 403	121,6%
2.2	«*VISA*»	132 687	49 842	-82 845	37,5%
2.3	«*UnionPay*»	60 456	43 476	-16 980	71,9%
2.4	«*Numo*»	299 314	423 874	124 560	141,6%

2023-yil 1-yanvar holatiga bankning savdo (POS) terminallar tarmog’i orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalarining umumiy summasi **36 025,2 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga (**15 890,4 mlrd. so‘m**) nisbatan **20 134,8 mlrd. so‘m** yoki **226,7 foiz**ga ortgan.

2023-yilning 1-yanvar holatiga bank kartalari hisobvaraqlaridagi qoldiq **633,52 mlrd. so‘m**ni, shuningdek xalqaro «VISA» bank kartalari hisobvaraqlaridagi qoldiq **8,84 mln. AQSH dollar**ni tashkil etdi.

13.2-jadval

AT «Aloqabank» tomonidan bank kartalari va savdo (POS) terminallari orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalar to‘g’risida ma’lumot. *(mlrd.so‘m)*

t/r	Ko‘rsatkichlar	01.01.2022 yil holatiga	01.01.2023	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan	
					%
1	Savdo (POS) terminallar tarmog’i orqali o‘tkazilgan	**15 890,4**	**36 025,2**	**20 134,8**	**226,7%**

	Tranzaksiyalar				
2	Bank kartalari hisobvaraqlaridagi Qoldiq	273,9	633,52	359,62	231,3%
3	Xalqaro «VISA» bank kartalari hisobvaraqlarid agi qoldiq	5,38 mln $	8,84 mln $	3,46 mln $	164,3%
4	Bankomatlar orqali berilgan naqd pullar	**1 139,7**	**1 903,6**	763,9	167%
5	Infokiosklar orqali o‘tkazilgan Tranzaksiyalar	5,6	3,8	1,8	67%

2023-yilning 1-yanvar holatiga Toshkent shahrida **21** ta va hududlarda **139** ta jami respublika bo‘ylab **160** ta «UzCard» va «HUMO» tizimidagi bankomatlar o‘rnatilgan.

2023-yilning 1-yanvar holatiga bankning bankomatlari orqali berilgan naqd pullarning umumiy summasi **1 903,6 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yil holatiga **1 139,7** mlrd. so‘mga yoki **167 foiz**ga oshgan.

2023-yilning 1-yanvar holatiga bankning infokiosklari orqali o‘tkazilgan to‘lovlarning umumiy summasi **3,8 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, o‘tgan yil holatiga 1,8 mlrd. so‘mga kamaygan va buni bankning «Zoomrad» mobil ilovasi orqali to‘lov xizmatlaridan foydalanish oshganligi bilan izohlash mumkin.

Bank barcha bank xizmatlarini masovafiy tarzda ko‘rsatish orqali faoliyatini raqamlashtirishni asosiy strategik maqsadi sifatida belgilab olgan.

Hozirda «Zoomrad» mobil ilovasi orqali jismoniy shaxslarga, «Aloqa Business» mobil ilovasi va «Bank-mijoz» internet banking dasturi orqali korporativ mijozlarga xizmatlar ko‘rsatib kelinmoqda.

2023-yilning 1-yanvar holatiga «Zoomrad» mobil ilovasi foydalanuvchilari soni 831 756 tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 barobarga o‘sishga erishildi.

Shuningdek yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun mo‘ljallangan «Aloqa Business» mobil ilovasi va «Bank-mijoz» internet- banking dasturi foydalanuvchilari soni 28 192 tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 34 foiz o‘sishga erishildi.

Foydalanuvchilarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish hamda raqamli bank xizmatlar ko‘lamini kengaytirish maqsadida 2022-yil mobaynida bankning «Zoomrad» mobil ilovasida bir qator qo‘shimcha xizmatlar amaliyotga joriy etildi. Jumladan:

1. Turar joy bilan bog’liq ma’lumotlar, kommunal xizmatlar balansini onlayn kuzatish va ularga to‘lovlarni amalga oshirish uchun «Mening uyim» xizmati:

- *jami foydalanuvchilar **96,2 ming;***
- *o‘tkazilgan to‘lov soni **730 ming;***
- *o‘tkazilgan to‘lovlar miqdori **38 mlrd. so‘m.***

2. Shaxsiy yoki biriktirilgan avtomobil to‘g’risidagi ma’lumotlarni onlayn kuzatib borish imkoniyati «Mening avtomobilim» xizmati:

- *jami foydalanuvchilar **105,6 ming;***
- *jarima xizmatiga ulanganlar **63,9 ming;***
- *to‘langan jarimalar soni **53,1 ming.***

3. Xorijiy valyuta (AQSH dollari)da jismoniy shaxslar o‘rtasida kartadan kartaga o‘tkazmalar – «VISA-Direct» xizmati.

4. Bankka tashrif buyurmasdan masofadan identifikatsiyadan o‘tgan holda virtual «HUMO» hamda virtual «VISA» kartalarni rasmiylashtirish xizmati:

- *ochilgan bank kartalari soni «**VISA**» **– 9 706 ta,** «**HUMO**» **– 5531 ta;***
- *o‘tkazmalar miqdori **1 140,0 ming AQSH dollari.***

5. **9 turdagi** elektron davlat xizmatlarini mobil ilova orqali onlayn ko‘rsatish xizmati.

6. Talabalarning oliy ta’lim uchun oliy ta’lim tashkilotlariga kontrakt to‘lovlarini onlayn tarzda amalga oshirish xizmatlari joriy etildi:

- *jami billing tizimiga ulangan OTMlar soni **114 ta;***
- *o‘tkazilgan to‘lovlar **39,1 mlrd. so‘m.***

Shu bilan birgalikda, 2023- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra «Zoomrad» mobil ilovasining faol foydalanuvchilari soni **732 ming**tani tashkil etdi va ilova orqali **16 923,2 mlrd. so‘mlik** kartadan kartaga pul o‘tkazmalari (P2P), **3 410,1 mlrd. so‘mlik** boshqa xizmatlar bo‘yicha tranzaksiyalar amalga oshirildi.

13.3-jadval

«Zoomrad» mobil ilovasidan amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha ma’lumotlar

(mln. so‘mda)

t/r	Xizmat nomi	O‘tkazilgan to‘lovlar miqdori
1	Onlayn konversiya amaliyotlari	418,42
2	Kreditlarni so‘ndirish to‘lovlari	447,13
3	Onlayn omonatlarni rasmiylashtirish	2 164,66
4	Onlayn mikroqarzlar olish	157,35
5	Bir martalik to‘lovlar	222,54
Jami		**3 410,10**

Bankda elektron tijoratni yanada rivojlantirish, aholi hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning to‘lovlarini masofadan turib amalga oshirish va qabul qilish tizimini yanada takomillashtirish, salmog’ini kengaytirish borasida barcha to‘lov tizimlari *(*«*Click*», «*PayMe*», «*Paynet*»,«*Paymo*», «*Paysys*», «*Beepul*», «*Upay*», «*Oson*»*)* bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yildi hamda Markaziy bank tomonidan tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan yangi to‘lov tashkilotlari («Payment System Platform», «Multicard Payment», «Yangi Payment») bilan yangi hamkorlik bitimlari imzolandi.

Bankning to‘lov xizmatlari bozoridagi 47 tashkilotlardan 23 tasi (49 foiz) bilan o‘zaro hamkorlik kelishuviga erishilgan bo‘lib, ularga ekvayring va boshqa elektron tijorat xizmatlari ko‘rsatib kelinmoqda.

2022-yil davomida mamlakat bo‘ylab ko‘rsatilgan chakana to‘lovlarning 23 foizi aynan AT «Aloqabank» virtual **(E-POS)** terminallari hissasiga to‘g’ri keldi.

13.4-rasm

To‘lov tashkilotlari bilan hamkorlik



13.5-rasm

Bank tizimida chakana to‘lovlardagi
AT «Aloqabank»nig ulushi



2022-yil davomida **1 844 ta** yangi virtual (E-POS) terminallari ro‘yxatdan o‘tkazilib, natijada virtual (E-POS) umumiy soni **13 815 ta**ni tashkil qildi. Shuningdek, 2022 yil davomida bankning virtual (E-POS) terminallari orqali olingan bank daromadi **184,4 mlrd. so‘m** va olingan yalpi foydasi **38,8 mlrd. so‘m** bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bankning ushbu faoliyatdan olgan daromadi

281,7 mlrd. so‘mni, yalpi foydasi **58,48 mlrd. so‘m**ni tashkil qildi.

13.6-rasm

Virtual (E-POS) terminallaridan olingan daromad va yalpi foyda

(mln. so‘m)



Eko tizimning shakllanishi

Bankning raqamli ekotizimi quyidagini tashkil etib, u o‘z ichiga:

- yangi startap loyihalar;
- sun’iy intellekt echimlari;
- frilanserlar uchun onlayn dasturiy echimlar;
- masofaviy ta’lim xizmatlari;
- onlayn xaridlar;

-elektron davlat xizmatlari kabi yo‘nalishlarni qamrab olgan.

13.7-rasm



Texnologik transformatsiya va yangi texnologik platforma

2022-yilda bank tomonidan bir qancha raqamli transformatsiya jarayonlari amalga oshirilib, amaliyotga tatbiq etildi. Xususan:

•Bankning biznes jarayonlarini avtomatlashtirish hamda raqamli transformatsiya qilish maqsadida Buyuk Britaniyaning «Colvir Banking System» dasturiy ta’minoti joriy etildi hamda ushbu dasturiy ta’minot 83 ta modullar tizimidan tashkil topib, 94 ta tashqi tizimlar bilan integratsiya qilindi.

•Bankning xorijiy valyutadagi bank kartalari amaliyotlari uchun «Assotsiatsiya» maqomidan «Prinsipial bank» maqomiga o‘tilib «INHOUSE» tizimi joriy etildi.

•Front-ofisda mijozlarni identifikatsiya qilish, bank operatsiyalarini verifikatsiya qilish («Face-ID») tizimi joriy etildi;

•Bankning korporativ faoliyati to‘g’risidagi ma’lumotlarini intellektual tahlil qilish bo‘yicha axborot tizimlari («BI» tizim) joriy etildi;

•Elektron navbatni boshqarish bo‘yicha axborot tizimi («Queue
Management System») joriy etildi;

•Bankning Kontakt-markaziga «CISCO» intellektual va tahliliy dasturiy ta’minoti integratsiya qilindi;

•Bankda yagona ma’lumotlar ombori tizimini yaratish maqsadida «Warehouse» tizimi joriy etildi.[90]

Dunyo pul bozorida yangi elektron pullar, virtual pullar nazariyasi paydo bo‘lganidan so‘ng, ko‘pgina olimlar ushbu nazariyani to‘laqonli ma’qullashmagan. Bugungi kundagi moliyaviy-iqtisodiy o‘zgarishlarning tub mohiyati ham Shundaki, insoniyat uchun qulay sharoitlarni yaratish hamda jarayonni zamonaviy darajaga olib chiqishdan iboratdir.

Elektron pullar konsepsiyasini o‘rganishiz natijasida, bugungi tadqiqotlarimizning asosiy ob’ekti sifatida “Bitkoin” virtual pullar nazariyasini o‘rganishga qaratdik. “Bitkoin”ni ham biz pulning yana bir evalyusion ko‘rinishi deb atasak ham bo‘ladi.

1998-yilda birinchi marta “b-money” haqidagi ilmiy izlanishini yozgan Vi Dei (Wei Dai) ham bu narsaning kelajakda qanday mashhurlikka erishishini tasavvur qilmagan bo‘lishi aniq. Keyinchalik 2000-yillar boshida o‘z izlanishlarini ommaga taqdim qilish orqali (shaxsiy veb blogi yordamida) olib borgan Nik Sabo (Nick Szabo) o‘zining Bitgold (Bitgold) g’oyasi orqali kriptovalyuta atamasini keng targ’ib eta boshladi. Lekin uning izlanishlari 2000-yil o‘rtalariga kelib noma’lum sabablarga ko‘ra to‘xtab qoladi va Shunga qaramasdan 2008-yilda YAponiyalik tadqiqotchi Satoshi Nakamoto o‘zining “Bitkoin” haqidagi tadqiqot qog’ozini yangi ochgan veb-sayti, www.bitcoin.org orqali chop etadi va Shu yilning Noyabr oyidan boshlab uni keng rivojlantirishga kirishadi. Buning natijasi o‘laroq, 2009 yining yanvar oyida Bitkoinning birinchi beta versiyasi (ilk shakli) tayyor bo‘ladi va birinchi bitkoinlar “qazila” (emissiya qilish) boshlanadi.

“Bitkoin” (inglizcha bit – ma’lumot birligi va coin – tanga degan ma’nolarni anglatadi) bu piring (ikki aloqa qatnashchilari orasida vositachisiz bog’lanish) ko‘rinishdagi elektron to‘lov tizimi hisoblanadi. Bitkoin (birinchi harfi katta harf bilan yozilsa odatda Bitkoin tizimi tushuniladi) umuman olganda bitkoinlar (boshidagi harfi

[90]AT “Aloqabank”ning 2022-yil faoliyati yakunlari taqdimoti

kichik bitkoin deyilganda tanga yoki bitkoin birligi tushuniladi) deb nomlanuvchi virtual valyutalar tizimidir. Uning to‘liq ta’rifi hozircha munozarali bo‘lib qolmoqda, masalan ayrim mutaxassislar, uni “raqamli valyuta” deb xarakterlagan bo‘lsa, rasmiy hujjatlarda asosan Jahon Banki yoki Evropa Markaziy banki tomonidan “virtual valyuta” deb izohlanadi. Shu bilan birga AQSH Moliya Vazirligi qoshidagi FinCEN (FinCEN) tashkiloti Bitkoinni “markazlashmagan virtual valyuta” sifatida klassifikatsiyalaydi. Suningdek, Bitkoin kriptografiyada (*grekcha - mavhum, sirli degan ma’nolari mavjud. Mavhumlikni ta’minlash usullarini o‘rganadigan fan* asoslanganligi tufayli u kriptovalyutalar (raqamli valyutaning bir ko‘rinishi bo‘lib), emission jarayonni va uning hisob-kitoblarini assimetrik raqamlashga hamda proof-of-work(holating bajarilganligini isbotlash usuli) yoki proof-of-stake(holatni tasdiqlash) turli kripto himoyalashga asoslangan toifasiga ham kiradi. Bitkoinni markaziy boshqaruv yoki nazoratga ega bo‘lmagan, kriptografik elektron raqamli valyuta sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, bitkoin yaratilmasidan oldin ham ko‘plab virtual valyutalar amaliyotda qo‘llanilgan va qo‘llanilib kelinmoqda. Ularga misol qilib e-Gold, WebMoney, Ripple, Litecoin va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Lekin ulardan Bitkoinning eng katta farqlari shundaki: uning markazlashmaganligi, to‘lovlarning anonimligi(yashirinligi), bitkoin birligi emissiyasini chegaralanganligi (*21 mln.dan ortiq bitkoinni emissiya qilish mumkin emas*), hech qanday tashkilot yoki davlat tomonidan boshqarilmasligi va boshqalar. Uning bu sifatlari birlashib uni rivojlangan internet kriptovalyutalari orasida ajralib turishiga yordam beradi.

Bu noananaviy valyutaning rivojlanishi natijasida umumiy ekvivalent sifatida mavjud oltinning ham hal qila olmagan quyidagi masalalarni hal etganligi:

- transfer qilishning osonligi;
- himoya qilishning soddaligi;
- haqiqiyligiga tekshirishning qulayligi va osonligi;
- bo‘laklashning qulayligi (har bir birlik bitkoin 0,00000001 gacha bo‘laklash mumkin) bilan ajralib kelmoqda.

Shu bilan birga, odatdagi naqd qog’oz (fiat) pullardan farqi va ustunliklari:

- taminlashning cheklanganligi, ya’ni pul emissiyasi ma’lum bir nuqtagacha chegaralangan bo‘lib, uni hech kim xohlagancha emissiya qila olmaydi;
- markaziy boshqaruv organi tomonidan nazorat o‘rnatilmaganligi;
- qarz majburiyatiga asoslanmaganligi, ya’ni tranzaksiya amalga oshirilganda emitentning xaridor oldidagi majburiyati saqlanib qolmasligi va boshqalar bilan ajralib turadi.

Odatiy elektron pullarga o‘xshamagan jihatlari:

- muzlatib bo‘lmasligi;
- transferlarning tezligi;
- transfer baholarining arzonligi bilan izohlanadi.

Bir birlik bitkoin narxining tartibsiz o‘zgarishi emission holatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan. 2009-2016-yillar oralig’ida bitkoinlarning emission holatining doimiy o‘zgarishini biz, 13.4-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

13.4-jadval

Bitkoinlarning emission holati (05.01.2009 –04.01.2016 yillar) ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Bitkoinlarning emission holati (birlikda)
1	05.01.2009	4 333,33
2	04.01.2010	1 681 250,00
3	03.01.2011	5 068 778,57
4	02.01.2012	8 040 842,86
5	07.01.2013	10 650 996,43
6	06.01.2014	12 239 789,29
7	05.01.2015	13 703 039,29
8	04.01.2016	15 056 114,29

Keltirilgan 13.3.4-jadvalda biz, 2009 yildan 2016 yilga qadar bitkoinlarning emission holatining umumiy qiymatining doimiy o‘zgaruvchan ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bitkoinlarning emission jarayoni 2009 yildan boshlangan bo‘lsa, o‘sha davrda bitkoinlar emissiyasining umumiy qiymati 4333,33 birlikni tashkil etgan edi, 2010 yildan boshlab uning hajmi 1 mln. birlikdan oshganini, 2013 yilning boshidan boshlab bitkoinlarning emissiyasi hajmi 10 mln.

birlikdan oshganini, 2016-yil boshidan boshlab esa uning ko‘rsatkichi 15 mln. birlikdan oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bu holatni, bitkoinlarga va uning emissiyasiga bo‘lgan qiziqishning vaqt o‘tgan sari oshib borayotganining isboti sifatida kuzatishimiz mumkin.

Bitkoin narxining o‘zgarishi va bir birlik bitkoin emission jarayonini kuzatar ekanmiz uning yana bir ko‘rsatkichi bizni tobora qiziqtirib bormoqda. Bitkoinlarning 15 mln.dan ortiq birliklari moliyaviy bozorda qanday ulushga ega, uning kapitalizatsiya darajasi qay darajada, ushbu tahliliy ma’lumotlarni biz yana bir muhim ko‘rsatkich sifatida o‘rganishga harakat qildik.

2010-2016-yillarda dunyo moliya bozorida talab va taklif qonunlari asosida bitkoinlarning elektron birjalarda shakllangan umumiy kapitalizatsiya qiymatini biz, keltirilgan 13.5-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

13.5-jadval

Bitkoinlarning umumiy bozor kapitalizatsiya darajasi (17.07.2010-01.01.2016- yillar) ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Bitkoinlarning umumiy kapitalizatsiya summasi (AQSH dollarida)
1	17.07.2010	0
2	18.07.2010	295 941,80
3	01.01.2011	1 508 865,00
4	01.01.2012	42 191 322,77
5	01.01.2013	141 264 250,15
6	01.01.2014	9 403 148 823,76
7	01.01.2015	4 293 100 779,20
8	01.01.2016	6 531 195 386,40

Keltirilgan 13.5-jadvalda biz, dunyo mamlakatlari birjalarida bitkoinlarning umumiy bozor kapitalizatsiya darajasi, 2010-yilning 17-iyul oyidan boshlab 2016-yilning 1-yanvar holatidagi o‘zgarishlar tahlilini keltirdik. Bitkoinlarning umimiy bozor kapitalizatsiya darajasi 2010-yilning 18-iyulida 295941,8 AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2014-yilning boshida uning summasi 9 mlrd. AQSH dollaridan oshganini ko‘rishimiz mumkin. 2010-yildan to 2014-yilga qadar, qisqa

davr mobaynida bitkoinlarning bozor kapitalizatsiya qiymatining keskin o‘zgarishini, 31773 koeffitsientga oshganlik darajasini sezilarli ko‘rsatkich deb ta’kidlab o‘tishimiz zarur. 2016-yil 1-yanvar holatida uningkapitalizatsiya darajasi 6,5 mlrd. AQSH dollaridan oshgani, uning dunyo moliya bozorida o‘z o‘rni borligini anglatmoqda.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, bugungi kunda bir birlik bitkoinning narxi o‘rtacha 700-750 AQSH dollari miqdorida bo‘lsa ham, mutaxassislarning turli xildagi ijobiy va salbiy fikr va qarashlariga sabab bo‘lmoqda. Masalan: ba’zilari kelajakni belgilab beruvchi kashfiyot deyishsa, boshqalari hali etilmagan oddiy iqtisodiy va moliyaviy konsepsiya deb qarab, bitkoinni tanqidga olishmoqda. To‘g’ri hamma narsaning o‘z salbiy tomonlari bo‘lgani singari bitkoin ham kamchiliklardan holi emas. Bulardan biri, balki eng ko‘zga ko‘ringani uning taminlanmaganligidadir. Bitkoin bir o‘zi hech qanday qiymatga ega emas, uning qiymati va barqarorligini taminlash va nobarqaroligini oldini olishning yagona yo‘li bu uni ommalashtirishda deb o‘ylaymiz. Agar ishonchlilik va ta’minlanganlik sifatlarini olgan holda bitkoinga turli savdo saytlari to‘lovlarni qabul qila boshlasalar, bitkoin o‘z o‘rnida ularning tovarlari bilan ta’minlanib boradi.

Bitkoinning qanchalik ko‘p muomalada bo‘lishi, uning qadrli bo‘lishi va dunyo moliya bozorida o‘z o‘rnini mustahkam egallab turishi elektron birjalarda shakllangan talab va taklifdan kelib chiqishini unutmaslik lozim.

Xulosa o‘rnida Shuni ta’kidlash kerakki, tez rivojlanib borayotgan texnologiyalar davrida bitta g’oyani uzoq qolishiga ishonish qiyin. Hech narsa mukammal bo‘lmaganidek bitkoinlar ham, kamchilik va yutuqlarga ega. Maqsad uning yutuqlaridan foydalangan holda, kelajakda asrlar davomida rivojlanib kelayotgan pulni mazmun va mohiyatini yana bir pog’ona yuqoriga ko‘tarishdan iboratdir.

Qisqacha xulosalar

Moliya bozori – bu moliyaviy xizmatlar taklif etiladigan bozordir. Moliya bozorining quyidagi segmentlari mavjuddir: ssuda kapitallari bozori; valyuta bozori; qimmatli qog’ozlar bozori; sug’urta bozori; lizing bozori.

Ssuda kapitallari bozorida kredit resurslari oldi-sotdi qilinadi. Ssuda kapitallari bozorining o‘zi 2 ta segmentga ega: qisqa muddatli pul bozori; kapital bozori. Valyuta bozorida turli xil valyutalar oldi-

sotdi qilinadi. Qimmatli qog’ozlar bozorida qimmatli qog’ozlar oldi-sotdi qilinadi. Sug’urta bozorida sug’urta xizmatlari taklif etiladi. Lizing bozorida lizing kompaniyalari va tijorat banklari tomonidan lizing xizmati taklif etiladi.

Moliya bozori instrumentlarini boqsharishda quyidagi usullardan foydalaniladi: orttirish va diskontlash; pullarning kelajakdagi bahosini aniqlash; daromadlilikning joriy va to‘liq normasini ta’minlash.

Elektron pul bozori – bu nomoddiy ko‘rinishga ega bo‘lgan elektron pullar vositasida to‘lovlarni amalga oshirish uchun takshil etilgan maxsus markazdir. Elektron pullarning keng tarqalib borayotgan turi bo‘lib, raqamli pullar hisoblanadi.

Oxirgi yilarda moliya bozorlarida yuqori tendetsiyalarda rivojlanib borayotgan chakana elektron to‘lov tizimi vositalaridan biri “virtual kartalar”dir.

Elektron chuntakni to‘ldirish va ulardan pul echish quyidagi usullar bilan amalga oshirish mumkin: tijorat banklarida naqd pul bilan; bank kartalari (VIZA, Master Kard, Uz Kart, Humo kart) yordamida; pochta orqali; Internet-banking yordamida; pul o‘tqazmalar tizimlari yordamida; mobil aloqa yordamida.

Elektron pullar ob’ekti sifatida “Bitkoin” virtual pullar hisoblanadi. Bitkoinning eng katta farqlari Shundaki: uning markazlashmaganligi, to‘lovlarning anonimligi(yashirinligi), bitkoin birligi emissiyasini chegaralanganligi (*21 mln.dan ortiq bitkoinni emissiya qilish mumkin emas*), hech qanday tashkilot yoki davlat tomonidan boshqarilmasligi va boshqalar. Uning bu sifatlari birlashib uni rivojlangan internet kriptovalyutalari orasida ajralib turishiga yordam beradi. Bitkoin ham kamchiliklardan holi emas. Bulardan biri, uning taminlanmaganligidadir. Bitkoin bir o‘zi hech qanday qiymatga ega emas, uning qiymati va barqarorligini taminlash va nobarqaroligini oldini olishning yagona yo‘li bu uni ommalashtirishda.

Tayanch so‘z va iboralar

Ssuda kapitallari bozori, valyuta bozori, qimmatli qog’ozlar bozori, sug’urta bozori, lizing bozori, agressiv, konservativ, ularning gibridiga asoslangan investorlar, orttirish, diskontlash, elektron pul bozori, “virtual kartalar”, karta raqami (PAN), mobil pullar, mobil to‘lov, mobil banking, mobil o‘tkazmalar, bitkoin, kriptavalyut.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliya bozori deganda nimani tushunasiz?
2. Moliya bozori segmentlari tarkibi nimalardan iborat?
3. Ssuda kapitallari bozorida qanday resurslari oldi-sotdi qilinadi?
4. Valyuta bozorida qanday valyutalar oldi-sotdi qilinadi?
5. Qimmatli qog’ozlar bozorida qanday qog’ozlar oldi-sotdi qilinadi?
6. Sug’urta bozorida qanday xizmatlari taklif etiladi?
7. Lizing bozorida lizing kompaniyalari va tijorat banklari tomonidan qanday xizmatlar taklif etiladi?
8. Elektron pul tushunchasining iqtisodiy mohiyatiga tariff bering?
9. Elektron chuntakni to‘ldirish va ulardan pul echish qanday usullar bilan amalga oshiriladi?
10. “Bitkoin”ga tariff bering?
11. Bitkoin noananaviy valyutaning rivojlanishi natijasida qanday masalalarni hal etgan?

14-bob. TIJORAT BANKLARINING FOIZ SIYOSATI VA UNI BOSHQARISH

14.1. Tijorat banklari foiz siyosatining mohiyati va unga ta’sir qiluvchi omillar

Tijorat banklarining foiz siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir etuvchi muhim instrumentlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bankning foiz siyosati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdgi “Infilatsion taregetlash rejimiga bosqichma bosqich o‘tish orqali pul kredit siyosatini takomilashtirish to‘g’risida”gi PF-5877-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g’risida” va “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g’risida”gi qonunlari hamda 2004-yil 30-yanvarda 1306-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Tijorat banklarida foiz hisoblash to‘g’risida” hamda 2004-yil 24-yanvarda 1304-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Foizlarni o‘stirmaslik to‘g’risida”gi nizomlar suningdek markaziy bankning me’yoriy hujjatlari va bankning ichki me’yoriy hujjatlari hamda ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar talablariga muvofiq ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan m’yriy xujjatlarga asos bo‘lib Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi asos bo‘lib hisoblanadi (1-ilova)[91]

Tijorat banklari foiz stavkalaridan har doim iqtisodiyotni makro va mikro darajada tartibga solish uchun foydalaniladi. Agar iqtisodiyotni mikro darajada o‘rganadigan bo‘lsak, tijorat banklari tomonidan foiz siyosatini qay darajada samarali ishlab chiqganligiga, ya’ni kredit va depozitlar bo‘yicha o‘rnatilgan foiz stavkalariga bog’liq bo‘ladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish yo‘lida moliyaviy xizmatlar bozorida tijorat banklari faol ishtirok etib kelmoqda. Ular tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga turli xildagi xizmatlar ko‘rsatilmoqda. Umuman olganda, aholiga taklif etilayotgan va uning turli qatlamlari uchun qulay va manfaatli bo‘lgan omonat turlarining soni oshib bormoqda. YUridik shaxslarga, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga turli yo‘nalishlarda qisqa va uzoq muddatli kreditlar berilmoqda, banklarning lizing operatsiyalari hajmi ortib bormoqda. Ma’lumki, tijorat banklari depozitlari va kreditlari miqdorining o‘sishi tijorat banklari foiz siyosati

[91]Источник: https://www.bss.uz/article/2142-2024-yilda-zbekistonda-ayta-moliyalashtirish-stavkasi-u-nima-va-amaldagi-stavka

bilan chambarchas bog’liqdir. Bank tomonidan depozitlar bo‘yicha o‘rnatiladigan foiz stavkalari, Suningdek, kreditlar bo‘yicha undirish uchun belgilangan foiz stavkalari bankning depozit va kredit operatsiyalari hajmining o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bank operatsiyalari bo‘yicha bank tomonidan to‘lanadigan va undiriladigan foizlar miqdori bankning alohida hujjatlarida aks ettiriladi. Ilgari respublikamiz banklarida kredit siyosati, depozit siyosati, foiz siyosati degan tuShunchalar bo‘lmagan. Xalqaro bank amaliyotini o‘rganish natijasida milliy bank tizimida yuqorida sanab o‘tilgan bank siyosatlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Dastlab foiz siyosati depozit va kredit siyosati ichiga kirgan bo‘lsa, keyinchalik alohida foiz siyosati ishlab chiqilib, bank amaliyotida qo‘llanilib kelmoqda.

Tijorat banklarining foiz siyosati depozitlar va kreditlarning oqilona foiz stavkalarini shakllantirish va foiz riskini boshqarish bilan bog’liq tadbirlar majmuasidir.

Tijorat banklarining foiz siyosatining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Foiz siyosatining asosiy maqsad va vazifalari: foiz siyosatining asosiy maqsadi foiz siyosatida aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lishi lozim. Ayrim banklarda foiz siyosatining asosiy maqsadi sifatida foiz risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish belgilab qo‘yiladi, boshqalarida esa sof foizli daromad darajasini oshirish ko‘rsatiladi.

2. Foiz riskini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan holatlar: bunday holatlar odatda kredit qo‘yilmalarining hajmini keskin oshirilishi natijasida yoki kreditlarning bozor stavkalarini sezilarli darajada oshishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

3. Foiz riskini boshqarish usullari: odatda bank amaliyotida foiz riskini asosiy boshqarish usullari sifatida foizli svoplardan keng foydalanadilar, kichik banklarda esa ko‘proq kredit riskiga limitlar o‘rnatish uslubidan foydalanadilar.

4. Foiz stavkalarini o‘stirmaslik maqomini belgilash tartibini joriy qilish.

Tijorat banklari har bir aniq kelishuvlarida foiz me’yorini hisoblaganda quyidagilar e’tiborga olinadi:

- ta’minlangan ssudalar bo‘yicha eng kreditga layoqatli mijozlar uchun aniq muddatga beriladigan bazaviy foiz stavkasining darajasini;

- har bir alohida keliShuvning shartlarini inobatga olgan holda tavakkalchilik uchun qo‘shimcha to‘lov.

Tijorat banklarining daromad olish sohasi faoliyati uning foiz siyosati orqali amalga oshiriladi. Bank kredit bera turib mijozning foyda olishi uchun shart-sharoit yaratar ekan, demak, o‘zining manfaatini ham amalga oshirgan bo‘ladi. Banklar foiz siyosatini amalga oshirishda omonatlar bo‘yicha to‘lanadigan foizni ularning o‘zlari taqdim etadigan ssudalar uchun oladigan ssuda foizidan pastroq qilib belgilaydi. Olingan va to‘langan foizlarning summalari o‘rtasidagi farq banklarning foydasini tashkil etadi.

14.2. Tijorat banklari amaliyotida foydalaniladigan foiz stavkalari, ularning asosiy turlari va boshqarish usullari

Foiz stavkasi – jalb qilgan mablag’lar bo‘yicha kelishilgan daromadlilik stavkasidir. Amalda mablag’larni jalb qilish turlari qancha ko‘p bo‘lsa ularni foiz stavkasi turlari ham ham Shuncha ko‘p bo‘ladi. Misol, qarz oluvchi uy sotib olish maqsadida berib turilgan qarz pul uchun mazkur zayom bo‘yicha foiz stavkasi to‘laydi, bu o‘z navbatida qo‘yilgan mablag’(nakd, mulk va boshqalar) bo‘yicha foiz stavkasi deb yuritiladi; bankni firmadan ushlayotgan stavkasi esa tijorat krediti bo‘yicha foiz stavkasi deyiladi.

Foizlarni hisoblashda tartib bo‘yicha diskret (diskret foizlari) usulida, bunda ham hisoblash davrlari oy, chorak va yil sifatida qabul qilinadi. Ayrim hollarda har kunlik hisoblash qo‘llanilib, (misol, uzoq muddatli investitsiyalarni analiz qilish uchun) mijozlarga ma’qul kelishi uchun ayrim hollar da foizni uzluksiz hisoblash usuli qo‘llaniladi.

Foiz stavkani son jihatdan moliyaviy tahlil etishda nafaqat qarz summasini ko‘payish quroli ko‘rinishda, balki kengroq ma’noda bevosita mablag’larni bir egasidan boshqasiga oqib o‘tish va ko‘payish orqali tijorat va moliyaviy faoliyatdan keladigan daromadlilik darajasini o‘lchash uchun joriy etiladi. Foiz stavkalar avvalgi u yoki bu boshlang’ich summasiga yoki avalgi davolar uchun hisoblangan foiz summasiga ssudani mazkur muddatni barcha davolari (oddiy foiz stavka)ga qo‘llaniladi. Shunga o‘xshash hisob stavkalari ham qo‘llaniladi. Mos holda, asosiy foiz stavka 4 turi bir biridan tubdan farq qiladi: oddiy va murakkab foiz stavkalari, oddiy va murakkab hisob stavkalari.

Amaliyotda fiksirlangan stavkadan tashqari suzib yuruvchi yoki o‘zgaruvchan stavkalari mavjud. Ayrim holatlarda shartnomalarda ayrim bazaviy stavkalari (pul bozoridagi stavkani vaktlar bo‘yicha o‘zgarishidan, misol uchun London banki tomonidan o‘rnatilgan «LIBOR»stavkasi)ga fiksirlangan qo‘shimcha daromad-marja qo‘shiladi. Shunday qilib, umuman stavka qaysiki, foiz hisoblanayotgan stavka bazani o‘zgarishi hisobiga o‘zgarib turadi. SHartnomalardagi marjani hajmi vaqtlar bo‘yicha o‘zgarishi orqali ko‘rsatilishi mumkin.

Nominal foiz stavkasi deganda e’lon qilingan foiz stavkasi tuShuniladi. Real foiz stavkasi deganda nominal foiz stavkasini pulning qadrsizlanish darajasiga muvofiqlashtirilgan darajasi tuShuniladi. Foizning nominal stavkasi (i) va real stavkasi (r) deb belgilansa:

$$\mathbf{r = i + x,}$$

bu erda, x – inflyasiyaning kutilayotgan darajasi.

Rivojlangan davlatlar pul-kredit tizimida foiz stavkalarning turli-tumanligi mavjud. Foiz stavkalarning birinchi darajasi – Markaziy bank tomonidan tijorat bankiga taqdim etiladigan kreditlar bo‘yicha belgilanadigan rasmiy foiz stavkasidir. Mazkur foiz stavkasi hisob yuritish yoki qayta moliyalashtirish foiz stavkasi deb ataladi.

Foiz stavkalarning navbatdagi darajasi kredit resurslarining banklararo bozoridagi taklif stavkalaridan iboratdir. Etakchi banklar birinchi darajali banklar evrovalyutalarida ushbu banklarda depozit hisobvaraqlarini ochish orqali kreditlashni taklif stavkalari bo‘yicha amalga oshiradi. Misol sifatida LIBOR (LIBOR – London Inter Bank Offered Rate) London banklararo taklif stavkasini keltirish mumkin. Ushbu stavka rasmiy asosda belgilanmaydi, balki har bir tijorat banki mazkur stavkani har bir ish kunining birinchi yarmi, ya’ni soat 11.00 holatiga pul-kredit bozorining kon’yunkturasidan kelib chiqqan holda aniqlaydi. LIBOR stavkasi deganda ushbu banklar bo‘yicha o‘rtacha arifmetik miqdor sifatida hisoblangan o‘rtacha stavka tuShuniladi.

FV = 1000 dollar x 1,10 = 1100 dollar.

Agarda Siz 1100 dollarni hisob raqamida yana bir yilga qoldirsangiz, unda ikkinchi yil yakunida pulingiz qancha bo‘ladi? Ikkinchi yil davomida Siz 1100 dollarli summaga yillik 10% hajmida

daromad olasiz va hisoblangan foizlarning summasi 0,10 x 1100 = 110 dolarga teng bo‘ladi. Demak ikkinchi yilning oxiriga kelib Siz 1210 dollarning egasi bo‘lasiz.

Murakkab foizlarning tabiati to‘g’risida aniq bir tasavvurga ega bo‘lish uchun biz istiqboldagi qiymatni (1210 dollar) uch tarkibiy qismga bo‘lamiz. Birinchi qism – bu dastlabki 1000 dollar. Ikkinchi qism bo‘lib esa mazkur 1000 dollarga birinchi yil uchun 100 dollar va ikkinchi yil uchun 100 dollar hajmida hisoblangan foizlar hisoblanadi. Omonatning asosiy summasiga hisoblangan foizlar oddiy foizlar (simple interest) deb ataladi

Endi, yana 10 dollar hajmidagi foizlar mavjud, ular ikkinchi yili olingan bo‘lib, birinchi yil uchun foizlar sifatida olingan 100 dollarlik summaga hisoblangan. To‘langan foizlarga hisoblangan foizlar murakkab foizlar (compound interest) deb ataladi. Foizlarning umumiy hisoblangan summasi (210 dollar) oddiy foizlar (200 dollar) va murakkab foizlar (10 dollar)dan iborat.

FV = 1000 dollar x 1,1 x 1,1 = 1000 dollar x $1,1^2$ = 1210 dollar

Uch yildan so‘ng ushbu summa

FV = 1000 dollar x 1,1 x 1,1 x 1,1 = 1000 dollar x $1,1^3$ = 1331 dollar.

Respublikamiz bank amaliyotida foiz stavkasining qat’iy va suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalaniladi. Bu foiz stavkalari banklarning depozit va kredit siyosatiga ta’sir ko‘rsatadi. Tijorat banklari kreditor sifatida suzib yuruvchi foiz stavkalarini o‘rnatishdan manfaatdor. Chunki bunda bank foiz stavkalarini tebranishidan o‘zini manfaatini aniqlaydi. Mijozlar esa kredit olishda qat’iy foiz stavkalaridan foydalanishga harakat qiladilar. Qat’iy foiz stavkalarida kredit olish mijozni foiz stavkasini oshib ketishi natijasida ortiqcha xarajat qilish xavfidan ozod etadi. Mijozlar tijorat banklariga depozit qo‘yishlarida aksincha, bank bilan shartnomada kelishgan holda suzib yuruvchi foiz stavkalarini o‘rnatilishidan manfaatdordir. Bu holatda mijozlarning qayta moliyalashtirish stavkasining o‘zgarishi va boshqa omillarni hisobga olgan holda belgilangan foiz stavkasining oshishi natijasida qo‘shimcha daromad olish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

14.3. Xorijiy davlatlar bank amaliyotida foiz stavkalarini shakllantirish tajribasi

Piter Rouz (1997) ning fikriga ko‘ra tijorat banklari tomonidan to‘qnash keladigan risklar orasida foiz riskini xavflilik darajasi yuqori deb ta’kidlangan, chunki foiz stavkalarining keskin o‘zgarishi banklarning daromadiga hamda bank aktivlari, passivlari va kapitali qiymatiga ta’sir etadi. Foiz riskini oldini olish uchun moliyaviy operatsiyalarni xedjerlash kerak bo‘ladi. Foiz riskini xedjerlash moliyaviy instrumentlarni sotish yoki sotib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ularni foizli opsionlar, foizli fyucherslar va foizli svoplar orqali himoyalash mumkin:

- foizli opsion zayomda belgilangan narxda kelishilgan ma’lum bir davrda o‘rnatilgan foiz stavkasida (majburiy bo‘lmagan holda) foiz to‘lash yoki olish huquqini beradi;
- foizli fyuchers kelajakda belgilangan muddatda foiz stavkasida kreditlar berish yoki depozitlar olishga majburiyat beradi;
- foizli svop-to‘lovlarni suzib yuruvchi foiz stavkasidan qat’iy belgilangan foiz stavkasiga yoki teskarisini qo‘llashga imkon beradi.

Klassik nazariyada Keyns Dj.M. (1899) foiz stavkasi va uning me’yori haqida foiz me’yori bozorda kapitaldan foydalanganlik uchun to‘lanadigan baho sifatida aniqlanadi degan fikrni bildirgan. Amerikalik iqtisodchi I.Fisher (2001) foiz stavkasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Foizning darajasini foiz mukofoti sifatida aniqlasak bo‘ladi, chunki u pulda aks etgan bo‘lib shartnomada kelishilgan davrdan keyin to‘lanishi kerak”. O.I.Lavrushin (2014) ssuda foizi turli narxdagi qiymatining bahosi, uning ma’lum bir foydalanilgan davrdagi qiymat xisobidan kelib chiqishini bildirgan. Agar ilmiy nuqtai nazardan qarasak ssuda uchun belgilangan foiz stavkasi qarz oluvchining daromadini bir qismidan kelib chiqadi. Qulliev I.YA. (2010) tijorat banklarida kredit bahosini shakllantirishda bir qator omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi degan fikrda. Tijorat banklarining kredit bahosining me’yori banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar bahosi, kredit operatsiyalari bo‘yicha bankning operatsion xarajatlari, kredit riski bo‘yicha ustama hamda bankning marjasi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu holatda kreditning bahosini quyidagi formula orqali aniqlagan.

$$\boldsymbol{R = Dr + Do + P + S + A}$$

Bunda, R – bank krediti bahosi;
Dr – bankning jalb qilingan mablag’lari bahosi;
Do – tijorat banki operatsion xarajatlari;
P – kredit riski bo‘yicha ustama;
S – bank marjasi;
A – bank tomonidan belgilanadigan qo‘shimcha to‘lovlar.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 30-yanvarda 1306-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g’risida”gi nizomga asosan kredit berilgan kundan foizlar 16309-hisobvaraqda hisobga olib boriladi (Nizom, 2004). Shartnomada belgilab berilgan muddatlarda foiz summasi undiriladi. Agar mijoz o‘z vaqtida kreditni qaytarmasa, bu holda foiz stavkasi shartnomaga asosan muddatli kreditga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Muddati o‘tgan foizlarning hisobi 16377- hisobvaraqda hisobga olib boriladi va har bir o‘tgan kuni uchun 0,1% miqdorida mijoz tomonidan jarima to‘lanadi. Bankda aktiv operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalarini shakllantirishda quyidagi omillar inobatga olinadi:

- markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi;
- bozor sharoitlari;
- pul mablag’larini oshirish xarajatlari;
- proektning riskli darajasi;
- qarzdorning moliyaviy darajasi, ishonchlilik darajasi, to‘lovga qobiliyatliligi.

Bank kreditidan foydalanilgan vaqt uchun haq to‘lash kredit narxini yoki bahosini tashkil etadi, u hisobot oyi boshlangunga qadar bank bo‘yicha yuzaga keladigan o‘rtacha foiz stavkasi va marjani o‘z ichiga oladi. Bank oladigan va to‘laydigan foiz o‘rtasidagi farq marja deb yuritiladi. Ba’zi adabiyotlarga ko‘ra foiz marjasi – bank aktiv va passiv operatsiyalari bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalari o‘rtasidagi farqdir. Yo.Abdullaev, T.Qoraliev fikriga ko‘ra, “foiz marjasi – bank aktivi keltirgan daromad foizi bilan bank majburiyatlari bo‘yicha xarajat foizi o‘rtasidagi tafovutdir”.

Marja – kreditlar va sof to‘lovli majburiyatlar foiz stavkalari o‘rtasidagi farqdir. Xalqaro standartlarga asosan marja 2 foizdan kam bo‘lmagan miqdorni tashkil etishi tavsiya qilinadi. Demak, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda foizli marja – bu bank aktivlaridan daromad keltiruvchi foizli daromad va bank majburiyatlari bo‘yicha foizli xarajat o‘rtasidagi farq degan xulosa qilish mumkin. Foizli

marjani foizlar bo‘yicha keladigan sof daromad ham deb atashadi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi,

$$M = (Df - Rf)/ Ad * 100\%$$

M – foizli marja;

Df – foizli daromad;

Rf – foizli to‘lovlari bo‘yicha xarajatlar;

Ad – foiz ko‘rinishida daromad keltiradigan aktivlar. Foiz marjasi bu bankning foiz bo‘yicha ko‘rgan daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Marja bank xarajatlarini qoplash uchun, risklarni, inflyasiyani inobatga olgan holda daromad ko‘rish uchun mo‘ljallangan. Xalqaro amaliyotda tijorat banklarini daromadlarini hisoblashda operatsion marja ham ishlatiladi. Operatsion marja bankning asosiy operatsiyalaridan ko‘radigan daromadlari, quyidagi formula orqali hisoblab topiladi.

$$OpM = Dbokd / Adka * 100\%$$

Dbokd – bankning asosiy operatsiyalaridan ko‘radigan daromadlari; Adka – daromad keltiruvchi aktivlar. OpM – operatsion marja.

Tijorat banklarining asosiy operatsiyalaridan ko‘radigan daromadlari tarkibi:

- sof foizli daromad;
- valyuta operatsiyalaridan ko‘rilgan sof daromad;
- qimmatli qog’ozlar bo‘yicha qilingan operatsiyalardan ko‘rilgan sof daromad;
- lizing operatsiyalaridan ko‘rilgan sof daromad;
- qimmatbaho metallar bilan qilingan operatsiyalarda ko‘rilgan sof daromad.

Haqiqiy marjani olish uchun bankning jami foizli daromadlari va jami foizli xarajatlari o‘rtasidagi farqdan yoki ma’lum bir foizli aktiv operatsiyalari o‘rtasidagi farqdan ko‘rish mumkin. Masalan kreditlar bo‘yicha foiz undiruvi va kredit resursi uchun foizli xarajatlar farqi. Haqiqiy foizli marja quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M = Fk - Fr$$

M – haqiqiy foizli marja;

FK – kreditlar bo‘yicha oylik foiz stavkasi;

FR – resurslar bo‘yicha oylik foiz stavkasi.

Foizli marjaning hajmiga, kreditlarning tarkibi, tuzilishi va ularning manbalari asosiy faktorlar bo‘lib hisoblanadi. Kreditlarni muddatlari bo‘yicha joylashtirish, riskdan himoyalash, kredit maqsadlari, kreditni daromadliligini ta’minlaydi. Bu holatda depozitlarning hajmi, turi va muddatlari muhim o‘rin tutadi. Foizli marjaning o‘zgarishi banklarning aktiv operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalarining ko‘tarilishi va tushishi bilan bog’liq bo‘lishi, jalb qilingan pullik resurslarning passiv operatsiyalarga ta’siri va uning kreditlardagi ulushi ham ta’sir etishi mumkin. Jalb qilingan pullik resurslarni muddatlari va kreditlarning muddatlari marjaga ta’sir etadi. Tijorat banklarining hisob kitoblarini samarali olib borilayotganini hisoblash uchun tijorat bankining spredini aniqlash kerak bo‘ladi. Hamda sof foizli marja, tijorat bankining faoliyatini raqobatbardoshliligini va boshqa jihatlarini o‘z ichiga oladi. Spred quyidagi formula orqali aniqlanadi.

Spred = Fd /Ad – Fx / -Mxt

Bu erda:

Fd – foizli daromad;

Ad – daromad keltiruvchi aktivlar;

Fx – foizli xarajat;

Mxt – xarajatga tortiluvchi majburiyatlar.

Tijorat banklarini spred ko‘rsatkichi orqali banklar omonatchilar va kreditorlar o‘rtasida vositachilik xizmati ko‘rsatishi qanchalik to‘g’ri yo‘lga qo‘yilganligi hamda banklar o‘rtasidagi raqobatni ko‘rsatadi. Banklar o‘rtasida raqobatni kuchayishi odatda kreditlar va xarajatga tortiladigan majburiyatlari bo‘yicha o‘rtacha foizli daromad hamda xarajatlarni orasidagi farqini qisqarishiga olib keladi. Ushbu holatda boshqa faktorlar ta’siri yo‘q deb hisoblasak tijorat banklari daromad topishni boshqa yo‘llarini izlashiga to‘g’ri keladi.

Yana ushbu ko‘rsatkichning ahamiyati Shundaki, bankning xizmat ko‘rsatishdan ko‘rgan daromadiga va moliyaviy natijalariga belgilangan foiz stavkalari o‘z ta’siriga ega. Ushbu ko‘rsatkichni bog’liq banklar yoki bog’liq bo‘lmagan banklar ko‘rsatkichi bilan solishtirganda tijorat bankini foiz siyosatini qanchalik samarali ekanligini baholash mumkin.

Hozirgi kunda O‘zbekiston bank tizimi mustahkam iqtisodiy-huquqiy bazaga ega bo‘lishi bilan birga, islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida ham ajralib turibdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro moliya bozorining qatnashchisiga aylanishi, bank faoliyatini yanada erkinlashtirish, bank xizmatlari bozorida raqobatning oshishi tijorat banklari tomonidan mablag’lar jalb qilinishi va o‘z o‘rnida kredit operatsiyalarni bajarishda foiz siyosatini ishlab chiqishi va uni to‘g’ri yuritilishi talab etiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati inflyasiya darajasining belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar doirasida bo‘lishini ta’minlash bilan birga, banklarning investitsion faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotning pulga bo‘lgan talabini qondirish va makroiqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash maqsadida hamda inflyasiya darajasidan kelib chiqqan holda qayta moliyalash stavkasi doimo o‘zgartirib borilmoqda.

Tijorat banklari tomonidan kreditlar va depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarini shakllantirishda pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari hisobga olinadi. Pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari esa Markaziy bankning pul-kredit siyosati va boshqa bir qator omillar ta’sirida shakllanadi. Shunday qilib, respublikadagi barqaror makroiqtisodiy holat va yuritilayotgan qat’iy pul-kredit siyosati pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari, jumladan tijorat banklarining kreditlari va depozitlari bo‘yicha foiz stavkalari dinamikasida o‘z aksini topadi.

Qisqacha xulosalar

Ilgari respublikamiz banklarida kredit siyosati, depozit siyosati, foiz siyosati degan tuShunchalar bo‘lmagan. Xalqaro bank amaliyotini o‘rganish natijasida milliy bank tizimida yuqorida sanab o‘tilgan bank siyosatlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Dastlab foiz siyosati depozit va kredit siyosati ichiga kirgan bo‘lsa, keyinchalik alohida foiz siyosati ishlab chiqilib, bank amaliyotida qo‘llanilib kelmoqda.

Tijorat banklarining foiz siyosati depozitlar va kreditlarning oqilona foiz stavkalarini shakllantirish va foiz riskini boshqarish bilan bog’liq tadbirlar majmuasidir. Tijorat banklarining daromad olish sohasi faoliyati uning foiz siyosati orqali amalga oshiriladi.

Asosiy foiz stavka 4 turi bir biridan tubdan farq qiladi: oddiy va murakkab foiz stavkalari, oddiy va murakkab hisob stavkalari.

Nominal foiz stavkasi deganda e’lon qilingan foiz stavkasi tuShuniladi. Real foiz stavkasi deganda nominal foiz stavkasini pulning qadrsizlanish darajasiga muvofiqlashtirilgan darajasi tuShuniladi.

Foiz stavkalarning birinchi darajasi – Markaziy bank tomonidan tijorat bankiga taqdim etiladigan kreditlar bo‘yicha belgilanadigan rasmiy foiz stavkasidir. Mazkur foiz stavkasi hisob yuritish yoki qayta moliyalashtirish foiz stavkasi deb ataladi.

Respublikamiz bank amaliyotida foiz stavkasining qat’iy va suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalaniladi. Bu foiz stavkalari banklarning depozit va kredit siyosatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklarida kredit bahosini shakllantirishda bir qator omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi degan fikrda. Tijorat banklarining kredit bahosining me’yori banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar bahosi, kredit operatsiyalari bo‘yicha bankning operatsion xarajatlari, kredit riski bo‘yicha ustama hamda bankning marjasi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Foizli marja – bu bank aktivlaridan daromad keltiruvchi foizli daromad va bank majburiyatlari bo‘yicha foizli xarajat o‘rtasidagi farqdir.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklarini daromadlarini hisoblashda operatsion marja ham ishlatiladi. Operatsion marja bankning asosiy operatsiyalaridan ko‘radigan daromadlari.

Tijorat banklarining asosiy operatsiyalaridan ko‘radigan daromadlari tarkibi: sof foizli daromad; valyuta operatsiyalaridan ko‘rilgan sof daromad; qimmatli qog’ozlar bo‘yicha qilingan operatsiyalardan ko‘rilgan sof daromad; lizing operatsiyalaridan ko‘rilgan sof daromad; qimmatbaho metallar bilan qilingan operatsiyalarda ko‘rilgan sof daromad.

Haqiqiy marjani olish uchun bankning jami foizli daromadlari va jami foizli xarajatlari o‘rtasidagi farqdan ko‘rish mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar

Foiz stavkasi, diskret, hisob stavkalari, fiksirlangan stavka, suzib yuruvchi yoki o‘zgaruvchan stavkalar, «LIBOR»stavkasi, nominal foiz stavkasi, real foiz stavkasi, foizli opsion, foizli fyuchers, foizli svop-to‘lovlar, operatsion marja, daromadlar, sof foizli daromad, valyuta operatsiyalari, qimmatli qog’ozlar, lizing operatsiyalari, qimmatbaho metallar, operatsion xarajatlar, kredit riski, ustama, majburiyatlar.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tijorat banklari foiz siyosatining mohiyati nimada?
2. Foiz siyosatining asosiy jihatlari nimalardan iborat?
3. Foiz stavkalarining turlari va ularning bir-biridan farqi?
4. Foiz stavkasi borasida olimlarning fikrlari.
5. Foiz risklarini boshqarish usullari.
6. Foiz stavkalarini shakllantirishda e’tiborga olinadigan qanday omillar mavjud?
7. Tijorat banklarida qo‘llaniladigan spred ko‘rsatkichiga izoh bering.
8. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida foizlar qanday tartibda hisoblanadi?
9. Tijorat banklari tomonidan kreditlar va depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarini shakllantirishda qanfay stavkalar hisobga olinadi?
10. Foizli marjaning hajmiga, nimalar asosiy faktorlar bo‘lib hisoblanadi?
11. Tijorat banklarining asosiy operatsiyalaridan ko‘radigan daromadlari tarkibi nimalardan iborat?
12. Respublikamiz bank amaliyotida qanday foiz stavkalaridan foydalaniladi?
13. Pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari qanday bir qator omillar ta’sirida shakllanadi?
14. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro moliya bozorining qatnashchisiga aylanishi nimalarni talab etadi?
15. Tijorat banklarining hisob kitoblarini samarali olib borilayotganini hisoblash uchun tijorat bankining nimasini aniqlash kerak bo‘ladi?
16. Xalqaro standartlarga asosan marja qancha foizdan kam bo‘lmagan miqdorni tashkil etishi tavsiya qilinadi?

15-bob. TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI BOSHQARISH. TIJORAT BANKLARI FOYDASI VA UNI TAQSIMLASH

15.1. Tijorat bankining daromadlari, ularni tuzilishi, tarkibi va boshqarish. Tijorat banklari foizli va foizsiz daromadlari

Har bir tijorat banki faoliyatining asosiy maqsadi bank daromadlarini oshirib va xarajatlarni kamaytirgan holda, maksimal foyda olishdir. Yuqori daromad olish o‘z navbatida banklar olib boradigan operatsiyalarining risk darajasini oshiradi, chunki risk darajasi qancha past bo‘lsa, foyda olish ehtimoli ham qisqaradi. Shuning uchun ham xar qanday ishlab chiqarish bir qancha muqobil echimlar ichidan riskning minimal darajasini tanlashga harakat qilsa, ikkinchi tomondan daromadlilik bilan bog’liq bo‘lgan optimal echimni topishga harakat qiladi.

Hozirda mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ishlab chiqilgan bozor munosabatlari tamoyillarini to‘liq ishlashini ta’minlashi asosiy maqsadimizdir. Ushbu jarayonda tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi, ya’ni aktiv operatsiyalaridan oladigan daromadlarini oshirishning samarali tizimini ishlab chikish, pul-kredit siyosati sohasida yuzaga keladigan kamchiliklarining iqtisodiyotning boshqa barcha sohalariga nisbatan salbiy ta’sirini oldini olish chora - tadbirlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir. Chunki tijorat banklari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarining joriy va investitsiya xarajatlarini qoplashning asosiy manbalaridan biridir. Buning uchun esa, tijorat banklarining daromadlilik mohiyatini chuqur anglab etish va mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda undan foydalanish masalalarini kengrok tahlil qilish zarurdir.

Tijorat banklarida daromadlar va xarajatlar hisobi hisoblab yozish usulidan foydalaniladi. Ya’ni daromad va xarajatlar shu moliya davri uchun tallukli bo‘lsa, demak o‘sha davrda hisoblanib balans hisobotlarida aks ettiriladi. Banklar daromadlar va xarajatlarni hisobga olishda izchillik, ishonchlilik, aniklik, to‘liklik va o‘z vaktidalilik bo‘yicha talablarni o‘z ichiga oladigan hisoblab yozish usulini ko‘llash bo‘yicha taomillarni ko‘llashlari kerak. Bu taomillar ushbu talablarni belgilash va ko‘llashning tegishli usullari to‘g’risidagi ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olishi lozim.

Daromadlar deganda, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatlaridan kelgan pul tushumi tushuniladi. Tijorat banklari boshqa tijorat korxonalari singari asosiy va qo‘shimcha faoliyatdan, suningdek, boshqa kategoriyaga kiruvchi tasodifiy daromadlar olishi mumkin. Bankning asosiy faoliyati bo‘lib, bank operatsiyalarini amalga oshirish va mijozlarga bank xizmatlarini ko‘rsatish hisoblanadi. Daromad keltiruvchi boshqa faoliyatlar esa, boshqa daromadlar hisoblanadi.

Daromad manbalarini barqaror va nobarqarorga ajratish mumkin. Mijozlarga har xil xizmatlar ko‘rsatish daromadning barqaror manbasi hisoblanadi. Nobarqaror esa, moliyaviy bozordagi operatsiyalaridan, suningdek, bankning qo‘shimcha faoliyatidan keladigan daromadlar hisoblanadi.

Tijorat banklarining oladigan daromadlari, uning xarajatlarini qoplashi va foyda olishni ta’minlashi shart.

Bank daromadlarining bir qismi yukotishlar oldini olish xamda risklarni qoplash uchun tashkil etiladigan zahiralarga yo‘naltiriladi. Bank o‘z xarajatlarini qoplashi uchun daromad hajmining etarliligini ta’minlashi bilan birga tushumining xam bir xildaligini ta’minlashi kerak. Boshqacha aytganda, daromad oqimi bankning xarajat qiladigan davriga mos holda vaqt jihatdan taqsimlangan bo‘lishi kerak. Bunday rejalashtirishda daromad manbalarining barqarorligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Tijorat banklari hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofikligini ta’minlashi kerak. Ya’ni joriy oydagi daromadlar va xarajatlar shu oyda balans hisobotlarida aks ettirilishi shart. Shunda tijorat banklari balanslari xakkoniyligi, sofligi ta’minlangan buladi. Hisobot davrida bankning barcha daromadlarining majmuasi yalpi daromad deyiladi. Odatda, yalpi daromad tarkibida quyidagi daromad guruhlarini ajratishadi:

1. Operatsion daromadlar:
1.1. Foizli daromadlar
1.2. Komission daromadlar
1.3. Moliyaviy bozordagi operatsiyalardan daromadlar
1.4. Boshqa operatsion daromadlar.
2. Bankning qo‘shimcha faoliyatidan daromadlar.
3. Boshqa daromadlar.

Tijorat banklari daromadlarini uch guruhga bo‘lishimiz mumkin:

- Foizli daromad
- Komission mukofotlar shaklidagi daromad
- Boshqa turdagi daromadlar (spekulyativ xarakterdagi, sotilgan mulklarning balans va bozor o‘rtasidagi farki, qimmatli kog’ozlar va aktivlarni kayta baxolashdan daromad, olingan jarima va penyalar va x.k).

Bu guruhlar tarkibini birma-bir ko‘rib chiqamiz. Tijorat banklari daromadlari strukturasida katta ulushga ega bo‘lgan asosiy faoliyatdan daromadlar, operatsion daromadlar deyiladi. Operatsion daromadlar o‘z navbatida foizli va foizsiz daromadlarga bo‘linadi.

Bank faoliyati daromadining asosiy qismi foizli daromadlardan keladi. Ya’ni, o‘z mablag’lari va jalb qilingan mablag’larni pullik joylashtirishdan olinadigan daromadlar. Asosan bu daromadlar, mijozlarga kredit berishdan yoki bo‘sh pul mablag’larini Markaziy bank va tijorat banklariga joylashtirish, shunipgdek, uzoq muddatli majburiyatlarga mablag’ qo‘yishdan keladigan foizli daromadlar. Lizing, faktoring, forfeyting va hisob operatsiyalari ham bu daromad turiga kiradi.

Foizli daromadlar orasida eng ko‘p daromad keltiruvchi manba bu mijozlarga ajratilgan kreditlardir. Kreditlar bo‘yicha foizlar odatda xar kuni yillik bazaviy davr - 365 kundan kelib chikkan xolda hisoblab yoziladi. (Kreditlarning muayyan turlari bo‘yicha 360 kun bazaviy davr qilib olinadi). Kredit bo‘yicha foizlar quyidagi formulaga binoan hisoblanadi:

$$\frac{\text{so‘ndirilmagan qoldiq} * \text{foiz stavkasi} * \text{amaldagi kunlar soni}}{365}$$

Yuqoridagi formula barcha turdagi kreditlar uchun qo‘llaniladi. Ushbu faoliyatlarning har bir turini kengroq ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, kreditlash operatsiyalari vositasini daromadlarining shakllanishini ikki tarkibiy elementga bo‘lish mumkin:

- mijozlarga, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslarga kredit berish;
- bo‘sh rezerv mablag’larini foiz hisobiga boshqa tijorat banklariga vaqtinchalik foydalanishga berish.

Kredit berishning ikkinchi turi banklararo kredit yoki boshqa bankdagi muddatli depozit shaklida ham bo‘lishi mumkin. Kredit berish faoliyatining rivojlanishi shart-sharoitlari bo‘lib, kredit muassasalari orasida ma’lumot ayirboshlashning yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi, vositalarning mavjudligi, ya’ni bank bozorida resurslarni qayta taqsimlash bilan shug’ullanuvchi vositachilarning borligi hamda vakillik hisobvaraqlarini malakali boshqarish hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamiz bank tizimida mijozlarni hamda boshqa banklarni kreditlash tijorat banklari daromadining asosiy qismini tashkil etadi. Ko‘pgina banklar qisqa va uzoq muddatlarga mavjud mablag’larni kreditga berib, turlicha foiz stavkalar o‘rnatgan holda daromad oladilar. har bir bank foiz stavkalarini o‘z kredit siyosatiga mos ravishda belgilaydilar va bu stavkalar bir-biridan farqlanishi mumqin, biroq oradagi farq unchalik katta emas, chunki barcha banklar o‘z foiz stavkalarini Markaziy bank belgilab bergan majburiy rezerv stavkasiga mos holda belgilaydilar. (1-ilova)

Diskont – faoliyatning bank tomonidan to‘lanmagan veksellar, cheklar va talabnomalarni ma’lum skidka-diskont evaziga harid qilishi tushuniladi.

Diskont faoliyatining asosiy turlaridan biri bo‘lib, bankning faktoring operatsiyalari hisoblanadi. Faktoring operatsiyalarining ikki xil turi bo‘ladi:

- regress huquqi bilan;
- regress huquqisiz.

Birinchi holatda bank to‘lovchi tomonidan qoplanmagan majburiyatni mol etkazib beruvchidan talab qilish huquqiga ega bo‘ladi. Ikkinchi holatda esa bankda bu huquq yo‘q, shu bois risk yuqori va shunga yarasha foiz ham yuqori qo‘yiladi.

Bank tomonidan faktoring operatsiyasi uchun oladigan foizlar, ya’ni mukofot ikki qismdan tashkil topadi, bular:

1. To‘lov amalga oshirilgunga qadar bank kredit resurslaridan foydalanganlik uchun foizlar.

2. Faktoring operatsiyasining turiga mos ravishda bo‘ladigan risklar bilan bog’liq, o‘rnatiladigan komission mukofot bo‘ladi.

Trast (ishonchlilik) va vakillik operatsiyalari bo‘yicha bank faoliyatining ushbu turi bankka daromadni mijoz mulkini (ko‘chmas mulk, qimmatli qog’ozlar, hisob raqamdagi mablag’lar) boshqarish yoki ushbu mulkka doir ayrim maxsus topshiriqlarni bajarish orqali

komission to‘lovlar shaklida keltiradi. Trast shartnomalarida bank kelishuviga muvofiq tarzda mijozga mulklarni boshqarsh evaziga ma’lum foiz va’da qilinadi. Vakillik, ya’ni agentlik xizmat turida bank va mijoz orasida operatsiyaning aniq turi belgilab berilgan bo‘ladi. Trast operatsiyalarida ham o‘ziga yarasha murakkablik mavjud. Xususan, joriy yilda mijoz mulkidan foydalanish evaziga kelgan daromad kelishuvga nisbatan past bo‘lishi mumkin, bunda esa zarar bank tomonidan qoplanishi kerak. Shu bois trast xizmatlari uchun komission to‘lovlar ham yuqoriroq bo‘ladi. Yuqoridagi xususiyatiga ko‘ra, trast xizmati uchun komission to‘lov, ham quyidagi elemetlardan tashkil topadi:

- mulkni boshqarish, uchun olinadigan o‘zgaruvchan to‘lov;
- trast ishi bo‘yicha natijalarga mos ravishda bank oladigan fiksirlanuvchi komission mukofot.

Tijorat banklarining qimmatli qog’ozlar bilan bog’liq operatsiyalari ham banka ma’lum daromad keltiradi. Faoliyatning ushbu turi ikki qismdan tashkil topadi. Ya’ni, bularga: bankning o‘zi tomonidan qimmatli qog’ozlar chiqarilishi va ularning bozorda sotilishi; boshqa emitentlar qimmatli qog’ozlari bilan bog’liq ikkilamchi bozordagi operatsiyalar hamda korxona va tashkilotlarni xususiylashtirish bilan bog’liq xizmatlar kiradi. Tijorat bankining ushbu turidan oladigan daromadi o‘zi chiqargan va boshqa emitentlarning aksiyalar kursidagi farqlanish va xususiylashtirish uchun oladigan xizmat to‘lovlaridan tashkil topadi.

Chet el bank tizimida qimmatli qog’ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalar daromad manbalari orasida katta salmoqqa egadir. Bunga asosiy sabablardan bo‘lib, sarmoya bozorlarining mukammal va to‘liq faoliyat yuritishi hamda kapital aylanish mexanizmlarining puxta ishlab chiqilganligi deb ham qarash mumkin. Afsuski, o‘zimizda ikkilamchi bozor amalda qariyb faoliyat yuritilmaydi. Endigina DQMO va ba’zi qimmatli qog’ozlarning turlari bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirila boshlandi. Biroq hali mukammal faoliyat ko‘rsatish uchun etarli darajaga etishish uchun ko‘p vaqt kerak bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, qimmatli qog’ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalar yordamida banklar investitsion faoliyatni amalga oshirishlari mumkin bo‘ladi. Bu esa banklar daromadlarining yangi manbalarini kashf etadi. Undan tashqari mablag’larning qimmatli qog’ozlar orqali moliyaviy investitsiya evaziga ishlab chiqarishga

yo‘naltirilishi iqtisodiyot o‘sishining muhim omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Qimmatli qog’ozlar bilan bog’liq operatsiyalarning bizning mamlakatimizda yaxshi rivojlanmaganligiga banklar ixtiyoridagi mablag’larning etarlicha bo‘lmasligi va oqibatda aksiya, obligatsiyalar sotib olishga yo‘naltiril-masligi ham sabab bo‘ladi. Mablag’ mavjud bo‘lganda ham aksiyalardan keladigan daromad juda pastligi va ko‘pgina emitentlar xo‘jalik faoliyatining ishonchsizligi ham bu sohani etarli emasligiga olib keladi.

Bankning kafillik faoliyati bankka pul shaklida daromad keltiradi. Bank mijozlarga kreditlarini olish uchun yoki hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun turli xil kafillik va kafolatnomalar beradi va evaziga pul shaklida komission mukofot oladi. Ba’zi hollarda mijoz uchun kafillik bank tomonidan obro‘ni oshirish kabi maqsadlar uchun ham beriladi.

Oxirgi yillarda rivojlangan davlatlarda katta ahamiyatga ega bo‘lib borayotgan nokredit xarakterdagi mijozlarga bank xizmatini ko‘rsatish daromad manbasining muhimligi bo‘yicha ikkinchi hisobalanadi. Odatda bu daromadlarni komission daromad deyiladi. Xizmatlarga to‘lov komission mukofot ko‘rinishida olinadi. Komission mukofot hamma qilinadigan operatsiya yoki shartnoma summasidan foiz ko‘rinishida o‘rnatiladi.

Bank xizmatlari juda ham xilma-xildir va doimo xar xil yangiliklar bilan to‘ldirib boriladi. Bankka komission daromad keltiruvchi asosiy xizmatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: yuridik va jismoniy shaxslarning hisob-kitob kassa xizmatlari; plastik kartochkalar bilan operatsiyalar; bank kafolatlarini berish; mijozlarning valyuta shartnomalaridagi bank xizmatlari; qimmatli qog’ozlar bozoridagi brokerlik xizmatlar va boshqalar.

Oldinlari Rossiyada, suningdek ko‘pgina chet davlatlarda ko‘pchilik banklar hisob-kitob, kassa va boshqa xizmatlarini mijozlarga tekinga ko‘rsatishardi. Foiz marjasining pasayishi natijasida, ya’ni resurslarni jalb qilish va joylashtirishning o‘rtacha qiymatlari orasidagi farq tufayli banklar bunday amaliyotdan voz kechishlariga to‘g’ri keldi. Hozirgi paytda tijorat banklari umumiy daromadlari hajmida komission daromadlarning o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu faqatgina foiz marjasi darajasining qisqargani va moliya bozoridagi daromadlaridan tashqari, komission daromadlarining foizli daromadlarga nisbatan barqarorligi bilan bog’liq.

Bundan tashqari bank chet el valyutasidagi vositalarni qayta baholash orqali ham daromad olishi mumkin. Agar chet el valyutasi kursining oshishi, shu valyutadagi nominallashtirilgan bank aktivlari passivlarni oshiradi va aksincha, chet el valyutasi kursining pasayishi, shu valyutada nominallashgan aktivlarning oshishiga olib keladi. Valyuta kursining katta tebranishi va bankning valyuta bozoridagi yuqori aktivligi sharoitida, bu daromadlar bankning operatsion daromadlari tarkibida muhim hissaga ega bo‘lishi mumkin.

Qo‘shimcha faoliyatdan daromadlar bank daromadlari tarkibida shunchalik katta ulushga ega emas. Ular o‘z ichiga nobank xarakterdagi xizmatlar ko‘rsatishdan, korxona va tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishdan, ijaraga berish va binoni realizatsiya qilishdan va boshqalardan daromadlar oladi.

Banklar yordamchi bo‘limlarning tijorat faoliyatidan qo‘shimcha daromad olishi mumkin. Masalan, agar bank shaxsiy reklama xizmatiga ega bo‘lsa, o‘z mijozlariga reklama xizmatlarini ko‘rsatishi mumkin. Suningdek, boshqa xizmatlar ham faqatgina bank faoliyatini ta’minlashga emas, balki mijozlarga pullik xizmat ko‘rsatishlari ham mumkin. Bular bo‘lishi mumkin: yuridik, informatsion, telekommunikatsiya, marketing, auditor, transport va boshqa xizmatlar. Banklar asosiy va qo‘shimcha faoliyat daromadlaridan tashqari, boshqa daromadlar kategoriyasiga kiruvchi boshqa daromadlar ham olishi mumkin. Ular:

- jarima, penyalar, mijozlardan olinadigan jarimalar,
- ortiqcha tushumlarning kassaga tushishi;
- zahira summasini qayta tiklash;
- hisobot yilida tushgan yoki aniqlangan-o‘tgan yilgi daromadlar;
- daromadga soliq ortiqcha to‘laganligi uchun byudjetdan mablag’ qaytarish va boshqalar.

Bu daromadlar mohiyatan tasodifiy yoki bankning hisobot davrida «Ishlab topilmagan» hisoblanadi. Ular odatda kelasi davrga daromad rejasi tuzilganda hisobga olinmaydi.

Shuni alohida qayd etib o‘tishimiz lozimki, tijorat banklarining faoliyati nihoyatda keng qamrovli va xilma-xildir. Yagona bir xolding kompaniyalari ko‘rinishida, tijorat banklari va uning joylardagi filiallari ko‘rsatadigan xizmatlarning xilma-xilligiga, mumkin qadar o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatishining qulay hamda

arzon turli ko‘rsatmalar buyruqlar sonini bir qadar cheklangan tartibda qo‘llash imkoniyatlari rivojlanmoqda.

Bank faoliyati turi bo‘yicha daromadlar guruhi

Bank faoliyati turlari	Daromad turlari
Kredit operatsiyasi	- kredit berganlik uchun foiz - veksellar bo‘yicha foizli daromad - o‘tgan yilgi kredit operatsiyalari bo‘yicha daromad
Diskont operatsiyasi	- faktoring va forfeyting operatsiyalari bo‘yicha diskont daromad
Qimmatli qog’ozlar bilan operatsiya	- uzoq muddatli majburiyatlarga qo‘yilmalardan daromad - qimmatli qog’ozlarni qayta sotishdan daromad - qimmatli qog’ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar
Kafillik faoliyati	- berilgan kafolatlar bo‘yicha olingan komissiyalar
Depozit operatsiyalari va mijoz topshirig’i bo‘yicha operatsiyalar	- kassa operatsiyasi; - inkassatsiya operatsiyasi; - hisob-kitob operatsiyalaridan olinadigan komissiya
Valyuta operatsiyasi	- chet el valyutasida bo‘lgan operatsiya bo‘yicha daromad - forvard, fyuchers, svop, opsion operatsiyalarini o‘tkazishdan daromadlar
Bank faoliyatining boshqa yo‘nalishi	- mulkni ijaraga berishdan daromad - lizing operatsiyalaridan daromad - axborot xizmatlaridan daromad - jarima, penyalar va boshqalar

Tijorat banklari daromadining mohiyati va boshqa moliyaviy institutlaridan farqlanib turuvchi xususiyati - bank pul resurslarini tashkil etib va ularni yuqori daromadli bank portfellarini yaratish layoqati bilan belgilanadi

Tijorat banklarining daromadlari va xarajatlari, bank foydasini oshirish muammolarini o‘rganish, uning tijorat korxonasi sifatidagi samaradorligini baholash imkoniyatini beradi.

15.2. Tijorat bankining xarajatlari, ularning tuzilishi va tarkibi. Tijorat banklari foizli va foizsiz xarajatlar

Bankning daromadliligi, birinchi navbatda xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Xarajat - bu pul vositasini ishlab chiqarish (bank) va noishlab chikarish (nobank) faoliyatlariga ishlatish (xarajat qilish) tushuniladi.

Daromadlar va xarajatlar, to'langan vakti va pul kelib tushgan sanadan kat'i nazar, kaysi davrga taallukli bo'lsa, o'sha hisobot davrida aks ettiriladi.

Bankning daromadliligi, birinchi navbatda, xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, suningdek, kredit riski bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar.

Bank xarajatlari tarkibi:

- foizli xarajatlar
- foizsiz xarajatlar
- operatsion xarajatlardan iborat.

Tijorat banklari xarajatlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Operatsion xarajatlar:

1.1. Foizli xarajatlar

1.2. Komission xarajatlar

1.3. Moliya bozoridagi operatsiyalar bo'yicha xarajatlar

1.4. Boshqa operatsiyaon xarajatlar.

2. Bank faoliyatini funksionallashtirishni ta'minlashi bo'yicha xarajatlar.

3. Boshqa xarajatlar.

Yuqoridagi xarajat turlari mamlakatimizdagi hozirgi bank tizimiga to'g'ri kelmaydi. Chunki bizda tijorat banklari xarajatlari foizli xarajatlar, foizsiz xarajatlar va operatsion xarajatlarga bo'lib o'rganiladi va shu tartibda ishlashadi. Bu xarajat turlarini kengroq ko'radigan bo'lsak, quyidagicha turkumlash mumkin:

Foizli xarajatlar

- Talab qilib olinguncha depozitlar bo'yicha
- Jamg'arma depozitlar bo'yicha

– Muddatli depozitlar bo‘yicha
– Depozit sertifikatlar bo‘yicha
– Hukumat hisobvaraqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to‘lanadigan hisobvaraqlar bo‘yicha
– Boshqa banklarga to‘lanadigan hisobvaraklar bo‘yicha
– Boshqa karz mablag’lari bo‘ycha
– Chiqarilgan qarz qimmatli qog’ozlari bo‘yicha
– REPO bitimlari bo‘yicha
– Boshqa foizli xarajatlar

Foizsiz xarajatlar

– Xorijiy valyutalarda ko‘rilgan zararlar
– Tijorat operatsiyalaridan ko‘rilgan zararlar
– Qaram xo‘jalik jamiyatlariga, qo‘shma korxonalarga va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyadan ko‘rilgan zararlar
– Investitsiyalardan ko‘rilgan zararlar
– Boshqa foizsiz xarajatlar

Operatsion xarajatlar

– Bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar
– Ijara va ta’minot xarajatlari
– Xizmat safari va transport xarajatlari
– Ma’muriy xarajatlar
– Reprezentatsiya va xayriya
– Eskirish xarajatlari
– Sug’urta, soliq va boshqa xarajatlar
– Ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash
– Daromad solig’ini baholash

Tijorat banklari foizli xarajatlari ichida jalb qilingan depozitlar bo‘yicha xarajatlar salmoqli o‘rin egallaydi. Bu xarajatlar ham foizli daromadlar singari kunlik hisoblab boriladi, ya’ni depozitlar bo‘yicha foizlar har kuni hisoblab yoziladi va quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi yordamida aks ettiriladi:

$$\frac{\text{Depozit summasi(koldigi) x foiz stavkasi x amaldagi kunlar soni}}{365}$$

Dt 50100-51100 Depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlarning tegishli hisobvarag’i;

Kt 22402 “Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo‘yicha

to‘lash uchun hisoblangan foizlar”.

Bank operatsiyalarni bajarish bilan bog’liq bo‘lgan xarajatlar operatsion xarajatlar deyiladi. Ularni to‘g’ri yoki o‘zgaruvchan xarajatlar deyish mumkin. Chunki, xarajatning kattaligi bank amalga oshirgan operatsiya hajmiga to‘g’ridan to‘g’ri bog’liq bo‘ladi. Tijorat banklarining xarajatlari strukturasi ishlab chiqarish korxonasinikiga nisbatan boshqacha bo‘ladi. Banklarda xom-ashyo va materiallarga katta xarajatlar yo‘q, ekspluatatsiya va asosiy vositalarning xizmatlariga xarajatlar qiyosan unchalik katta emas, hattoki ish haqiga to‘lov ham tijorat banklari xarajatlariniig umumiy summasida katta ulushga ega emas.

Mablag’larni joylashtirishda daromad olish uchun, avvalo, bu mablag’larni jalb qilish kerak. Kredit va qo‘yilmalarning bir qismi bankning o‘z mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi, kredit resurslarining asosiy qismini jalb qilingan mablag’lar tashkil qiladi. Jalb qilingan mablag’larga esa bank foiz to‘lashi kerak. Odatda, tijorat banklari xarajatlarining katta qismini jalb qilingan mablag’larga xarajatlar tashkil qiladi. Bu to‘lovlar foiz shaklida amalga oshirilganligi uchun, bu xarajatlar foizli deyiladi.

Kredit faoliyati bilan aktiv ishlaydigan universal tijorat banklarida foizli xarajatlarining ulushi hamma xarajatlarining deyarli 70% ini tashkil etishi mumkin. Foizli xarajatlarning kattaligi va ularning xarajatlar umumiy hajmidagi ulushi bank passivlari tuzilishiga bog’liq. Aholi omonatlari va banklararo kreditlar bank uchun qimmatli hisoblanadi. Suningdek, banklar yuridik shaxslar depozitlari va chiqarilgan qarz majburiyatlariga (obligatsiya, foizli veksellar va depozit sertifikatlari) nisbatan katta foizlar to‘laydi. Bank uchun eng arzon xarajat bo‘lib, yuridik shaxslarning hisob-kitob va joriy schetidagi, jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha hisobrakamidagi mablag’lari hisoblanadi.

Bank majburiyatlari strukturasida bu mablag’lar ulushi qancha ko‘p bo‘lsa, foizli xarajatlar shuncha kam bo‘ladi va bank foydasi ko‘payadi.

Bank foizli xarajatlarini uning umumiy hajmiga nisbatan o‘sishi, bankning kredit resurslarini oladigan bozor kon’yunkturasining yaxshimasligidan yoki bankning bu bozorlardagi raqobat mavqeini yomonlashganidan dalolat beradi. Foizli xarajatlarning o‘sishi, foizli daromadlarning adekvat o‘sishi bilan yonma-yon borsa, bu xol normal hisoblanadi. Foizli daromadlarning o‘sish sur’ati foizli xarajatlarning o‘sishidan oshib ketsa, bu hol bank uchun ideal hisoblanadi.

Odatda, moliya bozoridagi operatsiyalar bo‘yicha xarajatlarni alohida guruhga ajratishadi. Bank bu bozorlardan qimmatliklarni realizatsiya qilish bo‘yicha daromadlar oladi (qimmatli qog’ozlar, chet el valyutalari, qimmatli metallar va boshqalar), xarajatlarga esa, qimmatliklarni olish uchun ketgan sarflar kiradi. Bank kuponli obligatsiya sotib olayotganida yig’ilgan kuponli daromadlarni to‘lashiga to‘g’ri keladi. Kuponsiz qimmatli qog’ozlar odatda, diskont bilan sotib olinadi. Moliya bozori kon’yukturasi yomonlashganda, qimmatbaho qog’ozlar, chet el valyutasi va boshqa mulklarni qayta baholash natijasida, bank anchagina xarajatlar qilishga to‘g’ri keladi.

Bevosita aniq bank operatsiyalari bilan bog’liq bo‘lgan boshqa xarajatlar: oborotdan har xil soliqlar (Masalan: chet el valyutasini sotib olishga soliqlar), mijozlar to‘lovlari bo‘yicha pochta va telegraf xarajatlari, inkassatsiya xarajatlari va boshqalar. Bu xarajatlar boshqa operatsion xarajatlar deyishadi.

Bank faoliyatini ta’minlash bo‘yicha harajalar. Bankni funksio-nallashtirishni ta’minlash bilan bog’liq, ammo aniq operatsiyalarga to‘g’ridan-to‘g’ri bormaydigan xarajatlar bu guruhga kiradi. Iqtisodiy nazariyada ularni egri yoki shartli-doimiy xarajatlar deyiladi.

Aktivlari hajmi kichik va o‘rta bo‘lgan banklarda bu xarajatlar summasi unchalik bilinmaydi. Jalb qilingan va joylashtirilgan resurslari hajmi katta bo‘lgan yirik banklarda bank faoliyatini ta’minlash bo‘yicha xarajatlar umumiy xarajatlarning 40-55% ini tashkil etadi.

Bank faoliyatini ta’minlash bo‘yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Xodimlarga xarajatlar (ish haqi, oylik mukofotlar, moddiy yordam, xodimlarga har xil imtiyozlar berish, safar xizmati xarajatlari, malakali kadrlarni izlash va o‘qitish bo‘yicha xarajatlar va boshqalar);

2. Bino va inshootlarga xarajatlar (ijara, eskirish xarajatlari, binolar ta’miri va ekspluatatsiyasi, kommunal to‘lovlar, er solig’i, mol-mulk solig’i, binoni qo‘riqlashga xarajatlar va boshqalar)

3. Ish joyini asbob-anjomlar bilan ta’minlashga xarajatlar (sotib olish, ta’mirlash, bank uskunalarini saklash, kompyuter, mebel, qo‘riq-signalizatsiya, seyf, hisob mashinalari, valyuta detektorlari va boshqalar);

4. Reklamaga xarajatlar;

5. Bank faoliyatini informatsion ta’minlashga xarajatlar (vaqti-vaqti bilan bo‘lib turadigan nashrlar, maxsus adabiyotlarni sotib olish va yozilish, informatsion mahsulotlar va tashqi agentlar xizmatiga to‘lovlar, marketing izlanishlariga xarajatlar);

6. Aloqa va telekommunikatsiyaga xarajatlar (aloqa kanallarini o‘tkazish va ijarasi, telefon va internet xizmatiga to‘lovlar va boshqalar);

7. Transport xarajatlari;

8. Bank faoliyatini ta’minlash bo‘yicha boshqa xarajatlar (auditorlik tekshiruvlariga xarajatlar, aksionerlar yig’ilishini tashkil etishga, notarial va yuridik xizmatlarga to‘lovlar).

Bank faoliyatini ta’minlash bo‘yicha xarajatlarni har xil mezonlar bo‘yicha quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

– joriy xarajatlar va kapital xarakterdagi xarajatlar (asosiy vositalarni sotib olish);

– ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlar;

– chiqimlarga tegishli xarajatlar va sof foydadan amalga oshirilgan xarajatlar;

– me’yoriy va nome’yoriy xarajatlar. Me’yoriy xarajatlarga safar xizmati, reklama, kadrlarni tayyorlash va boshqa ayrim xarajatlar kiradi. Bu erda qonunda ko‘rsatilgan me’yorlar doirasidagi xarajatlar summasi ko‘zda tutiladi.

Tijorat banklari o‘z mijozlaridan kunlik savdo tushumlarini bank kassasiga kirim kilishda Markaziy bankning Inkassatsiya Birlashmasi xizmatidan foydalanadi va bunda ular inkassatsiya xizmati xarajatlarini qiladi. Hozirda bu xarajatlar xam banklar uchun salmokli xarajatlar toifasiga kirmokda.

Bank xodimlari va bank xodimlari bo‘lmagan, ya’ni mexnat bitimi asosida ishlovchi xodimlar bajargan ishlari uchun ish haqi to‘lash xarajatlari, amaldagi qonunlarga muvofiq navbatdagi va

qo‘shimcha ta’tillar pulini, suningdek, tibbiy ko‘riklardan o‘tish davlat majburiyatlarini bajarishlar uchun sarflangan vaqt evaziga haq to‘lash kabi xarajatlar qiladi.

Bundan tashqari banklarning foizsiz xarajatlariga bank sohasida malakali kadrlar tayyorlashda qiladigan xarajatlari kiradi.

Tijorat banklari oliy o‘quv yurtlari bilan kelishilgan shartnomadagi mablag’larni to‘lab bank sohasiga malakali kadrlar tayyorlash, bank xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash xizmatlari uchun haq to‘laydi. Bunda banklar nomoddiy aktiv shakllantiradi va bu kelajakda o‘z samarasini beradi.

Boshqa xarajatlar kategoriyasiga ko‘zga tutilmagan hollarda bo‘ladigan tasodifiy xarajatlar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bank faoliyatidagi risklarni qoplashga ketgan xarajatlar deyish mumkin. Bu xarajatlar bank tizimi smetasiga qo‘shiladi yoki oldingi davrdagi ko‘zda tutilmagan xarajatlar darajasidan kelib chiqqan holda, smetada aniq bir summa nazarda tutiladi. Boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- shtraflar, penyalar, jarimalar;
- hisobot davrida chiqqan o‘tgan yilgi xarajatlar;
- bank mulkini realizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar;
- mijoz noroziligi bo‘yicha to‘langan to‘lovlar;
- boshqa xarajatlar.

Odatda, bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarni qoplashda, soliqlarni to‘lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o‘sishiga sarflanadi. Xarajatlarga likvidlilik kabi ustama foiz o‘zgarishlari passivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi ta’sir qiladi. O‘z navbatida, bank xarajatlari tarkibidagi o‘zgarishlar aktivlar daromadligiga ham o‘zgarishlar kiritishni talab qiladi. Xarajatlarni to‘g’ri hisoblash banklarga muqobil konservativ resurslar narxlarini taqsimlash va bank aktivlarini aniq baholash hamda xarajatlarni qoplab, aksiyadorlar uchun daromadlarni to‘g’ri taqsimlash imkonini beradi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak.

15.3. Tijorat banklari foydasining mohiyati

Tijorat banklarining foydasi bu – daromadni xarajat bilan taqqoslash natijasida daromadning ortgan qismi ko‘rinishdagi bank

faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi. Foydaning hajmi olingan daromad va qilingan xarajat miqdoriga bog'liq.

Foyda hajmi 2 muhim tarkibiy qismga bog'liq:

- daromad;
- xarajat.

Tijorat banklari o‘z xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishi uchun anchagina xarajatlar sarflanishini talab qiladi, lekin xarajatlardan tashqari bank faoliyatining natijasi sifatida daromadlar vujudga keladi. Daromad va xarajatni taqqoslash natijasida bankning foyda yoki zarar ko‘rinishidagi moliyaviy natijasi yuzaga keladi. Foydalilik tushunchasi bankning xo‘jalik-moliyaviy tijorat bilan bog'liq barcha sohalarining haqiqiy yakuniy natijasini o‘zida aks ettiradi. Daromadlar hisobiga bankning barcha operatsion xarajatlari qoplanadi, to‘lanadigan dividendlar hajmini aniqlash, o‘z mablag'larini oshirish, aktiv va passiv operatsiyalari rivojlanishi uchun bank foydasi shakllantiriladi.

Daromadlarning xarajatlarga qaraganda ko‘proq bo‘lishi bank foydasi uchun muhimdir. Jahon ekspertlarining fikriga ko‘ra, bank foydasining oshishida bank yalpi daromadining kamida 70 foizini foizli daromadlar tashkil qilishi kerak. Odatda, foyda soliq to‘lagunga qadar yalpi foyda va sof foydaga bo‘linadi. Bank tomonidan erishilgan yalpi foyda bank asosiy fondlarining oshishiga va yangilanishiga zamin yaratadi, bank balansining moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlaydi.

Balansdagi foyda faqatgina bank faoliyatining oraliq davrdagi moliyaviy natijasini ko‘rsatadi. Bank sof foydasi bankning barqaror ishlashini ta'minlovchi asosiy element hisoblanadi, ya'ni u barcha xarajatlar qoplangandan keyin qoladigan daromad qoldig'i, rezervlar shakllanishi va foyda hisobiga soliqlar to‘lanishi mumkin bo‘lgan bankning yakuniy moliyaviy ko‘rsatkichidir.

Bankning bank operatsiyalaridan oladigan moliyaviy natijasi operatsiya foydasi (zarari) deb ataladi. Bu bank foydasining asosiy manbasi. Nobank faoliyatidan olingan moliyaviy natijalar operatsiya bilan bog'liq bo‘lmagan foyda deyiladi, operatsiya bilan bog'liq bo‘lmagan foyda salbiy ya'ni zararli. Ular bankning operatsion foydasi hisobiga qoplanishi kerak.

15.4. Banklarda sof foydaning darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar

Bank tizimining tahlili, avvalo, ular balansining tahlilidan boshlanadi. Bank faoliyatini ifodalovchi eng asosiy ma’lumotlar manbai – bu bank balansi, daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlar to‘g’risidagi hisoboti.

Tijorat banklarining moliyaviy natijasi foyda hisoblanib, bu bank faoliyatining barqarorligi va ishonchligini bildiruvchi asosiy natijaviy ko‘rsatkichidir. Shuning uchun ham uning hajmi muhim. Foydani tahlil etishda quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- foydaning dinamik o‘zgarishini tahlil etish;
- foydaning tarkibi va tuzilishiga baho berish;
- foydaning shakllanishi va taqsimlanishini tahlil etish;
- rentabellik ko‘rsatkichlarini baholash;
- bank foydasini o‘stirish imkoniyatlarini hisoblash va ularni yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlarini belgilash.

Rentabellik – tijorat banklarining sof foydasi bilan aniqlanadigan ko‘rsatkich bo‘lib, u sof foydaning xarajatga nisbati orqali aniqlanadi. Bu bir so‘mlik qilingan xarajat qancha foyda olib kelishini ko‘rsatadi.

$$K_{Рен.} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami harajatlar}} * 100\%$$

Bu ko‘rsatkich kamida 20 foiz atrofida bo‘lishi tavsiya qilinadi. Bundan tashqari quyidagi rentabellilik ko‘rsatkichlari ham mavjud:

- Aktivlar rentabelliligi (ROA – Return on assets) - bir so‘mlik aktivga to‘g’ri keluvchi foydani anglatadi. Bu ko‘rsatkich kamida 5 foiz atrofida bo‘lishi tavsiya qilinadi.

$$K_{ROA} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami aktivlar summasi}} * 100\%$$

- Kapital rentabelliligi – (ROE – Return on equity). Bu bir so‘mlik kapitalga to‘g’ri keluvchi foydani anglatadi. Bu ko‘rsatkich kamida 10 foiz atrofida bo‘lishi tavsiya qilinadi.

$$K_{ROE} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami kapital summasi}} * 100\%$$

Tijorat banklari foydasini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi:

1. Foyda manbalarini tarkibiy tahlil qilish;
2. Moliyaviy koeffitsientlar tizimini tahlil qilish.

Tarkibiy tahlil bank foydasi manbalarini aniqlash va bankning bugungi kundagi faoliyatining barqarorligiga, kelgusida rivojlanish imkoniyatlarini baholash uchun zarur.

Moliyaviy koeffitsientlar tizimini tahlil qilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Moliyaviy koeffitsientning amaldagi hisob-kitobini uning normativi bilan taqqoslash;
2. Bank koeffitsientlarining raqobatchi bank koeffitsientlari bilan mos kelishi;
3. Koeffitsientlar dinamikasini baholash;
4. Koeffitsientlar dinamikasining omilli tahlili.

Bankning foydalilik darajasini ta’minlovchi ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

– foyda va aktivlar o‘rtasidagi nisbat;
– soliq to‘lagunga qadar foyda va aktivlar nisbati;
– foyda va xususiy kapital nisbati;
– bitta xodimga to‘g’ri keladigan foyda.

Bu ko‘rsatkichlarning hisob-kitob usuli belgilangan hisob tizimi va hisobot shakllariga bog’liq. Ko‘rsatkichlar hisob-kitobi va ularning iqtisodiy mazmuni quyidagilar:

– Foydaning aktivlarga nisbati – bank rentabelligini baholash imkoniyatini beruvchi asosiy ko‘rsatkich.

– Foydaning xususiy kapitalga nisbati – bu koeffitsient ta’sischilar, aksionerlar va paychilar investitsiyalarining samaradorligini ko‘rsatib beradi.

Bundan tashqari bank faoliyatida quyidagi ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi:

– Sof foizli marja = (foizli daromadlar – foizli xarajatlar) / aktivlar;

– Sof foizsiz marja = (foizsiz daromadlar – foizsiz xarajatlar) / aktivlar;

– Operatsion foydaning marjasi = (operatsion daromadlar – operatsion xarajatlar) / aktivlar;

– Bitta aksiyaga to‘g’ri keladigan sof foyda = sof foyda / muomaladagi oddiy aksiyalarning soni;

– SPRED = (foizli daromadlar / daromad keltiruvchi aktivlar) - (foizli xarajatlar/ bankning foiz to‘lanadigan passivlari);

– Bankning daromad keltiruvchi bazasi = daromad keltiruvchi aktivlar.

Foizli marja bank xarajatini qoplab, foydaning shakllanishiga asoslangan. Foizli marjaning hajmi bank qo‘yilmalarining yuqori daromadliligini ko‘rsatadi. Foizli daromadlarning foizli xarajatlarga qaraganda ko‘proq bo‘lishi foizli marja koeffitsientining etarli darajada bo‘lishini ta’minlaydi. Bu ko‘rsatkich suningdek, aktiv operatsiyalarning daromadliligi passiv operatsiyalar bo‘yicha xarajatlarni qoplay olishini ham anglatadi. Bank foydasining asosiy manbai hamdir. Bu koeffitsent suningdek, soliqlar, bankning chayqovchilik operatsiyalaridan ko‘radigan zararlari va bank risklaridan saqlashi kerak. Uning miqdori moliyaviy koeffitsientlarni aniqlashda mutlaq qiymatni ifodalashi mumkin. Shuning uchun ham bu koeffitsientning oshishiga erishish kerak. Mutaxassislarning fikricha bu ko‘rsatkich bankda 4.5%dan yuqori bo‘lishi talab etiladi. Bu ko‘rsatkichning yuqori bo‘lishi bank faoliyatida o‘z va jalb qilingan resurslarning samarali joylashtirilganini anglatadi.

15.5. Tijorat banklarining sof foydasi miqdori va uning darajasiga ta’sir qiluvchi omillar

Daromad va xarajatlarni guruhlash mos ravishda bank foydasini operatsiya foydasi, qo‘shimcha faoliyatdan olingan foyda, boshqa foydaga bo‘linadi.

Operatsiya foydasi (sof operatsiya daromadlari) operatsiya daromadlar va operatsiya xarajatlar o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

U quyidagicha shakllanadi:

- Kredit operatsiyalari bo‘yicha foyda (zarar) – mablag’larni joylashtirishdan olingan foyda va jalb qilingan resurslarga to‘lanadigan foizlar orasidagi farq;
- Qimmatli qog’ozlar bo‘yicha operatsiyalardan olinadigan foyda (zarar) – qimmatli qog’ozlarni joylashtirishdan olingan

daromad va qimmatli qog’ozlar bilan operatsiya xarajatlari orasidagi farq;

- Xorijiy valyutalar bilan bog’liq operatsiyalardan foyda (zarar) -xorijiy valyutalarni sotishdan olingan daromad bilan ularni sotib olish bilan bog’liq xarajatlar o‘rtasidagi farq.

Shunday qilib, operatsion foydaning asosiy tarkiblari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- Foizli foyda = foizli daromadlar – foizli xarajatlar;
- Komissiya foyda = komissiya daromad – komissiya xarajat;
- Boshqa operatsiya foydasi = boshqa daromadlar – boshqa xarajatlar.
- Qo‘shimcha faoliyat foydasi = qo‘shimcha faoliyatdan olingan daromad bilan ularni amalga oshirish bilan bog’liq xarajatlar o‘rtasidagi farq.

Tijorat banklarining daromad va xarajatlarining asosiy qismlari bu foizlar hisoblanadi, u orqali bank foydasi, foizli marja shakllanadi. Bankning boshqa operatsiya foydasi bankning mijozlarga ko‘rsatadigan xizmatlarning rivojlanishi bilan bog’liq.

Xorijiy mamlakatlarda moliyaviy natijalarning shakllanishi quyidagicha:

1. Jami foizli daromadlar;
2. Jami foizli xarajatlar;
3. Sof foizli daromad yoki foizli marja (1-2, ya’ni jami foizli daromadlar – jami foizli xarajatlar);
4. Kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplash zahirasi;
5. Zahirani baholab chegirib tashlanganidan keyingi sof foiz daromadi (3-4, ya’ni sof foizli daromad - kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplash zahirasi);
6. Jami foizsiz daromadlar;
7. Jami foizsiz xarajatlar;
8. Sof foizsiz daromad yoki foizsiz marja (6-7, ya’ni jami foizsiz daromadlar - jami foizsiz xarajatlar);
9. Soliq to‘lagunga qadar foyda (zarar) (5+8), ya’ni zahirani baholab chegirib tashlanganidan keyingi sof foiz daromadi + sof foizsiz daromad);
10. Soliqlar;
11. Soliq to‘langandan keyingi sof foyda (9-10).

Yuzaga kelgan sof foyda hisobidan aksionerlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan dividendlar to‘lanadi. Sof foydaning dividendlar to‘langandan keyin qolgan qismi taqsimlanmagan foyda deyiladi.

Taqsimlanmagan foyda – rezerv fondiga ajratma va dividendlar to‘langanidan keyin qoladigan foydaning bir qismi hisoblanadi.

Bank ixtiyorida qolgan sof foyda imidjiga ham o‘z zarbasini ko‘rsatmay qolmaydi. Bank faoliyatida uning sof foydasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari foydasini taqsimlash Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan balansning 2-shaklga asosan, ya'ni "Foyda va zararlar" hisobotiga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida foydaning taqsimoti quyidagi yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash;
- Dividend to‘lovlarini to‘lash;
- Turli fondlarni shakllantirish;
- Umumiy zahiralarni shakllantirish;
- Kapitallashuvni oshirish;
- Xodimlarga 13 va 14 – mukofotlarni berish.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari ixtiyorida qoladigan foydani taqsimlash har bir tijorat bankiga tegishli bo‘lgan uning ichki masalasidir.

Banklararo raqobatning rivojlanishi foydaning maqsadli yo‘naltirilishini ta'minlaydi, bank mahsulotlarini kengaytirish, takomillashtirish zarurligini bildiradi, mehnat kollektivining moddiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi.

Qisqacha xulosalar

Har bir tijorat banki faoliyatining asosiy maqsadi bank daromadlarini oshirib va xarajatlarni kamaytirgan holda, maksimal foyda olishdir. Yuqori daromad olish o‘z navbatida banklar olib boradigan operatsiyalarining risk darajasini oshiradi, chunki risk darajasi qancha past bo‘lsa, foyda olish ehtimoli ham qisqaradi.

Bankning asosiy faoliyati bo‘lib, bank operatsiyalarini amalga oshirish va mijozlarga bank xizmatlarini ko‘rsatish hisoblanadi.

Daromad keltiruvchi boshqa faoliyatlar esa, boshqa daromadlar hisoblanadi.

Daromad manbalarini barqaror va nobarqarorga ajratish mumkin. Mijozlarga har xil xizmatlar ko‘rsatish daromadning barqaror manbasi hisoblanadi. Nobarqaror esa, moliyaviy bozordagi operatsiyalaridan, suningdek, bankning qo‘shimcha faoliyatidan keladigan daromadlar hisoblanadi.

Odatda, yalpi daromad tarkibida quyidagi daromad guruhlarini ajratishadi: operatsion daromadlar; bankning qo‘shimcha faoliyatidan daromadlar; boshqa daromadlar.

Tijorat banklari daromadlari strukturasida katta ulushga ega bo‘lgan asosiy faoliyatdan daromadlar, operatsion daromadlar deyiladi. Operatsion daromadlar o‘z navbatida foizli va foizsiz daromadlarga bo‘linadi.

Bank faoliyati daromadining asosiy qismi foizli daromadlardan keladi. Ya’ni, o‘z mablag’lari va jalb qilingan mablag’larni pullik joylashtirishdan olinadigan daromadlar.

Nobank xizmatlardan bu daromadlarni komission daromad deyiladi. Xizmatlarga to‘lov komission mukofot ko‘rinishida olinadi. Komission mukofot hamma qilinadigan operatsiya yoki shartnoma summasidan foiz ko‘rinishida o‘rnatiladi. Qo‘shimcha faoliyatdan daromadlar bank daromadlari tarkibida shunchalik katta ulushga ega emas.

Banklar asosiy va qo‘shimcha faoliyat daromadlaridan tashqari, boshqa daromadlar kategoriyasiga kiruvchi boshqa daromadlar ham oshishi mumkin. Ular: jarima, penyalar, mijozlardan olinadigan jarimalar; ortiqcha tushumlarning kassaga tushishi; zahira summasini qayta tiklash; hisobot yilida tushgan yoki aniqlangan-o‘tgan yilgi daromadlar; daromadga soliq ortiqcha to‘laganligi uchun byudjetdan mablag’ qaytarish va boshqalar.

Bu daromadlar mohiyatan tasodifiy yoki bankning hisobot davrida «Ishlab topilmagan» hisoblanadi. Ular odatda kelasi davrga daromad rejasi tuzilganda hisobga olinmaydi.

Bankning daromadliligi, birinchi navbatda xarajatlarni kamaytirishga bog’liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Xarajat – bu pul vositasini ishlab chiqarish (bank) va noishlab chikarish (nobank) faoliyatlariga ishlatish (xarajat qilish) tushuniladi.

Bank xarajatlari tarkibi: foizli xarajatlar, foizsiz xarajatlar, operatsion xarajatlardan iborat.

Bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarni qoplashda, soliqlarni to‘lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o‘sishiga sarflanadi.

Tijorat banklarining foydasi bu – daromadni xarajat bilan taqqoslash natijasida daromadning ortgan qismi ko‘rinishdagi bank faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasidir. Daromad va xarajatni taqqoslash natijasida bankning foyda yoki zarar ko‘rinishidagi moliyaviy natijasi yuzaga keladi. Foydalilik tushunchasi bankning xo‘jalik-moliyaviy tijorat bilan bog’liq barcha sohalarining haqiqiy yakuniy natijasini o‘zida aks ettiradi.

Balansdagi foyda faqatgina bank faoliyatining oraliq davrdagi moliyaviy natijasini ko‘rsatadi. Bank sof foydasi bankning barqaror ishlashini ta’minlovchi asosiy element hisoblanadi, ya’ni u barcha xarajatlar qoplangandan keyin qoladigan daromad qoldig’i, rezervlar shakllanishi va foyda hisobiga soliqlar to‘lanishi mumkin bo‘lgan bankning yakuniy moliyaviy ko‘rsatkichidir. Bu iqtisodiy ko‘rsatkichlarni AT "Alokabank"ning 2019-2021-yillarda rivojlanish strategiyasidagi asosiy kursatkichlar tugrisida ma’lumotlarni quyidagi 15.1-jadval ma’lumotlarnda ko‘rib chiqamiz

Bankning bank operatsiyalaridan oladigan moliyaviy natijasi operatsiya foydasi (zarari) deb ataladi. Bu bank foydasining asosiy manbasi. Nobank faoliyatidan olingan moliyaviy natijalar operatsiya bilan bog’liq bo‘lmagan foyda bo‘ladi.

15.1- jadval

AT "Alokabank"ning 2019-2021 yillarda rivojlanish strategiyasidagi asosiy kursatkichlar tugrisida ma’lumot

№	Kursatkichlar	2016 yil amalda	2017 yil amalda	2018 yil amalda	2019 yilga reja	2020 yilga reja	2021 yilga reja	2021 yilni 2018 yilga nisbati	
								mln. Sumda	foizda
1	Bank aktivlari	1 574 221	2 792 243	5 846 627	8193189	10 405 350	13 110 741	7 264 114	224%
	Utgan yilga nisbatan		177%	209%	136%	127%	126%		
	shu jumladan:								
1.1.	Kredit va lizing operatsiyalari	1 101 553	1 632 498	4 743 160	6 000 000	7 500 000	9 375 000	4 631 840	198%
	shu jumladan:		148%	291%	133%	125%	125%		
-	Korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar va lizinglar	936 736	1 377 381	3 773 193	4 750 000	5 925 000	7 500 000	3 726 807	199%
-	Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar	164 817	255 118	791 137	1 250 000	1 575 000	1 875 000	1 083 863	237%
1.2.	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar (16500-16700)	69 793	61 948	83 075	386 253	750 253	1 050 253	967 178	1264%
2	Majburiyatlar	1 358 801	2 393 859	4 684 178	6 827 778	8 868 907	11 257 228	6 573 050	240%
	shu jumladan:								
2.1.	Depozitlar	1 130 801	2 261 819	4 407 782	6 530 866	8 294 200	10 450 692	6 042 910	237%
-	YUridik va jismoniy shaxslardan jalb kilingan depozitlar	899 211	1 939 659	3496 179	6 008 397	7 630 664	9 614 636	6 118457	275%
-	Banklararo jalb kilingan depozitlar	231 590	322 160	911 603	497 053	663 536	836 055	- 75 548	92%
3	Xususiy kapital	215 420	398 384	1 162 449	1 365 411	1 536 443	1 853 513	691 064	159%
	shu jumladan:								
3.1.	Ustav kapital	117 443	238 553	883 985	883 985	883 985	983 985	100 000	111%
4	Daromad	251 464	358 819	767 078	1 250 773	1 626 005	2 032 506	1 265 428	265%
	Utgan yilga nisbatan		143%	214%	202%	130%	125%		
5	Xarajat	216 464	288 111	629 300	1 050 109	1 354 641	1 679 754	1 050 454	267%
	Utgan yilga nisbatan		133%	218%	205%	129%	124%		
6	Sof foyda (Zarar)	35 000	70 708	137 778	200 664	271 364	352 752	214 974	256%
	Utgan yilga nisbatan		202%	195%	188%	135%	130%		
7	Rentabellik	16,2%	24,5%	21,9%	19,1%	20,0%	21,0%	-0,9%	96%
8	Aktivlar rentabelligi (ROA)	2,2%	2,5%	2,4%	2,4%	2,6%	2,7%	0,3%	114%
9	Kapital rentabelligi (ROE)	16,2%	17,7%	11,9%	14,7%	17,7%	19,0%	7,2%	161%

Tayanch so‘z va iboralar

Ishlab chiqarish, noishlab chiqarish, barqaror va nobarqaror daromad manbalarini, operatsion daromadlar, foizli daromadlar, komission daromadlar, moliyaviy bozordagi operatsiyalardan daromadlar, bankning qo‘shimcha faoliyatidan daromadlar, foizli daromad, komission mukofotlar shaklidagi daromad, xarajat, foizli xarajatlar, foizsiz xarajatlar,operatsion xarajatlar, foydalilik, operatsiya foydasi, nobank, rentabellik, aktivlar rentabelliligi, kapital rentabelliligi, moliyaviy koeffitsientlar, sof foizli marja, operatsion foydaning marjasi, SPRED, foizli foyda, foizli daromadlar, foizli xarajatlar, komission foyda, komissiya daromad, komissiya xarajat

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bank daromadlari shakllanishining manbalari.
2. Bank daromadlarini ko‘paytirishning qanday yo‘llari mavjud?
3. Bankning foizli daromadlari nimalardan tashkil topgan?
4. Bankning foizsiz daromadlarining tarkibiy tuzilishini izohlang.
5. Bank xarajatlariga ta’rif bering.
6. Bank xarajatlarini boshqarishning qanday yo‘llari mavjud?
7. Bankning foizli xarajatlari deganda qanday xarajatlar tuShuniladi?
8. Bankning foizsiz xarajatlari nimalardan tarkib topgan?
9. Bankning operatsion xarajatlari o‘z ichiga qanday xarajatlarni qamrab olgan?
10. Tijorat banklarining sof foydasi mohiyati va uning tarkibiy tuzilishi.
11. Bankning foydasini tahlil qilishda qanday vazifalar bajarilishi maqsadga muvofiq?
12. Tijorat banklarida sof foydaning darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni hisoblash yo‘llari.
13. ROA ko‘rsatkichi qanday ko‘rsatkich va u qanday aniqlanadi?
14. ROE ko‘rsatkichi nimani ifodalaydi va uni qanday hisoblasa bo‘ladi?
15. Foizli marja tuShunchasiga izoh bering.
16. Tijorat banklari foydasining taqsimlanishi tartibi.
17. Bank foydasining tarkibiy tahlili nima maqsadda amalga oshiriladi?
18. Sof foizli va sof foizsiz marja ko‘rsatkichlarining mohiyati nimada va ular qanday hisoblanadi?

1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki qayta moliyalash
STAVKASI

Amal qilgan davri	Foizda
2024 yil 12 sentyabr - hozirgi kungacha	13,5
2024 yil 26 iyul - 2024 yil 11 sentyabr	13,5
2024 yil 14 iyun - 2024 yil 25 iyul	14
2024 yil 26 aprel - 2024 yil 13 iyun	14
2024 yil 15 mart - 2024 yil 25 aprel	14
2024 yil 26 yanvar - 2024 yil 14 mart	14
2023 yil 15 dekabr - 2024 yil 25 yanvar	14
2023 yil 27 oktyabr - 2023 yil 14 dekabr	14
2023 yil 15 sentyabr - 2023 yil 26 oktyabr	14
2023 yil 28 iyul - 2023 yil 14 sentyabr	14
2023 yil 16 iyun - 2023 yil 27 iyul	14
2023 yil 5 may - 2023 yil 15 iyun	14
2023 yil 17 mart - 2023 yil 4 may	14
2023 yil 27 yanvar - 2023 yil 16 mart	15
2022 yil 16 dekabr - 2023 yil 26 yanvar	15
2022 yil 28 oktyabr - 2022 yil 15 dekabr	15
2022 yil 9 sentyabr - 2022 yil 27 oktyabr	15
2022 yil 22 iyul - 2022 yil 8 sentyabr	15
2022 yil 10 iyun - 2022 yil 21 iyul	16
2022 yil 22 aprel - 2022 yil 9 iyun	17
2022 yil 18 mart - 2022 yil 21 aprel	17
2022 yil 21 yanvar - 2022 yil 17 mart	14
2021 yil 10 dekabr - 2022 yil 20 yanvar	14
2021 yil 22 oktyabr - 2021 yil 9 dekabr	14
2021 yil 10 sentyabr - 2021 yil 21 oktyabr	14
2021 yil 30 iyul - 2021 yil 9 sentyabr	14
2021 yil 11 iyun - 2021 yil 29 iyul	14
2021 yil 23 aprel - 2021 yil 10 iyun	14
2021 yil 12 mart - 2021 yil 22 aprel	14
2021 yil 22 yanvar - 2021 yil 11 mart	14
2020 yil 11 dekabr - 2021 yil 21 yanvar	14
2020 yil 23 oktyabr - 2020 yil 10 dekabr	14
2020 yil 11 sentyabr - 2020 yil 22 oktyabr	14
2020 yil 23 iyul - 2020 yil 10 sentyabr	15
2020 yil 11 iyun - 2020 yil 22 iyul	15
2020 yil 15 aprel - 2020 yil 10 iyun	15

2020 yil 5 mart - 2020 yil 14 aprel	16
2020 yil 17 yanvar - 2020 yil 4 mart	16
2019 yil 20 oktyabr - 2020 yil 16 yanvar	16
2019 yil 20 iyul - 2019 yil 19 oktyabr	16
2019 yil 20 aprel - 2019 yil 19 iyul	16
2018 yil 25 sentyabr - 2019 yil 19 aprel	16
2018 yil 28 iyul - 2018 yil 24 sentyabr	14
2018 yil 7 fevral - 2018 yil 27 iyul	14
2017 yil 28 iyun - 2018 yil 6 fevral	14
2016 yil 1 yanvar - 2017 yil 27 iyun	9
2015 yil 1 yanvar - 2015 yil 31 dekabr	9
2014 yil 1 yanvar - 2014 yil 31 dekabr	10
2011 yil 1 yanvar - 2013 yil 31 dekabr	12
2006 yil 15 iyul - 2010 yil 31 dekabr	14
2006 yil 1 yanvar - 2006 yil 14 iyul	16
2004 yil 21 dekabr - 2005 yil 31 dekabr	16
2004 yil 5 iyul - 2004 yil 20 dekabr	18
2003 yil 10 sentyabr - 2004 yil 4 iyul	20
2003 yil 16 iyul - 2003 yil 9 sentyabr	24
2002 yil 1 yanvar - 2003 yil 15 iyul	30
2000 yil 1 iyul - 2001 yil 31 dekabr	24
2000 yil 1 iyun - 2000 yil 30 iyun	27,6
2000 yil 1 may - 2000 yil 31 may	28,8
2000 yil 1 aprel - 2000 yil 30 aprel	30
1998 yil 1 yanvar - 2000 yil 31 mart	36
1997 yil 1 noyabr - 1997 yil 31 dekabr	30
1997 yil 1 yanvar - 1997 yil 31 oktyabr	39,6
1996 yil 1 avgust - 1996 yil 31 dekabr	48
1996 yil 1 iyul - 1996 yil 31 iyul	60
1995 yil 1 avgust - 1996 yil 30 iyun	84
1995 yil 1 iyul - 1995 yil 31 iyul	120
1995 yil 20 mart - 1995 yil 30 iyun	300
1995 yil 1 fevral - 1995 yil 19 mart	250
1994 yil 1 oktyabr - 1995 yil 31 yanvar	225
1994 yil 2 may - 1994 yil 30 sentyabr	150

2-ilova

Tijorat banklarning kredit va depozitlari to‘g’risida 2023 yil oktyabr holatiga ma’lumot[92]

Mlrd. so‘m

№	Banklar nomi	jami kreditlar	shundan		jami depozitlar	Shundan	
			Yuridik	jismoniy		yuridik	jismoniy
	Jami	**451 610**	**139 126**	**312 485**	**221 335**	**77 175**	**144 160**
	Davlat ulushi	**324 035**	**73 286**	**250 748**	**114881**	**33 848**	**81 033**
1	O‘zmilliybank	93 536	11 811	81 725	29 961	9 024	20 937
2	O‘sanoatqurilishbank	55 345	7 791	47 554	14 972	4 475	10 498
3	Agrobank	53 443	10 265	43 179	14 557	6 179	8 378
4	Asakabank	40 074	8 285	31 789	11 824	2 985	8 839
5	Xalqbanki	23 401	14 072	9 329	16 159	3 449	12 710
6	Biznesni rivojlantirishbanki	22 174	10 693	11 482	9 368	1 797	7 571
7	Mikrokreditbank	14 197	5 220	8 977	5 904	1 574	4 330
8	Turonbank	10 903	1 793	9 110	3 485	1 455	2 030
9	Aloqabank	10 881	3 327	7 553	8 603	2 897	5 706
10	Poytaxtbank	80	29	51	46	12	35
	Boshqabanklar	**127 576**	**65 839**	**61 736**	**106 454**	**43 327**	**63 127**
11	Ipotekabank	35 107	19 175	15 933	15 729	3 677	12 052
12	Kapitalbank	24 205	18 016	6 189	26 855	14 313	12 541
13	Hamkorbank	15 128	6 409	8 719	7 567	4 126	3 441
14	Ipakyo‘libank	10 630	2 027	8 603	6 959	2 588	4 372
15	Orientfinansbank	7 547	3 015	4 532	7 265	2 421	4 844
16	Investfinansbank	6 197	2 794	3 402	6 867	3 527	3 341
17	Trastbank	4 837	2 295	2 541	6 165	1 193	4 972
18	Davrbank	4 474	3 216	1 258	2 429	913	1 517
19	Tengebank	3 828	1 926	1 902	1 717	1 101	616
20	Aziyaalyansbank	3 161	985	2 176	5 570	1 548	4 022
21	Anorbank	3 079	2 600	478	3 823	2 633	1 190
22	Tibisibsnk	2 954	2 841	113	2 349	2 290	59
23	O‘zKDBbank	2 143	13	2 129	7 495	487	7 008
24	Ziroatbank	1 542	49	1 493	2 077	865	1 212
25	Universalbank	1 111	186	925	1 486	783	703
26	Garantbank	1 031	229	802	896	546	350
27	Oktobank	258	23	234	998	281	717
28	Madatinvestbank	257	24	233	46	31	15
29	Eronsoderetbank	25	15	11	34	1,0	33
30	Apeksbank	22	0,0	22	75	0,0	75
31	Hayotbank	21	0,0	21	8	0,8	8
32	Yangibank	12	0,0	12	11	0,7	10
33	ABObank	7	0,4	7	7	0,0	7
34	Smartbank	0,5	0,5	0,0	1,2	1,2	0,0
35	Uzumbank	0,0	0,0	0,0	24	0,1	24

[92] https://cbu.uz/upload/medialibrary/919/y5ywiw0mgjpfz4qgk465rln2s1n0a0ar/Website_Calendar_2024.xlsx

GLOSSARIY

Aktiv pul oboroti – bu to‘lov jarayonlarida bevosita ishtirok etayotgan harakatdagi pul massasidir.

Asosiy vositalar – bu moddiy ishlab chiqarish sohasida va ishlab chiqarishga taalluqli bo‘lmagan sohada uzoq muddat davomida (bir yildan ortiq) harakatda bo‘ladigan hamda ijaraga topshirilib ham foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

Aktiv pul oboroti – bu to‘lov jarayonlarida bevosita ishtirok etayotgan harakatdagi pul massasidir.

Bank – tijorat tashkiloti bulib, bank faoliyati deb xisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuasini amalga oshiradigan yuridik shaxs: yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar kabul kilish xamda kabul kilingan mablaglardan tavvakal kilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish, tulovlarni amalga oshirish.

Bank aksiyadori – bank aksiyalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxs.

Bank kafolati – mijozning iltimosiga binoan tijorat banki tomonidan bo‘nak sifatidagi summani kontrakt shartlari bo‘yicha bajarish va kafolatlash.

Bank riski – Markaziy bank va tijorat banklari faoliyatida moliya bozoridagi iqtisodiy kon’yukturaning o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan zarar ko‘rish havfi tuShuniladi.

Bank sindikati – sinditsiyalash-tirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar o‘rtasida o‘zaro kelishuv.

Banklararo kredit – boshqa tijorat banklaridan olingan kredit.

Banklararo kreditlar – bank kreditining keng tarqalgan shakllaridan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma’lum bir tijorat bankning boshqa turdagi ssudalar berish siyosatini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu normaning aniq miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Bank kapitali – banklarga jalb qilingan va ular tomonidan kredit hisob-kitob va boshqa operatsiyalar uchun foydalanadigan pulli kapitallar yig’indisi.

Bank kliringi – banklarning o‘zaro talabnoma va majburiyatlarni hisobga olish asosida mollar, qimmatli qog’ozlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitob qilish tizimi.

Badal – 1. Biror narsa evaziga to‘lanadigan haq. 2. Keyinchalik: biror tashkilot, jamiyat, uyushmalarga kabilarga a’zo bo‘lgan shaxsning

o‘z jamiyatini iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida unga to‘lab turadigan puli, a’zolik haqqi.

Benefitsiar bank – bu to‘lov operatsiyasini yakunlovchi bank.

Bozor riski – qimmatli qog’ozlar narxini o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan risk majmui.

Bank krediti – kreditning asosiy shakli bo‘lib, unda pul mablag’larini vaqtincha foydalanish uchun banklar tomonidan beriladi.

Bozor – sotuvchi bilan xaridor o‘rtasida mahsulotni ayirboshlash munosabati, masulotlar bilan oldi-sotdi munosabatlari, mahsulot ishlab chiqarish, mahsulot ayirboshlash va pul muomalasi qonunlariga binoan amalga oshiriladi. Bozorda ikki jarayon amalga oshadi: biri mahsulotlarni sotish, bunda mahsulot pulga almashadi. Ayirboshlash ixtiyoriy va erkin shakllangan narxlarda olib boriladi. Ayirboshlash ob’ektining moddiy shakl jihatidan olganda, iste’mol mahsulotlari va xizmatlar, ishlab chiqarish vositalari, investisiya, qimmatbaho qog’ozlar, ilmiy g’oyalar, texnikaviy ishlanmalar va mehnat bozorlari mavjud. Ayirboshlash miqyosiy jihatidan mahalliy, hududiy, milliy va jahon bozori, ichki va tashqi bozorlarga ajratiladi.

Byudjet schyotlari – bu byudjet kassasini ijro etish operatsiyasini bajarish, to‘lovlarning tushishi va xarajatlarni aks ettirish uchun ochiladigan schyotlar.

Byudjetni rejalashtirish – bu davlatning moliya siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qilishdir.

Banknot – bank biletlari, markaziy emissiya banklari tomonidan chiqariladigan pul belgilari. Hozirgi kunda ular qog’oz pullarning asosiy turi hisoblanadi.

Bank aksiyadori – bank aksiyalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxs.

Bank akkreditivi – bankninig mijozlar topshirig’iga ko‘ra uning hisobidan topshiriqnomada ko‘rsatilgan shartlarda va summa doirasida jismoniy va huquqiy shaxslarga to‘lovlar o‘tkazish majburiyati.

Bank aksepti – bankning to‘lov hujjatlarini to‘lashga rozilik bildirishi, ularning to‘lanishini kafolatlash shakli.

Bank depoziti – xususiy shaxs, korporatsiya, davlat tashkiloti nomidan bankga saqlash uchun topshirilgan pul mablag’lari

Bank binefitsiar – to‘lov operatsiyasini yakunlovchi bank.

Bank diskonti – bankining veksellarni hisobga olish operatsiyalari uchun belgilangan hisob foizi.

Bank initsiator – to‘lov operatsiyasini boshlovchi bank.

Byudjet tizimi – turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag’lari oluvchilar yig’indisi, byudjetlarni tashkil etish va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o‘rtasida, Suningdek, byudjetlar hamda byudjet mablag’lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni ifoda etadi.

Valyuta – italyancha so‘zdan olingan bo‘lib, «qadrlanmoq, qiymat» degan ma’noni anglatadi. Baho, qiymat belgisi bo‘lib, mamlakatlarning milliy pul birligi hisoblanadi.

Valyuta riski – tashqi iqtisodiy faoliyatda turli valyuta operatsiyalar o‘tkazish jarayonida ayirboshlash kurslarining o‘zgarishi natijasida nisbatan zarar ko‘rish yoki yuqori foyda olish ehtimoli tuShuniladi.

Veksel – 1. Bu Nemischa «wechsel» so‘zidan olingan bo‘lib, bu veksel beruvchidan yoki vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda ko‘rsatilgan muddat kelganda veksel egasiga ma’lum miqdordagi summani to‘lash haqidagi so‘zsiz majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog’ozidir. 2. Qat’iy belgilangan shakldagi yozma qarz majburiyati.

Veksel portfeli – muayyan davrda bank yoki korxona ixtiyorida jamlangan veksellar majmui.

Garov – 1. Bu aniq bir majburiyatni, shartni bajarish, qarzni belgilangan vaqtda qaytarishni kafolatlash maqsadida qimmatbaho buyum yoki boylikni qarz beruvchiga qoldirish. 2. Biror narsa yoki hodisa haqida bahslaShuvchi ikki tomon o‘rtasidagi shart.

Davlat byudjeti – davlatning o‘z funksiyalarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan daromadlari va xarajatlarining pul bilan ifodalangan yillik majmui. Davlat byudjeti bir yilga tuzilib, uning daromadlar qismida soliqlar, bojxona to‘lovlar hamda boshqa tuShumlar, xarajatlar qismida esa davlatning ta’lim, sog’liqni saqlash, mudofaa xarajatlari va turli xil ijtimoiy to‘lovlar aks etadi

Davlat qimmatli qog’ozlari – davlat qarz majburiyatlari, obligatsiyalar va Shu kabilar majmuidan iborat bo‘lib, aholi va xo‘jalik yurituvchi subektlarning vaqtinchalik bush bo‘lib turgan mablag’larini jalb qilish uchun hukumat tomonidan chiqariladigan qimmatli qog’ozlar.

Daromad – ishlab chiqarish omillarini ishlatishdan keladigan pul va natural tuShumlar.

Devidend – deb ataluvchi daromad aksionerlarga ularning qo‘lidagi aksiyalar soniga muvofiq to‘lanadi.

Depozit operatsiyalari – bu banklarning kredit institutlarning pul mablag’larini omonatga jalb qilish va joylashtirish bilan bog’liq bo‘lgan operatsiyalar.

Depozit sertifikati – **1**. Bu inglizcha «sertifikcat of depozit» so‘zidan olingan bo‘lib, u pul mablag’lari omonatga qo‘yilganligi to‘g’risida, omonatchiga belgilangan muddat tugaganidan keyin depozit summasi va unga tegishli foizlarni olish huquqini beruvchi kredit muasassasining guvohnomasidir. 2. Kredit muassasasining pul mablag’i saqlashga topshirilganligi haqida omonatchining depozitni olish huquqini tasdiqlovchi yozma guvoxnomasi.

Denominatsiya – valyutani barqarorlashtirish va hisob-kitoblarni osonlashtirish maqsadida pul belgilarining ko‘rsatilgan qiymatini yiriklashtirish. Bunda eski pul belgilari yangilarga almashtirib boriladi, Shunga muvofiq narx-navo va ish haqi qayta hisoblanadi.

Jamg’arma fondlari – deyilganda ta’sis hujjatlarga muvofiq korxona yangi mulkni tashkil qilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va Shu singari maqsadlarni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan mablag’lar (foyda va boshqalar) tushiniladi.

Jamg’arma depozitlar – davriy badallar yordamida shaklantiradigan jamg’arma depozitlarini jismoniy va yuridik shaxslarga ular muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun aniq pul summasini depozit hisobvarag’ida to‘plash istagi bildirganda ochiladigan depozitning bir turi.

Imtiyozli aksiya – bu aksiya egasi hissadorlar yig’ilishida ovozga ega bo‘lmaydi, lekin devidentlarni qat’iy foiz stavkalarida faoliyat natijasining yakunlariga qaramasdan kafolatli daromad olish imkonini beradigan qimmatli qog’oz.

Investitsiya – 1. Lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «kiyintirmoq» degan ma’noni anglatadi. Biror ish, korxonaga sarmoya solish, mablag’ sarflash. 2. Daromad olish maqsadida pul mablag’larini biror ishga qo‘yishdir.

Investitsiya portfeli – mablag’larni uzoq muddatli qimmatli qog’ozlarga sarflash.

Investitsiya puli – investitsiyalar umumiy fondi.

Inflyasiya – lotincha so‘zidan olingan bo‘lib, «shishish, ko‘chish, ko‘tarilish» degan ma’noni anglatadi. Pulning qadrsizlanishi; pulni

me’yordan ko‘p ishlab chiqarilishi oqibatida pul harakati kanallarida mol bilan ta’minlanmagan pullarning paydo bo‘lishi.

Iqtisodiy risk – umuman yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida ishlab chiqarish shakllarining oqilona uyg’unlaShuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmui.

Investitsiya institutlari – bu qimmatli qog’ozlar bilan o‘z faoliyatini asosiy faoliyat sifatida amalga oshiruvchi qimmatli qog’ozlar bozorining professional ishtirokchilaridir.

Investitsiya kompaniyasi – bu qimmatli qog’ozlarni chiqarish, qimmatli qog’ozlarga mablag’lar sarflash, qimmatli qog’ozlarni o‘z nomidan va o‘zi hisobidan olish-sotish ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.[93]

Investitsiya siyosati – tijorat banklari faoliyatining ma’lum darajasiga asoslangan bankning qimmatli qog’ozlar bilan aktiv operatsiyalarni o‘z ichiga oladi va bank faoliyatining daromadliligi va likvidligini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi.

Investorlar – o‘z mablag’i yoki jalb qilingan mablag’ yordamida kapital ko‘yilmalarni amalga oshiradi. YUridik va jismoniy shaxslar, yoki ularning birlashmasi, davlat organlari va chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar investor bo‘lishlari mumkin.

Iste’mol krediti – aholining iste’mol talablarini qondirishga beriladigan kredit. Bu kredit uy ro‘zg’or buyumlarini: radio-elektron va boshqa maishiy asbob uskunalar, mebellar, interer buyumlari, turar joyni ta’mirlash bilan bog’liq tovarlarni xarid qilish uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan kredit.

Kafil – muayyan vazifalarni bajarish uchun kafillik beradigan va uning bajarilishini nazorat qiladigan shaxs, idora, tashkilot, davlat yoki davlatlar guruhi.

Kafillik – bu bir tomonlama majburiyat ko‘rsatilgan shartnoma bo‘lib, kafil ular vositasida kreditor oldida qarz oluvchining qarzini zarurat bo‘lib qolganda to‘lab yuborishi majburiyatini oladi.

Kafolat – bu ma’lum muddat o‘tgach ma’lum miqdordagi summani qarzdor tomonidan berilishni ta’minlaydigan kafolat beruvchining to‘la majburiyatlari tushiniladi.

Kreditga qobillilik – bu xo‘jalik sub’ektlari tomonidan kreditlarni o‘z vaqtida va to‘laligicha qaytara olish qobiliyati hamda moliyaviy ahvoliga beriladigan baho.

[93] Биз инвестиция компанияси, деб атайдиган муассаса америка амалиётида инвестиция банки, деб номланади.

Kredit qiymati – qarz oluvchi qarz beruvchiga kreditdan foydalanganligi uchun beriladigan foiz (%) summasi.

Kredit siyosati – bu banklarning kredit faoliyati bo‘lib, ssuda kapitalini joylashtirish bilan amalga oshiriladi.

Kredit siyosatining vazifasi – banklarning kredit tarkibini yaxshilash ularning aylanishini tezlashtirish, ssudalar hajmini kengaytirish.

Kredit siyosatining maqsadi – mijozlar ehtiyojini qondirish va qo‘shimcha foyda olish.

Kredit sub’ektlari – har xil bo‘lishi mumkin. Bularga korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Kredit summasi – bu qarzga beriladigan pul birligining hajmi.

Kompaniyalar – amalda ko‘pgina yirik kompaniyalar nakd pullarini boshqarishni faol va murakkab strategiyasini amalga oshiradilar va qisqa muddatli qimmatli qog’ozlarni asosiy xaridorlari hisoblanadilar.

Kredit – lotincha «kredit» - «qarz» so‘zidan olingan bo‘lib, pul mablag’lari, tovar va xizmatlarini kelishilgan foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanishi uchun pul yoki material mablag’lari berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi. (qarz, nasiya).

Korxona – mehnatkashlar jamoasi mulkidan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqarib, uni iste’molchilarga sotadigan yoki sanoat xarakteridagi turli xizmat ishlarini bajaradigan yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub’ektidir.

Qimmatli qog’ozlar – bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlovchi, devident yoki foiz % ko‘rinishida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxsga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul hujjatlaridir.

Qisqa muddatli kreditlar – amal qilish muddati 12 oydan oshmaydigan ssuda bo‘lib, uning uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirlarni o‘tkazish muddati, ularning qoplanishi va boshqa shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Limit– Chegara, cheklash.

Litsenziya – davlat tomonidan berilgan ruxsatnoma.

Likvidlilik – 1. Bu qimmatli qog’ozning egasi uchun deyarli zarar keltirmagan holda tez sotilishi, pul mablag’lariga aylanish qudratidir; 2. Korxonalar, firmalar, banklar aktivlarining moliya-kredit majburiyatini

va qonuniy pul talabnomalarini o‘z muddatida uzluksiz to‘lashga imkon beruvchi harakatchanligi.

Lizing – mashina, asbob-uskunalar, transport vositalarini, ishlab chiqarish binolarini, inshootlarini uzoq muddatli ijaraga berish. U ijaraning bir turi bo‘lib muayyan davrdan keyin, ijara to‘lovlarining hammasi amalga oshirilgandan keyin ijaraga olingan narsa ijarachi mulkiga aylanadi.

Lizing ob’ekti – tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanadigan, iste’mol qilinmaydigan har qanday ashyolar. Shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk lizing ob’ektlari bo‘lishi mumkin.

Markaziy bank mijozlari – davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning muassasalari va tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulotdda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Suningdek, Markaziy bankka qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Muddatli kreditlar – amal qilish muddati o‘tmagan ssudalardir.

Overdraft – 1. Chek bo‘yicha olingan joriy hisobraqamdagi qoldiqdan ortiqcha summa; 2. Bankdagi kreditning oshib ketishi; 3. Bank mijozning hisobraqamidagi qoldiqdan ortiq mablag’ni hisobdan chiqarish yo‘li bilan beriladigan qisqa muddatli kredit.

Plastik kartochka – bank tomonidan muomalaga chiqarilgan, tegishli bankda kartochka egasining hisobvarag’i mavjudligini tasdiqlovchi va chakana savdo tarmog’ida naqd pulsiz shaklda tovarlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlarni sotib olish huquqini beruvchi maxsus to‘lov vositasi.

Pul – bu Shunday maxsus tovarki, u hamma boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Hamma tovarlar singari pul ham qiymat ham iste’mol qiymatiga ega.

Substandart kreditlar – bu asosiy qarz summasi va foizlar ishlab chiqarilgan dasturlarning noto‘g’ri yo‘naltirilganligi sababli qaytmaslik xatari mavjud bo‘lgan, o‘z mohiyatiga ko‘ra moliyaviy, boshqaruv, iqtisodiy yoki kuchsiz garov ta’minoti bo‘lishi mumkin bo‘lgan kreditlardir.

Tijorat banki – bu bo‘sh pul mablag’larini jalb qiluvchi, saqlovchi, kredit, hisob-kitob va boshqa turli xil vositachilik operatsiyalarini amalga oshiruvchi muassasa.

Tijorat bankining balansi – bu buxgalteriya balansi bo‘lib, bankning o‘z mablag’lari va jalb qilingan mablag’larining holatini hamda ularni bankning kredit va jalb qilingan mablag’larning oshganini, Suningdek, ularni bankning kredit va boshqa aktiv operatsiyalariga joylanishini ifodalaydigan hisobotidir.

Trast – bunga mijozning qimmatli qog’ozlari portfeli yoki portfelning bir qismini hamda u bilan bog’liq bo‘lgan pul mablag’larini ehtimolli boshqarish (devidentlarni, foizlarni inkassatsiya qilish, ularni qayta investitsiyalash, qimmatli qog’ozlar sotuvidan pul tushishi va h.k.) kiradi.

Transaksiya – bu pul mablag’larini har qanday maqsadlarda foydalanish uchun amalga oshiriladigan o‘tkazma bank operatsiyasi.

Uzoq muddatli – Besh yildan ortiq muddatga (ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlarga mo‘ljallangan ob’ektlarni qurish, qayta ta’mirlash va texnik qayta jihozlashga doir xarajatlar bilan bog’liq) investisiya maqsadlari uchun beriladigan ssudalar.

Faktoring – banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlarning korxonalar qarzlarini (etkazib berilgan va bajarilgan xizmatlarga haq to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini) o‘z zimmasiga olishidan iborat bo‘lgan moliyaviy-tijorat xizmat turi.

Foiz (Protsent/ rate) – hissa, ustama, qo‘shimcha foyda.

Fond birjasi– bu qimmatli qog’ozlar olib-sotiladigan savdo joyi.

Foyda– daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq.

Xalqaro kredit– bu xalqaro umumiqtisodiy sohada, bir mamlakat tomonidan boshqa mamlakatga vaqtinchalik foydalanishga beriladigan qarz.

Xususiy banklar– jismoniy shaxslarning pul mablag’lari hisobidan tashkil qilingan banklar.

Xalqaro lizing – ko‘pincha bu moliyaviy lizing (moliyaviy lizingni-*qarang*) bo‘lib, bunda bir tomonda chet el hamkori (sherigi) turadi.

Xususiy kapital – bu ustav kapitali, qo‘shilgan, zahira kapitali hamda taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

Chek – bankka berilgan farmoyishga ko‘ra shaxsning joriy hisobvaraqda ko‘rsatilgan summani berish to‘g’risidagi maxsus hujjat.

Shubhali kredit – substandart kreditiga xos bo‘lgan belgilarga ega. Qo‘shimcha xususiyati – qarzning yomon ta’minlanganligidir. Zarar ko‘rishi ehtimoli juda ham katta hisoblanadi.

Shaxsiy plastik kartochka – bu jismoniy shaxsga berilgan kartochkadir.

Shaxsiy hisobvaraq – bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun ochiladigan hisobvaraqdir. Barcha hisobvaraqlar O‘zbekiston Respublikasining Bank Depozitariylari Milliy Axborot Bazasida (BDMAB) ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

“TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARNI BOSHQARISH” FANIDAN TESTLAR

1.Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishga berilgan noto‘g’ri izohni ko‘rsating.

a. pul mablag’larini jalb qilish usullari bankning foyda darajasini pasaytirmasdan likvidlikni ta’minlashga qaratilgan usullar va tartiblar yig’indisi

b. bankning moliyaviy barqarorligi va majburiyatlarini bajarishning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy jarayon

c. pul mablag’larini jalb qilish va ularni joylashtirishni tartibga solish yo‘llari va usullari

d. aktivlarning foiz stavkalari va valyuta kurslarining tebranishlariga nisbatan moslaShuvchanligini ta’minlash

2. Kassali aktivlarning tarkibi necha turga bo‘linadi?

a. 4
b. 5
c. 6
d. 7

3. Qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalarning necha shakli mavjud?

a. 4
b. 5
c. 6
d. 8

4. Qimmatli qog’ozlarni emissiya qilish necha bosqichdan iborat?

a. 5
b. 6
c. 7
d. 9

5. Aktivlarni boshqarishda qo‘llaniladigan sekyuritizatsiyalash mexanizmi qachon va qaerda vujudga keldi?

a. yillarda AQSHda
b. 2.1995 yillarda Yaponiyada

c. 1992 yillarda Garbiy Evropada
d. yillarda Yaponiyada

6. Quyidagilardan qaysi biri tijorat banklari aktivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanmaydi?

a. Bankning risk darajasidan qat‟iy nazar aktivlar daromadliligini ta’minlash
b. Aktivlarning optimal tarkibini shakllantirish
c. Pul oqimlariga bo‘lgan barcha ehtiyojlarni qondirish imkonini beradigan darajada likvidlilikni saqlash
d. Aktivlarning foiz stavkalari va valyuta kurslarining tebranishlariga nisbatan moslaShuvchanligini ta’minlash

7. 1994 yilning iyul oyidan 2017 yilning sentyabr oyiga qadar bo‘lgan davrda so‘mning AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanish sur‟ati

a. 1157 marta
b. 1237 marta
a. 3000 marta
b. 2458 marta

8. Tijorat banklari passivlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari nechta?

a. 5 ta
b. 6 ta
c. 8 ta
d. 7 ta

9. Tijorat bankining depozit bazasi yetarli bo‘lishi uchun talab qilib olinadigan depozitlarning jami depozitlardagi salmog’i

a. 30 foizdan oshmasligi kerak
b. 35 foizdan oshmasligi kerak
c. 40 foizdan oshmasligi kerak
d. 50 foizdan oshmasligi kerak

10. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining joriy likvidligiga nisbatan o‘rnatilgan iqtisodiy me’yorning eng past darajasi

a. 30%

b. 50%
c. 40%
d. 70%

11. O‘zbekistonda bank aktivlar nechta mezon asosida tasniflanadi:

a. 5 ta
b. 9 ta
c. 7 ta
d. 6 ta

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga oid choratadbirlar to‘g’risida”gi qarori raqami va chiqqqan sanasini belgilang.

a. PQ3270-sonli, 2017 yil 12 sentyabr
b. PQ3272-sonli, 2017 yil 17 sentyabr
c. PQ3670-sonli, 2018 yil 12 sentyabr
d. PQ3672-sonli, 2018 yil 17 sentyabr

13. Kuka koeffitsienti nimaga teng?

a. Tijorat banklarining regulyativ kapitalni riskka tortilgan aktivlarga nisbati
b. Banklarning regulyativ kapitalni majburiyatlarga nisbati
c. Banklarning majburiyatlarni aktivlarga nisbati
d. Banklarning majburiyatlarni riskka tortilgan aktivlarga nisbati

14. 2017 yil 1 yanvar holatiga tijorat banklarining jami aktivlari miqdori qanchani tashkil etdi?

a. 88,2 trln. so‘m
b. 96,6 trln. so‘m
c. 100,2 rln. so‘m
d. 92,4 trln. so‘m

15. O‘zbekiston tijorat banklarining bitta mijozga beradigan ta’minlangan kreditining maksimal miqdorini ko‘rsating.

a. 25 %
b. 35 %
c. 30 %

d. 33 %

16. Bankning kredit siyosati – bu:

a. Bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniqlaydigan va aks ettiradigan hujjat

b. Tijorat bankning yo‘riqnomasi

c. Tijorat bankning resurslarni samarali boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalarni taminlovchi hujjat

d. Tijorat bank mijozini kreditlash bo‘yicha nizom

17. Kredit siyosatini qayta ko‘rib chiqish muddati qancha?

a. bir yilda bir marta
b. ikki yilda bir marta
c. har chorakda
d. bir yilda ikki marta

18. Bankning kredit siyosati kim tomonidan tasdiqlanadi?

a. bank kengashi
b. rahbariyat
c. kredit qo‘mitasi
d. aksiyadorlar

19. Bankning qisqa muddatli kreditlari mijoz tomonidan quyidagi maqsadda olinishi mumkin

a. Bankning oborot mablag’lari tashkil qilish
b. Soliqlarni to‘lash
c. Aktsiyalar bo‘yicha dividentlar to‘lash
d. Istalgan maqsadda

20. Kreditlar bo‘yicha yaratilgan ehtimoliy yo‘qotishlar zaxiralarining bank aktivlarining o‘rtacha qiymatiga nisbatan xalqaro qabul qilingan normative darajasini ko‘rsating?

a. 0,5%
b. 1,25%
c. 2,25 %
d. 4,50 %

21. Quyidagi funktsiyalardan qaysi biri kredit kategoriyasiga tegishli?

a. Qayta taqsimlash
b. Taqsimlash funksiyasi
c. Nazorat funksiyasi funksiyasi
d. Rag’batlantirish funksiyasi

22. Banklar tomonidan mijozlarga berilgan kreditlar risk darajasi qancha?

a. 100 foiz
b. 25 foiz
c. 50 foiz
d. 10 foiz

23. Eng riskli operatsiyalar bu:

a. bank mijozlarini kreditlash
b. Davlat qimmatli qog’ozlari bilan operatsiyalari
c. Aholidan jamg’arma olish
d. Vositachili koperatsiyalar

24. Markaziy bank tomonidan ikkilamchi bozorda qimmatli qog’ozlarni sotib olish operatsiyasi nima deb nomlanadi?

a. Ochiq bozor operatsiyasi
b. Kredit operatsiyasi
c. Depozit operatsiyasi
d. Trast operatsiyasi

25. Quyidagi makroiqtisodiy tadbirlarning qaysi biri eksportni ragbatlantirishga xizmat qiladi?

a. Devalvatsiya
b. Revalvatsiya
c. Valyuta intervensiyasi
d. Valyuta zahiralarini diversifikatsiya qilish

26. 2017 yil 1 oktyabrdan boshlab tijorat banklari ustav kapitali miqdori qanchadan bo‘lishi belgilangan:

a. 100 mlrd.so‘m
b. 10 mln.Evro
c. 50 mlrd.so‘m
d. 2 mlrd.so‘m

27. Ssuda mablag’laridan vaqtinchalik foydalanganlik uchun olinadigan to‘lov qanday ataladi?

a. Bank ssuda foizi
b. Spred
c. Senoraj
d. Marja

28. Strategik boshqaruv – bu:

a. bankning kelgusidagi muammolar va imkoniyatlarni prognozlash
b. resurs bazasini mustahkamlash
c. oylik istiqbol rejalari va prognozlari
d. kunlik prognoz

29. Aktivlar toifalariga ko‘ra qanday tasniflanadi?

a. yaxshi, standart, substandart, Shubhali, umidsiz
b. standart, shubhali, umidsiz
c. substandart, shubhali, umidsiz
d. standart, nostandart, yaxshi, yomon, umidsiz

30. Tijorat bankining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar

a. bankining foyda olishdan manfaatdorligi
b. tashkiliy
c. tashqi va ichki
d. kredit orning kredit riski darajasi

31. Pulning aylanish tezligini tavsiflovchi nisbatni ko‘rsating

a. yalpi ichki mahsulotning pul massasiga nisbati
b. pul massasining yalpi ichki mahsulotga nisbati
c. tovarlar summasining pul massasiga nisbati
d. muomaladagi pul miqdorining tovarlar summasiga nisbati

32. Tijorat banklarining kapitali qanday funktsiyalarni bajaradi?

a. tartibga solish, boshqarish, likdivlilik
b. himoya, operativ, foydalilik
c. himoya, operativ, tartibga solish, risklilikni boshqarish
d. himoya, operativ, tartibga solish

33. Respublikamiz tijorat banklari 2017 yil 1 yanvar holatiga umumiy kapitalining yetarlilik koeffitsientining minimal darajasini ko‘rsating

a. 10%
b. 14,5%
c. 11,5%
d. 12,5%

34. Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan tijorat banklari birinchi darajali kapitalining yetarlilik koeffitsientining minimal darajasini ko‘rsating

a. 4%
b. 5%
c. 6%
d. 8%

35. Tijorat banklarini qancha miqdorda imtiyozli aktsiya emissiya qilishi mumkin?

a. 20%
b. 25%
c. 50%
d. 28%

36. Markaziy bank quyidagilarni emissiya kilish huquqiga ega:

a. bank obligatsiyalari
b. aksiyalar
c. veksellar
d. faqat pul belgilari va veksellarni

37. 2017 yil 1 yanvar holatiga banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi qanchani tashkil etdi?

a. 28,7 trln. so‘m
b. 44,5 trln. so‘m
c. 35,1 trln. so‘m
d. 34,6 trln. so‘m

38. Bank risklarining tahlili nimadan boshlanadi?

a. uning sabablarini aniqlash
b. tijorat bank aktivlar summasini aniqlash

c. tijorat bankning likvidliligin ianiqlash
d. tijorat bank reytingini aniqlash

39. Kredit riski – bu ...

a. kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytmasligi natijasida bankning zarar ko‘rish xavfidir
b. bank kreditidan ko‘rilgan zarar
c. bank kreditini to‘liq qaytmasligi
d. bank kreditini o‘z vaqtida qisman qaytmasligi

40. Foiz riski bu – ...

a. bank foiz stavkalarining tebranishi natijasida tijorat bankining zarar ko‘rish xavfidir
b. tijorat bankining zarar ko‘rish xavfidir
c. tijorat banki foiz stavkalarining tebranishi natijasidagi xavfidir
d. tijorat banki foiz stavkalarining tebranishi natijasida kapital qiymatining
e. ma’lum qismini yo‘qotishidir

41. Operatsion risk – bu ...

a. bank xodimlarining noqonuniy hattiharakatlari va dasturiy ta’minotining buzilishi natijasida bankning zarar ko‘rish xavfidir
b. xodimlarining noqonuniy hattiharakatlari natijasida bankning zarar ko‘rish xavfidir
c. dasturiy ta’minotining buzilishi natijasida bankning zarar ko‘rish xavfidir
d. zarar ko‘rish xavfidir

42. Elektron pul bozori – bu ...

a. Nomoddiy ko‘rinishga ega bo‘lgan elektron pullar vositasida to‘lovlarni amalga oshirish uchun tashkil etilgan maxsus markazdir
b. Nomoddiy ko‘rinishga ega bo‘lgan elektron pullar majmuasi
c. Elektron pullar markazi
d. To‘lovlarni amalga oshirish uchun tashkil etilgan maxsus joy

43. Foiz stavkalarining asosiy turlari – bu ...

a. Hisob yuritish foiz stavkasi (qayta moliyalashtirish foiz stavkasi), oddiy va murakkab foiz stavkalari, fiksirlangan va suzib yuruvchi (o‘zgaruvchi) stavkalar

b. Hisob yuritish foiz stavkasi (qayta moliyalashtirish foiz stavkasi), suzib yuruvchi (o‘zgaruvchi) stavkalar.

c. Hisob yuritish foiz stavkasi (qayta moliyalashtirish foiz stavkasi), oddiy va murakkab foiz stavkalari. oddiy va murakkab foiz stavkalari,

d. fiksirlangan va suzib yuruvchi (o‘zgaruvchi) stavkalar.

44. Tijorat banklarining foydasi – bu ...

a. Tijorat banklarining daromadni xarajat bilan taqqoslash natijasida daromadning ortgan qismi ko‘rinishidagi bank faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi

b. Rentabellik va xarajat bilan taqqoslash natijasining yakuniy moliyaviy natijasi

c. Kapital va xarajat bilan taqqoslash natijasining yakuniy moliyaviy natijasi

d. Aktivlar va xarajat bilan taqqoslash natijasining yakuniy moliyaviy natijas

45. Tijorat bankining rentabelligi – bu ...

a. Bank sof foydasi bilan aniqlanadigan ko‘rsatkich bo‘lib, u sof foydaning xarajatga nisbati orqali aniqlanadi

b. Bir so‘mlik aktivga to‘g’ri keluvchi foydani anglatadi

c. Bir so‘mlik kapitalga to‘g’ri keluvchi foydani anglatadi

d. Bir so‘mlik daromad keltiruvchi aktivga to‘g’ri keluvchi foydani anglatadi

46. Aktsioner tijorat banklarining yuqori boshqaruv organi kimlar bo‘lib hisoblanadi?

a. Aktsiyadorlarning umumiy yig’ilishi

b. Tijorat banklarining bank kengashi

c. Tijorat banklarining boshqaruv a’zolari

d. Tijorat banklarining Boshqaruv raisi

47. Tijorat banklariga qaysi holatlarda «salbiy» reyting darajasi beriladi?

a. Bankning har yili zarari oshib borsa

b. Reyting darajasi pasayishi kuzatilsa

c. Reyting tizimida barcha komponent 3(qoniqarli) bahosini olgan bo‘lsa

d. Reyting shkalalari Vdan past bo‘lsa

48. Tijorat banklarida reyting o‘tkazishdan asosiy maqsad nima?

a. bank faoliyatiga tashqi baho berish
b. ishonchlilik darajasini aniqlashdir
c. o‘zaro solishtirish
d. xalqaro obro‘ga ega bo‘lish

49. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining asosi «Banklar va bank faoliyati to‘g’risida»gi qonun ilk bora qachon qabul qilingan?

a. 1991 yil 15 fevral
b. 1996 yil 25 mart
c. 1995 yil 21 dekabr
d. 1997 yil 25 aprel

50.Bank qimmatli qog’ozlarni keyinchalik sotib olish sharti bo‘yicha tuziladigan bitim

a. Aktsiya chiqarish
b. Obligatsiyalar chiqarish
c. Markaziy bank
d. Pul massasini tartibga solish

51. O‘zbekistonda pul-kredit siyosatini ishlab chiquvchi organ – bu:

a. Markaziy bank
b. Moliya vazirligi
c. Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi
d. Oliy Majlis

52. Aksioner tijorat bankning kapitali quyidagi manbalar hisobiga kengaytiriladi:

a. Bank o‘z foydasi hisobiga
b. Boshqa banklardan olingan kredit hisobiga
c. Jamg’armachilar mablag’larini jalb qilish
d. Aksiyalarni bozor bahosini o‘sishi hisobiga

53. Tijorat banki likvidligi bu:

a. Bankning o‘z majburiyatlarini vaqtida bajarishi
b. Mijozlar o‘rtasida hisob-kitoblarni o‘z vaqtida utkazish
c. Aktivlari foydaliligi
d. Barcha to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlari

54. Markaziy bank maqomi:

a. Qonun asosida harakat qiluvchi, mustaqil organ
b. aksionerlar umumiy yig’ilishi qarorlariga buysunuvchi aksioner jamiyati
c. mamlakat hukumatiga buysunuvchi tashkilot faqat
d. Oliy Majlisga buysinuvchi tashkilot

55. Daromad keltiradigan aktivlar

a. bank ssudalari va investitsiyalar
b. kassa, korschyot, asosiy vositalar
c. davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari
d. kreditlar, asosiy vositalar, investitsiyala

56. Daromad keltirmaydigan aktivlar

a. Bank kassasi, korschyot, asosiy vositalar
b. Davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari
c. Ssudalar va investitsiyalar
d. Kreditlar, asosiy vositalar, investitsiyalar

57. Baho masshtabi nima?

a. pulning oltin asosi
b. baho indeksi
c. pulni emissiyasidan olingan daromad
d. bank kapitalining jalb qilingan mablag’larga nisbati

58. Resurslarni transformatsiya qilish deganda nima tuShuniladi?

a. bank qisqa muddatli qarz mablag’larini doimiy ravishda jalb qilgan holda, ularni uzoq muddatli aktivlarga joylashtiradi strategiya.
b. resurslar qisqa muddatli bozorda sotiladi uzoq muddatli aktivlarni joylashtiradi
c. uzoq muddatli qarz mablag’larini doimiy ravishda jalb qilgan holda,

d. ularni qisqa muddatli aktivlarga joylashtiradi strategiya.

59. Foiz marjasi – bu…

a. Resurslar va kreditlar o‘rtasidagi farq daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq

b. foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlar o‘rtasidagi farq

c. daromad keltiradigan aktivlardan olingan foizli daromadlar bilan bank majburiyatlari bo‘yicha foizli

d. xarajatlar o‘rtasidagi farq

60. Disbalans nima?

a. bank foiz stavkalarining o‘zgarishiga tasirchan bo‘lgan aktivlar bilan foiz stavkalarining o‘zgarishiga tasirchan bo‘lgan passivlar o‘rtasidagi farq

b. aktivlar va passivlar o‘rtasidagi farq

c. daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi farq

d. daromadlarining o‘zgarishi

61. Risklarni boshqarish imkon beradi:

a. bankning reytingini ko‘tarish,

b. iqtisodiy barqarorligini oshirish barqarorligni pasaytirish

c. to‘lovga qobilligini aniqlash

d. likvidliligini aniqlash

62. Likvidlilik riski – bu..

a. bankning kreditorlar oldidagi majburiyatlarini qoplay olmasligi

b. tijorat bankning omonatchilar oldidagi majburiyatlarini qoplay olmaslig

c. tijorat bankning markaziy bank oldidagi majburiyatlarini qopla yolmasligi

d. tijorat bankning o‘z majburiyatlarini bajarishlari uchun pulma blag’larining etishmasligi

63. Kreditlashning qaysi shaklida kredit uchun foiz uskunalar qabul qilib olingandan so‘ng amalga oshiriladi?

a. lizing

b. factoring

c. forfeiting

d. kontokorrent

64. Aktiv va passivlar bo‘yicha majburiyatlarni boshqarish printsiplariga nima kiradi?

a. bank barcha resurslarni bir toifadagi mijozlarga va kam sonli mijozlarga yo‘naltirmaslik

b. qisqa muddatli omonatlarni quyilma sifatida ishlatmaslik

c. barcha resurslarni kam sonli mijozlarga yo‘naltirish

d. uzoq muddatli kreditlarni ko‘proq berish

65. Har qanday bankni faoliyat ko‘rsatishining muhim sharti ….

a. bankning o‘z va jalb qilingan kapitalini boshqarish

b. tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda uning moliyaviy barqarorligini baholash

c. depozit siyosati

d. foiz siyosati

66. Tijorat bankining barqarorligiga tasir etuvchi omillar

a. bankning tashqi va ichki omili

b. foyda olishdan manfaatdorlik omili

c. tashkiliy omili

d. kreditorning kredit riski darajasi

67. Ma’muriy xodimlarning ish haqi xarajatlarning qaysi turiga kiradi?

a. operatsion

b. foizsiz

c. foizli

d. ulushli xarajatlar

68. Tijorat banklarining aktivlari likvidlilik darajasiga ko‘ra quyidagicha tarkiblanadi:

a. bankning kassali aktivlari, qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalar, kreditlar va asosiy vositalar 2-kassali aktivlar, tijorat qimmatli qog’ozlari va kreditlar

b. kassali aktivlar, tijorat qimmatli qog’ozlari va asosiy vositalar

c. kassali aktivlar, qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalar va kreditlar

d. bank barcha resurslarni bir toifadagi mijozlarga va kam sonli mijozlarga yo‘naltirmaslik

69. Mamlakatimizda qaysi turdagi qimmatli qog’ozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqori likvidli aktivlar qatoriga kiritib bo‘lmaydi?

a. Bankning Tijorat qimmatli qog’ozlari;
b. Boshqa depozit sertifikatlari;
c. Hukumatning qimmatli qog’ozlari;
d. Mahalliy Federal fondlar

70. Tijorat banklari likvidli aktivlarining miqdori ...

a. joriy depozitlar va jamg’arma depozitlariga nisbatan belgilanadi
b. bank depozitlarning nobarqaror qismiga nisbatan belgilanadi
c. bank o‘rta muddatli depozitlarga nisbatan belgilanadi
d. bank uzoq muddatli depozitlarga nisbatan belgilanadi

71. Rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotida depozitlarning barqaror qismi jami depozitlarning

a. 75 % miqdorida shakllanadi
b. 78 % miqdorida shakllanadi
c. 80 % miqdorida shakllanadi
d. 82 % miqdorida shakllanadi

72. Tijorat banklarining qimmatli qog’ozlar bozoridagi ishtiroki to‘g’risidagi noto‘g’ri izohni toping.

a. Vositachi sifatida ishtirok etmaydi
b. Banklar investor sifatida ishtirok etadi
c. Banklar vositachi sifatida ishtirok etadi
d. Banklar emitent sifatida ishtirok etadi

73. Banklarning noemission qimmatli qog’ozlarga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

a. boshqa banklardan olingan kreditlar
b. banklarning opsionlari
c. tijorat banklar depozit sertifikatlari
d. tijorat banklar jamg’arma sertifikatlari

74. Ikkinchi darajali kapital tarkibiga kirmaydi:

a. nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar
b. bank qayta baholash zaxirasining foizi
c. bankning joriy yilning sof foydasi

d. bankning aralash turdagi majburiyatlarning idarajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmaydigan qismi

75. Tijorat banklarining likvidliligini ta’minlash prinsipi keltirilgan javobni toping.

a. Bankining aktivlari va passivlarining optimal tarkibini shakllantirish prinsipi
b. Depozitlarning yetarliligini ta’minlash prinsipi
c. Kapitalning yetarliligini ta’minlash prinsipi
d. Transformatsiya prinsipi

76. Kelgusida bozor riski va foizlarining o‘zgarish ehtimolini aniqlash va undan himoyalanish maqsadida muddatli sug’urta kontraktlarni tuzish tizimi bu ...

a. Xedjirlash
b. Bankning gep tahlil usuli
c. Bankning sekyurizatsiya usuli
d. Bankning fond usul

77. Aktivlarni boshqarishni takomillashtirish bilan bog’liq bo‘lgan respublikamiz tijorat banklariga xos bo‘lmagan javobni belgilang.

a. tijorat banklarining aktivlari tarkibida salmog’iga ko‘ra ikkinchi o‘rinni qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalari egallaydi
b. banklar aktivlarining umumiy hajmida daromad keltirmaydigan aktivlarning salmog’i nisbatan yuqori
c. banklarning muddati o‘tgan kreditlar miqdori katta
d. banklarda milliy valyutaning qadrsizlanish sur‘ati yuqori

78. Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari passivlarining umumiy hajmida salmog’iga ko‘ra birinchi o‘rinni

a. depozitlar egallaydi
b. bankning qimmatli qog’ozlarini sotishdan olingan pul mablag’lari egallaydi
c. bankning regulyativ kapital egallaydi
d. bank mijozlariga berilgan kreditlar egallaydi

79. Banklarda likvidlikni boshqarishga ta’sir etuvchi ichki omillar qaysi javobda noto‘g’ri keltirilgan?

a. banklararo va qimmatli qog’ozlar bozorining rivojlanganlik darajasi

b. aktivlarining sifati (kredit portfeli tarkibida riskli aktivlar va ularga hisoblangan to‘lovlarni o‘z vaqtida qaytarilishi)

c. jalb qilingan mablag’larning sifati (uzoq muddatli moliyaviy resurslar ulushining yuqoriligi)

d. jalb qilingan mablag’lar va riskli aktivlar o‘rtasida o‘zaro muvozanatning ta’minlanishi

80. O‘zbekiston tijorat banklarining bitta mijozga beradigan ta’minlanmagan kreditining maksimal miqdorini ko‘rsating.

a. 5 %
b. 7 %
c. 15 %
d. 25 %

81. Bank resurslarining depozitsiz manbalari – bu:

a. Banklararo kreditlar va markaziy bankdan olingan kreditlar
b. Aholi omonatlari
c. Mijozlarning hisob raqamidagi mablag’lar
d. Emission daromad

82. Bank kapitalini oshirishning tashqi manbasi bo‘lib hisoblanadi.

a. markaziy bank krediti
b. tashqi investitsiyalar
c. oddiy va imtiyozli aktsiyalar emissiyasi
d. noemission qimmatli qog’ozlar

83. Kredit siyosatining strategiyasi yo‘naltirilishi kerak…

a. bank kredit portfeli akreditlardan olinadigan daromadlarning salmog’ini oshirishga

b. kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini har tomonlama kreditli qo‘llabquvvatlashga

c. tijorat bank kredit portfelida muammoli kreditlarning salmog’ini qisqartirishga

d. tijorat bank kredit portfelida qisqa muddatli kreditlarning salmog’ini oshirishga

84. Xalqaro tijorat kreditining ob‟yektini ko‘rsating

a. bankning valyuta mablag’lari
b. tovarlar
c. qimmatli qog’ozlar
d. ko‘chmas mulk ob‟yektlari

85. Kredit ob‟yektlari nima?

a. Pul mablag’lari va tovarlar
b. Tovarlar va hisobkitoblardagi mablag’lar
c. Tovarlar, ishlab chiqarish xarajatlari va hisobkitoblardagi mablag’lar
d. Tovar ishlab chiqarish va fondlar

86. Quyidagi aktivlarning qaysi biri Markaziy bank balansining passiv qismida aks etadi:

a. bankning emissiya qilingan naqd pullari
b. oltin
c. xalqaro valyuta fondidagi rezerv pozitsiya
d. hukumatga berilgan kreditlar

87. Tasniflangan kreditlarning qaysi biriga nisbatan foiz ehtimoliy yo‘qotishlarga zahira shakllantirilishi lozim?

a. bank shubhali kreditlariga bankning
b. umidsiz kreditlariga
c. bankning standart kreditlariga
d. bankning substandart kreditlariga

88. Kontokorrent raqamidagi kredit qoldig’i bildiradi:

a. qarzdorning o‘z mablag’lari mavjudligini
b. qarzdorning bank ssudasi bo‘yicha qarzini
c. qarzdor korxona – xaridorning o‘z tovar yetkazib beruvchisiga tovar va xizmatlar bo‘yicha qarzini
d. Kontokorrent raqamidagi kredit qoldig’iga ruxsat berilmayd

89. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bu:

a. Tijorat banklari o‘z aktsiyalarini chiqarish
b. Boshqa kompaniya qimmatli qog’ozlarini sotib olish
c. Jamg’armachilarga foiz to‘lash
d. Qimmatli qog’ozlarga divident to‘lash

90. Bankning moliyaviy barqarorligi – bu:

a. bozor konyunkturasining o‘zgarishiga moliyaviy bog’liq bo‘lmaslik, siyosatni amalga oshirishda moliyaviy mustaqillik

b. bank operatsiyalarni doimiy kengaytirib borish

c. bank resurslardan oqilona foydalanish

d. bank kreditlarning qaytarilishini taminlash

91. Moliyaviy barqarorlik ifoda etadi....

a. tijorat bankining iqtisodiy barqarorligini tegishli moliyaviy ko‘rsatkichlarda ifodalanishini

b. bank faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlashni

c. bank resurslarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishni

d. bankning barcha operatsiyalarini bajarishni taminlashni

92. Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi…

a. Jalb qilingan qarz mablag’larining etarliligi

b. Tijorat bankining o‘z kapitalining etarliligi

c. Tijorat bankining kredit quyilmalarining etarliligi

d. Tijorat bankining resurslarning depozitsiz manbalarining etarliligi

93. Bank kapitalini boshqarish ob‟yektlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

a. kapital tarkibi, kapitalning o‘sish darajasi, kapital risklilik darajasi

b. bank kapitalning hajmi, bank rentabilligi, birinchi darajali kapital o‘sishi

c. bank kapitalning mutloq miqdori, kapital tarkibi, birinchi va ikkinchi darajali kapital o‘rtasidagi nisbat

d. bank kapitali tarkibi, birinchi va ikkinchi darajali kapital o‘rtasidagi nisbat

94. Bank kapitalini oshirishning ichki manbasi bo‘lib hisoblanadi.

a. bank zaxira fondlari va foydasi

b. tijorat bank ustav kapitali

c. tijorat bank emission daromadi

d. tijorat bank riskli aktivlar miqdori

95. Kapitalning yetarlilik darajasi qanday aniqlanadi?

a. bankning umumiy kapitalning brutto kreditlarga nisbati orqali
b. umumiy kapitalning riskli aktivlariga nisbati orqali
c. birinchi darajali kapitalning umumiy kapitalga nisbati orqali
d. birinchi darajali kapitalning kreditlarga nisbati orqali

96. O‘zbekistonda Bazel-2 talablarini qabul qilishda qanday muammolar mavjud.

a. Tijorat banklari kapitali yetarli emasligi
b. Me’yoriy xujjatlarni qabul qilinmaganligi
c. Xalqaro kreditlarni jalb qilishda xukumatning qarshiligi
d. Mijozlarningkredittarixinimavjudemasligi

97. Bazel standartlariga ko‘ra 3-darajali kapital tarkibi keltirilgan javobni aniqlang.

a. Tijorat bankning uzoq muddatli subordinar qarzlari
b. Bankning qisqa muddatli subordinar qarzlari
c. Bankning emission daromadi
d. Bankning qo‘shilgan kapitali

98. Bankning emission daromadi nimani bildiradi

a. Bank aktsiyaning nominal qiymatidan oshgan qismi
b. Aktsiyaning bozor bahosi
c. Taqsimlanmagan foydani bir qismi
d. Aktsiyadan olingan daromad

99. Qaysi hisobraqam saldosi debetli va kreditli bo‘lishi mumkin?

a. kontokorrent
b. overdraft
c. konsortsial kredit
d. ipoteka krediti

100. O‘zbekiston Markaziy bankining tijorat banklarining so‘mdagi depozitlariga nisbatan belgilagan majburiy zahira stavkasini ko‘rsating?

a. 15%

b. 25%
c. 18%
d. 30%

101. Tijorat bankiga berilgan subordinar kredit…

a. bankning 5 yildan kam bo‘lmagan qatiy belgilangan muddatli qarz majburiyati bo‘lib, kreditor tomonidan faqat muddati tugagandan keyin talab qilinishi mumkin
b. qaytarib olinmaslik sharti bilan berilgan mablag’
c. qisqa muddatli davrga berilgan pul kapitalidir
d. muddatli qarz majburiyati bo‘lib, bankning zararlarini qoplashga to‘liq
e. shlatilishi mumkin

102. Foiz riskini baholash usullari – bu ...

a. GEP usuli, dyuratsiya usuli, imitatsion modellashtirish usuli, statistik tahlil usullaridan iboratdir
b. dyuratsiya va GEP usulilaridan iboratdir
c. dyuratsiya usuli, statistik tahlil usullaridan iboratdir
d. imitatsion modellashtirish usuli, GEP usuli, statistik tahlil usullaridan iboratdir

103. Kredit risklarini baholashning asosiy o‘lchovlari – bu ...

a. Reputatsiya, imkoniyatlar, kapital, shartsharoitlar, garovdir
b. kapital, garov, reputatsiyadir
c. kapital, imkoniyatlar, shartsharoitlardir
d. kapital, reputatsiya, imkoniyatlardir

104. Moliya bozorining segmentlari – bu ...

a. ssuda kapitallari, valyuta, qimmatli qog’ozlar, sug’urta va lizing bozorlaridir
b. valyuta, sug’urta va lizing bozorlaridir
c. valyuta, qimmatli qog’ozlar, sug’urta va lizing bozorlaridi
d. valyuta, ssuda kapitallari, va lizing bozorlaridir

105. Moliya bozori instrumentlarini boshqarish usullari – bu ...

a. diskontlash, orttirish, pullarning kelajakdagi bahosini aniqlash, daromadlilikning joriy va to‘liq normasini ta’minlash usullaridir
b. orttirish va diskontlash usullaridir

c. orttirish diskontlash, pullarning kelajakdagi bahosini aniqlash, daromadlilikning joriy va to‘liq normasini ta’minlash usullaridir

d. orttirish, diskontlash, daromadlilikning joriy va to‘liq normasini ta’minlash usullaridir

106. Elektron pullarning turlari – bu ...

a. virtual kartalar, raqamli pullar, mobil pullar, markazlashmagan virtual valyuta (bitkoin)

b. raqamli pullar va mobil pullar

c. raqamli pullar va virtual kartalar

d. raqamli pullar, virtual kartalar va mobil pullar

107. Mobil pullarning turlari – bu ...

a. mobil to‘lovlar, mobil banking, mobil o‘tkazmalar

b. mobil to‘lovlar, mobil o‘tkazmalar

c. mobil banking, mobil o‘tkazmalar

d. mobil to‘lovlar, mobil banking

108. Elektron cho‘ntakni to‘ldirish va ulardan pul echish usullari – bu ...

a. tijorat banklarida naqd pul bilan, bank kartalari yordamida(viza, master kartalar, Uzkart, Xumo kart), pochta orqali, internetbanking yordamida,

b. pul o‘tkazmalari tizimlari yordamida, mobil aloqa yordamida. pochta orqali, internetbanking yordamida, pul o‘tkazmalari tizimlari yordamida. naqd pul bilan, bank kartalari yordamida

c. viza, master kartalar, Uzkart, Xumo kart), mobil aloqa yordamida.

d. naqd pul bilan, pochta orqali, pul o‘tkazmalari tizimlari yordamida, mobil aloqa yordamida.

109. Nominal foiz stavkasi – bu ...

a. bankning e’lon qilingan foiz stavkasi.

b. suzib yuruvchi foiz stavkasi

c. hisob yuritish foiz stavkasi

d. oddiy foiz stavkasi

110. Real foiz stavkasi – bu ...

a. banklarda nominal foiz stavkasini pulning qadrsizlanish darajasiga muvofiqlashtirilgan foiz stavkasi

b. suzib yuruvchi foiz stavkasi

c. hisob yuritish foiz stavkasi

d. murakkab foiz stavkasi

111. Libor stavkasi – bu ...

a. Banklar bo‘yicha o‘rta arifmetik miqdor sifatida hisob qilingan banklararo foiz stavkasi

b. Hisoblangan foiz marjasi

c. Hisoblangan nominal foiz stavkasi

d. Hisoblangan real foiz stavkas

112. Bankning operatsion daromadlari – bu ...

a. Bankning foizli daromadlar, komission daromadlar, moliyaviy bozordagi operatsiyalardan daromadlar, boshqa operatsion daromadlar

b. Foizli daromadlar, boshqa operatsion daromadlar

c. Foizli daromadlar, moliyaviy bozordagi operatsiyalardan daromadlar, boshqa operatsion daromadlar

d. Komission daromadlar, moliyaviy bozordagi operatsiyalardan daromadlar, boshqa operatsion daromadlar

113. Tijorat banklarining yalpi daromadlari tarkibi quyidagilardan iborat:

a. Bankning operatsion daromadlar, bankning qo‘shimcha faoliyatidan daromadlar, boshqa daromadlar

b. Operatsion daromadlar, foizli daromadlar, boshqa daromadlar

c. Operatsion daromadlar, moliyaviy daromadlar, komission daromadlar

d. foizli daromadlar, komission daromadlar, boshqa operatsion daromadlar

114. Bank xarajatlari tarkibi quyidagilardan iborat:

a. foizli xarajatlar, foizsiz xarajatlar, operatsion xarajatlar

b. Bankning operatsion xarajatlar, foizli xarajatlar, komission xarajatlar

c. Bankning foizli xarajatlar, moliya bozoridagi operatsiyalar bo‘yicha xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar

d. Bankning komission xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar, operatsion Xarajatlar

115. Tijorat banklarining operatsion xarajatlari – bu ...

a. Tijorat banklarining foizli xarajatlar, komission xarajatlar,

b. moliya bozoridagi operatsiyalar bo‘yicha xarajatlar,

c. boshqa operatsion xarajatlar foizli xarajatlar, komission xarajatlar,

d. boshqa operatsion xarajatlar komission xarajatlar, moliya bozoridagi operatsiyalar bo‘yicha xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar moliya bozoridagi operatsiyalar bo‘yicha xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar, foizli xarajatlar

116. Valyuta operatsiyasi bo‘yicha daromad turlari keltirilgan qatorni toping

1.Bankning chet el valyutasida bo‘lgan operatsiyalar bo‘yicha daromadlar, forvard, fyuchers, svop, opsion operatsiyalarini o‘tkazishdan daromadlar

2.Tijorat banklarining chet el valyutasida bo‘lgan operatsiyalar bo‘yicha daromadlar, forvard, fyuchers operatsiyalarini o‘tkazishdan daromadlar

3.Tijorat banklarining chet el valyutasida bo‘lgan forvard, svop, opsion operatsiyalarini o‘tkazishdan daromadlar

4.Tijorat banklarining chet el valyutasida bo‘lgan operatsiyalar bo‘yicha daromadlar, forvard, fyuchers, opsion operatsiyalarini o‘tkazishdan daromadlar

117. Bankning foydalilik darajasini ta’minlovchi ko‘rsatkichlar keltirilgan qatorni toping

1.Foyda va aktivlar o‘rtasidagi nisbat; soliq to‘lagunga qadar foyda va aktivlar nisbati; foyda va xususiy kapital nisbati; bitta xodimga to‘g’ri keladigan foyda

2.Bankning foyda va aktivlar o‘rtasidagi nisbat; soliq to‘lagunga qadar foyda va aktivlar nisbati

3.Bankning foyda va aktivlar o‘rtasidagi nisbat; soliq to‘lagunga qadar foyda va aktivlar nisbati; bitta xodimga to‘g’ri keladigan foyda

4.Bankning soliq to‘lagunga qadar foyda va aktivlar nisbati; foyda va xususiy kapital nisbati; bitta xodimga to‘g’ri keladigan foyda

118. Tijorat banklari foydasi quyidagi manbalardan iborat:

1.operatsiya foydasi, qo‘shimcha faoliyatdan olingan foyda, boshqa foyda

2.Operatsiya foydasi, qo‘shimcha faoliyatdan olingan foyda

3.Qo‘shimcha faoliyatdan olingan foyda

4.Operatsiya foydasi, boshqa foyda

119. Tijorat banklarining operatsion foydasi tarkibi quyidagilardan iborat:

1.Foizli foyda, komissiyali foyda, boshqa operatsiyalar foydasi

2.Tijorat banklarining foizli foydasi, komissiyali foydasi

3.Tijorat banklarining komissiyali foydasi, boshqa operatsiyalar foydasi

4.Tijorat banklarining foizli foydasi, boshqa operatsiyalar foydasi

120. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitalining yetarlilik darajasi:

1.Tijorat banklarida Xalqaro Bazel standarti talabi darajasidan uch marta yuqori

2.Xalqaro Bazel standarti talabi darajasida

3.Xalqaro Bazel standarti talabi darajasidan ikki marta yuqori

4.Xalqaro Bazel standarti talabidan past darajada

121. Tijorat vekselini uchinchi shaxsga uzatgan sub‟yekt kim deb ataladi?

1.Indossant

2.indossament

3.indossat

4.benefitsiar

122. To‘lov topshiriqnomasiga xos bo‘lgan kamchilikni ko‘rsating

1.Bank To‘lov kafolatlanmagan

2.Pul mablag’lari xo‘jalik aylanmasidan chiqib qoladi

3.Tovarning sifatini nazorat qilishning iloji yo‘q

4.Oladigan komission stavka yuqori

123. Trast operatsiyalari – bu: (ishonch operatsiyalari).

1.Bank Xo‘jalik sub‟ektlari pul mablag’larini boshqarish

2.Lizing operatsiyalari
3.Faktoring operatsiyalari
4.Qimmatli qog’ozlar bilan operatsiyalar

124. Pul-kredit siyosati instrumentlari bo‘lib hisoblanadi:
1.Minimal zahira siyosati
2.daromad solig’i stavkasi (foyda)
3.byudjetli moliyalashtirish siyosati
4.valyuta intervensiyasi

125. Aksiyadorlik tijorat banklarida Boshqaruv organlarini sanab bering?
a. Bank aksiyadorlarining umumiy yig’ilishi
b. Bank kengashi
c. bank Boshqaruvi Kengash
d. Boshqaruv raisi va o‘rinbosarlari Boshqaruv raisi, rais o‘rinbosarlari bo‘lim boshliqlari Kengash, Boshqaruv raisi, Aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi

126. Tijorat banklari likvidliligini boshqarishning qanday usullari bor?
a. Likvidlilik me’yorlarini boshqarish usuli
b. Markaziy bank talablarini bajarish usuli
c. Bank aktivlarini boshqarish hamda passivlar tarkibi va hajmini tartibga solish usullari
d. Bank aktivlarini boshqarish usuli

127. Tijorat banklari likvidliligini boshqarish quyidagi darajalarda amalga oshiriladi:
a. Tijorat banklarini iqtisodiy normativlari darajasida
b. Markazlashgan va markazlashmagan darajalarda
c. Qonun va qonunosti hujjatlari asosida
d. Markazlashgan darajada

128. O‘zgaruvchan foiz stavkali ipoteka kreditida foiz stavkasiing o‘zgarish riski kimning zimmasiga yuklanadi?
1.Bankning
2.Agentlikning
3.Mijozning

4.Qurilish kompaniyasining

129. Transformatsiya riski qachon yuzaga keladi?

1.bank aktiv va passivlarning muddatlari o‘rtasidag inomuvofiqlik tufayli yuzaga keladi

2.aktiv va passivlarning baholari o‘rtasidagi nomuvofiqlik tufayli yuzaga keladi

3.daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik tufayli

4.daromadlarning kamayishi natijasida yuzaga keladi

130. Kredit riskining tashqi omili:

1.bankdan kredit olganning moliyaviy holatini yomonlashishi

2.xodimlarning aybi

3.kreditlar bo‘yicha daromadlarni olish darajasi

4.xodimlarning suistemolligi

131. Foiz riskining tashqi omili bo‘lib hisoblanmaydi:

1.Markaziy bank normativlarini o‘zgarish omili

2.iqtisodiy, siyosiy, psixologik omil

3.inflyatsiyaviy o‘zgarish omili

4.iqtisodiy omi

132. Foiz riski qanday omillarga bo‘linadi?

1.ichki va tashqi omillarga

2.iqtisodiy va siyosiy omillarga

3.aktiv va passiv omillarga

4.iqtisodiy va huquqiy omillarga

133. Mijoz bankdan dastlabki kredit olishida bank unga qaysi shaklda kredit ajratadi?

1.Overdraft

2.lizing

3.kontokorrent ssuda hisobraqamdan

4.bir marotabalik

134. Bankning ishonchliligi – bu:

1.bankning o‘ziga olgan majburiyatlarini bajara olish imkoniyati

2.foydalilikni taminlash

3.aktivlarning rentabelligini

4.taminlash kredit operatsiyalarining foydaliligini taminlash

135. Bank daromadlarini quyidagi shakllari mavjud:

1.Foizli, komission va boshqa daromad shakllari

2.foizli va foizsiz daromad shakllari

3.doimiy va o‘zgaruvchan daromad shakllari

4.komission va boshqa daromad shakllari

136. Imtiyozli kreditlash fondi mablag’lari qanday shakllantiriladi?

1.bank foydasining 20% dan kam bo‘lmagan miqdorida daromadining

2.25%ga qadar miqdorida

3.foydaning 25%ga qadar miqdorida

4.taqsimlanmagan foydasining 10% dan kam bo‘lmagan miqdorda

137. Bank xarajatlarining asosiy elementlari:

1.bank resurslarini shakllantirish va faoliyatini taminlash bo‘yicha xarajatlar

2.kreditlar bo‘yicha xarajatlar

3.marja

4.dividendlar

138. Kredit portfeli – bu:

1. berilgan kreditlarning, Shu jumladan muddati o‘tgan kreditlarning majmui

2.bankning qimmatli qog’ozlar majmui

3.bankning depozitlar majmui

4.bankning barcha berilgan qisqa muddatli kreditlar majmui

139. Bank kreditning qanday turlari mavjud?

1.Bank, tijorat, iste’mol, ipoteka, davlat, xalqaro kreditlar

2.Davlat, korxona, markazlashgan kreditlar

3.Tijorat, soliq, iste’mol kreditlar

4.Xalqaro, ipoteka, tovarli, tijorat kreditlar

140. Bank kreditining sub‟yektlari kimlar?

1.Pul egasi, bank va karz oluvchi

2.Banklar,

3.Davlat tashkilotlari
4.Banklar banklari va mijozlar

141. Flout nima?
1.Inkassatsiya jarayonidagi pul mablag’lari
2.yozilgan xali puli to‘lanmagan cheklar
3.bankning pul oqimi
4.«nostro» vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag’lari

142. Tijorat banklari passiv operatsiyalari bu:
1.Mablag’lar jalb qilish
2.Bankning va mahaliy organlarning qimmatli qog’ozlarini sotib olish
3.Bank sertifikatlarini chiqarish va sotish
4.Bank o‘z qimmatli qog’ozlari bo‘yicha foiz tulash

143. Bank balansida bank passivlari qaysi xususiyatiga ko‘ra joylashtiriladi?
1.muddatiga ko‘ra
2.Daromad keltirishiga ko‘ra
3.Riskliligiga ko‘ra
4.Likvidliligiga ko‘ra

144. Kapitalning yetarlilik darajasi qanday aniqlanadi?
1.bank umumiy kapitalning riskli aktivlariga nisbati orqali
2.umumiy kapitalning brutto kreditlarga nisbati orqali
3.birinchi darajali kapitalning umumiy kapitalga nisbati orqali
4.birinchi darajali kapitalning riskli aktivlariga nisbati orqali

145. Tijorat banklariga qaysi holatlarda «barqaror» reyting darajasi beriladi?
1.Bankning har yili sof foydasi mavjud bo‘lsa
2.Reyting darajasi o‘zgarmas bo‘lsa
3.Reyting tizimida barcha komponent 1(kuchli) bahosini olgan bo‘lsa
4.Reyting shkalalari VV dan yuqori bo‘lsa

146. Reyting xizmatlarini ko‘rsatish printsipi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi?

1.adolatlilik
2.To‘lovlilik
3.Ma’lumotlarni sir saqlash
4.Reyting natijalarini chop etish

147. Tijorat banklari qaysi faoliyat turlari bilan Shug’ullanishi ma’n etiladi?

1.ishlab chiqarish, savdo va sug’urta
2.Biznes faoliyati
3.Birjadagi savdolar
4.Cheklanmagan

148. Monometallizm pul tizimi qanday pullar muomalasiga asoslanadi?

1.oltin tangalar muomalasiga
2.Oltin va kumush tangalar muomalasiga
3.Kumush tangalar muomalasiga
4.Oltinga almashinmaydigan qog’oz pullar muomalasiga

149. Pulning miqdoriylik nazariyasini asoschisi kim?

1.J. Boden
2.T.Men
3.J.Keyns
4.M.Fridmen

150. Giperinflyatsiyada baholarning oylik o‘sish sur’ati kamida:

1.50 foizni tashkil etadi
2.60 foizni tashkil etadi
3.82 foizni tashkil etadi
4.100 foizni tashkil etadi

151. M.Fridmen qaysi ko‘rsatkichdan monetar indikator sifatida foydalanishni taklif etdi?

1.pul massasining o‘sish ko‘rsatkichi
2.Foiz stavkasi
3.Milliy valyutaning nominal almaShuv kursi
4.Inflyatsiyaning maqsadli ko‘rsatkichi

152. Quyida sanalgan operatsiyalarining qaysi biri aktiv operatsiya hisoblanadi:

1.Boshqa emitentlarining qimmatli qog’ozlarini olish va sotish
2.Bank qimmatli qog’ozlari emissiyasi
3.Bank qimmatli qog’ozlari bo‘yicha dividendlarni to‘lash
4.Bank Tulovlarni amalga oshirish

153. Metall pullar nazariyasining asoschisi kim?

1.N. Orezme
2.U.Stefford
3.T.Men
4.Dj.Berkli

154. Qaysi pul nazariyasida pulning tovar xususiyati inkor etiladi?

1.pulning nominallik nazariyasi
2.Metall pullar nazariyasi
3.Pulning miqdoriylik nazariyasi
4.Monetarizm nazariyasi

155. Tijorat banki ustav kapitali tashkil qilinadi:

1.o‘z aksiyalari emissiyasi hisobiga
2.Markaziy bank krediti hisobiga
3.Banklararo kredit bozoridan olingan mablag’ hisobiga
4.Jalb qilingan mablag’lar hisobiga

156. 2017 yil 1 yanvar holatiga banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi qanchani tashkil etdi?

1.28,7 trln. so‘m
2.54,5 trln. so‘m
3.35,1 trln. so‘m
4.44,6 trln. so‘m

157. Tijorat banklari faoliyatidagi likvidlilik va kredit riski kuchayishiga olib keladi:

1.banklarning transaksion depozitlardan resurs sifatida foydalanish
2.muddatli depozitlardan resurs sifatida foydalanish
3.jamg’arma depozitlardan resurs sifatida foydalanish
4.regulyativ kapitaldan resurs sifatida foydalanish

158. Quyidagilardan qaysi biri noto‘g’ri?

1.Bankning aksiyalari tartib raqami va chiqarilgan vaqtiga qarab turli xil nominal qiymatga ega bo‘lishi mumkin.

2.Barcha aksiyalari tartib raqami va chiqarilgan vaqtidan qat‟iy nazar bir xil nominal qiymatga ega bo‘lishi shart.

3.Muomalaga chiqarilgan aksiyalar to‘liq sotib bo‘linmagunga qadar yangi aksiyalarni muomalaga chiqarishga ruxsat etilmaydi.

4.Aksiyalar tartib raqami va chiqarilgan vaqtiga qarab turli xil nominal qiymatga ega bo‘lishi mumkin emas

159. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish usuli noto‘g’ri keltirilgan javobni toping.

1.Bankning Depozit usuli

2.Tijorat bankning muddatlar bo‘yicha taqsimlash usuli

3.Tijorat banklarining geptahlil usuli

4.Tijorat banklarini xedjirlash usuli

160. TBAPBning dastlabki rivojlanish bosqichida keng qo‘llanilgan usulni belgilang.

1.Tijorat bankning Fond usuli

2.Bankning muddatlar bo‘yicha taqsimlash usuli

3.Bankning geptahlili usuli

4.Bankning xedjirlash usuli

161.Riskli aktiv va muddatsiz depozit o‘rtasida muddatlari bo‘yicha vujudga kelgan nomuvozanatlik qaysi usul yordamida boshqariladi?

1. Geptahlil usuli

2.Bankning xedjirlash yordamida

3.Bankning muddatlar bo‘yicha taqsimlash usuli yordamida

4.Bankning fond usuli yordamida

162. Teskari REPO ga xos bo‘lgan javobni belgilang.

1.Markaziy bank tomonidan qimmatli qog’ozlarni tijorat banklariga qaytarib sotib olish sharti bilan sotish

2.Bank tomonidan qimmatli qog’ozlarni tijorat banklaridan qaytarib sotish sharti bilan sotib olish

3.Bankda teskari REPO bitimlari tijorat banklarining likvidliligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi

4.Bank tomonidan qimmatli qog’ozlarni tijorat banklariga qaytarib sotish

163. Respublikamiz tijorat banklarining passivlarini boshqarishni takomillashtirish bilan bog’liq bo‘lgan muammolar qaysi javobda noto‘g’ri keltirilgan?

1.Banklarda qisqa muddatli resurslarning yetishmasligi

2.Tijorat banklarining resurs bazasining yetarli emasligi

3.Tijorat banklarining qimmatli qog’ozlar bilan amalga oshiriladigan emission operatsiyalarining rivojlanmaganligi

4.Tijorat banklari kapitalining tarkibida devalvatsiya zaxirasi va imtiyozli kreditlash fondining mablag’lari kabi nobarqaror moliyalashtirish manbalarining mavjudligi

164. Banklarning joriy likvidliligini baholashning AQSH amaliyoti qaysi javobda to‘g’ri keltirilgan?

1.JLK= BZ: D. BU YERDA :JLK –joriy likvidlilik koeffitsienti, BZ - birlamchi zaxiralar, D – depozitlar, min: 0,10 yoki 10%

2.JLK= (BZ + IZ): D. Bu erda:.JLK – joriy likvidlilik koeffitsienti, BZ - birlamchi zaxiralar, IZ - ikkilamchi zaxiralar, D – depozitlar, min: 0,30 yoki 30%

3.JLK = (LA + YA30kQA): (JD + YA30kTM). Bu erda:LA – likvidli aktivlarYA30kQA- yaqin 30 kun ichida qaytariladigan aktivlar, JD – joriy depozitlar, YA30kTM – yaqin 30 kun ichida to‘lanadigan majburiyatlar, min:1,0yoki100%.

4.JLK= (BZ + IZ): JD. Bu erda:JLK – joriy likvidlilik koeffitsienti, BZ - birlamchi zaxiralar, IZ - ikkilamchi zaxiralar, JD – joriy depozitlar, min: 0,20 yoki 20%

165. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining likvidliligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillar qaysi javobda noto‘g’ri keltirilgan?

1.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozor operatsiyalari yuqori darajada rivojlangan

2.Tijorat banklarida transformatsiya riskining chuqurlashib ketgan

3.Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik miqdorining katta

4.Tijorat banklarida Respublika Markaziy bankining diskont va lombard kreditlari mavjud emas

166. Bank likvidligini boshqarishning asosiy elementlari noto‘g’ri keltirilgan javobni belgilang.

1.Bank Uzoq muddatli likvidlik bashoratini amalga oshirish

2.Lahzalik, joriy va uzoq muddatli likvidlikni ta’minlash va holatini tahlil qilib borish

3.mahalliy va xorijiy moliya bozorlaridagi holatni o‘rganish, bank omonotchilari va qarzdorlarining moliyaviy holatlarini doimiy tahlil etib borish

4.likvidlik mablag’lari ortiqchaligi/taqchilligini aniqlash

167. Qayta moliyalash kreditlari, bu:

1.Markaziy bank tomonidan tijorat banklari vakillik hisobvaraqlari likvidligini ta’minlash va respublika hukumat qarorlariga muvofiq aniq maqsadlar uchun, ya’ni xalq xo‘jalik ustuvor tarmoqlarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlar

2.tijorat banklari resurslari hisobidan mijozlarning investitsion loyihalarini moliyalashtirish maqsadida beriladigan kreditlar

3.xo‘jalik sub'yektlariga beriladigan barcha qisqa va uzoq muddatli kreditlar

4.Markaziy bank tomonidan belgilangan kreditlarning foiz stavkasi

168. Agar kredit stavkasi oshsa u holda muomaladagi pul massasi:

1. kamayadi

2.pul massasi kupayadi

3.pul massasi o‘zgarmaydi

4.Kreditning pul massasiga ta’siri yo‘q

169. Kreditlashning qaysi shaklida Tovar hujjatlari regress huquqi bilan sotib olinadi?

1.faktoring

2.lizingda

3.forfeytingda

4.kontokorrent shaklida

170. Quyidagi prinsiplardan qaysi biri naqdsiz pul oborotini tashkil qilishga tegishli?

1.Bank to‘lovlarini aniq belgilangan hisob-kitob shakllarida amalga oshiriladi

2.Barcha korxonalar o‘zlarining pul mablag’larini banklarda saqlashlari shart

3.To‘lovlar ma’lum ketmaketlikda amalga oshiriladi

4.To‘lovlarni amalga oshirilishi ustidan qat‟iy nazorat o‘rnatiladi

171. Tijorat banki kapital bazasining barqarorligi nimaga tayanadi?

1.tijorat bankiga jalb qilingan kapitalni ko‘paytirishga

2.o‘z kapitali miqdoriga

3.resurslar miqdoriga

4.foydaning miqdoriga

172. Qimmatli qog’ozlar bozori Markaziy bank uchun quyidagi instrument bulib xizmat qiladi:

1.Bankning muomaladagi pul massasini tartibga solish

2.Markaziy bank eksportimport operatsiyalari bo‘yicha chet el valyutasi kirim balansini kullabkuvatlash

3.Markaziy bank daromadini kupaytirishni

4.Qimmatli qog’ozlarini tartibga solish

173. Bank resurslarini samarali boshqarish maqsadida qaysi depozitlar bank uchun barqaror resurs hisoblanadi?

1.Bank muddatli depozitlari

2.Talab qilib olinguncha depozitlar

3.Jamg’arma depozitlari

4.Qisqa muddatli depozitla

174. Tijorat banklarining depozit sertifikatlari qaysi pul agregatining tarkibiga kiradi?

1.M 3

2.M0

3.M1

4.M2

175. Pul multiplikatori qaysi formula orqali hisoblanadi?

1.M 2 / Pul bazasi
2.YAIM / M2
3.M2 / YAIM
4.Pul bazasi / M2

176. Sof foizli marja – bu
1.Foizli daromad – foizli xarajat
2.Soliqqa tortilgandan keyingi sof foyda / Aktsiyadorlik kapitali
3.Foizli daromad – foizli xarajat / Daromad keltiruvchi aktivlar
4.Daromad keltiruvchi aktivlar

177. Depozitlar bo‘yicha foiz riski qachon yuzaga keladi?
1.kreditlar bozorida noqulay vaziyat yuzaga kelganda
2.bank depozitlar bozorida noqulay vaziyat yuzaga kelganda
3.bank tomonidan jalb qilinayotgan resurslar qimmatlashganda
4.bankning xarajatlari ko‘payganda

178. Tijorat banklari foiz siyosatining asosiy jihatlari – bu ...
1.Tijorat banklari foiz siyosatining asosiy maqsadi va vazifalari, foiz riskini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan holatlar, foiz riskini boshqarish usullari, foiz stavkalarini o‘stirmaslik maqomini belgilash tartibi.
2.Foiz siyosatining asosiy maqsadi va vazifalari, foiz riskini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan holatlar.
3.Foiz riskini boshqarish usullari, foiz stavkalarini o‘stirmaslik maqomini belgilash tartibi.
4.Foiz siyosatining asosiy maqsadi va vazifalari, foiz riskini boshqarish usullari.

179. Foiz riskini xedjirlash moliyaviy instrumentlari – bu ...
1.Foizli opsionlar, foizli fyucherslar, foizli svaplar
2.Foizli opsionlar, foizli fyucherslar.
3.Foizli fyucherslar, foizli svaplar.
4.Foizli opsionlar, foizli svaplar.

180. Qaysi holatda bankning yirik bitimlarini tuzishda bank Kengashi tomonidan ma’qullanishi majburiy hisoblanadi?
1.Bank birinchi darajali kapitalining 50 foizi miqdoridagi bitimlarda

2.Kapitalining 15 foizi va undan yuqori miqdordagi bitimlarda
3.Eng kam ish haqining 2000 barobari miqdoridagi bitimlarda
4.Bunday majburiy talab o‘rnatilmagan

181. Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish maqsadida:

1.Bankning korporativ boshqaruv tuzilmasiga bank risklari nazoratini amalga oshiruvchi tegishli qo‘mitani majburiy ravishda kiritish
2.Tijorat Bankning korporativ boshqaruv tuzilmasiga bank ichki nazorat bo‘limini kiritish
3.Tijorat Bankning korporativ boshqaruv tuzilmasiga bank ichki audit bo‘limini majburiy ravishda kritish
4.Tijorat Bankning korporativ boshqaruv tuzilmasiga bankning barcha bo‘limlarini majburiy ravishda kiritish

182. Moliyaviy nobarqaror va iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini tiklash uchun:

1.Banklar balansiga berilgan bankrot korxonalar bazasida tiklangan korxonalarni potentsial investorlarga sotish
2.Balansiga berilgan bankrot korxonalar uchun keng miqdorda bank kreditlarini jalb qilish
3.Iqtisodiy nochor korxonalar uchun potnetsial xomiylarni jalb qilish
4.Hamma javoblar to‘g’ri

183. Quyidagi Markaziy banklarning qaysi biri inflyatsiyaning maqsadli ko‘rsatkichidan monetar siyosatning indikatori sifatida foydalanadi?

1.Yevropa Markaziy Banki
2.AQSH Federal zaxira tizimi
3.Yaponiya Markaziy banki
4.O‘zbekiston Markaziy banki

184. Pulning nominallik nazariyasida pulning qaysi funksiyasi asosiy hisoblanadi?

1.To‘lov vositasi funksiyasi
2.pulning qiymat o‘lchovi funksiyasi
3.pulning jamg’arma vositasi funksiyasi

4.pulning jahon puli funksiyasi

185. Bank foydasi quyidagilarga bog’liq:

1. Bankning ssudalar bo‘yicha foiz stavkasi darajasi
2.Aksiyalari bo‘yicha tulaydigan dividend darajasi
3.Foyda olish normasi
4.Soliq stavkasiga

186. Tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini jilovlash quyidagi pul-kredit instrumentlaridan qaysi biriga xos?

1.Majburiy zahira siyosati
2.qayta moliyalash siyosati
3.ochiq bozor siyosati
4.valyuta siyosati

187. Ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarga xos bo‘lgan kamchilikni ko‘rsating

1.Bank komission to‘lov stavkasi juda yuqori
2.to‘lov kafolatlanmagan
3.tovarning sifatini nazorat qilib bo‘lmaydi
4.pul mablag’lari xo‘jalik oborotidan chiqib qoladi

188. Transformatsiya riskini kamaytirish uchun…

1.bank aktivlar va passivlarning optimal tarkibini taminlash
2.kreditlarning optimal tarkibini shakllantirish
3.aktivlar zaxirasiga ega bo‘lish
4.foydaga ega bo‘lish

189. Bank foydaliligini boshqarishning maqsadi nima?

1.bankning risk darajasi mavjud sharoitda foydani oshirish va balans likvidliligini ta’minlash
2.foydani maksimal darajaga etkazish va xarajatlarni kamaytirish
3.o‘tgan yillar taqsimlanmagan foydani mumkin darajada oshirish
4.foiz marjasini imkonqadar oshirishga erishish

190. Spred yoki foiz farqi:

1.Foizli daromad – Foizli xarajat / Daromad keltiruvchi aktivlar
2.passivlar bo‘yicha foizli xarajatlarni chegirgandan so‘ng qoladigan daromad keltiruvchi aktivlarning foizli daromadi;

3.foizli daromad – foizli xarajat
4.Daromad keltiruvchi aktivla

191. Kredit portfelining strategiyasini ishlab chiqishda Bank nimani hisobga olishi kerak?

1.tijorat bank kreditning turi, kredit mahsulotlari va kredit portfelining to‘planishini aniqlash
2.taminot turi
3.qimmatli qog’ozlar portfelida risklarning omillari va darajasi
4. kreditni berish va qaytarish davri

192. Tasniflangan kreditlarning qaysi biriga nisbatan 50 foiz ehtimoliy yo‘qotishlarga zaxira shakllantirilishi lozim?

1.Shubhali kreditlar
2.umidsiz kreditlar
3. kreditlar
4.substandart kreditlar

193. Tijorat banklarida bank Kengashlari rolini oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish maqsadida:

1.Bank kengashi tarkibiga minoritar aktsiyadorlar manfatlarini ifoda etuvchi a’zolarni kiritish
2.Tijorat bank kengashi tarkibiga respublika davlat apparati rahbar xodimlarini kiritish
3.Tijorat banklari faoliyatiga tashqi aralaShuvni cheklash
4.Tijorat bank kengashi va banklarda korporativ boshqaruvga oid me’yoriy hujjatlarni o‘zgartirish va yangilash

194. Ta’minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivga xos bo‘lgan kamchilikni ko‘rsating

1.Pul mablag’lari xo‘jalik aylanmasidan chiqib qoladi
2.Bank to‘lov kafolatlanmagan
3.Bank tovarning sifatini nazorat qilishning iloji yo‘q
4.Bank oladigan komission stavka yuqori

195. XVF ekspertlarining tavsiyasiga ko‘ra, monetizatsiya koeffitsiyentining minimal darajasi qancha bo‘lishi kerak?

1.30 %
2.58,8 %

3.40 %
4.60 %

196. J.M. Keyns monetar siyosat indikatori sifatida qaysi ko‘rsatkichni tanladi?

1.nominal foiz stavkasi
2.Pul massasining o‘sish ko‘rsatkichi
3.Milliy valyutaning nominal almaShuv kursi
4.Inflyatsiyaning maqsadli ko‘rsatkichi

197. Quyidadi ma’lumotlardan qaysi biri to‘g’ri?

1.Bazel standartining talablariga ko‘ra, devalvatsiya zaxirasini tijorat banklarining kapitali tarkibiga kiritish mumkin
2.Bazel standartining talablariga ko‘ra, devalvatsiya zaxirasini tijorat banklarining kapitali tarkibiga kiritish mumkin emas .
3.Respublikamiz tijorat banklarida devalvatsiya zaxirasi birinchi darajali kapital tarkibiga kiritilgan
4.birinchi darajali kapital faqat barqaror moliyalashtirish manbalaridan tashkil topgan bo‘lishi kera

198. Bank likvidliligini boshqarishning asosiy elementlari noto‘g’ri keltirilgan javobni belgilang.

1.Uzoq muddatli likvidlik bashoratini amalga oshirish.
2.Lahzalik, joriy va uzoq muddatli likvidlikni ta’minlash va holatini tahlil qilib boorish.
3.Mahalliy v ava xorijiy moliya bozorlaridagi holatni o‘rganish, bank omonatchilari va qarzdorlarining moliyaviy holatlarini doimiy tahlil qilib borish
4..Bank likvidlik mablag’lari ortiqchaligi/taqchilligini aniqlash

199. Tijorat banklarining likvidliligini ta’minlash prinsipi keltirilgan javobni toping.

1.Bankining aktivlari va passivlarining optimal tarkibini shakllantirish prinsipi
2.Depozitlarning yetarliligini ta’minlash prinsipi
3.Kapitalning yetarliligini ta’minlash prinsipi
4.Transformatsiya prinsipi

200. Kelgusida bozor riski va foizlarining o‘zgarish ehtimolini aniqlash va undan himoyalanish maqsadida muddatli sug’urta kontraktlarni tuzish tizimi bu ...

1. Xedjirlash
2.Bankning gep tahlil usuli
3.Bankning sekyurizatsiya usuli
4.Bankning fond usuli

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” - T.: 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g’risida»gi Qonuni. Yangi tahriri ostida 2019-yil 5-noyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g’risida»gi Qonuni. Yangi tahriri ostida 2019-yil 11-noyabr.
4. "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g’risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi PF- 4947-sonli Farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-3270-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3272-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabr PF-5877 farmoni (Inflyasion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g’risida)
10. 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g’risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992- sonli Farmoni.

Asosiy adabiyotlar

11. Alimardonov M.,. Shomurodov R.T., Majidov J.K. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish. Darslik.-T.: “Nihol print” OK, 2021. - 216 b.

12. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “SamDU nashriyoti”, 2020. – 271 bet.

13. Omonov A.A. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish.-Monografiya.- T.: “IQTISOD-MOLIYa”.-2016.-160 b.

14. Abdullaeva SH.Z. Bank ishi. T.: «Iqtisod-Moliya « nashriyoti, 2019. – 768 b.

15. Omonov A.A., Xolmatov F.K. “Bank ishi” (O‘quv qo‘llanma)-T/ “Nihol print” OK, 2021 y.-228 b.

16. Boboqulov T.I., Abdullayv U.A., Isakov J.Y. “Monetar siyosat” Darslik- “Iqtisod Moliya”, 2019. 274.b

17. Банкоский менеджмент. Под редакцией проф. .И.Лаврушина. Учебник. - M.KNORUS, 2016. - 414 с.

~~18.~~ Синки Ж.. Финансовый менежмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Перевод с анл. - М.: Alpina Pablisher, 2017. - 1018 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

19. Z.D.Niyozov, A.M.Karimova, D.M.Malikova. “Pul va banklar” fanidan amaliy mashg’ulotlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanma. I-qism. - Samarqand: SamISI, 2022. - 116 b.

20. Z.D.Niyozov, D.M.Malikova, A.M.Karimova. “Pul va banklar” fanidan amaliy mashg’ulotlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanma. II-qism. - Samarqand: SamISI, 2022. - 54 b.

21. Z.D.Niyozov A.Bektemirov, Sh.K.Boboyev, A.M.Karimova, D.M.Malikova “PUL VA BANKLAR” o‘quv qo‘llanma Samarqand, 2019. 219 b.

22. М.Б.Муминова Тижорат банклари актив операцияарини бошкариш стратегиясини такомиллаштириш Монография -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021,130 бет.

23. Bank, pul, kredit jurnali №11 2019 yil str 37 Azizov Ulug’bek Kapital bozor: iqtisodiy o‘sishni taminotchi drayver.

24. Каримова А.М. Деньги и кредит. Учебник / Самаркандский институт экономики и сервиса – Самарканд.: Издательство ООО «STAR-SEL», 2024 – 415 стр.

25. З.Д.Ниязов. Пул и кредит. Дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: «STAR-SEL»МЧЖ нашриёти 2024 – 400 бет.

26. З.Д.Ниязов., А.М. Каримова. Банк этикаси. Ўқув қўлланма. – Самарқанд.: “Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти” нашриёти 2024 – 250 бет.
27. З.Д.Гайбуллаев.,А.М. Каримова. Банк фаолияти статистикаси. Ўқув қўлланма. – Самарқанд.: “Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти” нашриёти 2023 – 132 бет.
28. Каримова А.М. Совершенствование кредитной поддержки инновационного развития сферқ туризма. Монография /– Каримова А. Самарканд.: Издательство «СамГИИЯ», 2022 – 180 стр.
29. А. Бектимиров., З.Д.Ниязов., Д.М. Маликова., А.М. Каримова. Study guide for «Money and Banks». Ўқув қўлланма. – Самарқанд.: “СамДУ” нашриёти 2020 – 184 бет.
30. А.М.Каримова, Ф.М.Турсунов. Тижорат банкларида масофавий банк хизматларини ривожлантириш истиқболлари. Монография /– Самарқанд.: «STAR-SEL»МЧЖ нашриёти 2023 – 98 бет.

Internet saytlari:

31. www.cbu.uz –O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
32. www.imf.org – Xalqaro valyuta fondi
33. www.world.com – Jahon banki guruhi
34. www.bis.org–Xalqaro hisob-kitoblar banki
35. www.ecb.eu – Evropa Markaziy banki
36. www.bank.uz – O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari portal.

KARIMOVA A.M., NIYOZOV Z.D.

TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARINI BOSHQARISH

DARSLIK

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

Darslik Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti O`quv uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan, 2024-yil 4-noyabrdagi 4-sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2024

ISBN: 978-9910-702-59-4

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 04.11. 2024 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand 2024 y.

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 22.5
Buyurtma № 0166A/24. Adadi 100 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.